

SCIENCE AND EDUCATION NEWS

International scientific, methodical and popular journal

2026
issue 5

https://t.me/saen_2024

saen_2024@mail.ru

www.saen.uz

Google Scholar
ResearchGate
Crossref
WORLD of JOURNALS

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

xalqaro ilmiy-metodik jurnali

2026-yil, 5-son
Jurnal 2024-yildan chiqa boshlagan

Toshkent – 2026

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Bosh muharrir:
Shoumarov G'ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), akademik

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qodirov Umarali Do'stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib:
Muqimov Alisher

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: https://t.me/saen_2024

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694

TAHRIR HAY'ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A'zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A'zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo'lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To'xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o'g'li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To'xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
Yusupov Ahmadbek Tadjiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G'ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik

Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

MUNDARIJA

Qodirov U.D. Konsagvin nikohning ijtimoiy-psixologik sabablari va oqibatlari…… 8
Sagindikova N. O‘quv faoliyati va talabalar gender xususiyatlari…….. 16
Сулетбаева Э.С. Основные факторы подготовки молодёжи к семейной жизни и пути их совершенствования..... 22
Siddiqov Z.X., Dehqonova Z.M. Matematika fanini o‘qitishda zamonaviy dasturiy vositalar va sun’iy intellektlardan foydalanish…….. 29
Тұрарова А.Н. Студенттердің өзіндік жұмысын ұйымдастыруда case-studi әдісін қолдану…… 37
Salomov A.A. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar orqali ta’lim tizimining rivojlanishi va bu yo‘ldagi muammolar…… 44
Mamatxanova N.T. Bo‘lajak o‘qituvchilarni internet-risk profilaktikasiga tayyorlashning dolzarbligi…….. 52
Мирзаева Ш.Р. Трансформация жизненного сценария личности на этапе обучения в медицинском вузе: трансактно аналитический подход…… 61
Usmonova M.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarning milliy xarakter xususiyatlarini xalq pedagogikasi vositasida rivojlantirish samaradorligi..... 69
Allanazarova Sh., Abatbayeva H. Maqbul nikoh yoshi: tajriba, mas’uliyat va oilaviy barqarorlik …… 75
Qarshiyev J.M. Sun’iy intellekt vositalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi: pedagogik va texnik jihatlar tahlili…… 81
Obloqulov J.J. Internet addiksiyasiga ega o‘smirlarda shaxslararo munosabatlar buzilishi 88
Сандул А.М. Эмоциональный интеллект и психологическая устойчивость преподавателя рки как фактор успешности межкультурного общения в Узбекистане 97
G‘aniyev A.A. Hofsted madaniy o‘lchovlari prizmasida o‘zbek mentaliteti: nazariy va tahliliy tadqiqot…….. 104
Oribboyeva D.D. O‘quvchilar o‘rtasida bulling holatlarining psixologik-pedagogik oqibatlari..... 112
Mamatov D.X. Texnologiya darslarida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish yo‘llari…… 118
Bayturayev A.F. Surxondaryoda zamonaviy turar-joylar va aholi massivlarining barpo etilishi…… 123
Өтениязова Г. Экологиялық кризис шәраятында журналистлердиң кәсиплик шахсын трансформациялаў мәселеси…… 128
To‘rayeva S.S. Ta’lim tizimida sog‘lom avlodni shakllantirish masalalari…….. 134
Eshchanova G. Teaching english with texts…… 139
Boyxurozov X.A. Ommaviy boshqaruv tizimida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish instituti: nazariy yondashuvlar va O‘zbekistonning tarixiy tajribasi…… 146
Tleumuratova A.J. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida “Jamila” spektaklining ssenografik talqini…… 157
Qosimov A.Z. Operatsiya oldi psixologik intervensiyalarning bemorlar reabilitatsiyasiga ta’siri…….. 163
Nigmatullayeva M.I. Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt asosida bilish mustaqilligini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari……... 171
Qarshiyev J.M. Intellektual tizimlar yordamida tinglovchilarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodikasini takomillashtirish…… 179
Raxmonjonov X.A. Muhandislik grafikasi fanlarini zamonaviy grafik dasturlar bilan qiyoslash metodikasining ilmiy asoslari…… 186
Ibragimova Sh.G., Ahmadjonova G.F. O‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi shakllanishining psixologik xususiyatlari…….. 193

Teshaboyeva Sh.E. Umumta'lim maktablarida "davlat va huquq asoslari" fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning metodik asoslari…… 200
Salimova M.S. Imkoniyati cheklangan shaxslardagi motivatsion soha diagnostikasi……. 208
Shamuratov X.Sh. 18–30 yoshdagi shaxslarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning diqqat jarayoniga ta'siri……. 217
Sayfullayeva M., Abdusalomova Ch. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqat yetishmasligi va giperaktivlikning psixologik xususiyatlari……. 224
Sirojiddinov I.R. Pedagogik mehnat va pedagogik muloqotning ijtimoiy ahamiyati…… 229
Allambergenova G.X. Informatika ta'limida o'quvchilarda axborot-analitik kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shartlari……. 236
Botirova S.B. Salomatlik haqida tushuncha va umumiy muammolari……. 242
Jo'rayev D.E. Xalqaro munosabatlar tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichlari va global siyosiy jarayonlar…… 250
Muqimov A. O'zbek hikoyachiligida psixologik tasvir va inson ruhiyati talqini (Shukur Xolmirzayev hikoyalari misolida)……. 257

UDK: 316.34:616.12:37

Qodirov Umarali Do'stqobilovich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
"Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari" kafedrasi mudiri,
psixologiya fanlari doktori, professor

KONSAGVIN NIKOHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARI VA OQIBATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarning ijtimoiy, psixologik va tibbiy jihatlari kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda bunday nikohlarning shakllanish sabablari sifatida an'analar, iqtisodiy manfaatlar, ijtimoiy muhit, ishonch va emosional yaqinlik kabi omillar yoritilgan. Shu bilan birga, konsagvin nikohlarning genetik xavflari, irsiy kasalliklar ehtimoli, shuningdek, oilaviy munosabatlar va shaxs psixologik holatiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Maqolada ushbu nikoh turining ijobiy va salbiy ijtimoiy-psixologik oqibatlari tahlil qilinib, ularni kamaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar, jumladan genetik maslahat, psixologik yordam va aholi o'rtasida ma'rifiy ishlar olib borish zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: konsagvin nikoh, endogamiya, ijtimoiy adaptasiya, psixologik xavfsizlik, oilaviy nizolar, genetika, urf-odatlar, qadriyatlar.

КОНСАГВИННЫЕ БРАКИ: СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация. В данной статье комплексно проанализированы социальные, психологические и медицинские аспекты браков между близкими родственниками. В исследовании в качестве факторов формирования таких браков рассматриваются традиции, экономические интересы, социальная среда, доверие и эмоциональная близость. Наряду с этим изучены генетические риски консагвинных браков, вероятность наследственных заболеваний, а также их влияние на семейные отношения и психологическое состояние личности. В статье проанализированы положительные и отрицательные социально-психологические последствия данного вида брака и обоснована необходимость практических рекомендаций по их снижению, включая генетическое консультирование, психологическую помощь и проведение просветительской работы среди населения.

Ключевые слова: консагвинный брак, эндогамия, социальная адаптация, психологическая безопасность, семейные конфликты, генетика, традиции, ценности.

CONSANGUINEOUS MARRIAGES: SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CAUSES AND CONSEQUENCES

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the social, psychological, and medical aspects of marriages between close relatives. The study identifies traditions, economic interests, social environment, trust, and emotional closeness as key factors influencing the formation of such marriages. It also examines the genetic risks associated with consanguineous marriages, the likelihood of hereditary diseases, and their impact on family relationships and individual psychological well-being. The article analyzes both the positive and negative socio-psychological consequences of this type of marriage and substantiates the need for practical recommendations to reduce adverse outcomes, including genetic counseling, psychological support, and public awareness initiatives.

Keywords: consanguineous marriage, endogamy, social adaptation, psychological safety, family conflicts, genetics, traditions, values.

Yaqin qarindoshlik nikohi — bu genetik jihatdan o‘zaro yaqin bo‘lgan shaxslar o‘rtasida tuziladigan nikoh shakli bo‘lib, u insonlar o‘rtasidagi qon-qarindoshlik darajasiga asoslanadi. Bunday nikohlar odatda bir avlod doirasida yoki yaqin avlodlar o‘rtasida kuzatiladi va jamiyatlarda turli madaniy, an'anaviy hamda ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanadi. Ilmiy adabiyotlarda yaqin qarindoshlik nikohi “konsagvin nikoh” tushunchasi bilan ham ifodalanadi va u genetik o‘xshashlik darajasining yuqoriligi bilan xarakterlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda konsagvin, ya’ni yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar turli sohalardan ko‘rib chiqilgan. Jamiyatshunoslik va sosiologiya jihatidan, bunday nikohlar an'ana va urf-odatlar bilan chambarchas bog‘liq ekani qayd etiladi [3]. Ularda oilaviy boylikni saqlash, urug‘-qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash va ijtimoiy tartibni ta’minlash asosiy motivlar sifatida ko‘rsatilgan. Sharqiy va qishloq jamiyatlarda bunday nikohlar ko‘p hollarda ijtimoiy moslashuv, ishonch va yaqinlik hissini kuchaytirish vositasi sifatida qaraladi [4].

Psixologik nuqtai nazardan, konsagvin nikohlar oilaviy bosim, tanishlik va emosional yaqinlik kabi omillar ta’sirida shakllanishi mumkinligi ta’kidlanadi [6]. Bunday nikohlarda shaxslar ichki xavfsizlik va psixoemosional barqarorlikni yuqori darajada his qiladi, chunki ular o‘z muhiti va qarindoshlari bilan yaxshi tanish. Shu bilan birga, ijtimoiy bosim va katta avlodning tavsiyalari psixologik jihatdan shaxsning mustaqil qaror qabul qilishini cheklashga olib kelishi mumkinligi ham qayd qilingan.

Tibbiy va genetik adabiyotlarda konsagvin nikohlardan tug‘ilgan bolalarda resessiv genlar ortishi va tug‘ma nuqsonlar xavfi yuqori ekani ko‘rsatilgan [3]. Masalan, tug‘ma genetik kasalliklar, aqliy rivojlanishda ortda qolish, immunitet zaifligi va ba’zi tug‘ilish asoratlari jihatidan bunday nikohlarning xavfi sezilarli. Shu bois, zamonaviy tadqiqotlarda genetik maslahat, skrining tekshiruvlari va profilaktik choralar muhim profilaktika vositasi sifatida ta’kidlanadi [7].

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda konsagvin nikohlar ijobiy oqibatlari ham qayd qilingan. U oilaviy birlikni mustahkamlaydi, moddiy resurslarni saqlashga yordam beradi va ijtimoiy nazorat mexanizmlarini osonlashtiradi. Ammo bu ijobiy

jihatlar bilan bir qatorda salbiy ijtimoiy-psixologik va tibbiy xavflar ham mavjudligini ta'kidlaydi [9].

Milliy tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, O'zbekiston aholisida genetik mutasiyalar va irsiy kasalliklarga moyillik yuqori darajada aniqlangan. Masalan, mamlakatda o'tkazilgan genom tadqiqotlarida har ikkinchi bolada irsiy mutasiyalar (patologik genlarning tashuvchisi) aniqlanib, bu xalqaro o'rtacha ko'rsatkichdan taxminan ikki barobar yuqori ekani ma'lum qilingan [11].

Umuman, konsagvin nikohlar borasidagi adabiyotlar turli sohalarda — sosiologiya, psixologiya, tibbiyot va genetikada — keng tadqiq qilingan. Ular an'ana va madaniy qadriyatlar bilan bog'liq ijtimoiy sabablar, emosional yaqinlik va ishonch kabi psixologik omillar hamda genetik va tibbiy xavflarning kompleks ta'siri bilan xarakterlanadi [1;2].

Yaqin qarindoshlik nikohlari turlarga ajratilganda, avvalo qarindoshlik darajasiga qarab farqlanadi. Eng ko'p uchraydigan turlaridan biri — birinchi darajali qarindoshlar o'rtasidagi nikoh bo'lib, bunda aka-uka, opa-singil kabi yaqin qon qarindoshlar nazarda tutiladi, ammo bu tur aksariyat jamiyatlarda qonunan taqiqlangan. Ikkinchi darajali qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar esa amakivachcha, xolavachcha, tog'avachcha kabi qarindoshlar o'rtasida tuziladi va ko'plab an'anaviy jamiyatlarda keng tarqalgan hisoblanadi. Shuningdek, uchinchi darajali qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar ham mavjud bo'lib, ularda qarindoshlik aloqasi nisbatan uzoqroq bo'ladi, masalan, ikkinchi avlod va undan keyingi qarindoshlar.

Yaqin qarindoshlik nikohlari turlarini yana genealogik va ijtimoiy jihatdan ham tasniflash mumkin. Genealogik nuqtai nazardan ular parallel va kross-qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarga bo'linadi. Parallel qarindoshlar deganda, bir jinsli aka-uka yoki opa-singil farzandlari o'rtasidagi nikoh tushunilsa, kross-qarindoshlarda esa turli jinsli qarindoshlar farzandlari o'rtasidagi nikoh nazarda tutiladi. Ijtimoiy jihatdan esa bunday nikohlar an'anaviy (urf-odatlarga asoslangan), iqtisodiy manfaatlar bilan bog'liq yoki oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

Konsagvin nikoh jamiyatning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy tuzilishi va tarixiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning turlari ham aynan shu omillar ta'sirida shakllanib, turli xalq va hududlarda turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarning ijtimoiy sabablari jamiyatning tarixiy rivojlanishi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy tuzilishi bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Ko'plab an'anaviy jamiyatlarda bunday nikohlar avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odat va an'analar ta'sirida saqlanib qolgan bo'lib, oilaviy barqarorlik va qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash vositasi sifatida qaraladi. Ayniqsa, oila va urug'-qarindoshlik munosabatlari markaziy o'rin tutadigan muhitlarda yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar ijtimoiy jihatdan ma'qul va hatto afzal deb baholanishi mumkin.

Bunday nikohlarning yana bir muhim ijtimoiy sababi iqtisodiy manfaatlar bilan bog'liqdir. Oilaviy mulkni, yer-suvni yoki boshqa moddiy boyliklarni begona oilalarga chiqib ketmasligini ta'minlash maqsadida qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzish afzal ko'riladi. Bu holat, ayniqsa, qishloq joylarda va an'anaviy iqtisodiy

munosabatlar ustun bo‘lgan hududlarda ko‘proq uchraydi. Shu bilan birga, bunday nikohlar oilaviy resurslarni bir doirada saqlash va o‘zaro yordam tizimini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy muhit va jamoatchilik fikri ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Kichik jamoalarda yoki yopiq ijtimoiy guruhlarda odamlar ko‘proq bir-birini yaxshi taniydi, ishonch darajasi yuqori bo‘ladi va tashqi muhitdan keladigan xavf-xatarlardan himoyalanish maqsadida “o‘z oramizdan” nikoh tuzishga intilish kuchli bo‘ladi. Bu holat ijtimoiy nazorat mexanizmini ham osonlashtiradi, chunki kelin-kuyovning kelib chiqishi, xulq-atvori va oilasi haqida ma’lumotlar oldindan ma’lum bo‘ladi.

Shuningdek, ta’lim darajasi va axborotga yetish imkoniyati ham bunday nikohlarning tarqalishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim darajasi past yoki ilmiy ma’lumotlar yetarlicha tarqalmagan jamiyatlarda yaqin qarindoshlik nikohlarining ehtimoliy salbiy oqibatlari haqidagi tushunchalar cheklangan bo‘lishi mumkin. Natijada, an'anaviy qarashlar ustuvor bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, ayrim hollarda ota-ona yoki katta avlod vakillarining qaror qabul qilishdagi ustun mavqei ham yoshlarning tanlov erkinligini cheklab, qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzishga olib keladi.

Umuman olganda, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning ijtimoiy sabablari ko‘p qirrali bo‘lib, ular an'ana, iqtisodiy manfaat, ijtimoiy ishonch va nazorat, shuningdek, ta’lim va axborot darajasi kabi omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning psixologik sabablari, avvalo, insonlarning yaqinlik, ishonch va xavfsizlikka bo‘lgan tabiiy ehtiyojlari bilan bog‘liq holda shakllanadi. Odatda inson o‘ziga tanish muhitda, yaxshi bilgan odamlar orasida o‘zini erkin va xotirjam his qiladi. Shuning uchun ham qarindoshlar o‘rtasida shakllangan uzoq yillik munosabatlar, o‘zaro tushunish va ishonch nikoh qarorini qabul qilishda muhim psixologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday vaziyatda noma’lumlik va noaniqlik omillari kam bo‘ladi, bu esa shaxsda xavotir darajasini pasaytiradi va qaror qabul qilishni yengillashtiradi.

Fikrimizcha, mazkur nikohlarning yuzaga kelishida bolalikdan shakllangan emosional bog‘liqlik ham muhim rol o‘ynaydi. Qarindoshlar o‘rtasidagi doimiy muloqot, birga o‘sish va o‘xshash tarbiya muhitida shakllangan umumiy qadriyatlar o‘zaro yaqinlik hissini kuchaytiradi. Natijada bunday munosabatlar ba’zan romantik yoki oilaviy munosabatlarga aylanishi mumkin. Psixologiya nuqtai nazaridan bu holat “tanishlik effekti” bilan izohlanadi, ya’ni inson ko‘p ko‘rgan va bilgan shaxslarga nisbatan ko‘proq ijobiy munosabat bildirishga moyil bo‘ladi.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning yana bir psixologik sababi — oilaviy ta’sir va bosimdir. Ayrim hollarda ota-ona yoki katta avlod vakillari tomonidan berilgan tavsiyalar, kutilmalar va hatto bosimlar shaxsning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini cheklashi mumkin. Bunday vaziyatda inson ichki rozilikdan ko‘ra, ijtimoiy ma’qullik va oilaviy munosabatlarni saqlab qolishni ustun qo‘yadi. Bu esa psixologik jihatdan konformizm, ya’ni guruh talablariga moslashish tendensiyasi bilan bog‘liq.

Shuningdek, ayrim shaxslarda yangilikdan qo‘rqish, noma’lum odam bilan munosabat qurishga nisbatan ishonchsizlik kabi xususiyatlar ham bunday nikohlarga moyillikni kuchaytiradi. Yaqin qarindosh bilan nikoh qurish esa ular uchun psixologik jihatdan oson va xavfsiz tanlov bo‘lib ko‘rinadi. Bunda shaxs o‘zini himoyalangan his qiladi va munosabatlarda kutilmagan holatlar kam bo‘lishiga ishonadi.

Kuzatishlarimizga ko‘ra, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning psixologik sabablari inson psixikasidagi ishonch, yaqinlik, xavfsizlikka intilish, emosional bog‘liqlik, ijtimoiy ta’sirga bo‘ysunuvchanlik va noaniqlikdan qochish kabi omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning ijtimoiy-psixologik oqibatlari jamiyat va oila tizimiga kompleks tarzda ta’sir ko‘rsatadi. Bunday nikohlar ayrim hollarda oilaviy birlik va o‘zaro ishonchni mustahkamlashi mumkin, chunki qarindoshlar o‘rtasida avvaldan shakllangan yaqin munosabatlar, umumiy qadriyatlar va o‘zaro tushunish darajasi yuqori bo‘ladi. Bu esa oilaviy nizolarning kamroq yuzaga kelishiga yoki ularni tezroq hal etishga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, bunday nikohlarda oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi kuchli bo‘lib, yosh oilalar katta avlod yordamini osonroq his qiladilar.

Biroq ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan salbiy oqibatlar ham sezilarli bo‘lishi mumkin. Avvalo, oilaviy munosabatlarda rollar va chegaralar noaniqlashishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Ya’ni qarindoshlik va nikoh munosabatlari bir-biriga qorishib ketib, shaxslararo munosabatlarda murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, bir vaqtning o‘zida ham qarindosh, ham turmush o‘rtoq bo‘lgan shaxslar o‘rtasida psixologik ziddiyatlar, rollar to‘qnashuvi va emosional zo‘riqish holatlari paydo bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Shuningdek, bunday nikohlar ijtimoiy muhit bilan munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim jamiyatlarda yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar tanqidiy qarashlarga sabab bo‘lishi, bu esa oila a’zolarida ijtimoiy bosim, uyalish yoki izolyasiya hissini keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat shaxsning o‘zini baholashi va psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlar orasida mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati cheklangan bo‘lsa, bu ichki norozilik, stress va hatto uzoq muddatli psixologik muammolarga olib kelishi mumkin.

Farzandlar tarbiyasi va rivojlanishi nuqtai nazaridan ham muayyan ijtimoiy-psixologik ta’sirlar kuzatiladi. Oiladagi munosabatlar tartibi, katta avlod ta’sirining kuchliligi va an'anaviy qarashlarning ustunligi bolalarning shaxsiy rivojlanishiga ham ta’sir qiladi. Ba’zi hollarda bu ijobiy natijalarga, ya’ni tartib-intizom va qadriyatlarga hurmat shakllanishiga olib kelsa, boshqa hollarda bolalarning mustaqil fikrlashi cheklanishi, ijtimoiy moslashuv jarayoni qiyinlashishi mumkin.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning ijtimoiy-psixologik oqibatlari ikki qirrali bo‘lib, ularda ijobiy jihatlar bilan birga salbiy holatlar ham mavjud. Bu oqibatlar ko‘p jihatdan jamiyatning madaniy darajasi, oilaviy munosabatlar tizimi va shaxslarning psixologik xususiyatlariga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Konsagvin nikohlar tibbiy nuqtai nazardan, avvalo, genetik xavflarning ortishi bilan xarakterlanadi. Bunday nikohlarda er-xotin o‘rtasida umumiy ajdodlar

bo‘lgani sababli, ularning genetik materialida o‘xshashlik darajasi yuqori bo‘ladi. Natijada, odatda yashirin holda avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan resessiv genlar ikkala tomondan ham bolaga o‘tishi ehtimoli ortib, turli irsiy kasalliklarning namoyon bo‘lish xavfi kuchayadi. Oddiy sharoitda bunday genlar bir tomondan kelganda kasallik yuzaga chiqmasligi mumkin, ammo qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarda bu xavf sezilarli darajada oshadi.

Tibbiy jihatdan bunday nikohlardan tug‘ilgan bolalarda tug‘ma nuqsonlar, jismoniy va aqliy rivojlanishda ortda qolish, immun tizimi zaifligi kabi holatlar ko‘proq uchrashi qayd etilgan. Masalan, ayrim irsiy kasalliklar — qon kasalliklari, metabolik buzilishlar, nevrologik sindromlar va boshqa genetik kasalliklar xavfi yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, bolalarda tug‘ilish paytidagi asoratlar, chaqaloqlar o‘limi yoki erta bolalikdagi kasallanish darajasi ham yuqoriroq bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, konsagvin nikohlar ayol salomatligiga ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Homiladorlik davrida asoratlar, tushish holatlari yoki murakkab tug‘ruq ehtimoli ba’zi hollarda oshishi mumkin. Bu esa nafaqat tibbiy, balki psixologik jihatdan ham oilaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalarda xavotir, stress va aybdorlik hissi paydo bo‘lishi mumkin, ayniqsa agar bolada sog‘liq bilan bog‘liq muammolar aniqlansa.

Shu bilan birga, zamonaviy tibbiyotda genetik maslahat va skrining tekshiruvlari orqali ushbu xavflarni ma’lum darajada baholash va oldini olish imkoniyatlari mavjud. Nikohdan oldin yoki homiladorlik davrida o‘tkaziladigan tibbiy tekshiruvlar orqali ehtimoliy irsiy kasalliklar aniqlanib, tegishli choralar ko‘rilishi mumkin. Shu bois, konsagvin nikohlarning tibbiy xavflari haqida xabardorlikni oshirish va profilaktik choralarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Konsagvin nikohlar tibbiy nuqtai nazardan yuqori genetik xavflar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning oqibatlari avlod salomatligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin, shuning uchun bu masalaga ilmiy va ongli yondashuv talab etiladi.

Yaqin qarindoshlik nikohlarining salbiy oqibatlarini kamaytirish masalasiga kompleks va tizimli yondashuv talab etiladi, chunki bu holat nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy va psixologik omillar bilan ham bog‘liqdir. Avvalo, aholi o‘rtasida genetik va tibbiy bilimlarni oshirish muhim ahamiyatga ega. Odamlar yaqin qarindoshlik nikohlarining ehtimoliy xavflari haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlarga ega bo‘lsalar, ular qaror qabul qilishda ongli yondashuvni tanlaydilar. Shu maqsadda ommaviy axborot vositalari, ta’lim muassasalari va jamoat tashkilotlari orqali targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ayni paytda, nikohdan oldin genetik maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish va keng joriy etish muhimdir. Bo‘lajak juftliklar maxsus mutaxassislar ko‘rigidan o‘tib, o‘zlarida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan irsiy kasalliklar xavfi haqida ma’lumot olishlari mumkin. Bu esa kelgusida sog‘lom avlodni ta’minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, xavf yuqori bo‘lgan holatlarda mutaxassislar tomonidan tegishli tavsiyalar berish orqali salbiy oqibatlarning oldini olish imkoniyati mavjud.

Psixologik jihatdan esa oilaviy maslahat va psixokorreksiya ishlarini kuchaytirish zarur. Yoshlarga mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning shaxsiy pozisiyasini mustahkamlash va oilaviy bosimlarga

nisbatan barqarorlikni oshirish muhimdir. Psixologlar va maslahatchilar tomonidan olib boriladigan treninglar, suhbatlar va individual maslahatlar orqali bu yo‘nalishda samarali natijalarga erishish mumkin.

Ijtimoiy darajada esa ta’lim tizimini rivojlantirish va yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish katta ahamiyatga ega. Ta’lim darajasi oshgan sari insonlarda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi. Bu esa an'anaviy, ammo salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan qarorlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi.

Shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan profilaktik dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi muhimdir. Qonunchilik asoslarini takomillashtirish, tibbiy ko‘riklarni rag‘batlantirish, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar bu yo‘nalishda ijobiy samara beradi. Ayniqsa, qishloq joylarda va an'anaviy qarashlar ustun bo‘lgan hududlarda maqsadli dasturlar olib borish zarur.

Umuman olganda, yaqin qarindoshlik nikohlarining salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun tibbiy, psixologik va ijtimoiy choralarni uyg‘unlashtirgan holda amalga oshirish kerak. Faqatgina bir tomonlama emas, balki kompleks yondashuv orqali sog‘lom oila va sog‘lom avlodni shakllantirish, tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘.Shoumarov. Oilaning ijtimoiy-psixologik muammolari va ularning yechimlari. “Oila institutining ijtimoiy-psixologik muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent, 630 bet, 4-9-betlar, 2025.

2. U.Qodirov. O‘zbek oilasining ayrim etnopsixologik xususiyatlari. “Oila institutining ijtimoiy-psixologik muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent, 630 bet, 14-18-betlar, 2025.

3. Al-Krenawi, A., & Graham, J. R. Cross-cultural psychiatric assessment of consanguineous marriages in Arab societies. Social Science & Medicine, 48(6), 845–854, 1999.

4. Bittles, A. H. Consanguinity and its relevance to clinical genetics. Clinical Genetics, 60(2), 89–98, 2001.

5. Bittles, A. H., & Black, M. L. Consanguinity, human evolution, and complex diseases. Proceedings of the National Academy of Sciences, 107(Suppl 1), 1779–1786, 2010.

6. Shawky, S., El-Awady, M., El-Sayed, M., & Kamal, F. Genetic disorders in children of consanguineous parents in Egypt: A population-based study. Eastern Mediterranean Health Journal, 19(4), 322–330, 2013.

7. Hamamy, H. Consanguineous marriages: Preconception consultation in primary health care settings. Journal of Community Genetics, 3(3), 185–192, 2012.

8. Modell, B., & Darr, A. Genetic counselling and customary consanguineous marriage. Nature Reviews Genetics, 3(3), 225–229, 2002.

9. Tadmouri, G. O., Nair, P., Obeid, T., Al Ali, M. T., Al Khaja, N., & Hamamy, H. (2009). Consanguinity and reproductive health among Arabs. Reproductive Health, 6(1), 17.

10. Bener, A., & Alali, K. A. The impact of consanguineous marriages on health outcomes in Qatar. Journal of Biosocial Science, 50(3), 325–335, 2018.

11. https://asab.uz/en/blog/every-second-child-in-uzbekistan-found-to-have-a-genetic-mutation/?utm_source.

UDK 378.14:159.922

Sagindikova Nargiza,
QDU "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi professori v.v.b.
psixologiya fanlari doktori (DSc)

O'QUV FAOLIYATI VA TALABALAR GENDER XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'limda o'qituvchi va talaba hamkorligining psixologik jihatlari hamda talabalarda mas'uliyat hissini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan. Ta'lim samaradorligiga to'sqinlik qiluvchi salbiy omillar va pedagogik faoliyatning tarkibiy komponentlari tahlil qilingan. Zamonaviy axborot texnologiyalarining talabalar dunyoqarashiga ta'siri va "Ustoz-shogird" tizimi orqali kasbiy mas'uliyatni oshirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: hamkorlik, mas'uliyat, pedagogik faoliyat, motivatsiya, 'Ustoz-shogird", kasbiy shakllanish.

УЧЕБНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ГЕНДЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье рассматриваются психологические аспекты взаимодействия преподавателя и студента, а также механизмы формирования ответственности у будущих специалистов. Анализируются факторы, влияющие на эффективность обучения, и структурные компоненты педагогической деятельности. Освещается влияние информационных технологий на учебную мотивацию и роль системы «Наставник-ученик» в профессиональном становлении личности.

Ключевые слова: сотрудничество, ответственность, педагогическая деятельность, мотивация, система «Наставник-ученик», профессиональное становление.

LEARNING ACTIVITY AND GENDER CHARACTERISTICS OF STUDENTS

Abstract. The article examines the psychological aspects of teacher-student cooperation and the development of responsibility in higher education students. It analyzes key factors affecting educational efficiency and the structural components of pedagogical activity. The study highlights the impact of information technology on student motivation and the significance of the "Master-Apprentice" system in fostering professional responsibility.

Keywords: cooperation, responsibility, pedagogical activity, motivation, "Master-Apprentice" system, professional development.

Bugungi kunda hamkorlik masalasi ta'lim sohasida dolzarb va muhim muammo sifatida o'rganilib kelinmoqda. Shu jumladan, psixolog olimlarimiz shaxs

shakllanishi va o‘qitish samaradorligini oshirish borasida o‘qituvchi va talaba hamkorlik faoliyati muammosini ilmiy tadqiq qilganlar.

B.Utanov o‘zining ilmiy ishlarida ta'lim samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar haqida quyidagicha fikrlarni bildirgan, unga ko‘ra: o‘z-o‘ziga va atrofdagilarga talabchanlikning sustligi, past intilish darajasi, yuqori emosional stress, ipoxondriya, isteriya, nevrotizm, depressiya kabilarning mavjudligidir. Uning fikricha, kuchsiz motivasiya yaxshi yoki a'lo o‘qish bilan ajralib turishga intilishning bo‘lmasligi, o‘z qobiliyatlariga ishonchning yo‘qolganligi mustaqillikni cheklaydi, bu esa, o‘z navbatida o‘zlashtirishning pasayishiga olib keladi. Utanovning bu fikriga qo‘shilgan holda biz ham shuni ta'kidlab o‘tishimiz kerakki, talabaning o‘quv faoliyatida psixik holati qanday ekanligi bilan birgalikda, undagi hoxish-irodaning mavjudligi va ayniqsa, bu ishga, ya'ni o‘quv faoliyatiga mas'uliyatning qay darajada shakllanganligi muhim ahamiyatga ega. Chunki, hozirgi kunda texnika yaxshi rivojlangani sababli ba'zi ijtimoiy saytlardagi ma'lumotlar va ular bilan ovora bo‘lib qolgan ayrim yoshlarimiz ta'lim muassasalaridagi berilayotgan ta'lim-tarbiyaga unchalik e'tibor qaratmayotgandek, nazarimizda. Bu vaziyatni yanada aniqlash maqsadida bir guruh talabalar bilan suhbat o‘tkazganimizda, ulardan shu kabi fikrlarni eshitdik: “hozirda texnika internet rivojlangan, men institutga 1 kun bormasam, u fanni internetdan ham o‘zlashtira olaman”, “undan ko‘ra men o‘zim qiziqadigan mashg‘ulotlar, internet chatlaridagi do‘stlarim bilan ko‘proq dunyoqarashim ortyapti, baribir ertaga diplom olganda, yoki, ma'lum bir kasbni egallaganda, hamma har bitta fanni so‘rab o‘tirmaydi”, yoki “men uchun o‘zimning mutaxassisligimga tegishli fanlarni zo‘r o‘zlashtirsam bo‘ldi, menga shu yetadi”. “Men olim bo‘lmayman”, va boshqa fikrlarni eshitdik. To‘g‘ri, har bitta talaba o‘zining kelajakdagi mutaxassisligi uchun fanlarni o‘zlashtirgani juda yaxshi albatta, lekin boshqa ijtimoiy-gumanitar, aniq va tabiiy fanlarni, dunyoviy bilimlarni ham birgalikda o‘zlashtirib borish hozirgi zamonaviy mutaxassisga qo‘yiladigan talablardan hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatda psixologik str uktura o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Bu borada olimlardan N.V.Kuzminao‘z ilmiy ishlarini olib borgan. Uning fikricha, pedagogik faoliyat o‘z ichiga beshta komponentni oladi: gnostik – pedagogik tizim amal qilishining qonunlari va mexanizmlari haqida yangi bilimlarni to‘plash va hosil qilish vazifasini hal etadi; loyihalash – o‘qitilayotgan kursning maqsadlarini va ularga erishish yo‘llarini loyihalashtirish bilan bog‘liq; konstruktiv – kursning mazmunini va uning tuzilishini, mashg‘ulotlarni o‘tkazish shakllari va metodlarini tanlash bo‘yicha ishlarni o‘z ichiga oladi; tashkiliy – rejalashtirilgan ishni amalga oshirish vazifasini hal etadi; kommunikativ – pedagogik jarayonning sub'ekti va ob'ekti orasidagi pedagogik maqsadga muvofiq o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish bilan bog‘liq munosabatlarni o‘z ichiga oladi.

Gnostik komponent o‘qituvchi faoliyatida markaziy o‘rin tutadi. U o‘z ichiga o‘z faoliyati jarayoni xususiyatlari natijalarini o‘rganish va tahlil qilish; boshqa odamlarga ularning yosh va tipologik xususiyatlarini hisobga olib ta'sir ko‘rsatish faoliyati mazmuni va qobiliyatini o‘rganish va tahlil qilish. Bu faoliyat aspekti ushbu uquvlar bilan tavsiflanadi: o‘quvchilarni fan sohasidagi eng yangi yutuqlar bilan

tanishtirish; o‘z faoliyatini va o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish; o‘qitishda o‘zining kuchli va bo‘sh tomonlarini anglash; o‘z faoliyatida pedagogik nazariya tavsiyalarini hisobga olish; o‘quv jamoalarini o‘rganishda psixologik nazariyaga tayanish; o‘z amaliy faoliyatida metodik tavsiyalarni joriy qilish; o‘z fanini erkin bilish; tarbiyaviy ishlarning xususiyatlarini bilish; pedagogik vaziyatni tahlil qilish.

O‘qituvchi faoliyatining konstruktiv komponenti quyidagilardan iborat: axborot mazmunini tanlash va uning kompozisiyasini ishlab chiqish; talabalarning mazkur axborot o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan faoliyatini loyihalash; o‘z faoliyatini va o‘zini tutishini o‘quvchilar bilan samarali ishlash uchun loyihalashtirish. Shu munosabat bilan o‘qituvchi quyidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozim: mashg‘ulot uchun o‘quv materialini tanlash; undagi asosiy tushunchalarni va qonuniyatlarni ajratish; mashg‘ulotda amaliy va nazariy o‘quv materialining to‘g‘ri nisbatini topish; mashg‘ulotlarning bir bosqichidan boshqasiga mantiqiy o‘tishlarni rejalashtirish; nazariy materiallarni soddadan murakkabga tomon joylashtirish; qo‘yilgan maqsadlarga asoslangan holda topshiriqlar va masalalar tizimini ishlab chiqish; mashg‘ulotning maqbul tuzilishini uning maqsadga muvofiq ravishda tanlash; talabalarning mustaqil ishlari uchun topshiriqlarni ishlab chiqish.

Tashkiliy komponent o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi; o‘zfaoliyatini va o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlikda ishlashni tashkil etish; o‘qituvchi maqsadga muvofiq ravishda quyidagilarni tashkil etish uquvlariga ega bo‘lishi lozim: o‘z vaqtini, o‘quvchilarning individual va jamoa bo‘lib ishlashlarini; ular bilan o‘zaro hamkorlikda ishlashni; talabalar faoliyati ustidan tizimli nazoratni; o‘qitishning faol shakllarini; o‘quv materialini mustaqil o‘rganishni; o‘quv texnika vositalarini qo‘llashni va axborotni uzatishni. Shaxslararo o‘zaro munosabatlarni tavsiflaydigan kommunikativ komponent quyidagi usullarni nazarda tutadi: shaxsni har tomonlama kamol toptirishga intilish; suhbatdoshda ishonch uyg‘otish; munozaralarni (konfliktlarni) oldindan ko‘ra bilish va muammosiz amaliy hal qilish; tanqidiy fikrlashni tushinish, muloqotdosh sherigini to‘g‘ri va odob bilan tanqid qilish; o‘ziga nisbatan bildirilgan tanqidni qabul qilish va hisobga olish.

Ta'kidlab o‘tilgan bu kompanentlarini amalga oshirish hozirgi ta'lim sohasida qo‘yilayotgan talablarni to‘liq bajarishga zamin yaratadi. Bunday komponentlarni bajarish insondan katta bilim va mas'uliyatni talab etadi. Demak, har bir soha vakili, u qaysi mutaxassis bo‘lmasin, mehnat faoliyatida maqsadga erishish uchun mas'uliyat hissini tuyushi va oldidagi ishni samarali bajarishi uchun ham harakat qilishi muhimdir.

Albatta, talaba shaxsining mas'uliyatini shakllantirishda ularga ta'lim va tarbiya berayotgan ustozlarning o‘rni juda katta. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, hozirda yo‘lga qo‘yilgan “Ustoz-shogird” munosabatlarini aytib o‘tsak bo‘ladi. Bu munosabatlarning asosiy maqsadi ertangi kelajak mutaxassislarini tajribali va zamonga mos qilib tarbiyalashda, o‘z ishning ustasi qilib yetkazish muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada pedagogika va psixologiya yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Sh.A. Eshmetov o‘z ilmiy ishida aynan bu muammo bo‘yicha izlanishlar olib borgan. Amerikalik Karl Rodjers ham 1962 yildayoq tarbiyaning bosh maqsadi –

shaxsga o‘zini namoyon etish imkoniyatini to‘laqonli berishdir, degan g‘oyani ilgari surgan edi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, o‘qituvchida o‘z o‘quvchi-talabalariga ta'sir ko‘rsatishning uchta asosiy mexanizmlari bor: ta'sirlantirish, ishontirish va e'tiqod hosil qilish.

O‘qishga bo‘lgan mas'uliyatli munosabat faol, amaliy munosabat hisoblanadi. Uni mehnatsevarlik, mustaqillik, o‘z-o‘zini tanqid, matonat, ta'limdagi maqsadga, aniq natijalarga erishishda qatiyatliklardan alohida tarzda o‘rganib bo‘lmaydi. U o‘quvchini bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishga, bilimga ehtiyojini qondirishda mustaqil tarzda intiluvchanlikka, ularni ijodiy qabul qilib amaliyotga, uzluksiz tarzda bilimini kengaytirishga, o‘qishdagi muvafaqqiyatlar va muvafaqqiyatsizliklarni his qilishga yetaklaydi.

Demak, o‘quv faoliyatidagi mas'uliyat insonga faollikni va har bir ishni javobgarlik bilan ishlashni o‘rgatadi. Shunday ekan, ta'lim olish va munosabat o‘zaro chambarchas bog‘liq, ular bir-biriga o‘zaro bog‘liq, bular barchasi jamlanib rivojlanadi, o‘quvchining ongini rivojlantiradi, uning dunyoqarashi, axloqiy va irodaviy sifatlarini taraqqiy ettiradi.

Bunday vaziyatda, o‘quvchining umuman insonning qaysi faoliyat bo‘lmasin, o‘zini rag‘batlantira olish imkoniyati paydo bo‘ladi va o‘z-o‘ziga bahosi ham orta boshlaydi. Hayotdagi maqsadlari aniqlashib, o‘ziga ishona boshlaydi. O‘ziga ishongan inson esa, oldiga quygan maqsadga erishishda dadil qadam qo‘yadi va qiyinchiliklarga qaramasdan faqat olg‘a qarab yurishda davom etadi. To‘g‘ri, hayotda hamma vaqt hamma o‘ylagan niyat va maqsadlar amalga oshavermaydi, lekin, baribir ham inson oldiga maqsad qo‘ydimi, qiyinchilik vaziyatlarida ham boshqalar va qolaversa, o‘zini oldidagi mas'uliyatidan voz kechishi kerak emas. Bunday vaziyatlarda insonning yana bir bor irodaviy sifatlari sinovdan o‘tadi.

Talabalik davrida shaxsdan ko‘pincha ta'lim olish talab qilinadi. Lekin oliy ta'limda 3,4 bosqichga kelgan paytlarda bo‘lajak mutaxassis sifatida unga bir qancha mas'uliyat yuklanadi. Bunday holatlarda har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda topshiriqlar va murakkab mashqlar berish ishning samarali bo‘lishiga zamin yaratadi. O‘qituvchi va rahbariyat tomonidan berilgan topshiriqqa talaba albatta bor kuch imkoniyatidan kelib chiqqan holda tayyorlanib, o‘z ishiga mas'uliyat bilan yondashib bajarib keladi. O‘qituvchi baho qo‘yish chog‘ida ularning kamchiliklarini qidirishga tushmasdan, birinchi bu ishni yaxshi uddalagani, yaxshi bajarib kelganini va yutuqlarini aytib, rag‘batlantirib keyin esa undagi ba'zi kamchiliklarini tushuntirib, qanday yo‘l tutsa, bunday kamchiliklarni bartaraf etish mumkin ekanligini, aytishlari zarur.

Talabalar hayotida mas’uliyat hissi muhim o‘rin egallaydi, ayniqsa, 3-4 kurslarga kelib ularda mas’uliyat hissi shakllanib boradi. Chunki, bu davrga kelib, o‘zilariga ishonchi ortadi, biror bir ishni zimmasiga olishga, oilada, o‘qishda, jamoada, javobgarlikni bo‘yniga olishga to‘g‘ri keladi. Bitiruvchi bosqichda talabalar pedagogik, ixtisoslik amaliyotga chiqadi. Bu jarayon esa, ularda o‘zlarini haqiqiy mutaxassis deb, his qilish imkoniyatlari va shu bilan birga mutaxassisdan talab qilinadigan ko‘pgina majburiyatlarni o‘z bo‘yniga olib, ularni bajarishga

harakat qiladi. Bu borada bo‘lajak mutaxassisning ham individual ham kasbiy xususiyatlar, qobiliyatlar shakllanib boradi.

Talabalarda mas’uliyat hissining shakllanishiga bir qancha tashqi omillar ta’sir qilishi mumkin. Avvalo, o‘spirinlik davridan boshlab ular oldida kasb tanlash muammosi turadi. O‘spirinlar va katta o‘smirlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo‘lganligi sababli bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb egalari ham faol qatnashishlari zarur. Chunki yoshlar ko‘p hollarda kattalarning maslahatlari, hayotiy tajribasi va tavsiyalarini inobatga olgan holda qat’iy qarorga keladilar. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda kasblarning xilma-xilligi va mehnat bozoridagi tezkor o‘zgarishlar yoshlarning to‘g‘ri yo‘nalish tanlashini murakkablashtirmoqda. Shu sababli ularga psixologik va pedagogik yordam ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar hayotida kasb tanlash nihoyatda murakkab va mas’uliyatli jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon insondan mustaqil fikrlash, o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, qat’iyatlilik hamda kuchli iroda talab qiladi. Psixolog mutaxassis esa yoshlarning qiziqishlari, qobiliyatlari va individual xususiyatlarini o‘rganib, ularga kasb tanlashda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi mumkin. Biroq yakuniy qarorni yoshlarning o‘zi qabul qiladi. Shu bois kasb tanlashga bo‘lgan mas’uliyat hissi insonning kelajakdagi muvaffaqiyati va hayotiy yo‘lini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mas’uliyatli yondashuv orqali shaxs o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishga intiladi, qiyinchiliklarni yengishga harakat qiladi va o‘z faoliyati natijalariga ongli ravishda javob bera oladi.

Mas’uliyat hissi talabalik davrida yanada faol shakllanadi. Chunki aynan shu davrda yoshlar mustaqil hayotga qadam qo‘yadi, yangi ijtimoiy muhitga moslashadi va o‘z kelajagini rejalashtirishni boshlaydi. Oliy ta’lim jarayonida talabalar nafaqat bilim olish, balki o‘z vaqtini to‘g‘ri taqsimlash, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z ustida ishlash kabi ko‘nikmalarni ham egallaydilar. Bu esa ularda ichki intizom va javobgarlik hissining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik holatlari ham talabaning o‘ziga bo‘lgan munosabatini shakllantirib, mas’uliyat hissini mustahkamlaydi.

Bugungi kunda ayrim yoshlarning kasb tanlashda ota-onalar bosimi, moddiy manfaat yoki jamiyatdagi stereotiplarga asoslanishi kuzatilmoqda. Natijada ular tanlagan kasbiga qiziqmasligi, o‘qish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishi yoki kelajakda kasbiy qoniqish hosil qilmasligi mumkin. Bu esa shaxsning ruhiy holatiga, motivatsiyasiga va mehnat faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli yoshlarni kasb tanlashga tayyorlashda ularning individual qiziqishlari, qobiliyatlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Maktab o‘quvchilari kasb tanlash borasidagi o‘z qarorlarini ko‘pincha har tomonlama asoslab bera olmasalar-da, ularning aksariyati bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar. Bu holat ularda mustaqil fikrlash va o‘z kelajagiga befarq bo‘lmaslik hissi shakllanayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, pedagoglar, psixologlar va ota-onalarning qo‘llab-quvvatlashi yoshlarning kasb tanlashdagi ishonchini oshiradi hamda ularda mas’uliyat hissining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, mas'uliyat hissi yoshlarning kasbiy shakllanishida, shaxs sifatida kamol topishida va jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim psixologik omil hisoblanadi. Uni rivojlantirishda oila, ta'lim muassasalari, psixologlar va jamiyatning hamkorligi katta ahamiyatga ega. Yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish, ularda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish hamda o'z faoliyati natijalariga javobgarlik hissini kuchaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Надолинская Л.Н. Влияние гендерных стереотипов на воспитание и образование. // Педагогика. – М., 2004. - №5. - С. 78-83.
2. Nazarova B.A. Pedagogika kollejlari bo'lg'usi o'qituvchilarining kasbiy layoqatini tarbiyalash. Ped.f.n....diss. T.: 2009. 26-27 b.
3. Карменатес Монтехо Взаимосвязь оценки и самооценки знаний в процессе формирования у учащихся ответственного отношения к учению (на материале школ Кубы). Автореф. дисс. к. пед.н., Минск.: 1985. С.7
4. Кузмына Н.В. Педагогического мастерство учителя как фактор развития способностей учащихся //Вопросы психологии, 1984. № 1. С. 20-26
5. Sagindikova N.J. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining gender javobgarligini rivojlantirish uchun ijtimoiy-psixologik sharoitlarni o'rganish. Monografiya – Nukus; "ILIMPAZ" nashriyoti. 2023y. 164 b. ISBN 978-9910-9833-6-8
6. Sagindikova N.J. Shaxs shakllanishida gender xususiyatlarni ahamiyati. Psixologiya ilmiy jurnal. ISSN 2181-5291. Buxoro. 2023/1. 45-48 b.
Актуальность данного исследования обусловлена несколькими факторами. Во-первых, этап обучения в медицинском вузе является критическим периодом для становления профессиональной идентичности, что неизбежно влечет за собой пересмотр ранних сценарных решений, принятых в детстве. Во-вторых, специфика врачебной профессии, часто передаваемой по наследству, актуализирует проблему влияния родительских предписаний и сценарных драйверов («Будь совершенным», «Радуй других», «Старайся») на

выбор профессии и дальнейший жизненный путь. Неосознаваемое следование деструктивному сценарию может привести к профессиональному выгоранию, дезадаптации и снижению качества медицинской помощи. В-третьих, понимание механизмов трансформации сценария в условиях медицинского образования позволяет разрабатывать эффективные программы психологического сопровождения студентов, направленные на формирование психологической автономии и стрессоустойчивости.

Степень научной разработанности проблемы. Теория жизненного сценария Э. Берна и его последователей (К. Штайнер, М. Гулдинг) заложила фундаментальные основы понимания сценарного программирования [1, 2, 3]. Вопросы профессионального становления личности и формирования профессиональной идентичности в медицинском образовании активно изучались в работах отечественных и зарубежных психологов (Е.П. Белинская, А.А. Реан, В.А. Бодров и др.). Однако проблема трансформации жизненного сценария именно на этапе обучения в медицинском вузе, с учетом его специфических стрессогенных факторов и влияния семейных сценариев, остается недостаточно разработанной. Существует дефицит исследований, интегрирующих трансактно-аналитический подход с задачами психологического сопровождения студентов-медиков.

Научная проблема заключается в выявлении психологических условий и механизмов, способствующих осознанной трансформации деструктивных элементов жизненного сценария личности студента-медика в процессе его профессионального обучения, что позволит ему достичь психологической автономии и эффективно реализоваться в будущей профессии.

Объектом исследования является жизненный сценарий личности студентов медицинского вуза.

Предметом исследования выступает процесс и психологическое содержание трансформации жизненного сценария студентов на этапе обучения в медицинском вузе.

Цель статьи — теоретически обосновать и проанализировать особенности трансформации жизненного сценария личности студентов медицинского вуза с позиций трансактного анализа, а также определить факторы, влияющие на этот процесс.

Для достижения поставленной цели предполагается решение следующих **задач**:

1. Раскрыть содержание понятия «жизненный сценарий» и его ключевых компонентов в контексте профессионального становления.
2. Охарактеризовать специфику обучения в медицинском вузе как фактора, инициирующего сценарную ревизию.
3. Выявить психологические механизмы трансформации деструктивных сценарных паттернов у студентов-медиков.
4. Определить роль эго-состояния «Взрослый» в процессе достижения психологической автономии будущих врачей.

Теоретико-методологические основы исследования.

1. Концептуальные основы жизненного сценария в трансактном анализе. Методологическим базисом данного исследования выступает теория трансактного анализа (ТА), разработанная Э. Берном и дополненная его последователями (К. Штайнером, М. и Р. Гулдингами). В рамках ТА жизненный сценарий понимается как «бессознательный жизненный план», который формируется в раннем детстве под влиянием родительских предписаний и принимается ребенком как стратегия адаптации и выживания [1].

Ключевыми структурными элементами сценария, подлежащими анализу в контексте профессионального обучения, являются:

• **Родительские предписания:** невербальные послания, ограничивающие автономию личности («Не чувствуй», «Не будь собой», «Не достигай»).

• **Сценарные драйверы:** вербальные установки, задающие условия условного принятия личности («Будь совершенным», «Радуй других», «Старайся», «Будь сильным»).

• **Экзистенциальная позиция:** базовая установка по отношению к себе и окружающим, определяющая характер межличностных трансакций.

2. Специфика сценарного программирования у студентов-медиков. Обучение в медицинском вузе характеризуется уникальным набором факторов, влияющих на устойчивость жизненного сценария. Мы выделяем два ключевых аспекта:

А. Влияние врачебных династий. Для медицинского образования характерен высокий процент студентов из потомственных семей врачей. С точки зрения ТА, это означает наличие жесткого «семейного сценария», где выбор профессии часто является не актом свободной воли, а реализацией родительских ожиданий (контрсценария). В таких случаях студент может находиться под давлением предписания «Не будь собой», что в будущем ведет к глубокому внутриличностному конфликту и профессиональному выгоранию.

Б. Доминирование сценарных драйверов. Профессиональный этос медицины (самопожертвование, безошибочность, высокая ответственность) комплементарен драйверам «Будь совершенным» (перфекционизм) и «Радуй других» (потребность в одобрении). Если данные драйверы являются частью деструктивного сценария, студент-медик воспринимает академические неудачи или критику как экзистенциальную угрозу, что провоцирует высокий уровень тревожности.

3. Обучение в вузе как период сценарной ревизии. Методологически важным является положение о том, что этап профессионального обучения выступает как «нормативный кризис развития», инициирующий трансформацию сценария. Мы опираемся на концепцию М. и Р. Гулдингов о «перерешении» [3]. Согласно этой модели, трансформация сценария возможна, когда личность сталкивается с реальностью, которая не вписывается в старые сценарные рамки.

Процесс трансформации на этапе обучения включает:

1. **Осознание сценарных паттернов:** столкновение с клинической практикой и профессиональными трудностями заставляет студента осознать свои автоматические реакции и установки.

2. **Деконтаминация эго-состояния «Взрослый»:** отделение объективных профессиональных требований от архаичных родительских интроектов и детских страхов.

3. **Усиление автономии:** переход от следования внешним предписаниям к формированию собственной профессиональной позиции.

4. Роль эго-состояния «Взрослый» в формировании профессиональной идентичности. Трансформация сценария неразрывно связана с развитием эго-состояния «Взрослый», которое отвечает за объективную переработку информации и принятие решений «здесь-и-теперь». В медицинском образовании «Взрослый» выполняет функцию интегратора: он должен примирить этические нормы (Родитель) и естественную эмпатию (Ребенок) с клинической логикой и ответственностью.

Успешная трансформация сценария студента-медика заключается в переходе от **адаптивного сценария** (основанного на страхе несоответствия ожиданиям) к **автономному сценарию** (основанному на осознанном выборе профессии и принятии своих ограничений).

Обсуждение результатов. Проведенный теоретический обзор литературы по проблеме трансформации жизненного сценария студентов-медиков позволяет интегрировать разрозненные данные в единую психологическую модель профессионального становления. Анализ показывает, что медицинский вуз выступает не только как образовательная среда, но и как мощный катализатор интрапсихических изменений, затрагивающих глубинные структуры личности.

Конфликт между семейным сценарием и профессиональной автономией. Одной из центральных тем обсуждения является феномен «врачебных династий». Анализ работ в области трансактного анализа подтверждает, что для таких студентов выбор профессии часто является реализацией родительского контрсценария. Обсуждение данной проблемы выявляет скрытый конфликт: с одной стороны, семейная поддержка облегчает вхождение в профессию, с другой — она может маскировать предписание «Не будь собой». Мы полагаем, что трансформация сценария на этапе обучения заключается в переходе от «выполнения долга перед родом» к формированию собственной профессиональной миссии. Если этот переход не совершается, риск раннего профессионального выгорания и разочарования в профессии значительно возрастает.

Сценарные драйверы как фактор риска и ресурс развития. Особое внимание в литературе уделяется драйверу «Будь совершенным». Обсуждение результатов показывает амбивалентную природу этого механизма. В медицинском контексте перфекционизм поощряется как гарантия безопасности пациента, однако с точки зрения ТА, этот драйвер является мощным источником стресса. Мы приходим к выводу, что успешная

трансформация сценария предполагает не отказ от высоких стандартов, а перевод драйвера «Будь совершенным» в осознанную компетенцию эго-состояния «Взрослый». Это позволяет студенту сохранять ответственность, избавляясь от парализующего страха перед ошибкой, характерного для эго-состояния «Ребенок».

Кризис обучения как «окно возможностей» для перерешения. Теоретический анализ позволяет рассматривать академические кризисы (особенно на 3-м и 6-м курсах) как точки сценарной ревизии. В эти периоды старые адаптивные механизмы перестают работать, что вынуждает студента активировать эго-состояние «Взрослый» для деконтаминации (очищения) своего мышления от детских страхов и родительских интроектов. Обсуждение подчеркивает, что именно в условиях высокого когнитивного и эмоционального напряжения становится возможным акт «перерешения» — осознанного выбора остаться в профессии на своих условиях, а не на условиях, навязанных сценарием.

Практическая значимость и направления дальнейших исследований. Синтез теоретических данных указывает на необходимость внедрения программ психологического сопровождения, основанных на трансактном анализе, непосредственно в образовательный процесс медицинских вузов. Групповая работа со сценарными матрицами и драйверами может стать эффективным инструментом профилактики синдрома выгорания.

Тем не менее, обзор выявил определенные пробелы в изучении данной темы. В частности, недостаточно освещены гендерные аспекты трансформации сценария у будущих врачей, а также влияние цифровизации медицины на изменение традиционных врачебных сценариев. Дальнейшие исследования должны быть направлены на эмпирическую проверку выявленных теоретических связей, в частности, через лонгитюдные исследования студентов от первого до выпускного курса.

Трансформация жизненного сценария в медицинском вузе — это процесс перехода от «сценарного рабства» к профессиональной автономии. Этот процесс является необходимым условием формирования не только компетентного специалиста, но и психологически зрелой личности врача, способной к длительной и эффективной деятельности в условиях высоких нагрузок.

Проведенное теоретическое исследование трансформации жизненного сценария личности студентов-медиков с позиций трансактного анализа позволяет сформулировать следующие выводы:

1. Жизненный сценарий студента-медика является динамической структурой, которая на этапе профессионального обучения подвергается интенсивной ревизии. Специфика медицинской среды (высокая ответственность, академическая нагрузка, столкновение с экзистенциальными вызовами) выступает катализатором, заставляющим личность пересматривать ранние детские решения и родительские предписания.

2. Ключевыми факторами, определяющими ригидность или гибкость сценария будущих врачей, являются семейные установки (особенно в контексте врачебных династий) и доминирующие сценарные драйверы. Установлено, что драйверы «Будь совершенным» и «Радуй других» играют двоякую роль: способствуя академической успеваемости, они одновременно создают высокий риск эмоционального выгорания и дезадаптации, если не переводятся в осознанную компетенцию эго-состояния «Взрослый».

3. Процесс профессионализации в медицинском вузе может быть охарактеризован как нормативный кризис, в ходе которого происходит столкновение «сценарного прошлого» (родительских ожиданий) и «профессионального будущего» (личного выбора). Успешная трансформация сценария заключается в акте «перерешения», при котором студент выбирает врачебную деятельность не как обязанность перед семейной системой, а как автономную жизненную стратегию.

4. Основным психологическим механизмом трансформации сценария является освобождение сознания от предубеждений - эго-состояние «Взрослый». Это позволяет студенту отделить объективные требования профессии от архаичных интроектов и страхов, что ведет к формированию зрелой профессиональной идентичности и достижению психологической автономии.

Резюмируя результаты исследования, можно констатировать, что обучение в медицинском вузе представляет собой сложный интрапсихический процесс, выходящий далеко за рамки простого усвоения профессиональных знаний и навыков. С позиций трансактного анализа этот период является уникальным «окном возможностей» для глубокой личностной трансформации — перехода от неосознаваемого следования сценарному плану к осознанному выстраиванию собственной судьбы.

Теоретический анализ показал, что психологическое благополучие и профессиональная эффективность будущего врача напрямую зависят от того, насколько успешно будет проведена ревизия его жизненного сценария в студенческие годы. Формирование «автономного врача», способного к осознанности, спонтанности и близости, невозможно без проработки деструктивных сценарных паттернов, заложенных в раннем детстве.

Практическая значимость работы заключается в обосновании необходимости внедрения специализированных программ психологической поддержки студентов-медиков, основанных на методах трансактного анализа. Работа с «жизненными сценариями», «драйверами» и «эго-состояниями» должна стать неотъемлемой частью системы воспитания и профессиональной подготовки в медицинских вузах. Это позволит не только повысить качество обучения, но и сохранить ментальное здоровье будущих врачей различных специализаций, которое играет важную роль в успешности их клинической деятельности, предотвращая развитие профессионального цинизма и выгорания.

Использованная литература:

1. Берн Э. Игры, в которые играют люди. Люди, которые играют в игры. — М.: Эксмо, 2021.
2. Штайнер К. Сценарии жизни людей. Школа Эрика Берна. — СПб.: Питер, 2003.
3. Гулдинг М., Гулдинг Р. Психотерапия нового решения. Теория и практика. — М.: Класс, 1997.
4. Стюарт Й., Джойнс В. Современный трансактный анализ. — СПб.: Социально-психологический центр, 1996.

UDK 37.013.43:39:37.091.12



Usmonova M.B.,
Namangan davlat pedagogika instituti
"Kreativ pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti, (PhD)

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MILLIY XARAKTER XUSUSIYATLARINI XALQ PEDAGOGIKASI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning milliy xarakter xususiyatlarini xalq pedagogikasi vositasida rivojlantirish samaradorligi masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar va xalq og'zaki ijodi namunalariga tayanib, bo'lajak pedagoglarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, mas'uliyat, insonparvarlik, mehr-oqibat, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.Tadqiqotda xalq pedagogikasining mazmun-mohiyati, uning tarbiyaviy imkoniyatlari hamda oliy ta'lim jarayonida qo'llash mexanizmlari ochib berilgan. Shuningdek, milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik shart-sharoitlar, metod va vositalar tizimi ishlab chiqilgan hamda ularning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: milliy xarakter**,** vatanparvarlik, mas'uliyat, insonparvarlik, mehr-oqibat, bag'rikenglik.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ УЧИТЕЛЕЙ «БОЛАШАК» ПОСРЕДСТВОМ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ

Аннотация. В данной статье научно-теоретически и практически проанализирован вопрос эффективности развития национальных особенностей будущих учителей посредством народной педагогики. В условиях сегодняшней глобализации, опираясь на национальные ценности, обычаи, традиции и образцы устного народного творчества, у будущих педагогов приобретает актуальное значение формирование таких качеств, как

национальное самосознание, патриотизм, ответственность, гуманизм, доброта, великодушие. В исследовании раскрываются суть и значение народной педагогики, ее воспитательные возможности и механизмы ее применения в процессе высшего образования. Также разработана система педагогических условий, методов и средств, направленных на развитие особенностей национального характера, и их эффективность обоснована экспериментальной работой.

Ключевые слова: национальный характер, патриотизм, ответственность, гуманность, доброта, сострадание.

THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING THE NATIONAL CHARACTER TRAITS OF FUTURE TEACHERS THROUGH FOLK PEDAGOGY

Abstract: In this article, the question of the effectiveness of the development of national characteristics of future teachers through folk pedagogy is analyzed scientifically, theoretically and practically. In today's conditions of globalization, it is important to form in future teachers such qualities as national identity, patriotism, responsibility, humanity, compassion, tolerance, based on the national values, customs, traditions and oral creativity of the people.The essence and significance of folk pedagogy, its educational opportunities and mechanisms of application in the higher education process have been revealed. In addition, a system of pedagogical conditions, methods and tools aimed at the development of national characteristics has been developed, and their effectiveness has been substantiated through experimental work.

Key words: national character, patriotism, responsibility, humanity, compassion and tolerance.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev jamiyatda kechadigan ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq talablar mohiyatini tushunish shaxs tomonidan o‘zligini milliy jihatdan anglashi uchun zamin yaratishi zarurligiga urg‘u beradi: “Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”.

Yosh avlod tomonidan milliy xarakter xususiyatlarini chuqur anglanishiga erishish jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifani ijobiy hal qilish uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘quvchilarni milliy xarakter xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish, ularda milliy qiyofada aks etuvchi ijobiy xususiyatlardan g‘ururlanish hissini tarbiyalash imkonini beradi. Badiiy asarlar vositasida o‘quvchilarni milliy qadriyatlar va milliy axloq me’yorlariga

muvofiq kamol toptirish ular tomonidan o‘zlikni anglash, o‘zini o‘zbek millatining tipik vakili sifatida munosib baholash ko‘nikmalarini hosil qiladi.

V.Qo‘chqorovning fikriga ko‘ra, shaxs tomonidan o‘zlikni anglash o‘z navbatida milliy o‘zlikni anglashning dastlabki bosqichi sanaladi:“o‘zlikni anglash, idrok etish, farqlash milliy o‘zlikni anglashning debochasi deyish mumkin. Milliy o‘zlikni anglash uchta komponentdan iborat deb qarash lozim. Buning birinchisi – o‘z-o‘zini bilish, ikkinchisi – o‘z-o‘zining qadrini baholash va emotsional holatini anglab yetish bo‘lsa, uchinchisi – o‘z-o‘zini boshqarishdir”. Bizning fikrimizcha, aynan mana shu uchlik suveren respublika sifatida jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan O‘zbekistonda milliy mustaqillikni himoya qilish va mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogika darsligi muallifi Nodira Egamberdieva ham milliy xarakter tushunchasi bugungi kunda kam ishlatilayotganligini e’tirof etib: “Etnosning shaxsiy, faoliyat va ijtimoiy darajalaridagi xususiyatlari etnopsixologiya orqali ifodalanadi. Etnopsixologiya milliy hissiyot va kayfiyat, milliy madaniyat va manfaat, milliy an’analarni o‘z ichiga oladi. So‘nggi yillarda etnopsixologiyada “Milliy xarakter” tushunchasi kam ishlatilmoqda. Etnik guruhlarning psixologik xususiyatlarini ifodalash uchun esa … va mentalitet tushunchalari qo‘llanilmoqda”,– deya ta’kidlaydi.

“Katta psixologik ensiklopediya” (“Большая психологическая энциклопедия”)da “xarakter” tushunchasi shunday sharhlanadi: “xarakter – shaxsning faoliyat, muloqot, turli vaziyatlarda uning uchun tipik bo‘lgan xatti-harakatlari, individning o‘ziga, borliqqa hamda kishilarga bo‘lgan munosabatlarida aks etadigan individual, o‘ziga xos turg‘un xususiyatlari sanaladi. Shaxs xarakteri tarbiya, o‘z-o‘zini tarbiyalash, ijtimoiy muhit, hayotiy tajriba hamda doimiy faoliyat ta’sirida shakllanadi. Xarakterni: I.Kant hayotiy faoliyat davomida shakllanib boradigan, L.Malaper, A.Fulelar tug‘ma va orttirilgan xususiyat deb hisoblagan bo‘lsalar, T.Ribo, F.Palanlarning nuqtayi nazarlariga ko‘ra ijtimoiy shartlangan (ya’ni ijtimoiy ta’sirlar natijasida ro‘y beradigan) hodisa sanaladi”.

Shu va boshqa olimlarning ta’riflaridan kelib chiqib biz ham mualliflik ta’rifini ishlab chiqdik.Ya’ni milliy xarakter – muayyan millat yoki elatning o‘ziga xosligini ifodalovchi eng barqaror, turg‘un ruhiy, ma’naviy-axloqiy xususiyatlar majmuyi.

Pedagogik manbada ko‘rsatilishicha, shaxsning muhit va tarbiya ta’siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida, tevarak-atrofdagi olamga (boshqa kishilarga, mehnatga, buyumlarga), o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan individual xususiyatlari xarakter sifatida talqin etiladi.

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, milliy xarakter xususiyatlarini tarkib toptirishda o‘zbek xalq og‘zaki ijodining o‘rni va tarbiyaviy ahamiyati katta.Ayniqsa, eng ko‘p murojaat qilinadigan xalq og‘zaki ijodi turlaridan xalq qo‘shiqlari bunga yaqqol misoldir. Bu haqda M.Ismoilova shunday yozadi: “Xalq qo‘shiqlari bolalarda eng yaxshi insoniy fazilatlar: vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, odamlarga ishonch, do‘stlarga sadoqat tuyg‘ulari va o‘z-o‘ziga talabchanlikni shakllantiradi. Xalq qo‘shiqlari o‘quvchilar uchun ilk tarbiya darsligi, ma’naviy-axloqiy boyliklarning bitmas-tuganmas xazinasidir”. Darhaqiqat milliy

xarakter xususiyatlarni rivojlantirishda xalq qo‘shiqlarining o‘rni beqiyos. Yana eng keng tarqalgan xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri qo‘shiq hisoblanadi.

Endi lirik qo‘shiqlardan bir namuna keltiraylik:

Tolga chiqib tol bo‘ldim,
Tusholmay behol bo‘ldim.
O‘z tengimning ichida
Muncha betole bo‘ldim.

Qo‘shiq aytayotgan qizmi, yigitmi tolga chiqqani, tushgani haqida xabar berayotgandek tuyuladi. Vaholanki, uning maqsadi bizga qilgan harakatini aytish emas. Balki o‘z tengini topa olmay qalban iztirob chekayotganini izhor qilishdir. Tol esa shunchaki bir vosita, xolos. Odatda, qo‘shiqlarning dastlabki misralari, ko‘pincha, tinglovchini chalg‘itish yoki nimanidir ifodalash maqsadida to‘qiladi.

Asosiy maqsad oxirgi misrada, ba’zan 3-4-misralarda ifodalanadi.

Yana bir qo‘shiq matniga murojaat qilaylik:

Dayrani ul yuzidan sel keladi,
Sel bilan ikki o‘rdak teng keladi.
O‘rdakka o‘rdak munosib, g‘ozga g‘oz,
Yigitga qayliq munosib, qizga noz.

Bu qo‘shiqda daryodan toshib kelayotgan sel, sel bilan teng uchayotgan o‘rdak, o‘rdakning o‘rdakka, g‘ozning g‘ozga munosibligi, yigitning orzu qilgan qizda noz, istig‘noni ko‘rish havasi borligini ifodalovchi vosita, bir bahona, xolos. Yigitning asosiy niyati o‘ziga munosib deb bilgan yor tavsifi, uning o‘ta andishali qiz ekanini ta’riflashdir. Shunday qilib, inson qaysi vosita bilan bo‘lmasin, o‘zining his-tuyg‘usini, ichki kechinmalarini, ruhiy holatini izhor qilar ekan, lirik asar namunasi vujudga keladi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Shaxsda xarakter xususiyatlarini rivojlantirish to‘g‘risida so‘z yuritar ekanmiz, mavzuyimiz doirasida milliylik tushunchalariga ta’rif berib o‘tamiz. “Milliylik”, “milliy xarakter” tushunchalarining mohiyati ochib berish maqsadga muvofiqdir. “Milliy” tushunchasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Biror xalqning, millatning o‘ziga xos bo‘lgan, uning xususiyatlarini ifodalovchi” holat deya ta’riflangan bo‘lsa, boshqa bir manbada aynan “milliylik” tushunchasining mohiyati quyidagicha ochib beriladi. Ya’ni, “milliylik – tarixan tashkil topgan barqaror ijtimoiy-etnik birliklarni, ya’ni, millatlar va elatlarni boshqa barqaror ijtimoiy birliklardan, masalan, ijtimoiy sinflardan farqlovchi tomonlar, xususiyatlar, ma’naviy, ruhiy va madaniy qirralar hamda tafovutlar majmuyi”. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda milliy xarakter xususiyatlarning negizi axloqiy tarbiyadan boshlanishini unutmasligimiz lozim.Bu haqda “Pedagogika tarixi“ ma’ruzalar matnida(Komenskiyning shu fiktini ma’ruzalar matnidan emas, boshqa manbadan olish kerak) buyuk chex pedagogi Komenskiyning quyidagi fikrlarini o‘rinli deb bilamiz: “Axloqiy tarbiya Intizom.(Jumlani tushunmadim) Yoshligidan boshlab bolada axloq va odob fazilatlarini shakllantirish kerak. Mardlik, o‘zini tuta bilish, chidamlilik, vaqt va vaziyat talab qilganida foyda yetkazishga tayyor bo‘lib turish, burchni ado qilish kabi xislatlar fazilatdir. Shu asosiy fazilatlardan tashqari kamtarlik, mo‘min-qobillik, kishilarga xayrixohlik, pokizalik, puxtalik,

xushmuomalalik, kattalarni hurmatlash, mehnatsevarlik xislatlarini tarbiyalash ham muhim vazifa". Haqiqatan ham, yuqorida olim ta'kidlagan fikrlar juda o'rinli va milliy xarakterning o'zagi ham axloqiy tarbiya ekanligi hech kimga sir emas. Yana bir pedagogik manbada keltirilishicha, "Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli, vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo'lishga o'rgatish bilan profilaktika ishlarini ham olib boradi. Axloqiy tarbiyada yaxshi xulqni takomillashtirish uchun kurashiladi. Xalq ta'limi tizimida o'qitish tarbiyalanuvchilarning axloqiy mukammallashishi bilan bog'liq bo'ladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi. Shaxsning jamoat va vatanga, mehnatga, kishilarga, o'z xulqiga munosabatlari yuqoridagilarda o'z aksini topgan".

Shaxsni rivojlantirish, uning ma'naviy-axloqiy va irodaviy sifatlarga ega bo'lishida ijtimoiy-gumanitar fanlar hamda badiiy asarlar o'ziga xos o'rin tutadi. O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishda ham badiiy asarlar, ularda yoritilgan qahramonlarning obrazlari ta'sir kuchiga ega ekanligini pedagogik tajriba tasdiqladi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishish, ularda milliy turmush tarzi va milliy xarakter xususiyatlarining qay darajada yoritilganligini o'rganish, ulardan adabiy ta'lim jarayonida samarali foydalanish o'quvchilarining irodaviy va ma'naviy-axloqiy xususiyatlarga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Shu ma'noda ijtimoiy-gumanitar fanlari o'qituvchilari ishtirokida tashkil etilgan suhbat, davra suhbati va ulardan olingan natijalar ijobiy samara berganligi bilan xarakterlandi.

O'quvchilarni o'zbek xalqiga xos milliy xarakter xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish ularda badiiy qahramonlarning qiyofalari, irodaviy va ma'naviy-axloqiy sifatlarini baholash ko'nikmalarini shakllantiradi hamda ularga nisbatan shaxsiy munosabatni qaror toptiradi.Badiiy asarlar vositasida milliy xarakter xussiyatlarini rivojlantirishning mavjud holati o'rganilganligi va olingan natijalarga qarab kerakli tavsiyalar ishlab chiqilganligi samarali natijalar berdi.

Ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning tashkil etilishi, o'quvchilar faoliyatini kuzatish badiiy asarlar vositasida ularda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirish masalasining e'tibordan chetda qoldirilganligini, buning obyektiv va subyektiv sabablari mavjudligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Тўраев Ш. Демократик жараёнлар ва миллий ғоя. – Т.: Маънавият, 2008. – Б.95.

2. To'xliyev B. Adabiyot / Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2004. –B.287.

3. To'xliyev B. Adabiyot fanidan o'quv dasturi / Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004. – B.21.

4.. Ёқубов Н., Мирзажонова Д., Ашурова Г. Умумий психология / Маъруза матнлари. Тузувчилар:. – Қўқон: Қўқон ДПИ, 2007. – Б.47.

5. Фалсафа. Қомусий луғат / Масъул муҳар. Қ.Назаров. – Т.: Ўзбекистон Файласуфлар миллий жамияти нашриёти. 2004. –Б.495.

6. Фирсова А.Е. Применение антропологического подхода в современной отечественной педагогической теории и инновационной образовательной практике: дис. ... канд.пед.наук. – Волгаград: 2014. – С. 3.

7. Халилова Ш.Т. ўқувчиларни ахлоқий-эстетик тарбиялашда оммавий ахборот воситаларидан фойдаланишнинг педагогик шарт-шароитлари: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Т.: 2001. – Б.22.

UDK 173.1:316.356.2

Allanazarova Sholpan,
QDU "Pedagogika va psixologiya" kafederasi dotsenti
Abatbayeva Hurziya,
psixologiya yo'nalichi magistranti

MAQBUL NIKOH YOSHI: TAJRIBA, MAS'ULIYAT VA OILAVIY BARQARORLIK

Annotatsiya. Ushbu matnda demografik va ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan maqbul nikoh yoshi hamda oila mustahkamligi masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari yosh ulg'ayishi bilan ijtimoiy-iqtisodiy yetuklik va mas'uliyat ortishini, qizlar uchun 21–25 yosh nikoh uchun eng qulay davr ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, oilaviy baxtni ta'minlashda o'zaro ishonch va psixologik omillar asosiy o'rin tutishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: maqbul nikoh yoshi, ijtimoiy-iqtisodiy yetuklik, demografik jarayon, nikohdan qoniqish, oilaviy mustahkamlik, psixologik omillar, gender tafovutlari, oilaviy nizolar.

ОПТИМАЛЬНЫЙ БРАЧНЫЙ ВОЗРАСТ: ОПЫТ, ОТВЕТСТВЕННОСТЬ И СЕМЕЙНАЯ СТАБИЛЬНОСТЬ

Аннотация. В данном тексте проанализированы вопросы оптимального брачного возраста и стабильности семьи с демографической и социально-психологической точек зрения. Результаты исследования показывают, что с возрастом возрастают социально-экономическая зрелость и ответственность, а для девушек наиболее благоприятным периодом для вступления в брак является возраст 21–25 лет. Также отмечено, что взаимное доверие и психологические факторы занимают ключевое место в обеспечении семейного счастья.

Ключевые слова: оптимальный брачный возраст, социально-экономическая зрелость, демографический процесс, удовлетворённость браком, семейная стабильность, психологические факторы, гендерные различия, семейные конфликты.

OPTIMAL MARRIAGE AGE: EXPERIENCE, RESPONSIBILITY, AND FAMILY STABILITY

Abstract. This paper analyzes the issues of optimal marriage age and family stability from demographic and socio-psychological perspectives. The research results show that with age, socio-economic maturity and responsibility increase, and for girls, the most favorable period for marriage is the age of 21–25. It is also stated that mutual trust and psychological factors play a key role in ensuring family happiness.

Keywords: optimal marriage age, socio-economic maturity, demographic process, marital satisfaction, family stability, psychological factors, gender differences, family conflicts.

Nikoh inson hayotidagi eng mas'uliyatli qadamlardan biri bo'lib, uning barqarorligi jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy demografik va psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nikoh yoshining yetukligi ijtimoiy-iqtisodiy mustaqillik va ongli ota-onalik hissini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ushbu maqolada yoshlarning oila qurishga tayyorgarlik darajasi, nikohdan qoniqish ko'rsatkichlari hamda oilaviy mustahkamlikni ta'minlovchi asosiy psixologik mezonlar ilmiy tahlil qilingan.

Demografik nuqtayi nazardan olinganda, oila qurish ma'lum bir kishilarning emas, balki butun bir avlodning oila qurishi nazarda tutiladi. Bu o'rinda to'liq ishonch bilan aytish mumkinki, avlod yosh jihatdan qanchalik katta bo'lsa (uning yoshi qanchalik yuqori bo'lsa), u biz ko'rib chiqayotgan jihatlarning har biri bo'yicha ko'proq yetuk bo'ladi. 20–24 yoshdagi yosh guruhini o'ziga birlashtirgan avlod, 20 yoshdan kichik bo'lganlarga qaraganda ko'proq hayotiy tajribaga ega bo'ladi. Birinchi avlod vakillarida ijtimoiy-iqtisodiy yetuklik darajasi yuqoriroq bo'ladi, chunki aynan shu yoshda ko'pchilik yoshlar o'rta yoki oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan, muayyan kasb-hunarni egallagan hamda mustaqil hayotga tayyor bo'lib ulgurgan bo'ladilar. 25–29 yosh oralig'ida esa shaxsning iqtisodiy barqarorligi, kasbiy tajribasi va ijtimoiy mas'uliyat hissi yanada shakllangan bo'lib, bu oilaviy munosabatlarning mustahkamligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik jihatdan qaralganda, nikohga tayyorgarlik faqat biologik yoki iqtisodiy yetuklik bilan cheklanmaydi. Oilaviy hayotga qadam qo'yayotgan yoshlarning emotsional barqarorligi, muloqot madaniyati, nizolarni konstruktiv hal etish ko'nikmalari ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Oila qurishga psixologik tayyor bo'lmagan shaxslarda o'zaro tushunmovchiliklar, oilaviy nizolar va ajralish holatlari ko'proq kuzatilishi mumkin. Shu sababli nikoh oldidan yoshlarning oilaviy qadriyatlar, mas'uliyat va o'zaro hurmat tamoyillari haqidagi tasavvurlarini shakllantirish dolzarb masala sanaladi.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning dunyoqarashi, hayot tarzi va qadriyatlari sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi hamda individualistik qarashlarning kuchayishi oilaviy munosabatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Natijada ayrim yoshlar oila qurishni kechiktirishni afzal ko'rmoqda yoki oilaviy mas'uliyatni yetarlicha anglamasdan turib nikohga kirishmoqda. Bu esa oilaviy barqarorlikka salbiy ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, oilaviy munosabatlarning mustahkamligi er-xotin o'rtasidagi psixologik moslik bilan ham bevosita bog'liqdir. Psixologik moslik deganda xarakter, temperament, qiziqishlar, hayotiy maqsadlar va qadriyatlarning uyg'unligi tushuniladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan oilalarda nikohdan qoniqish darajasi yuqori bo'ladi. Aksincha, kommunikativ

muammolar, iqtisodiy qiyinchiliklar va hissiy sovuqlik oiladagi nizolarning kuchayishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbek jamiyatida oila azaldan muqaddas qadriyat sifatida e’tirof etib kelinadi. Shu bois yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda mas’uliyat, bag‘rikenglik, sabr-toqat va sog‘lom muloqot madaniyatini shakllantirish davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, ta’lim muassasalarida oilaviy psixologiya va reproduktiv salomatlik bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish yoshlarning ongli ravishda oila qurishiga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda yoshlarning nikohga bo‘lgan munosabati, oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari hamda nikoh yoshining oilaviy barqarorlikka ta’siri ilmiy manbalar va psixologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, oilaviy mustahkamlikni ta’minlashda psixologik maslahat va profilaktik ishlarning ahamiyati yoritib beriladi.

Demografik va ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan yondashilganda, oila qurish masalasi shunchaki individual tanlov emas, balki jamiyatning genofondi, ijtimoiy barqarorligi va istiqbolini belgilovchi strategik jarayondir. Ilmiy kuzatuvlar shuni tasdiqlaydiki, nikoh yoshidagi avlodning yoshi qanchalik katta bo‘lsa, ularning hayotiy masalalardagi qarorlari shunchalik mantiqiy va mustahkam asosga ega bo‘ladi. Xususan, 20-24 yoshli guruhni 20 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlikdan keyingi davr vakillari bilan qiyoslaganda, ularda kognitiv rivojlanish va dunyoqarashning kengligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu davrda yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy yetuklik bosqichiga qadam qo‘yib, oliy yoki o‘rta maxsus ma’lumot olish orqali professional identifikatsiyaga erishadilar, bu esa bo‘lajak oilaning iqtisodiy barqarorligi uchun muhim poydevor yaratadi.

Yanada yuqoriroq, ya’ni 25-29 yosh oralig‘idagi avlod vakillari esa 20-24 yoshdagilarga nisbatan nafaqat moliyaviy mustaqillik, balki psixologik rigidlikdan xoli bo‘lgan emotsional intellekt darajasi bilan ajralib turadilar. Psixologiyada bu davr shaxsning o‘zini anglash va ijtimoiy rollarni to‘liq qabul qilish bosqichi hisoblanib, bunda qarorlar affektiv holatlar (hissiyotlar) ta’sirida emas, balki tahliliy fikrlash va uzoq muddatli mas’uliyat asosida qabul qilinadi. Iqtisodiy avtonomiya esa yosh oilaning "separatsiya" jarayonini, ya’ni ota-onalar qaramog‘idan sog‘lom tarzda ajralib chiqib, mustaqil qaror qabul qiluvchi subyektga aylanishini ta’minlaydi.

Shu sababli, nikoh yoshining biroz yuqorilashi jamiyatda ongli ota-onalik (conscious parenting) konsepsiyasining rivojlanishiga bevosita xizmat qiladi. Yetuk yoshda qurilgan oilalarda farzand tarbiyasi, resurslarni taqsimlash va nizolarni konstruktiv hal etish darajasi sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, erta nikohlarda ko‘p kuzatiladigan ijtimoiy dezadaptatsiya, kognitiv dissonans va hissiy to‘yinmaganlik natijasida kelib chiqadigan ajrimlarning oldini oladi. Bunday demografik tendensiya jamiyatda ijtimoiy sog‘lom muhitni shakllantirish barobarida, har bir qurilayotgan oilaning institut sifatida yashovchanligini va uning ijtimoiy yuksalishini kafolatlaydi.

Oila qurish jarayonini zamonaviy sotsiologiya va akmeologiya (inson kamoloti haqidagi fan) nuqtayi nazaridan tahlil qilsak, bu jarayon shunchaki ikki shaxsning

birlashishi emas, balki jamiyatning tarkibiy qismini sifat jihatidan yangilashdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nikoh yoshining biroz kechikishi — bu jamiyatdagi intellektual salohiyatning ortishi va shaxsiy mas’uliyatning kuchayishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Xususan, 20 yoshgacha bo‘lgan davrda inson hali psixo-fiziologik o‘zgarishlar va shaxsiy identifikatsiya izlanishida bo‘lgani sababli, bu paytda qurilgan oilalar ko‘pincha tashqi yordamga (ota-ona ko‘magiga) muhtoj va ijtimoiy jihatdan zaif bo‘ladi. Aksincha, 20-24 yoshli yoshlar guruhida ijtimoiy moslashuv jarayoni jadallashib, ularda mustaqil hayot haqidagi real tasavvurlar shakllana boshlaydi.

Ilmiy jihatdan yondashilganda, 25-29 yosh oralig‘i "ijtimoiy kamolot" davri hisoblanadi. Bu davrga kelib insonning prefrontal qobig‘i (miyada mantiq va qaror qabul qilish uchun mas’ul qism) to‘liq rivojlanadi, bu esa hissiyotlarni boshqarish va uzoq muddatli rejalashtirish qobiliyatini oshiradi. Iqtisodiy mustaqillik esa oila mustahkamligining moddiy karkasini hosil qiladi; ya’ni er-xotinning o‘z daromad manbaiga ega bo‘lishi uchinchi shaxslarning oilaga aralashish ehtimolini keskin kamaytiradi va "men" konsepsiyasidan "biz" konsepsiyasiga o‘tishni osonlashtiradi.

Shuningdek, ongli ravishda kechiktirilgan nikohlar jamiyatda "demografik sifat" tushunchasini yuzaga chiqaradi. Yetuk yoshdagi ota-onalar farzand tarbiyasiga psixologik tayyor holda yondashadilar, bu esa keyingi avlodning ham ruhan sog‘lom va ijtimoiy faol bo‘lib ulg‘ayishini ta’minlaydi. Erta nikohlar oqibatida kelib chiqadigan depressiya, ijtimoiy yakkalanish va turmushdan qoniqmaslik kabi holatlar yetuk yoshdagi juftliklarda kamdan-kam uchraydi. Xulosa qilib aytganda, nikoh yoshining yuqorilashi — bu oilaviy inqirozlarning oldini oluvchi tabiiy filtr bo‘lib, jamiyatning umumiy farovonligi va demografik barqarorligini ta’minlovchi eng asosiy omildir.

O‘zbekiston Respublikasining «Oila kodeksi»da erkak va ayollar uchun minimal nikoh yoshi sifatida 18 yosh ko‘rsatilgan. Bu yoshni mahalliy hokimiyat qaroriga ko‘ra alohida istisnoli holatlarni hisobga olib, ayollar uchun bir yoshga qisqartirish mumkin.Turli mamlakatlarda urf-odatlar va milliy an'analarga bog‘liq ravishda erkak va ayollarning turlicha minimal nikoh yoshi belgilangan. Masalan, erkaklar uchun u 14 yoshdan (Irlandiya, Ispaniya va Lotin Amerikasidagi ayrim davlatlarida) 21 yoshgacha (Polsha, Avstriya, Germaniya va ayrim Skandinaviya davlatlarida) bo‘lgan davr orasiga to‘g‘ri keladi. Ayollar uchun minimal yosh odatda yoki erkaklar bilan teng deb, yoki ulardan bir necha yosh kichik deb belgilanadi.

Ushbu metodika Qoraqolpoq Davlat Universiteti San’atshunoslik fakulteti 18-25 yosh atrofidagi yoshlardan olindi. Respondentlar soni: 60 nafar

Jinsi: 30 nafar erkak (50%), 30 nafar ayol (50%)

O‘rtacha yosh: 18–25 yosh

So‘rovnoma natijalari tahlili

Ko‘rsatkichlar	Ijobiy/Muvozanatli (45%)	Salbiy/Muammoli (55%)

Nikoh yoshi haqida	23-25 yoshni ma'qul ko'rganlar.	Juda erta (17-18 yosh) yoki kech deb hisoblovchilar.
Yoshdagi tafovut	2-3 yil farqni ideal deb bilishgan.	Tengdosh yoki 8 yildan yuqori farqni muammoli deb hisoblashgan.
Nikoh sababi	Sevgi va baxtli bo'lish istagi.	"Nikoh shart" degan majburiyat hissi yoki yolg'izlikdan qo'rqish.
Oila mustahkamligi	O'zaro hurmat va ishonchni ustuvor qo'yishgan.	Faqat moddiy farovonlikka bog'liqlik.

Oila barqarorligi va undagi psixologik muhitni belgilovchi asosiy omillardan biri bu — nikohdan qoniqish darajasidir. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, respondentlarning 55 foizi o'z oilaviy hayoti yoki jamiyatdagi mavjud nikoh modellarini "yomon" deb baholagan. Bunday past ko'rsatkichning yuzaga kelishiga bir qancha jiddiy ijtimoiy-psixologik omillar sabab bo'lmoqda. Xususan, oilaviy nizolarning asosiy o'zagini moddiy yetishmovchilik va yetishmovchilikdan kelib chiqadigan taranglik tashkil etadi. Shuningdek, o'zbek oilalari uchun xos bo'lgan uchinchi shaxslarning, ya'ni yaqin qarindoshlarning er-xotin munosabatlariga aralashishi nizolarni yanada keskinlashtiruvchi katalizator vazifasini o'tamoqda. Bunga qo'shimcha ravishda, juftliklar o'rtasidagi muomala madaniyatining yetishmasligi, bir-birini tinglay olmaslik va hissiy intellektning pastligi oddiy tushunmovchiliklarni ham katta janjalga aylantirib yubormoqda.

Nikohdan qoniqish darajasiga nazar tashlasak, 60 nafar respondentning 39 nafari o'z turmushidan mutlaqo qoniqmasligini bayon etgan. Ayniqsa, erta qurilgan nikohlar tahlil qilinganda, yoshlarning hayotiy tajribasi yetishmasligi sababli "men tanlovda adashganman" degan ichki pushaymonlik hissi ustunlik qilishi ma'lum bo'ldi. Bu holat nikoh yoshi va qaror qabul qilishdagi mustaqillik darajasi oila mustahkamligi bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi.

Gender jihatidan qaralganda, yigitlar va qizlarning oilaga nisbatan qarashlarida keskin farqlar ko'zga tashlanadi. So'rovnomada ishtirok etgan 30 nafar yigit asosan oila qurishda moddiy ta'minot va karyera masalasini ustuvor deb bilishadi. Ular mas'uliyatni his qilgan holda, avval iqtisodiy poydevorni yaratishni va shundan keyingina, ya'ni 26 yoshdan so'ng oila qurishni afzal ko'rmoqdalar. Aksincha, 30 nafar qiz respondentlar uchun oilaning asosi — bu o'zaro ishonch va samimiy tuyg'ulardir. Biroq qizlarda kelajakdagi oilaviy hayotga nisbatan xavotir darajasi ancha yuqori. Xususan, qizlarning qariyb 70 foizi uchinchi shaxslar, ya'ni qaynota-qaynona yoki boshqa qarindoshlarning shaxsiy munosabatlarga aralashishidan, bu esa o'z navbatida oilaviy inqirozlarga olib kelishidan cho'chiydilar. Bu farqlar jamiyatda oila institutini mustahkamlash uchun ham iqtisodiy, ham psixologik tayyorgarlikning naqadar muhimligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining chuqur tahlili shuni ko'rsatadiki, respondentlarning 45 foizi nikoh masalasiga ongli ravishda, ma'naviy yetuklik va yuqori mas'uliyat bilan

yondashadi, bu esa jamiyatda sog‘lom oila tushunchasi shakllangan qatlam mavjudligidan dalolat beradi. Biroq, qolgan 55 foiz holatda oilaviy hayotga psixologik va ijtimoiy tayyorgarlikning pastligi, juftliklar o‘rtasidagi muloqot madaniyatining yetishmasligi hamda tashqi omillarning asossiz aralashuvi natijasida nizolar va umumiy norozilik kayfiyati ustunlik qilmoqda. Bunday vaziyatni ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun yoshlar orasida nikohga tayyorgarlik ko‘rishning ma’naviy-axloqiy va huquqiy asoslari bo‘yicha keng ko‘lamli treninglar hamda interaktiv suhbatlar tashkil etish hayotiy zaruriyat hisoblanadi. Shu bilan birga, oilasida surunkali muammolari bo‘lgan yoki kelajakdagi turmushiga nisbatan kuchli ikkilanish va xavotir hissini tuyayotgan talabalar bilan yakka tartibda, maxfiy va professional psixologik suhbatlar o‘tkazish lozim. Bunday yondashuv inqirozli holatlarning asl sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish uchun aniq yechimlar ishlab chiqish hamda yoshlarga mustahkam oila poydevorini qurishda to‘g‘ri yo‘nalish beruvchi tavsiyalar taqdim etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent, 1998.
2. Karimova V. Ijtimoiy tasavvurlarni o‘rganish metodikalari (Ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma va ijtimoiy-psixologik treninglar to‘plami). - 2025. 23 b.
3. Shoumarov G‘. Oila psixologiyasi. Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2010. – 128-129 b.
4. Ғозиев Э. Психология ёш даврлари. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2010. – 215 б.
5. Мусурмонова О. Оила маънавияти ва тарбия психологияси. – Тошкент: “Фан”, 2018. – 146 б.
6. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2017. – 363 с.
7. Кон И.С. Психология ранней юности. – Москва: Просвещение, 1989. – 255 с.
8. Сатир В. Психотерапия семьи. – Санкт-Петербург: Речь, 2000. – 283 с.
9. Назаров Қ. Оила ва никоҳ психологияси. – Тошкент: “Университет”, 2016. – 174 б.
10. Bowen M. Family Therapy in Clinical Practice. – New York: Jason Aronson, 1978. – 512 p.
11. Olson D.H. Families: What Makes Them Work. – Beverly Hills: Sage Publications, 1982. – 256 p.

UDK: 37:004.8

Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi v.b. dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TA'LIM JARAYONIGA INTEGRATSIYASI: PEDAGOGIK VA TEXNIK JIHATLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) vositalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi pedagogik, texnik va etik jihatlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda generativ SI, katta til modellari va adaptiv o'quv tizimlarining ta'lim samaradorligiga ta'siri, ularning o'quv materiallarini yaratishdagi o'rni hamda amaliy qo'llanilishi o'rganiladi. Shuningdek, SI vositalarining Bloom taksonomiyasi, konstruktivizm va kognitiv yuk nazariyalari bilan uyg'unligi yoritiladi. Maqolada texnologik jarayonlar, platformalar qiyosiy tahlili hamda etik-huquqiy muammolar, jumladan shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, mualliflik huquqi va algoritmik tarafkashlik masalalari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim texnologiyalari, generativ SI, pedagogika, etik muammolar, katta til modellari, raqamli ta'lim.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ: АНАЛИЗ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ТЕХНИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ИНТЕГРАЦИИ

Аннотация. В данной статье анализируется интеграция инструментов искусственного интеллекта (ИИ) в образовательный процесс с точки зрения педагогических, технических и этических аспектов. Рассматриваются возможности генеративного ИИ, больших языковых моделей и адаптивных систем обучения в повышении эффективности образования, а также их роль в создании учебных материалов и практическом применении. Особое внимание уделяется соответствию технологий теории Блума, конструктивизму и теории когнитивной нагрузки. Также рассматриваются технологические процессы, сравнительный анализ платформ и этико-правовые вопросы, включая защиту персональных данных, авторское право и алгоритмическую предвзятость.

Ключевые слова: искусственный интеллект, образовательные технологии, генеративный ИИ, педагогика, этика, большие языковые модели, цифровое обучение.

INTEGRATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS INTO THE EDUCATIONAL PROCESS: ANALYSIS OF PEDAGOGICAL AND TECHNICAL ASPECTS

Annotation. This article analyzes the integration of artificial intelligence (AI) tools into the educational process from pedagogical, technical, and ethical perspectives. It explores the impact of generative AI, large language models, and adaptive learning systems on educational effectiveness, as well as their role in developing instructional materials and supporting teaching practices. The study also examines the alignment of AI technologies with Bloom's taxonomy, constructivist learning theory, and cognitive load theory. In addition, it addresses technological workflows, comparative analysis of platforms, and ethical-legal issues such as data privacy, copyright, and algorithmic bias.

Keywords: artificial intelligence, educational technology, generative AI, pedagogy, ethics, large language models, digital learning.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimining barcha bosqichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Generativ SI, katta til modellari va adaptiv o‘quv tizimlari o‘quv materiallarini yaratish, o‘quv jarayonini individuallashtirish hamda ta’lim samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyot va ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasidagi qarorlari, shuningdek, ta’lim tizimini raqamlashtirishga oid farmon va qarorlar zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng joriy etishni nazarda tutadi. Ushbu hujjatlarda ta’lim sifatini oshirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash asosiy ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt vositalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi nafaqat texnologik yangilik, balki pedagogik yondashuvlarni tubdan o‘zgartiruvchi omil sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Biroq bu jarayon o‘z navbatida etik, huquqiy va metodik muammolarni ham yuzaga keltiradi. Jumladan, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi, algoritmik tarafkashlik, mualliflik huquqi va o‘qituvchi rolining o‘zgarishi kabi masalalar chuqur ilmiy tahlilni talab etadi.

Sun’iy intellekt (SI) vositalari ta’lim sohasida avtomatlashtirilgan, moslashtirilgan hamda interfaol o‘quv kontentini yaratish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar generativ sun’iy intellekt va katta til modellaridan (LLM) foydalangan holda yaratilgan darsliklar, test topshiriqlari, videodarslar hamda multimodal resurslar o‘quvchilarning o‘quv natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlamoqda. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi va UNESCO tavsiyalarida SI texnologiyalaridan foydalanishda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, yoshga oid cheklovlarga rioya etish hamda axloqiy me’yorlarni ta’minlash muhim talab sifatida qayd etilgan.

Maqolamizda katta til modellarining imkoniyatlari, generativ va adaptiv tizimlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni, pedagogik yondashuvlar, empirik tadqiqotlar natijalari, texnik ish jarayonlari, mavjud platformalar qiyosiy tahlili, shuningdek,

axloqiy-huquqiy masalalar hamda amaliyotda uchraydigan muammolar ko‘rib chiqiladi.

Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, o‘qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish nazariyasi va amaliyoti masalalari ko‘plab olimlar T. Buzan, A. Garad, N. German, A. Piligin, S.G. Vorovshikov,N.N. Azizxo‘jayeva, U.Sh. Begimqulov, N.I. Taylaqov, F.M. Zakirovalarning ilmiy ishlarida atroflicha yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida pedagoglarning axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetentligini shakllantirish, raqamli ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.


Sun’iy intellekt deganda insonning aqliy faoliyatiga xos bo‘lgan jarayonlarni modellashtirishga qodir kompyuter tizimlari tushuniladi. Katta til modellari esa katta hajmdagi matnli ma’lumotlar asosida o‘qitilgan neyron tarmoqlar bo‘lib, ular asosan matn yaratish, tahlil qilish va muloqot olib borish vazifalarini bajaradi. Bunday modellar qatoriga GPT-4 hamda Google Gemini kabi tizimlarni kiritishimiz mumkin.

Generativ modellar matn bilan bir qatorda tasvir, video va audio kontent yaratish imkoniyatiga ega bo‘lib, ularga DALL-E, Midjourney hamda Synthesia misol bo‘la oladi.

Adaptiv o‘quv tizimlari esa o‘quvchining bilim darajasi va natijalariga qarab o‘quv materiallarini moslashtiradi. Bu turdagi tizimlarga Knewton va Smart Sparrow platformalari kiradi.

Canva, Articulate 360 va H5P kabi mualliflik tizimlari interfaol darsliklar, testlar hamda vizual materiallar yaratishda keng qo‘llaniladi.

Multimodal sun’iy intellekt esa matn, tasvir va audio kabi bir nechta axborot formatlari bilan bir vaqtda ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan tizimlarni anglatadi. Mazkur tahlil, asosan, yuqori sinflar hamda oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv materiallari yaratish jarayoniga qaratilgan.



1-rasm.

Sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga integratsiyasi pedagogik nazariyalar bilan bevosita bog‘liqdir. Bloom taksonomiyasiga ko‘ra, sun’iy intellekt vositalari asosan quyi bosqichdagi kognitiv faoliyatlar, ya’ni eslab qolish va tushunish, shuningdek o‘rta bosqichdagi qo‘llash hamda tahlil qilish ko‘nikmalarini

rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Masalan, GPT-4 kabi modellar kurs maqsadlarini Bloom taksonomiyasi darajalariga muvofiq ravishda avtomatik tasniflash imkoniyatiga ega [5].

Konstruktivistik yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, sun'iy intellekt o'quvchilarga individual ehtiyojlariga mos o'quv materiallarini taqdim etish orqali bilimni mustaqil ravishda shakllantirish imkonini yaratadi. Individuallashtirilgan darslar asosida o'quvchi avvalgi bilimlari bilan yangi ma'lumotlar o'rtasida mantiqiy bog'lanishlar hosil qiladi. Kognitiv yuklama nazariyasiga ko'ra esa, o'quv materiallarini ishlab chiqishda ortiqcha ma'lumotlardan qochish muhim sanaladi [9]. Shu jihatdan, sun'iy intellekt yordamida vizual va matnli materiallar o'rtasida muvozanatni ta'minlash mumkin. Ayrim tadqiqotlar generativ sun'iy intellekt vositalari Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlari — baholash va yaratuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishda ham, ayniqsa inson nazorati bilan uyg'unlashganda, muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

O'quv natijalariga ta'siri nuqtai nazaridan ham, sun'iy intellekt vositalari o'quvchilarning tushunchaviy bilimlari va yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Empirik tadqiqotlar sun'iy intellekt yordamida yaratilgan o'quv materiallaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirganini ko'rsatmoqda. Shuningdek, mashg'ulotlarning interaktivligi kuchayishi va o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishi ortishi kuzatiladi. Biroq bunda inson omilini saqlab qolish tamoyili muhimdir. Ya'ni, o'qituvchi sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan materiallarni pedagogik mezonlar asosida qayta ko'rib chiqishi va zarur tahrirlarni amalga oshirishi lozim [2].

Sun'iy intellekt asosida o'quv materiallari yaratish jarayoni odatda bir necha bosqichdan iborat bo'ladi. Dastlab o'quv ehtiyojlari, maqsadlar va kutilayotgan natijalar aniqlanadi. Shundan so'ng dastlabki manbalar, jumladan matnlar, tasvirlar, videolar hamda mavjud darslik materiallari yig'ilib, qayta ishlashga tayyorlanadi.

Keyingi bosqich prompt injiniring hisoblanadi. Unda sun'iy intellekt modeliga beriladigan topshiriq, savol yoki ko'rsatma matni ishlab chiqiladi. Bu jarayonda zero-shot, few-shot, chain-of-thought hamda kontekstli so'rov kabi turli yondashuvlardan foydalaniladi.

Shundan keyin katta til modellari yoki generativ tizimlar yordamida asosiy kontent yaratiladi. Bunga matnli darslik bo'limlari, mavzu izohlari, test savollari, taqdimot slaydlari uchun matnlar va interfaol elementlar kiradi. Masalan, GPT-4 topshiriqlar tuzishi, DALL-E esa mavzuga mos tasvirlar yaratishi mumkin. Ayrim ilg'or tizimlarda ko'p agentli arxitekturalar qo'llanilib, unda tahlil, rejalashtirish, yozish va baholash vazifalari turli modullar o'rtasida taqsimlanadi.

Yaratilgan dastlabki kontent keyingi bosqichda pedagogik tahrirdan o'tkaziladi. O'qituvchi yoki soha mutaxassisi mazmundagi xatolarni tuzatadi, til uslubini moslashtiradi hamda materialni didaktik talablar asosida takomillashtiradi [1].

Bu jarayonda retrieval-augmented generation (RAG) yondashuvi ham qo'llanilishi mumkin. Mazkur usulda model oldindan tayyorlangan ishonchli manbalardan kerakli ma'lumotlarni olib, shu kontekst asosida yangi kontent

yaratadi. Bundan tashqari, ayrim hollarda model ma'lum fan yoki yo'nalish talablari asosida maxsus ma'lumotlar bilan qayta o'qitiladi. Bunday yondashuv fine-tuning deb atalib, modelni muayyan predmet sohasi yoki pedagogik uslubga moslashtirish imkonini beradi.

Baholash va monitoring jarayonlari sun'iy intellekt asosida yaratilgan o'quv materiallarining sifatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Har bir bosqichda natijalarni tekshirish uchun tegishli mezon va ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Masalan, matnli kontent sifatini aniqlashda grammatik to'g'rilik, uslubiy aniqlik hamda faktlarning ishonchliligi tekshiriladi. Moslashtirilgan o'quv materiallarini baholashda test topshiriqlari, bilim darajasiga moslik va individual ehtiyojlarga javob berish darajasi hisobga olinadi. Vizual materiallar uchun esa slaydlarning aniqligi, dizayn sifati, o'qish qulayligi hamda axborotning tushunarli taqdim etilishi muhim mezon hisoblanadi.

O'quvchilar fikr-mulohazalariga asoslangan baholash usullari ham alohida ahamiyatga ega. Xususan, A/B testlash orqali an'anaviy usulda yaratilgan materiallar bilan sun'iy intellekt vositasida tayyorlangan resurslarni qiyosiy sinovdan o'tkazish mumkin. Bunda o'quv natijalari, mashg'ulotdagi faollik darajasi, materialdan foydalanish qulayligi hamda o'quvchilar qoniqish ko'rsatkichlari asosiy indikator sifatida olinadi.

Ta'limiy platformalar qiyosiy tahlili. Sun'iy intellektga asoslangan ommabop vositalar va platformalarni taqqoslashda ularning funksional imkoniyatlari, qo'llanish sohasi, narx siyosati, qo'llab-quvvatlanadigan tillar, maxfiylik darajasi hamda boshqa ta'lim tizimlari bilan integratsiya imkoniyatlari asosiy mezon sifatida qaraladi. Bu omillar muassasa yoki foydalanuvchining ehtiyojiga mos vositani tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Vosita / Platforma	Asosiy xususiyatlari	Turli tillarni qo'llab-quvvatlash	Maxfiylik va integratsiya
ChatGPT (OpenAI)	Matn yaratish, savol-javob, suhbat, kod yozish, tahlil qilish	Ko'plab tillar, jumladan o'zbek tili	Bulut asosida ishlaydi. API orqali LMS va boshqa tizimlarga integratsiya qilinadi
Google Bard / Gemini	Savollarga javob berish, material yaratish, qidiruv bilan integratsiya	Ko'plab tillar, jumladan o'zbek tilini qo'llab-quvvatlash kengaygan	Google ekotizimida ishlaydi. Workspace va boshqa xizmatlar bilan integratsiya mavjud
Canva Magic Studio	Slayd, infografika, hujjat, rasm va dizayn yaratish	Ko'plab tillarda interfeys mavjud	Bulut platformasi. Fayllarni eksport qilish va ta'lim

			tizimlariga ulash mumkin
Synthesia	Matndan avatarli videodars va prezentatsiya yaratish	160 dan ortiq tillar	SOC2, ISO27001, GDPR standartlariga mos. LMS va PowerPoint bilan integratsiya mavjud
Articulate 360 (Storyline / Rise)	Interfaol kurs, test va e-learning materiallari yaratish	Asosan inglizcha interfeys, ko‘p tilli kontent yaratadi	SCORM, xAPI orqali LMS tizimlariga ulanadi
Claude (Anthropic)	Matn yaratish, muloqot, tahlil va kod yozish	Asosan inglizcha, boshqa tillarda ham foydalanish mumkin	API orqali tashqi tizimlarga integratsiya qilinadi, xavfsizlikka urg‘u berilgan

Yuqoridagi jadval tahlilidan ko‘rinadiki, **ChatGPT** va **Google Gemini** matnli kontent yaratish, savollarga javob berish hamda g‘oyalarni ishlab chiqishda eng qulay va universal vositalar qatoriga kiradi. Gemini platformasi keyingi yillarda mahalliy tillarni, jumladan o‘zbek tilini ham qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirdi. **Canva Magic Studio** vizual jihatdan boy taqdimotlar, infografikalar va dizayn materiallarini tezkor tayyorlashga xizmat qiladi. **Synthesia** esa sun’iy intellekt avatarlari va ovozli narratsiya asosida ta’limiy videolar yaratish imkonini beradi. **Articulate 360** interfaol kurslar va professional e-learning materiallari yaratishda samarali bo‘lsa-da, u to‘liq generativ sun’iy intellekt vositasi emas. **Claude** kabi yangi avlod chatbotlari esa xavfsizlik, etik me’yorlar va maxfiylik masalalariga ko‘proq e’tibor qaratishi bilan ajralib turadi.

Har bir platformani tanlash foydalanuvchining maqsadi, texnik imkoniyatlari va pedagogik ehtiyojlariga bog‘liq. Masalan, oddiy matn generatsiyasi uchun ChatGPT yoki Gemini, vizual materiallar uchun Canva va Synthesia, interfaol kurslar uchun esa Articulate 360 maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin.

Mazkur jarayonning amaliy ko‘rinishida dastlab dars maqsadlari, auditoriya xususiyatlari hamda kutilayotgan natijalar belgilanadi. Shundan so‘ng zarur matnlar, tasvirlar, statistik ma’lumotlar va boshqa resurslar yig‘iladi. Keyingi bosqichda sun’iy intellekt modeliga beriladigan ko‘rsatmalar puxta ishlab chiqiladi. Modeldan olingan dastlabki matn yoki vizual material o‘qituvchi tomonidan ko‘rib chiqilib, mazmuniy va uslubiy jihatdan takomillashtiriladi. So‘ng material sinovdan o‘tkazilib, sifat mezonlari asosida tekshiriladi. Yakuniy bosqichda esa tayyor resurs ta’lim platformalariga joylashtiriladi yoki dars jarayoniga joriy etiladi. Jarayon davomida model javoblari hamda o‘quvchilarning natijalari muntazam kuzatilib, zarur hollarda qo‘shimcha tuzatishlar kiritiladi [5].

Sun’iy intellekt vositalari o‘quv materiallarini yaratishda katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Ular moslashtirilgan kontent yaratish, individual ta’lim yo‘llarini shakllantirish hamda o‘qituvchilar mehnatini yengillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar bu vositalar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam berishini ko'rsatmoqda.

Sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish uchun pedagoglarni maxsus tayyorlash muhim hisoblanadi. O'qituvchilar uchun amaliy seminarlar, metodik qo'llanmalar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish uchun tezkor internet, zamonaviy qurilmalar va barqaror infratuzilma talab etiladi. Barcha hududlarda bunday imkoniyatlarning bir xil emasligi raqamli tafovutni kuchaytirishi mumkin. Shu bois davlat va ta'lim muassasalari hududlar o'rtasidagi texnologik tengsizlikni kamaytirishga e'tibor qaratishi zarur.

Sun'iy intellekt modellari har doim ham to'g'ri yoki aniq natija bermaydi. Ba'zan noto'g'ri, chalkash yoki asossiz javoblar hosil qilishi mumkin. Shu sababli, barcha yaratilgan materiallar inson nazoratidan o'tkazilishi shart.

Ko'plab sun'iy intellekt platformalari bulut texnologiyalariga asoslanadi. Shu sababli barqaror internet aloqasi, serverlarga tezkor ulanish va moliyaviy resurslar talab qilinadi. Ayrim hududlarda bu omillar cheklangan bo'lishi mumkin.

O'quvchilarda sun'iy intellekt vositalaridan ongli va mas'uliyatli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir. Agar o'quvchi sun'iy intellekt yaratgan kontentni tanqidiy tahlilsiz qabul qilsa, bu uning mustaqil fikrlash qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, bunday materiallardan foydalanilganda ularning sun'iy intellekt yordamida yaratilgani ochiq ko'rsatilishi maqsadga muvofiqdir.

Biroq sun'iy intellektni ta'lim tizimiga joriy etishda etik tamoyillar, maxfiylik, mualliflik huquqi va inson nazorati doimo ustuvor bo'lishi lozim. Eng muhimi, sun'iy intellekt pedagogni almashtiruvchi vosita emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi yordamchi texnologiya sifatida qaralishi kerak. Inson omili — malakali o'qituvchi va faol o'quvchi — ta'lim jarayonining asosiy qadriyati bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Miao F., & Holmes, W. (2023). Guidance for Generative Artificial Intelligence in Education and Research. Paris: UNESCO.

2. Shi Y., Yu, K., Dong, Y., & Chen, F. (2025). Large language models in education: A systematic review of empirical applications, benefits, and challenges. Computers & Education: Artificial Intelligence, 10, 100529.

3. Wang J., & Fan, W. (2025). The effect of ChatGPT on students' learning performance, learning perception, and higher-order thinking: Insights from a meta-analysis. Humanities and Social Sciences Communications, 12, 621.

4. Abduqodirov, A. A. (2021). Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.

5. Begimqulov U. Sh. (2022). Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari. Pedagogik mahorat, 3(2), 15–21.

6. Ishmuhamedov R. J. (2020). Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim samaradorligini oshirish. Toshkent: O'qituvchi.

UDK: 159.923.2:004.738.5

Obloqulov Javlon Jaloliddinovich,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi o'qituvchisi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

INTERNET ADDIKSIYASIGA EGA O'SMIRLARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR BUZILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada internet addiksiyasiga moyil va unga chalingan o'smirlarda shaxslararo munosabatlar tizimining o'zgarishi va buzilish mexanizmlari tahlil qilingan. Raqamli muhitning o'smir psixikasiga ta'siri, virtual muloqotning real ijtimoiy aloqalarga nisbatan ustunlik qilishi hamda empatiya, ijtimoiy idrok va kommunikativ kompetensiyaning pasayishi ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, internetga qaramlikning ijtimoiy izolyatsiya, agressivlik, emotsional sovuqlik va ijtimoiy adaptatsiya qiyinchiliklariga olib kelishi empirik tahlillar orqali ko'rsatilgan. Maqolada o'smirlar orasida internet addiksiyasi darajasi va shaxslararo munosabatlar sifatining o'zaro bog'liqligiga doir nazariy va amaliy xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Internet addiksiyasi, o'smirlik davri, shaxslararo munosabatlar, virtual muloqot, ijtimoiy adaptatsiya, kommunikativ kompetensiya, raqamli muhit, ijtimoiy izolyatsiya.

НАРУШЕНИЯ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ У ПОДРОСТКОВ С ИНТЕРНЕТ-ЗАВИСИМОСТЬЮ

Аннотация. В статье анализируются механизмы нарушения межличностных отношений у подростков с интернет-аддикцией. Рассматривается влияние цифровой среды на психическое развитие подростков, трансформация коммуникативных моделей и снижение эмпатийных способностей в условиях доминирования виртуального общения. На основе теоретического анализа и эмпирического исследования выявлены значимые различия между подростками с высокой интернет-зависимостью и нормативными пользователями по показателям эмпатии, социального статуса и коммуникативной компетентности. Установлено, что интернет-аддикция коррелирует с повышенной социальной изоляцией, конфликтностью и снижением качества межличностных взаимодействий. Предложена модель поэтапной трансформации межличностных отношений под влиянием интернет-зависимости. Результаты исследования могут быть использованы в профилактической и коррекционной работе психологов, педагогов и специалистов по подростковой психологии.

Ключевые слова: интернет-аддикция, подростковый возраст, межличностные отношения, эмпатия, социальная изоляция, виртуальная коммуникация, коммуникативная компетентность.

INTERPERSONAL RELATIONSHIP DISTURBANCES AMONG ADOLESCENTS WITH INTERNET ADDICTION

Abstract. This article examines the mechanisms of interpersonal relationship disruption among adolescents with Internet addiction. The study explores the impact of the digital environment on adolescent psychological development, focusing on the transformation of communication patterns and the decline of empathic abilities in the context of dominant virtual interaction. Based on theoretical analysis and empirical data, significant differences were identified between adolescents with high levels of Internet addiction and normative users in terms of empathy, social status, and communicative competence. The findings reveal that Internet addiction is associated with increased social isolation, higher conflict tendencies, and reduced quality of interpersonal relationships. A stage-based model of interpersonal transformation under the influence of Internet addiction is proposed. The results may be applied in preventive and corrective practices within psychology, education, and adolescent mental health fields.

Keywords: Internet addiction, adolescence, interpersonal relationships, empathy, social isolation, virtual communication, communicative competence.

XXI asr axborotlashgan jamiyatida internet inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, o‘smirlar internet texnologiyalaridan faol foydalanuvchi ijtimoiy guruh sifatida ajralib turadi. Ular uchun internet nafaqat axborot manbai, balki muloqot, o‘zini namoyon qilish va emotsional qoniqish vositasi ham hisoblanadi. Biroq, internetdan me’yordan ortiq foydalanish holatlari psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin [2,57].

Internet addiksiyasi tushunchasi ilk bor 1990-yillarda psixologiyaga kirib kelgan bo‘lib, u internetdan nazoratsiz, kompulsiv foydalanish bilan xarakterlanadi [3, 12]. Bu holat insonning kundalik faoliyatiga, emotsional holatiga va ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, shaxs shakllanishining muhim bosqichi bo‘lgan o‘smirlik davrida internetga qaramlik jiddiy psixologik oqibatlarga olib kelishi mumkin.

O‘smirlik davri shaxslararo munosabatlar faol shakllanadigan, referent guruhlar ahamiyati ortib boradigan va kommunikativ tajriba kengayadigan bosqich hisoblanadi [4,88]. Bu davrda tengdoshlar bilan muloqot shaxs rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo‘lib, ijtimoiy identifikatsiya va o‘zini anglash jarayonlarini belgilaydi. Shu sababli mazkur bosqichda muloqot tizimidagi har qanday buzilish shaxsning keyingi ijtimoiy rivojiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

So‘nggi yillarda tadqiqotlar internet addiksiyasi o‘smirlarda shaxslararo munosabatlarning transformatsiyasiga olib kelayotganini ko‘rsatmoqda. Virtual muloqot real muloqotni qisman almashtirib, emotsional yaqinlik va empatik munosabatlarni susaytirmoqda [5,41]. Onlayn muhitda muloqotning anonimligi va nazoratsizligi ijtimoiy normalarning nisbiylashuviga olib keladi, bu esa real hayotdagi munosabatlarda muammolarni keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga, internet addiksiyasiga ega o‘smirlarda ijtimoiy izolyatsiya, o‘z-o‘ziga ishonch pastligi, agressiv reaksiyalar va ijtimoiy xavotir darajasi yuqori bo‘lishi kuzatiladi [6,102]. Bu holatlar shaxslararo munosabatlarning sifatini pasaytiradi va ijtimoiy adaptatsiya jarayonini qiyinlashtiradi.

Muammoning dolzarbligi bir nechta omillar bilan belgilanadi:

o‘smirlar orasida internetdan foydalanish ko‘lamining ortishi;

raqamli ijtimoiy muhitning tez o‘zgarishi;

real ijtimoiy munosabatlarning virtual formatga ko‘chishi;

internet addiksiyasining psixologik va ijtimoiy oqibatlarining kuchayishi.

Mazkur maqolaning **maqsadi** — internet addiksiyasiga ega o‘smirlarda shaxslararo munosabatlar buzilishi mexanizmlarini nazariy va tahliliy jihatdan yoritish hamda ushbu jarayonning psixologik omillarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

Internet addiksiyasining psixologik mohiyatini tahlil qilish.

O‘smirlik davrida shaxslararo munosabatlar xususiyatlarini yoritish.

Internet addiksiyasining muloqot tizimiga ta’sir mexanizmlarini aniqlash.

Shaxslararo munosabatlar buzilishining asosiy ko‘rinishlarini tahlil qilish.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, internet addiksiyasi va shaxslararo munosabatlar buzilishi o‘rtasidagi bog‘liqlik kompleks psixologik yondashuv asosida tahlil qilingan hamda ularning o‘zaro ta’sir mexanizmi tizimli ravishda yoritilgan.

Internet addiksiyasi muammosi psixologiya fanlarida XX asrning oxirlaridan boshlab faol o‘rganila boshladi. Ilk nazariy modellar K.Yang tomonidan taklif qilingan bo‘lib, u internetga qaramlikni povedencheskaya addiksiya sifatida talqin qilgan [7,19]. Muallif internetdan nazoratsiz foydalanishni qimorbozlik, substansiyaga qaramlik va boshqa kompulsiv xulq shakllari bilan o‘xshash deb hisoblaydi. Yangning modellarida kognitiv buzilishlar, emotsional disbalans va ijtimoiy faollikning pasayishi asosiy belgilar sifatida keltiriladi.

Keyinchalik M. Griffits internet addiksiyasini biopsixosotsial model asosida izohlab, uning rivojlanishida shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy muhit va texnologik omillarning o‘zaro ta’sirini ko‘rsatgan [8,44]. Uning ta’kidlashicha, internetga qaramlikning asosiy belgisi — insonning virtual faoliyatni real hayot ehtiyojlaridan ustun qo‘yishidir.

O‘smirlik davrida internet addiksiyasining psixologik xususiyatlari A.Kim va D.Devis ishlarida keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, o‘smirlarda internetdan ortiqcha foydalanish ijtimoiy tashvish, depressiv tendensiyalar va past kommunikativ faollik bilan bog‘liq [9,63]. Mualliflar virtual muhit o‘smirlarga xavfsiz psixologik makon yaratib berishi, bu esa real muloqotdan qochishga olib kelishini ta’kidlaydilar.

Shaxslararo munosabatlar nuqtai nazaridan, Sallivan va Liri nazariyalari muhim ahamiyatga ega. G.Sallivan shaxs rivojlanishini interpersonal munosabatlar orqali tushuntirib, ijtimoiy muloqotni psixik salomatlikning asosiy sharti sifatida belgilagan [10,51]. Liri esa kommunikativ xulqning aylana modelida ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarning turli tiplarini tasniflab bergan. Ushbu nazariy yondashuvlar internet

addiksiyasining muloqot tizimiga ta'sirini tushunishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

MDH davlatlari olimlari ishlarida ham ushbu muammo faol o'rganilmoqda. Masalan, Ye.Voyskunskiy internetga qaramlikni kognitiv nazoratning pasayishi bilan bog'laydi va uning shaxslararo munosabatlardagi agressiya va impulsivlik bilan bog'liqligini ta'kidlaydi [12,95]. Uning fikricha, internet muhitidagi anonimlik ijtimoiy cheklovlarni kamaytiradi, bu esa real muloqotdagi konfliktlarni kuchaytiradi.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo tadqiqotlarida ham mazkur mavzu dolzarb hisoblanadi. So'nggi mahalliy tadqiqotlarda o'smirlar orasida internetdan foydalanish vaqti ortishi bilan ijtimoiy izolyatsiya va emotsional uzoqlashish tendensiyalari kuzatilgan [13,28]. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik kommunikativ kompetensiyaning pasayishi bilan bog'liq ekani qayd etilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki:

-internet addiksiyasi ko'p omilli psixo-ijtimoiy fenomen hisoblanadi;

-o'smirlik davri mazkur muammo uchun yuqori xavf guruhi hisoblanadi;

-internet addiksiyasi va shaxslararo munosabatlar buzilishi o'rtasida barqaror korrelyatsiya mavjud;

-virtual muloqot real muloqot strukturasini transformatsiya qiladi.

Mazkur maqolada ushbu bo'shliqni to'ldirish maqsadida internet addiksiyasi va shaxslararo munosabatlar buzilishi o'rtasidagi bog'liqlik kompleks tahlil qilindi.

Maqolamizda tadqiqot **ob'ekti** sifatida— o'smirlik davridagi internet addiksiyasi fenomeni.
Maqolamizda tadqiqot **predmeti** — internet addiksiyasining shaxslararo munosabatlar tizimiga ta'siri.

Tadqiqotda 13–17 yosh oralig'idagi 120 nafar o'smir ishtirok etdi. Ular umumta'lim maktablari va akademik litsey o'quvchilaridan ixtiyoriy ravishda tanlab olindi. Tanlovda jins va yosh muvozanati saqlandi.

Tanlov hajmini aniqlashda psixologiyadagi minimal reprezentativlik mezonlari hisobga olindi [15, 14].

-ishtirokchilar shartli ravishda ikki guruhga ajratildi:

-internet addiksiyasi yuqori darajada bo'lgan o'smirlar

-internetdan me'yoriy foydalanuvchilar.

Bu guruhlashtirish keyingi tahlillarda solishtirma yondashuvni ta'minladi.

Tadqiqotda quyidagi psixodiagnostik va tahlil usullari qo'llanildi:

1. Internet addiksiyasini baholash

K.Yangning Internet Addiction Test (IAT) metodikasidan foydalanildi. Ushbu test internetga qaramlik darajasini aniqlashda keng qo'llaniladi va yuqori ishonchlilik koeffitsientiga ega [7, 21].

2. Shaxslararo munosabatlarni baholash

T.Lirining interpersonal diagnostika metodikasi qo'llanildi. U kommunikativ xulq tiplarini va ijtimoiy o'zaro ta'sir strukturasini aniqlash imkonini beradi [16, 33].

3. Empatiya darajasini o'lchash

M.Yusupovning empatiya shkalasi adaptatsiya qilingan varianti qo‘llanildi. U emotsional hamdardlik va ijtimoiy sezgirlik darajasini baholashga xizmat qiladi [17, 52].

4. Qo‘shimcha metodlar

Sotsiometriya

Suhbat

Kuzatish

Bu usullar natijalarni triangulyatsiya qilish imkonini berdi.

Ma’lumotlarni qayta ishlash usullari

Olingan ma’lumotlar matematik-statistik tahlil usullari orqali qayta ishlandi. Jumladan:

korrelyatsion tahlil

Styudent t-testi

tavsifiy statistika

Psixologik tadqiqotlarda korrelyatsion tahlil munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri hisoblanadi [18, 39].

Tadqiqot bosqichlari

Tadqiqot 3 bosqichda amalga oshirildi:

1-bosqich — tayyorlov bosqichi

-nazariy manbalar tahlili;

-metodikalarni tanlash;

-tadqiqot dasturini ishlab chiqish.

2-bosqich — empirik tadqiqot

-test o‘tkazish;

-sotsiometriya;

-kuzatish.

3-bosqich — tahlil bosqichi

-natijalarni statistik qayta ishlash

-interpretatsiya

-xulosalar chiqarish

Tadqiqot jarayonida psixologik tadqiqotlar etikasiga qat’iy rioya qilindi:

ixtiyoriy ishtirok

maxfiylik

natijalardan faqat ilmiy maqsadda foydalanish

Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda quyidagi cheklovlar hisobga olindi:

tanlov hajmining cheklanganligi

o‘z-o‘zini baholash testlarining sub’ektivligi

madaniy omillarning ta’siri

Shunga qaramay, kompleks metodologik yondashuv tadqiqotning ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi va internet addiksiyasining shaxslararo munosabatlarga ta’sirini chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Ushbu bosqichda internet addiksiyasiga ega o‘smirlarda shaxslararo munosabatlar holati, empatiya darajasi va kommunikativ xususiyatlar solishtirma

tahlil qilindi. Tahlil jarayonida internet addiksiyasi yuqori bo‘lgan guruh va me’yoriy foydalanuvchilar o‘rtasidagi farqlar aniqlandi.

1. Internet addiksiyasi darajasi tahlili

K.Yangning IAT metodikasi natijalariga ko‘ra ishtirokchilar 3 guruhga ajratildi:

past daraja
o‘rta daraja
yuqori daraja

1-jadval

Internet addiksiyasi darajasi taqsimoti

Daraja	O‘smirlar soni	%
Past	28	23%
O‘rta	52	43%
Yuqori	40	34%

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, ishtirokchilarning 34 foizi internet addiksiyasi yuqori darajasiga kirgan. Bu ko‘rsatkich o‘smirlar orasida internetga qaramlikning keng tarqalganini ko‘rsatadi.

Snoska: So‘nggi xalqaro tadqiqotlarda ham o‘smirlarda internet addiksiyasi 25–40% orasida ekani qayd etilgan [19, 61].

2. Shaxslararo munosabatlar ko‘rsatkichlari

Liri metodikasi natijalari internet addiksiyasi yuqori bo‘lgan o‘smirlarda kommunikativ profilning o‘zgarishini ko‘rsatdi.

2-jadval

Kommunikativ tiplar solishtirmasi

Ko‘rsatkich	Addiksiya yuqori	Nazorat guruhi
Dominantlik	58%	32%
Konfliktlik	46%	21%
Ijtimoiy yaqinlik	29%	61%
Kooperativlik	33%	67%

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki:

internet addiksiyasi yuqori o‘smirlarda konfliktlik va dominantlik yuqori;

ijtimoiy yaqinlik va kooperatsiya past.

Bu holat virtual muloqotdagi asinxron va empatiyasiz kommunikatsiya uslublari real muloqotga ko‘chishini ko‘rsatadi.

Snoska: Internet muhitidagi anonimlik ijtimoiy cheklovlarni kamaytiradi va agressiv muloqotni kuchaytiradi [12, 97].

3. Empatiya darajasi tahlili

Empatiya ko‘rsatkichlari ikki guruh o‘rtasida sezilarli farq qildi.

3-jadval

Empatiya darajasi

Guruh	O‘rtacha ball
Internet addiksiyasi yuqori	38

Nazorat guruhi	62

Styudent t-testi natijalari farq statistik ahamiyatli ekanini ko‘rsatdi ($p < 0.01$).

Bu holat internet addiksiyasi empatik qobiliyatlarni pasaytirishini tasdiqlaydi. Virtual muloqotda neverbal signallar cheklangani sababli emotsional idrok rivojlanishi susayishi mumkin.

4. Sotsiometriya natijalari

Sotsiometrik tahlil internet addiksiyasi yuqori bo‘lgan o‘smirlarning ijtimoiy maqomi pastroq ekanini ko‘rsatdi.

4-jadval

Sotsiometrik status

Status	Addiksiya guruhi	Nazorat guruhi
Lider	8%	26%
Qabul qilingan	34%	48%
Rad etilgan	58%	26%

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, internet addiksiyasi yuqori bo‘lgan o‘smirlar ko‘proq rad etilgan statusga ega. Bu holat real ijtimoiy aloqalarning kamayishi bilan izohlanadi.

Snoska: Sotsiometrik izolyatsiya o‘smirlarda ijtimoiy xavotir va depressiya xavfini oshiradi [20, 73].

5. Korrelyatsion tahlil

Internet addiksiyasi va shaxslararo munosabatlar ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelyatsion tahlil orqali aniqlandi.

5-jadval

Korrelyatsiyalar

Ko‘rsatkich	r
Internet addiksiyasi — empatiya	-0.62
Internet addiksiyasi — ijtimoiy yaqinlik	-0.57
Internet addiksiyasi — konfliktlik	+0.49
Internet addiksiyasi — ijtimoiy izolyatsiya	+0.68

Ushbu natijalar o‘rta va kuchli korrelyatsiya mavjudligini ko‘rsatadi.

Eng kuchli bog‘liqlik ijtimoiy izolyatsiya bilan aniqlandi ($r = 0.68$). Bu internet addiksiyasi ijtimoiy uzoqlashishni kuchaytirishini tasdiqlaydi.

$r > 0.5$ psixologik tadqiqotlarda o‘rtadan yuqori bog‘liqlik hisoblanadi.

6. Sifat tahlili (suhbat va kuzatish)

Suhbat natijalari quyidagi tendensiyalarni ko‘rsatdi:

internet addiksiyasi yuqori o‘smirlar real muloqotdan tez charchashini bildirdi;

ko‘pchiligi onlayn muloqotni “oson” deb baholadi;

real konfliktlarda emotsional reaksiyalar kuchli bo‘ldi.

Kuzatish jarayonida ham shunday holatlar qayd etildi:

ko‘zga qarab gapirish qiyinligi

muloqotda pauza va tortinish

gadjetga tez-tez murojaat qilish

Bu holatlar kommunikativ avtomatizmlarning o‘zgarganini ko‘rsatadi.

7. Internet addiksiyasi va munosabatlar buzilishi mexanizmi

Tahlillar asosida internet addiksiyasining shaxslararo munosabatlarga ta’sir mexanizmi quyidagicha modellashtirildi:

Olingan natijalar mavjud nazariy qarashlar bilan uyg‘un. Xususan:

-internet addiksiyasi empatiyani pasaytirishi (Yang, Griffits modellari);

-virtual muloqot real munosabatlarni zaiflashtirishi;

-ijtimoiy izolyatsiyaning kuchayishi.

Shu bilan birga, tadqiqot bir nechta muhim jihatlarni ko‘rsatdi:

Internet addiksiyasi faqat individual emas, ijtimoiy fenomen hamdir.

Munosabatlar buzilishi bosqichma-bosqich rivojlanadi.

Eng kuchli ta’sir empatiya va ijtimoiy maqomda namoyon bo‘ladi.

Empirik natijalar internet addiksiyasi o‘smirlarda:

empatiya pasayishi;

ijtimoiy izolyatsiya ortishi;

konfliktlik kuchayishi;

sotsiometrik status pasayishi

bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatdi.

Bu holat internet addiksiyasining shaxslararo munosabatlar tizimiga kompleks salbiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot internet addiksiyasiga ega o‘smirlarda shaxslararo munosabatlar buzilishining psixologik mexanizmlarini kompleks tahlil qilishga qaratildi. Nazariy va empirik natijalar internet addiksiyasi o‘smir shaxsi rivojlanishiga faqat individual emas, balki ijtimoiy-psixologik darajada ham ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

Empirik tahlillar internet addiksiyasi yuqori bo‘lgan o‘smirlarda empatiya darajasi past, ijtimoiy yaqinlik ko‘rsatkichlari zaif va konfliktlik yuqori ekanini ko‘rsatdi. Sotsiometrik tahlillar esa bunday o‘smirlar ko‘proq rad etilgan yoki izolyatsiyalangan ijtimoiy statusga ega bo‘lishini tasdiqladi. Bu holat internet addiksiyasi shaxslararo munosabatlar sifatini pasaytirishini dalillaydi.

Korrelyatsion tahlil internet addiksiyasi va ijtimoiy izolyatsiya o‘rtasida kuchli musbat bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Shuningdek, empatiya va ijtimoiy yaqinlik bilan manfiy bog‘liqlik aniqlandi. Bu natijalar internet addiksiyasining ijtimoiy-psixologik oqibatlari tizimli xarakterga ega ekanini anglatadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, internet addiksiyasi o‘smirlarda shaxslararo munosabatlar buzilishi quyidagi bosqichlar orqali rivojlanadi:

Virtual muloqotga emotsional bog‘lanish

Real muloqot faolligining kamayishi

Empatik qobiliyatlarning susayishi

Ijtimoiy uzoqlashish

Munosabatlar sifati pasayishi

Bu jarayon bosqichma-bosqich xarakterga ega bo‘lib, o‘z vaqtida profilaktika choralari ko‘rilmasa, barqaror shaxsiy xususiyatlarga aylanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari internet addiksiyasi va shaxslararo munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kompleks psixologik yondashuv asosida yoritishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu natijalar o‘smirlar psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va kiberpsixologiya sohalarida nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Internet addiksiyasini erta diagnostika qilish metodikalarini ta’lim muassasalariga joriy etish;

Kommunikativ treninglar orqali empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish;

Gruppaviy psixokorreksion dasturlar ishlab chiqish.

Dars jarayonida oflayn muloqotni rag‘batlantiruvchi interaktiv metodlardan foydalanish;

Raqamli gigiena bo‘yicha ma’rifiy ishlar olib borish;

Sinfda ijtimoiy muhitni qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish.

Gadjetlardan foydalanish vaqtini nazorat qilish;

Xulosa qilib aytganda, internet addiksiyasi o‘smirlarda shaxslararo munosabatlar buzilishining muhim psixo-ijtimoiy omili hisoblanadi. U empatiya pasayishi, ijtimoiy izolyatsiya, konfliktlik va kommunikativ disfunksiya orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli mazkur muammoni erta aniqlash va profilaktika qilish zamonaviy psixologiyaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Young K. Internet addiction: The emergence of a new clinical disorder // CyberPsychology & Behavior, 1998.
2. Griffiths M. Internet addiction: Fact or fiction? // The Psychologist, 2000.
3. Davis R. A cognitive-behavioral model of pathological internet use // Computers in Human Behavior, 2001.
4. Sullivan H. The interpersonal theory of psychiatry. New York, 1953.
5. Leary T. Interpersonal diagnosis of personality. New York, 1957.
6. Kim J., Davis K. Toward a comprehensive theory of problematic internet use // Computers in Human Behavior, 2009.
7. Young K. Internet Addiction Test (IAT) manual. 2011.
8. Griffiths M. A components model of addiction within a biopsychosocial framework // Journal of Substance Use, 2005.
9. Войскунский А.Е. Психология интернет-зависимости. Москва, 2004.
10. Юсупов М. Психология эмпатии. Санкт-Петербург, 2006.
11. Леонтьев А.Н. Психология общения. Москва, 1997.
12. Karimov R. Internet use and youth socialization in Central Asia // Tashkent, 2019.
13. Облокулов Ж.Ж. Поэтологическая конструкция Адила Якубова: эстетические критерии и основа выражения. // Вестник Российского университета дружбы народов. серия: литературоведение. журналистика// 2025 Том 30 № 4.

UDK: 159.942:159.9:37.015.3

Сандул Александр Михайлович,
преподаватель ФГБОУ ВО «РГПУ им. А. И. Герцена»
г. Санкт Петербург, РФ

ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ РКИ КАК ФАКТОР УСПЕШНОСТИ МЕЖКУЛЬТУРНОГО ОБЩЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье рассматривается роль эмоционального интеллекта и психологической устойчивости преподавателя русского языка как иностранного в контексте межкультурной образовательной среды Узбекистана. Преподаватель преподаватель русского языка как иностранного (РКИ) работает не просто с лингвистическим материалом, а с картиной мира студента, которая часто вступает в противоречие с русской культурной и языковой логикой. В условиях высокой степени межкультурной вариативности (включающей русскую, узбекскую и другие культурные традиции) именно эти мягкие навыки становятся детерминантами успешной коммуникации, профилактики конфликтов и эффективного усвоения языка.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, психологическая устойчивость, преподаватель РКИ, межкультурное общение, Узбекистан, билингвизм, педагогическая эмпатия.

O‘QITUVCHINING EMOTSIONAL INTELLEKTI VA PSIXOLOGIK BARQARORLIGI O‘ZBEKISTONDA MADANIYATLARARO MULOQOT MUVAFFAQIYATINING OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonning madaniyatlararo ta’lim muhitida rus tilini chet tili sifatida o‘qituvchi (RKI) pedagogning emotsional intellekti va psixologik barqarorligining o‘rni ko‘rib chiqiladi. RKI o‘qituvchisi faqat lingvistik material bilan emas, balki talabaning dunyoqarashi bilan ham ishlaydi, bu esa ko‘pincha rus madaniy va til mantiqi bilan ziddiyatga kirishadi. Rus, o‘zbek va boshqa madaniy an’analarni o‘z ichiga olgan yuqori darajadagi madaniyatlararo xilma-xillik sharoitida aynan ushbu yumshoq ko‘nikmalar samarali kommunikatsiya, nizolarning oldini olish va tilni samarali o‘zlashtirishning asosiy omillari hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: emotsional intellekt, psixologik barqarorlik, RKI o‘qituvchisi, madaniyatlararo muloqot, O‘zbekiston, bilingvizm, pedagogik empatiya.

EMOTIONAL INTELLIGENCE AND PSYCHOLOGICAL STABILITY OF AN RCT TEACHER AS A FACTOR OF SUCCESSFUL INTERCULTURAL COMMUNICATION IN UZBEKISTAN

Annotation. The article examines the role of emotional intelligence and psychological stability of a teacher of Russian as a foreign language in the context of the intercultural educational environment of Uzbekistan. Russian Russian as a foreign language (RKI) teacher works not just with linguistic material, but with a picture of the student's world, which often contradicts Russian cultural and linguistic logic. In conditions of a high degree of intercultural variability (including Russian, Uzbek and other cultural traditions), it is these soft skills that become the determinants of successful communication, conflict prevention and effective language acquisition.

Keywords: emotional intelligence, psychological stability, RCT teacher, intercultural communication, Uzbekistan, bilingualism, pedagogical empathy.

Узбекистан обладает уникальным и многослойным языковым ландшафтом, формировавшимся под влиянием исторических, культурных и социальных факторов. С одной стороны, в стране сохраняется значительный пласт русскоязычного населения, а также устойчивое присутствие русского языка в научной, технической, образовательной и культурной сферах. Русский язык продолжает выполнять роль важного средства межнационального общения и академической коммуникации. С другой стороны, в последние годы наблюдается активный процесс укрепления статуса государственного узбекского языка, его расширение в административной, образовательной и общественной сферах. Параллельно усиливается тенденция интернационализации образования, выражающаяся в росте числа иностранных студентов из Китая, Индии, стран Ближнего Востока и других регионов, изучающих русский язык как иностранный (РКИ).

В этих условиях традиционного владения методикой преподавания оказывается недостаточно. Современная образовательная среда требует от преподавателя РКИ не только профессиональной лингвометодической компетентности, но и высокой степени межкультурной чувствительности, психологической гибкости и способности к эмоциональной регуляции. Устойчивость к стрессу, умение адекватно интерпретировать эмоциональные реакции обучающихся и выстраивать эмпатийное взаимодействие становятся ключевыми факторами, определяющими эффективность межкультурного диалога.

Особую роль играет способность преподавателя реагировать на типичные коммуникативные и психологические ситуации учебного процесса: ошибки студентов, связанные с интерференцией родного языка; культурный шок, возникающий при столкновении различных ценностных систем; а также внутренние профессиональные переживания преподавателя, связанные с ощущением непонимания или недостаточной эффективности обучения. В подобных ситуациях именно уровень эмоционального интеллекта определяет, перерастёт ли взаимодействие в конструктивный диалог или приведёт к коммуникативному сбою.

Эмоциональный интеллект, по определению Д. Гоулмана, включает четыре основных компонента: самосознание, саморегуляцию, эмпатию и управление отношениями. В контексте преподавания РКИ данные компоненты приобретают особую значимость, поскольку реализуются на пересечении трёх культурных парадигм.

Во-первых, это европоцентричная педагогическая модель, характеризующаяся определённой дистанцией в общении, структурированностью учебного процесса и ориентацией на индивидуальные достижения обучающегося. Во-вторых, традиционно-узбекская культурная модель, основанная на высоком контексте общения, уважении к старшим и преподавателю, коллективистских ценностях и развитой коммуникативной открытости. В-третьих, интернациональная образовательная модель, предполагающая гибкость, адаптивность и готовность к взаимодействию с представителями различных культурных и языковых систем.

Именно в пространстве пересечения этих трёх моделей формируется профессиональная компетентность преподавателя РКИ нового типа. Он должен не только владеть методикой преподавания языка, но и уметь балансировать между различными культурными ожиданиями, корректно интерпретировать поведение обучающихся и создавать психологически безопасную образовательную среду.

Таким образом, эмоциональный интеллект и психологическая устойчивость выступают не вспомогательными, а системообразующими факторами успешности преподавателя РКИ в условиях современного межкультурного образовательного пространства Узбекистана.

Преподаватель РКИ иностранец рефлексирует свои культурные стереотипы. Например, на уровне самосознания традиционные европейские,российские методологические инструменты работы «здесь и сейчас» (тайминг, прямое указание на ошибку) входит в конфликт с узбекской концепцией «такаллуф» (церемонность, стремление избежать публичного замечания).

В отношении саморегуляция преподавателя, при занятиях в мультикультурной группе могут провоцироваться микрострессы. Соответственно преподаватель с высоким эмоциональным интеллектом не позволяет эмоции раздражения или тревоги доминировать, переключая фокус на учебную задачу и преподаватель избегает сарказма или повышения голоса. Высокий самоконтроль превращает ошибку из угрозы авторитету в игровой момент. Несомненно важной является внутренняя мотивация преподавателя. Другими словами, проявление интереса к личности ученика, а не только к его речевым ошибкам. В узбекской культуре очень важен персонализированный подход: вопрос «Как ваша семья?» перед началом урока и это не потеря времени, а инвестиция в доверие.

Ключевым навыком для преподавателя РКИ в Узбекистане является его эмпатия. Узбекские студенты часто используют косвенные формы отказа или непонимания («Маълум эмас» — «Неизвестно», вместо «Я не понял»).

Эмпатичный преподаватель считывает этот сигнал через интонацию и мимику и переформулирует правило, не настаивая на прямом признании неудачи.

Таким образом, успешность межкультурного общения проявляется именно на пересечении эмпатии и саморегуляции: преподаватель РКИ анализирует и раскрывает эмоциональный код студента и подбирает адекватную модель поведения.

В свою очередь психологическая устойчивость (резильентность) как защита от «эмоционального выгорания»— это способность восстанавливать продуктивность после стрессовых ситуаций: языкового барьера, межкультурного конфликта, аккультурационного стресса у группы или собственного выгорания.

Согласно исследованиям (Maslach, 2016), преподаватели иностранных языков входят в группу риска по синдрому эмоционального выгорания.

В контексте преподавания РКИ в Узбекистане описанные процессы дополнительно усложняются рядом специфических социокультурных и психолого-педагогических факторов, которые существенно повышают требования к эмоциональному интеллекту и психологической устойчивости преподавателя.

Во-первых, значимым фактором выступает языковая интерференция. Регулярная работа с ошибками, обусловленными различиями между языковыми системами, например отсутствием категории рода в узбекском языке или смешением видов глагола в русском, требует от преподавателя высокого уровня терпения, гибкости и методической вариативности. В результате образовательный процесс часто приобретает характер постоянной работы в условиях неопределённости, когда даже студент уровня А2 может испытывать серьёзные трудности в понимании базовых вопросов и инструкций. Это формирует у преподавателя необходимость постоянно адаптировать объяснение материала и сохранять эмоциональную стабильность в ситуациях повторяющихся затруднений.

Во-вторых, важную роль играет смена социальных ролей преподавателя в учебной среде. В процессе обучения РКИ преподаватель нередко сталкивается с ситуациями, когда студенты выходят за рамки сугубо академического взаимодействия и задают вопросы, связанные с политикой, религией или культурными традициями. В подобных условиях именно психологическая устойчивость позволяет педагогу сохранять профессиональную дистанцию, чётко разделять личную позицию и профессиональную функцию, а также избегать эмоционально окрашенных реакций, способных нарушить образовательный процесс.

В-третьих, следует учитывать высокий уровень эмоциональной вовлечённости студентов, характерный для коллективистской культуры Узбекистана. Студенты нередко стремятся перенести учебные отношения в личностную плоскость: приглашают преподавателя в гости, делятся семейными и личными проблемами, ожидают эмоциональной поддержки. В таких условиях без сформированной резильентности (психологической

устойчивости к стрессу и эмоциональному выгоранию) преподаватель может столкнуться с размыванием профессиональных границ и постепенным эмоциональным истощением.

Связка эмоционального интеллекта и психологической устойчивости в данном контексте формирует важный синергетический эффект. При недостаточном уровне эмоционального интеллекта преподаватель не способен своевременно распознавать возникающие коммуникативные и психологические проблемы в учебной группе. Однако даже при наличии такой чувствительности, но при слабой психологической устойчивости, возможна эмоциональная перегрузка, приводящая к срывам, конфликтам и снижению профессиональной эффективности.

Особое значение это приобретает в условиях узбекской коммуникативной культуры, где публичная обратная связь с негативной оценкой может восприниматься как угроза «лицу» и социальному статусу обучающегося. В этой связи преподаватель с развитым эмоциональным интеллектом способен трансформировать потенциально конфликтную ситуацию в конструктивный педагогический процесс. Например, вместо прямой критики он использует мягкие стратегии коррекции: «Текст по содержанию очень интересный, давай вместе доработаем эти моменты, чтобы он выглядел ещё более убедительно для аудитории». Такой подход позволяет сохранить мотивацию студентов, поддержать их уверенность и одновременно обеспечить качественное усвоение материала.

Таким образом, в условиях РКИ в Узбекистане эмоциональный интеллект и психологическая устойчивость выступают не вспомогательными, а ключевыми профессиональными компетенциями, обеспечивающими эффективность межкультурного образовательного взаимодействия и устойчивость преподавателя в сложных коммуникативных ситуациях.

Рассмотрим случай из практики в Термезком государственном университете: Преподаватель РКИ в традиционной европейской манере говорит студенту-узбеку: «Ты должен переделать домашнее задание, потому что неправильно определил задачу и сделал много ошибок в тексте. Перепиши». Студент внешне кивает, но на следующем занятии угасает его мотивация. предметом межкультурного общения становится не текст как продукт, а сохранение самоуважения. Это и есть «эмоциональный перевод» — одна из главных функций преподавателя РКИ в Узбекистане.

Можно выделить следующие маркеры успешности профессиональной деятельности при высоком уровне эмоционального интеллекта и психологической устойчивости преподавателя РКИ в Узбекистане:

1. Психологически комфортный климат в образовательном процессе. (равное эмпатическое отношение, отсутствие «изгоев по языковому признаку»; студенты свободно шутят о своих ошибках)|

2. Учебная мотивация (снижение тревожности при говорении, когда боязнь ошибки сменяется интересом)

3.Умение разрешения конфликтов (когда преподаватель использует медиативные техники, а не авторитарный стиль).

Для современного преподавателя РКИ в Узбекистане особенно важно отметить роль этих компетенций в межкультурном общении. Устойчивый и эмоционально компетентный преподаватель становится для студентов культурным мостом: он не навязывает норму, а переводит смыслы. Например, объясняя разницу между прямолинейным отказом «нет» и русским «ну, это сложно...», учитель опирается на эмпатию к родной культуре студента и терпение, подкрепленное устойчивостью, при этом понимая и учитывая смысловые традиции в узбекской культуре и подбирая адаптивные аналоги.

Преподаватель РКИ, умеющий управлять своими эмоциями и восстанавливать равновесие, создает безопасное пространство, где межкультурное общение из потенциального источника стресса превращается в источник взаимного культурного обогащения. Даже самая совершенная методика преподавания РКИ останется лишь набором инструкций, бесполезных в ситуации живого, непредсказуемого диалога культур.

В Узбекистане, где взаимодействие и наложение культурных традиций русского, узбекского и других народов формируют сложный и насыщенный коммуникативный фон, преподаватель русского языка как иностранного (РКИ) выступает не только как транслятор лексико-грамматических знаний, но и как своеобразный «режиссёр эмоционального пространства» учебного процесса. В таких условиях его деятельность выходит за рамки традиционного преподавания языка и приобретает выраженный межкультурный и психолого-педагогический характер.

Эмоциональный интеллект и психологическая устойчивость позволяют преподавателю РКИ эффективно выполнять ряд ключевых функций в образовательном процессе. Во-первых, своевременно распознавать зоны коммуникативного дискомфорта у обучающихся, возникающие вследствие языковых трудностей, культурных различий или психологической неуверенности. Во-вторых, экологично и педагогически корректно регулировать речевое и поведенческое взаимодействие студентов, не нарушая их эмоционального состояния и сохраняя мотивацию к обучению. В-третьих, поддерживать собственное ресурсное состояние даже в условиях высокой учебной нагрузки, межкультурной напряжённости и эмоционально насыщенных педагогических ситуаций.

Таким образом, обладая развитым эмоциональным интеллектом и устойчивой психологической позицией, преподаватель РКИ в Узбекистане способен трансформировать любой межкультурный диалог в пространство личностного и образовательного развития. В результате учебный процесс по РКИ становится не только освоением языка, но и площадкой подлинного педагогического взаимодействия, в которой органично сочетаются лингвистический, культурный и психологический дискурсы в условиях межкультурной образовательной среды.

Библиография:

1. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2019.

2. Елизарова Г.В. Культура и обучение иностранным языкам. — СПб.: КАРО, 2015.

3. Леонтьев А.А. Психология общения. — М.: Смысл, 2005 (раздел о межкультурной коммуникации).

4. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному общению. — М.: Русский язык, 2020.

5. Саидова М.М. Психолого-педагогические особенности преподавания русского языка в узбекской школе. // Вестник НУУз. — Ташкент, 2023.

6. Трофимова Г.С. Психологическая устойчивость учителя как условие его профессионализма. — Ижевск, 2017.

UDK: 316.7:159.923(575.1)

G‘aniyev Axrorjon Alisher o‘g‘li,
Kangvon Milliy universiteti Ingliz tili lingvistikasi yo‘nalishi doktoranti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

HOFSTED MADANIY O‘LCHOVLARI PRIZMASIDA O‘ZBEK MENTALITETI: NAZARIY VA TAHLILIY TADQIQOT

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek milliy mentalitetini Gert Hofstedning olti madaniy o‘lchovi — hokimiyat masofasi, individualizm va kollektivizm, erkaklik va ayollik, noaniqlikdan qochish, uzoq muddatli va qisqa muddatli yo‘nalish hamda ijozatlilik va cheklanish doiralaridagi nazariy va tahliliy maqolalar tadqiq etilgan. Markaziy Osiyoda o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar va nashr etilgan xorijiy manbalarga tayanib, ushbu maqola o‘zbek jamiyatida yuqori hokimiyat masofasi, kuchli kollektivizm, yuqori noaniqlikdan qochish tendensiyasi va cheklanishga moyillik qanday namoyon bo‘lishini tahlil qiladi. Mahalla instituti, «hurmat» tushunchasi va «hashar» amaliyoti Hofsted o‘lchovlarining empirik ko‘rsatkichlari sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqola an'anaviy o‘zbek madaniy namunalari Hofsted modeli nazariy prognozlari bilan sezilarli darajada mos kelishini isbotlaydi, shuningdek globallashuv va postsovet modernizatsiyasi olib kelgan ziddiyatlarni ham yoritadi.

Kalit so‘zlar: Hofsted o‘lchovlari, o‘zbek mentaliteti, kollektivizm, hokimiyat masofasi, madaniy identitet, mahalla, noaniqlikdan qochish, madaniyatlararo psixologiya.

HOFSTEDE'S CULTURAL DIMENSIONS THROUGH THE PRISM OF UZBEK MENTALITY: A THEORETICAL AND ANALYTICAL STUDY

Abstract. This article presents a theoretical and analytical examination of Uzbek national mentality through the framework of Geert Hofstede's six cultural dimensions: Power Distance, Individualism vs. Collectivism, Masculinity vs. Femininity, Uncertainty Avoidance, Long-Term vs. Short-Term Orientation, and Indulgence vs. Restraint. Drawing on published cross-cultural studies and empirical investigations conducted in Central Asia, the study analyzes how Uzbek society manifests high power distance, strong collectivism, elevated uncertainty avoidance, and a tendency toward restraint. Key cultural institutions such as the mahalla community system, the concept of hurmat (deference), and the practice of hashar (communal labor) are examined as empirical indicators of Hofstede's dimensions. The article argues that traditional Uzbek cultural patterns exhibit significant coherence with the theoretical predictions of the Hofsted model, while also highlighting the tensions introduced by post-Soviet modernization and globalization. The findings contribute to filling the scholarly gap in cross-cultural research on Central Asian societies and provide a basis for practical applications in education, management, and intercultural communication.

Keywords: Hofstede's dimensions, Uzbek mentality, collectivism, power distance, cultural identity, mahalla, uncertainty avoidance, cross-cultural psychology.

УЗБЕКСКИЙ МЕНТАЛИТЕТ ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ КУЛЬТУРНЫХ ИЗМЕРЕНИЙ ХОФСТЕДЕ: ТЕОРЕТИКО-АНАЛИТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

Аннотация. В данной статье представлено теоретическое и аналитическое исследование узбекского национального менталитета через призму шести культурных измерений Герта Хофстее: дистанции власти, индивидуализма и коллективизма, маскулинности и феминности, избегания неопределённости, долгосрочной и краткосрочной ориентации, а также снисходительности и сдержанности. Опираясь на опубликованные кросс-культурные исследования и эмпирические работы по Центральной Азии, статья анализирует, как узбекское общество проявляет высокую дистанцию власти, выраженный коллективизм, высокий уровень избегания неопределённости и склонность к сдержанности. Традиционные институты — махалля, концепция «хурмат» (уважение-почтение) и практика «хашар» (коллективный труд) — рассматриваются как эмпирические индикаторы измерений Хофстед. Статья вносит вклад в устранение научного пробела в кросс-культурных исследованиях центральноазиатских обществ.

Ключевые слова: измерения Хофстед, узбекский менталитет, коллективизм, дистанция власти, культурная идентичность, махалля, избегание неопределённости, кросс-культурная психология.

Madaniyat insonning xulq-atvori, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Gert Hofstedning madaniy o‘lchovlar nazariyasi (Hofsted, 1980, 2001) zamonaviy madaniyatlararo tadqiqotlarda eng keng qo‘llaniladigan kontseptual doira bo‘lib qolmoqda va u ijtimoiy fan, menejmend hamda ta'lim sohalarida keng e'tirof etilgan. Hofsted o‘z tadqiqotlarida insonlar madaniyati ta'sirida shakllanadigan «aqliy dasturlar» (mental programs) tushunchasini kiritib, bu dasturlar milliy madaniyatlarning o‘ziga xos ko‘rinishlarini belgilashini isbotlagan.

O‘zbek mentaliteti asrlar davomida Buyuk Ipak yo‘li sivilizatsiyasi, islom madaniyati, ko‘chmanchi va o‘troq xalqlar an'analari hamda sovet davri ijtimoiy o‘zgarishlari ta'sirida shakllangan. Ushbu mentalitetning ilmiy asosda tahlil qilinishi esa hozircha nisbatan kam tadqiq etilgan soha bo‘lib qolmoqda. Markaziy Osiyoda Hofsted o‘lchovlarini qo‘llagan tadqiqotlar cheklangan bo‘lsada, Aminova va Jegers (2014) o‘zbek madaniyatining ichki geterogenligini, Dadabaev (2013) mahalla institutining ijtimoiy kapital shakllantirishdagi rolini va boshqalar Markaziy Osiyo madaniyatini Hofsted olti o‘lchovi orqali tahlil qilgan tadqiqotlari mavjud.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi o‘zbek mentalitetini Hofsted madaniy o‘lchovlari – hokimiyat masofasi, individualizm va kollektivizm, erkaklik va

ayollik, noaniqlikdan qochish, uzoq va qisqa muddatli yo‘nalish hamda ijozatlilik va cheklanish – prizmasida nazariy jihatdan tahlil qilish va o‘zbek jamiyatining o‘ziga xos madaniy xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari madaniyatlararo muloqot, ta'lim tizimi islohoti va xalqaro biznes sohalari uchun amaliy ahamiyatga ega.

1. Hofsted madaniy o‘lchovlari nazariyasi. Gert Hofsted 1967–1973 yillar oralig‘ida 50 dan ortiq mamlakatdagi IBM xodimlarini qamrab olgan keng ko‘lamli empirik tadqiqot asosida dastlab to‘rtta madaniy o‘lchovni aniqlagan: hokimiyat masofasi (PDI), individualizm va kollektivizm (IDV), erkaklik va ayollik (MAS) hamda noaniqlikdan qochish (UAI). Keyinchalik beshinchi — uzoq va qisqa muddatli yo‘nalish (LTO), va oltinchi — ijozatlilik va cheklanish (IVR) o‘lchovlari qo‘shilgan (Hofsted, Hofsted va Minkov, 2010).

Hofstedning (2001) asosiy argumentiga ko‘ra, inson aqliy dasturlari oila muhitida shakllanib, maktab va tashkilotlarda mustahkamlanadi. Bu dasturlar milliy madaniyatning asosini tashkil etadi va ular o‘zini ko‘proq turli mamlakatlardagi qadriyatlardagi farqlarda namoyon qiladi. Hofsted modeliga ko‘ra, yuqori hokimiyat masofasiga ega jamiyatlarda ierarxiya va avtoritet katta ahamiyat kasb etadi; kuchli kollektivizmda esa individual manfaatlar guruh manfaatlariga bo‘ysundiriladi.

Hofstedning dimensionalizatsiya modeli global miqyosda keng qo‘llanilgan bo‘lsada (Hofsted, 1984), uning tanqidchilari ham mavjud. McSweeney (2002) milliy madaniyatlarning bir jinsliligini (homogeneity) shubha ostiga olib, Hofsted o‘lchovlari mamlakat ichidagi mintaqaviy va etnik madaniy farqlarni hisobga olmasligini ta'kidlagan. Biroq bu tanqidlar modelning asosiy nazariy qiymatini inkor etmaydi.

2. Markaziy Osiyo va O‘zbekistondagi madaniy tadqiqotlar. Markaziy Osiyoda Hofsted modelini qo‘llagan tadqiqotlar soni cheklangan. Aminova va Jegers (2014) o‘zbek milliy madaniyatining bir jinsli emasligini isbotlab, turli ijtimoiy guruhlar va migratsiya tajribasiga ega respondentlar orasida hokimiyat masofasi indeksi sezilarli farq qilishini ko‘rsatgan. Bu tadqiqot Hofsted modelini bir xil mamlakat doirasida ham differensial tarzda qo‘llanishi zarurligini namoyish etgan.

Dadabaev (2013) o‘z tadqiqotida O‘zbekistondagi mahalla institutini sovet va postsovet davridagi o‘zgarishlar kontekstida o‘rganib, bu muassasaning turli etnik va diniy guruhlarni umumiy turar-joy identiteti asosida birlashtirish qobiliyatini qayd etgan. Muallif mahallaning ijtimoiy kapital manbayi sifatidagi rolini ta'kidlab, uning kuchli kollektivizmning empirik ifodasi ekanligini ko‘rsatgan.

Mirvosilova (2024) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot Markaziy Osiyo madaniyatini Hofstedning olti o‘lchovi bo‘yicha tahlil qilib, mintaqadagi jamiyatlarning kollektivizmga moyilligini, an'anaviy jins rollarini saqlab qolishini, noaniqlikdan qochish tendensiyasini va uzoq muddatli yo‘nalishni ilmiy jihatdan tasdiqlagan.

Shuningdek, Tandfonline jurnalida chop etilgan tadqiqot (Hartley et al., 2025) O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘izistondagi keksa avlod vakillarining smartfon foydalanishi tajribasini Hofsted madaniy o‘lchovlari orqali tahlil qilib, oila va jamiyat ta'sirining texnologiya qabul qilishda hal qiluvchi rol o‘ynashini aniqlagan.

Bu tadqiqot kollektivizm va kuchli guruh ta'sirining O‘zbekistonda ham mavjudligini tasdiqlaydi.

3. O‘zbek mentalitetining asosiy xususiyatlari

O‘zbek mentaliteti tadqiqotchilar tomonidan bir necha asosiy xususiyatlar orqali tavsiflanadi. Kollektivizm va oilaviy qadriyatlar o‘zbek jamiyatining poydevorini tashkil etib, guruh manfaatlarining individual manfaatlardan ustun qo‘yilishi asosiy madaniy normaga aylangan (Mirvosilova, 2024). Mahalla muassasasi esa nafaqat turar-joy birlashmasidan iborat, balki ijtimoiy nazorat, o‘zaro yordam va kollektiv mas'uliyatning asosiy instituti hisoblanadi (Dadabaev, 2013).

Kattalar va avoritetga nisbatan hurmat o‘zbek madaniyatida hokimiyat masofasining eng yaqqol ko‘rinishlaridan biridir. Aminova va Jegers (2014) tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, «hurmat» tushunchasi nafaqat oila doirasida, balki ish muhiti va ijtimoiy munosabatlarda ham keng tarqalgan. Jamiyat va tashkilot rahbarlariga so‘zsiz bo‘ysunish, ularga e'tiroz bildirmaslik an'anaviylashgan norma sifatida qaraladi.

O‘zbek madaniyatidagi hashar amaliyoti — ixtiyoriy jamoaviy mehnat — Hofsted modelida kuchli kollektivizm va uzoq muddatli hamjihatlik (long-term orientation) ning eng yorqin namunasi sifatida qaralishi mumkin. Bundan tashqari, nikoh, aza va bayramlardagi jamoaviy ishtirok madaniy majburiyat sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqola sof nazariy-tahliliy yondashuv asosida tuzilgan bo‘lib, birlamchi empirik ma'lumotlar to‘plash amalga oshirilmagan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli adabiyotlar tahlili (systematic literature review) va qiyosiy madaniy tahlil (comparative cultural analysis) usullari qo‘llanilgan.

Tahlil uchun adabiyotlar quyidagi mezonlar asosida tanlangan: (1) xalqaro retsenziyali (peer-reviewed) jurnallarda nashr etilgan bo‘lishi; (2) Hofsted madaniy o‘lchovlari yoki O‘zbekiston, Markaziy Osiyo madaniyatiga bevosita aloqador bo‘lishi; (3) 1980–2025 yillar oralig‘ida nashr etilgan bo‘lishi. Jami 15 dan ortiq ilmiy manba ko‘rib chiqilgan, shulardan 8 tasi asosiy adabiyot sifatida qabul qilingan.

Hofsted oltita madaniy o‘lchovi — hokimiyat masofasi (PDI), individualizm va kollektivizm (IDV), erkaklik va ayollik (MAS), noaniqlikdan qochish (UAI), uzoq muddatli va qisqa muddatli yo‘nalish (LTO), ijozatlilik va cheklanish (IVR) — tahlilning nazariy asosi sifatida xizmat qilgan. Har bir o‘lchov uchun o‘zbek jamiyatidagi madaniy amaliyotlar, an'analar va ijtimoiy institutlar tegishli empirik adabiyotlar bilan bog‘langan va tahlil qilingan.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida quyidagilarni qayd etish lozim: birinchidan, O‘zbekiston bo‘yicha Hofsted o‘lchovlarining to‘liq milliy ma'lumotlar bazasi hozircha rasman mavjud emas; ikkinchidan, mavjud tadqiqotlar ko‘pincha kichik namunalarga asoslanadi; uchinchidan, o‘zbek jamiyatidagi mintaqaviy, yoshga va ta'limga qarab farqlanuvchi madaniy geterogenlik to‘liq qamrab olinmagan. Shuning uchun maqolaning xulosalari umumlashtiruvchi xarakter kasb etib, kelajakdagi empirik tadqiqotlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi maqsad qilingan.

Hofstedning (2001) hokimiyat masofasi o‘lchovi jamiyatda kuchsizroq a'zolarning quvvatning teng taqsimlanmaganligini qabul qilish darajasini o‘lchaydi. O‘zbek jamiyatida hokimiyat masofasining yuqori ekanligi ko‘pgina empirik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Aminova va Jegers (2014) o‘z tadqiqotlarida katta tashkilotlarda ishlovchilar uchun hokimiyat masofasi indeksini 61.22 deb aniqlagan — bu Osiyo va Lotin Amerikasidagi yuqori PDI ko‘rsatkichlariga yaqin.

O‘zbek jamiyatida hokimiyat masofasining asosiy ko‘rinishlari sifatida quyidagilarni sanash mumkin: rahbarning qarorlariga e'tiroz bildirmaslik; kattalar va avtoritetga ko‘rsatiladigan «hurmat»; davlat tuzilmalariga va rahbariyatga bo‘ysunish. Markaziy Osiyodagi tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda quvvatning teng bo‘lmagan taqsimlanishi nafaqat qabul qilinadi, balki ko‘pincha tabiiy holat sifatida idrok etiladi. Bu holat Hofstedning yuqori PDI jamiyatlari tavsifiga to‘liq mos keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, PDI ko‘rsatkichi o‘zbek jamiyatida bir hil emas. Aminova va Jegers (2014) xorijda yashovchi o‘zbeklar orasida PDI sezilarli darajada past — 22.14 ekanligini aniqlagan, bu esa madaniy o‘zgarish va modernizatsiyaning ta'sirini ko‘rsatadi. Biroq mahalliy aholining asosiy qismi hali ham yuqori PDI namunalarini namoyon qilmoqda.

Hofsted modelida eng kam individualizm (ya'ni eng kuchli kollektivizm) jamiyatdagi shaxsning guruhga bog‘liqligini bildiradi. O‘zbek mentalitetida kollektivizm madaniy o‘zlik (cultural identity) ning markaziy unsuri hisoblanadi. Oila, mahalla va katta guruh manfaatlari individual ehtiyojlardan doimiy ravishda ustun qo‘yiladi.

Mahalla muassasasi bu kollektivizmning institutsional ifodasi bo‘lib, Dadabaev (2013) uni «turli etnik va diniy guruhlarni umumiy identitet asosida birlashtiruvchi» tuzilma sifatida tavsiflagan. Mahallaning ijtimoiy nazorat, o‘zaro yordam (muhtojga yordam berish) va jamoaviy qaror qabul qilish vazifalari o‘zbek kollektivizmining amaliy ko‘rinishlaridir.

Hashar amaliyoti ham kuchli kollektivizmning yana bir namunasidir. Jamoaviy mehnat orqali yo‘llar, ariqlar qurilishi, nikoh va aza marosimlarini birgalikda o‘tkazish — bularning barchasi «guruh uchun shaxsiy vaqt va kuch sarflash» madaniy normasi sifatida qaraladi. Boshqa tadqiqotlar ham Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston, madaniyatini guruh hamjihatligiga va oila hamda jamoaga sodiqligiga asoslanuvchi kuchli kollektivist madaniyat sifatida tasniflagan.

Hofstedning MAS o‘lchovi jamiyatda raqobat, muvaffaqiyat va moddiy yutuqlarga (erkaklik) yoki hamkorlik, hayot sifati va zaif a'zolarni himoya qilishga (ayollik) qay darajada urg‘u berilishini aniqlaydi. O‘zbek jamiyatida an'anaviy jins rollarining aniq farqlanishi, erkaklar uchun moddiy muvaffaqiyatning yuksak qadrlanganligi va raqobatchilik muhiti yuqori MAS ko‘rsatkichlariga ishora qiladi.

Tadqiqotlar Markaziy Osiyo jamiyatlarida, jumladan O‘zbekistonda, an'anaviy jins rollarining ustunligini va qattiqqo‘llik hamda qat'iyatlilikka urg‘u berilishini qayd etib, bu mintaqani erkaklik madaniyatiga moyil deb tavsiflagan. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, o‘zbek madaniyatida ayolga nisbatan hurmat va ona obraziga aks ettirilgan ehtirom ayollik o‘lchovi elementlarini ham o‘z ichiga oladi. Bu ikki

tomonlamalik o‘zbek madaniyatining o‘ziga xos xususiyati sifatida qo‘shimcha tadqiqotni talab etadi.

UAI o‘lchovi jamiyatning noaniqlik va g‘ayriodatiy vaziyatlar bilan qanday munosabatda bo‘lishini ko‘rsatadi. Yuqori UAI ko‘rsatkichi qoidalarga, an'analarga va mavjud tartibga qattiq rioya qilishda ifodalanadi. O‘zbek madaniyatida noaniqlikdan qochish odat, an'analar va diniy me'yorlarga kuchli intilishda ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek jamiyatida barqarorlikka intilish va xavf-xatardan qochish tendensiyasi iqtisodiy va ijtimoiy qarorlarda ham yaqqol ko‘rinadi. Tadbirkorlikdan ko‘ra barqaror davlat xizmatiga ustunlik berish, yangi texnologiyalar yoki g‘oyalarni ehtiyotkorlik bilan qabul qilish, an'anaviy nikoh va oila tuzilishini saqlash — bularning barchasi yuqori UAI namunalaridir. Markaziy Osiyo madaniyatidagi noaniqlikdan qochish an'anaga va mavjud normaga qat'iy amal qilish orqali namoyon bo‘ladi.

LTO o‘lchovi kelajak uchun sabr-toqat va tejamkorlik (uzoq muddatli) yoki an'analarni ardoqlash va hozirgi ijtimoiy majburiyatlarni bajarish (qisqa muddatli) o‘rtasidagi nisbatni o‘lchaydi. Hofsted, Hofsted va Minkov (2010) bu o‘lchovni millatlarning kelajak va o‘tmishga nisbatan tutgan pozitsiyasi deb tavsiflagan.

O‘zbek mentalitetida ikkala element ham mavjud. Bir tomondan, avlodlar davomida to‘plangan madaniy meros va an'analarga kuchli intilish — qisqa muddatli yo‘nalish elementlari — yaqqol ko‘rinadi: ota-ona va bobolarga hurmat, o‘tmish an'analarini avlodlarga yetkazish mas'uliyati kuchli. Boshqa tomondan, farzandlar uchun ta'lim va kelajakka sarmoya qilish, «farzandlarimiz yaxshi hayot kechirsin» degan madaniy istak uzoq muddatli yo‘nalish elementlaridir.

IVR o‘lchovi insonlarning hayotdan zavq olish, ko‘ngilocharlik va shaxsiy istaklarini qondirish imkoniyati qanday darajada cheklanganligi yoki erkinligini o‘lchaydi. Yuqori cheklanish (restraint) ko‘rsatkichi ijtimoiy normalar orqali inson xohishlarining bostirilib, ijtimoiy majburiyatlar va intizomga urg‘u berish bilan tavsiflanadi.

O‘zbek jamiyatida ijtimoiy cheklanish kuchli bo‘lib, jamoat fikrining (jamoatchilik nazorati) individual xulq-atvorga ta'siri yuqori. Kiyinish, gaplashish, xarajat qilish va hatto bo‘sh vaqtni qanday o‘tkazish borasida mahalla va katta oila tomonidan belgilanmagan, ammo kuchli ijtimoiy me'yorlar mavjud. Tadqiqotlar Markaziy Osiyo madaniyatini cheklanishga (restraint) moyil deb tavsiflagan va bu ko‘rsatkich o‘zbek mentalitetiga mos keladi.

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek milliy mentaliteti Hofsted madaniy o‘lchovlari doirasida bir qator o‘ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi: hokimiyat masofasining yuqoriligi, kuchli kollektivizm, an'anaviy jins rollarining saqlanishi, noaniqlikdan yuqori darajada qochish va ijtimoiy cheklanishga moyillik. Bu xususiyatlar o‘zbek madaniyatining tarixiy negizlari — mahalla instituti, hurmat qoidalari va hashar amaliyoti — bilan uzviy bog‘liq.

Nazariy jihatdan ushbu maqola o‘zbek mentalitetini Hofsted modeli orqali tizimli tahlil qilishga bag‘ishlangan dastlabki nazariy ishlardan biri bo‘lib, Markaziy Osiyo madaniyatini madaniyatlararo psixologiya nuqtai nazaridan o‘rganishdagi

bo‘shliqni to‘ldirishga hissa qo‘shadi. Amaliy jihatdan esa bu natijalar ta'lim tizimi islohoti, xalqaro biznes hamkorliklari va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish uchun muhim asos bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, globallashuv va postsovet modernizatsiyasi o‘zbek mentalitetida ham o‘zgarishlarga olib kelmoqda: shaharlashgan va xorijga chiqqan yoshlar orasida individualizm va past hokimiyat masofasi tendensiyalari kuchaymoqda. Bu holat Hofsted modelining statikligini emas, balki madaniyatning dinamik tabiati hisobga olinishi zarurligini ko‘rsatadi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo‘nalishlar tavsiya etiladi: birinchidan, O‘zbekistonda keng ko‘lamli miqdoriy empirik tadqiqotlar o‘tkazib, milliy Hofsted indekslarini to‘liq aniqlash; ikkinchidan, yosh va keksa avlod, shahar va qishloq aholisi o‘rtasidagi madaniy farqlarni qiyosiy o‘rganish; uchinchidan, o‘zbek mentalitetini qo‘shni — Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston — madaniyatlari bilan Hofsted doirasida solishtirib tadqiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminova, M., & Jegers, M. (2014). Are Hofstede's national cultures homogeneous? The case of Uzbekistan. In J. Ahrens & H. W. Hoen (Eds.), Economic development in Central Asia: Institutional underpinnings of factor markets (pp. 85–98). PL Academic Research.

2. Dadabaev, T. (2013). Community life, memory and a changing nature of Mahalla identity in Uzbekistan. Journal of Eurasian Studies, 4(2), 181–196. https://doi.org/10.1016/j.euras.2013.03.008

3. Hartley, L., Kononova, A., Makadok, S., & Seitkali, A. (2025). Smartphone use among Central Asian older adults: A Hofstede's cultural dimensions perspective. International Journal of Human–Computer Interaction. https://doi.org/10.1080/10447318.2025.2526583

4. Hofstede, G. (1980). Culture's consequences: International differences in work-related values. Sage Publications.

5. Hofstede, G. (1984). National cultures revisited. Asia Pacific Journal of Management, 2(1), 22–28. https://doi.org/10.1007/BF01732507

6. Hofstede, G. (2001). Culture's consequences: Comparing values, behaviors, institutions, and organizations across nations (2nd ed.). Sage Publications.

7. Hofstede, G., Hofstede, G. J., & Minkov, M. (2010). Cultures and organizations: Software of the mind (3rd ed.). McGraw-Hill.

8. Mirvosilova, R. X. (2024). Culture of Central Asia from 6 dimensions of G. Hofstede. Conference of Natural and Applied Sciences in Scientific Innovative Research, 1(1), 34–37.

9. Pazliddinovna, U. M., et al. (2025). The social and philosophical analysis of the transformation of the Mahalla system in Uzbekistan: From traditional community to modern civil institution. Journal of Cultural Analysis and Social Change. https://doi.org/10.36811/jcasc.2025.2145

10. Urinboyev, R., & Eraliev, S. (2022). Informal civil society initiatives in non-Western societies: Mahallas in Uzbekistan. Central Asian Survey, 41(3), 477–497. https://doi.org/10.1080/02634937.2022.2058915

11. Urinboyev, R. (2011). Law, social norms and welfare as means of public administration: Case study of Mahalla institutions in Uzbekistan. The NISPAcee Journal of Public Administration and Policy, 4(1), 33–57. https://doi.org/10.2478/v10110-011-0002-8

12. Kandiyoti, D. (2007). The politics of gender and the Soviet paradox: Neither colonized nor modern? Central Asian Survey, 26(4), 601–623.

13. McSweeney, B. (2002). Hofstede's model of national cultural differences and their consequences: A triumph of faith – a failure of analysis. Human Relations, 55(1), 89–118. https://doi.org/10.1177/0018726702551004

14. Triandis, H. C. (1995). Individualism and collectivism. Westview Press.

15. House, R. J., Hanges, P. J., Javidan, M., Dorfman, P. W., & Gupta, V. (Eds.). (2004). Culture, leadership, and organizations: The GLOBE study of 62 societies. Sage Publications.

16. Schwartz, S. H. (1992). Universals in the content and structure of values: Theoretical advances and empirical tests in 20 countries. In M. P. Zanna (Ed.), Advances in Experimental Social Psychology (Vol. 25, pp. 1–65). Academic Press.

17. Schwartz, S. H. (2006). A theory of cultural value orientations: Explication and applications. Comparative Sociology, 5(2–3), 136–182. https://doi.org/10.1163/156913306778667357

18. Trompenaars, F., & Hampden-Turner, C. (1997). Riding the waves of culture: Understanding cultural diversity in business (2nd ed.). Nicholas Brealey Publishing.

19. Hofstede, G. (2011). Dimensionalizing cultures: The Hofstede model in context. Online Readings in Psychology and Culture, 2(1). https://doi.org/10.9707/2307-0919.1014

20. Tutumlu, A., Önemli, B., & Rustemov, I. (2025). Deciphering dictators' discourse on Indigenous democracy: A case of Karimov's Uzbekistan. Central Asian Survey, 44(1), 64–84. https://doi.org/10.1080/02634937.2024.2393386

21. Schwartz, S. H. (2014). Rethinking the concept and measurement of societal culture in light of empirical findings. Journal of Cross-Cultural Psychology, 45(1), 5–13. https://doi.org/10.1177/0022022113490830

22. Hofstede, G. (1980). Motivation, leadership, and organization: Do American theories apply abroad? Organizational Dynamics, 9(1), 42–63. https://doi.org/10.1016/0090-2616(80)90013-3

UDK: 37.015.3:159.9:316.6



Oribboyeva Dilafruz Dadamirzayevna,
Namangan davlat pedagogika instituti
"Kreativ pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti

O'QUVCHILAR O'RTASIDA BULLING HOLATLARINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK OQIBATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilar o'rtasida uchraydigan bulling holatlarining psixologik-pedagogik oqibatlari tahlil qilinadi. Bullingning o'quvchi shaxsiyatiga, uning emotsional holatiga, o'qishga bo'lgan munosabatiga hamda ijtimoiy moslashuv jarayoniga salbiy ta'siri yoritib berilgan. Shuningdek, bullingga duchor bo'lgan o'quvchilarda kuzatiladigan qo'rquv, o'z-o'ziga ishonchning pasayishi, tajovuzkorlik yoki ijtimoiy cheklanish kabi holatlar ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan. Maqolada ta'lim muassasalarida bullingning oldini olish, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish va o'qituvchi hamda ota-onalarning bu boradagi roliga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: bulling, pedagogika, psixologiya, onglilik, takroriylik, travmatik stress, o'z-o'zini baholash.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ БУЛЛИНГА СРЕДИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В данной статье анализируются психологические и педагогические последствия буллинга, возникающего среди учащихся. Раскрывается негативное влияние буллинга на личность обучающегося, его эмоциональное состояние, отношение к учебе, а также процесс социальной адаптации. Кроме того, на основе научных источников обоснованы такие состояния, наблюдаемые у учащихся, подвергшихся буллингу, как страх, снижение самооценки, агрессивность или социальная изоляция. В статье уделяется особое внимание вопросам профилактики буллинга в образовательных учреждениях, совершенствованию механизмов психолого-педагогической поддержки, а также роли учителей и родителей в данном процессе.

Ключевые слова: буллинг, педагогика, психология, осознанность, повторяемость, травматический стресс, самооценка.

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONSEQUENCES OF BULLYING AMONG STUDENTS

Abstract. This article analyzes the psychological and pedagogical consequences of bullying among students. It highlights the negative impact of bullying on students' personality development, emotional well-being, attitudes toward learning, and the process of social adaptation. In addition, based on scientific sources, the article substantiates such conditions observed in students who have been subjected to bullying as fear, decreased self-esteem, aggressiveness, or social isolation. Special attention is given to the prevention of bullying in educational institutions, the improvement of psychological and pedagogical support mechanisms, and the role of teachers and parents in addressing this issue.

Keywords: bullying, pedagogy, psychology, awareness, repetitiveness, traumatic stress, self-esteem.

«Bulling» atamasi inglizcha «bully» (zo‘ravon, bezorilik qiluvchi) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab XIX asr oxirida ingliz tilidagi adabiyotlarda nojo‘ya hazillar, maktabdagi kaltakbozlik va o‘zaro zo‘ravonliklarni ifodalashda ishlatilgan. Bugungi kunda esa «bulling» tushunchasi zamonaviy pedagogika va psixologiyada shaxslararo munosabatlardagi tajovuzning takroriy, ongli va asimmetrik (kuchlar nomutanosibligi) holatini ifodalovchi ilmiy termin sifatida mustahkam o‘rin egallagan [3].

Yevropalik psixolog va pedagog D.Olveus (1993) bullingni quyidagicha tavsiflaydi: «Bulling – bu bir yoki bir nechta shaxs tomonidan boshqasiga nisbatan takroran, ongli ravishda zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlar bo‘lib, jabrlanuvchi o‘zini himoya qila olmaydigan holatga tushadi» [1].

D.Olveus nazariyasi bulling hodisasiga zamonaviy yondashuvlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Keyinchalik bu tushunchaga Smit (2004), Rigbi (2008), Espelage va Swearer (2010), Craig va Pepler (2011) kabi olimlar ham o‘zlarining ijtimoiy-psixologik va ta’limiy talqinlarini kiritganlar. Bu olimlarning tadqiqotlari bullingning turlarini, uning sabab va oqibatlarini, unga qarshi kurashish strategiyalarini ochib berdi [2].

Bulling holatlarining asosiy belgilari va farqlovchi jihatlarini ko‘rib chiqaylik. Ilmiy adabiyotlarda bulling hodisasi quyidagi uchta asosiy kriteriy bilan ajralib turadi:

Kuchlar nomutanosibligi – agressor jismonan, ijtimoiy jihatdan yoki emotsional jihatdan ustun pozitsiyada turadi. Takroriylik – tajovuzkor harakatlar bir martalik emas, balki tizimli va uzluksiz takrorlanadi. Onglilik – harakatlar tasodifiy emas, balki ongli va maqsadli zo‘ravonlikni ifodalaydi.

Bullingni oddiy nizolar, janjallar yoki bahs-munozaralardan ajratib turuvchi jihat ham aynan shulardir. O‘zaro kelishmovchilik har ikki tomonning kuchi va

irodasi teng bo‘lgan sharoitda yuz berishi mumkin, bullingda esa bir tomon mutlaqo zaif va himoyasiz holatdadur [7].

Tadqiqotning metodikasi Bullingning turlari uning amalga oshirilish usuli, ijtimoiy ta’sir darajasi va sezilishi bo‘yicha turlicha shakllarda ifodalanadi. Ilmiy-pedagogik yondashuvda quyidagi asosiy turlari ajratib ko‘rsatiladi:

Verbal bulling. Bu shakl o‘quvchilar o‘rtasida eng keng tarqalgan bo‘lib, og‘zaki tahqir, haqorat, ayblov, masxara, qo‘rqitish, laqab qo‘yish, pastga urish shaklida namoyon bo‘ladi.

Verbal bullingning quyidagi shakllari mavjud: masxarali laqablar qo‘yish; sha’ni yoki kelib chiqishi ustidan kulish; «Sen hech narsaga yaramaysan», «Sen bilan hech kim o‘ynamaydi» kabi ifodalar; doimiy tanbeh va boshqa o‘quvchilar oldida kamsitish. Verbal bullingning xavfi shundaki, u tez-tez «hazil», «sho‘xlik» yoki «bolalarcha qiliq» deb baholanadi. Aslida esa bu o‘quvchining psixologik portretini izdan chiqaruvchi bosimdir.

Jismoniy bulling. Jabrlanuvchiga jismoniy kuch ishlatish orqali zarar yetkazishga qaratilgan harakatlar jismoniy bullingga kiradi.Jismoniy bullingning quyidagi shakllari mavjud: urish, tepish, itarish; qarsak tortish, turtish, bosib o‘tish; buyumlarini olib qo‘yish yoki sindirish; tana a’zolariga zarar yetkazish, kiyimlariga shikast yetkazish [7].

Kiberbulling. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi bilan maktab o‘quvchilari orasida kiberbulling holatlari ortib bormoqda. Bu – internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va boshqa onlayn platformalar orqali sodir etiladigan tahqirlovchi va tajovuzkor harakatlardir. Kiberbullingning quyidagi shakllari mavjud: qo‘rqinchli, kamsituvchi xabarlar yuborish; shaxsiy fotosuratlarni ruxsatsiz tarqatish; yolg‘on ma’lumot tarqatish; onlayn guruhlarda ajratish yoki uyatli roliklar joylashtirish. Kiberbullingning asosiy xavfi shundaki, bu holatlar ko‘pincha kattalar nazoratidan tashqarida sodir bo‘ladi, doimiy bo‘ladi va qochish imkoni yo‘q. [5].

Ijtimoiy (sotsial) bulling. Bu-o‘quvchini ijtimoiy guruhdan ajratish, e’tiborsizlik qilish, yolg‘izlantirish, befarqlik ko‘rsatish orqali psixologik bosim o‘tkazish shaklidir. Ijtimoiy bullingning quyidagi shakllari mavjud: o‘yin yoki mashg‘ulotlardan chiqarib qo‘yish; o‘quvchi bilan gaplashmaslik, uni befarq chetga surish; guruh bo‘lib rad qilish; «U bizdan emas», «Sen yolg‘izsan» kabi ijtimoiy ajratish strategiyalari.Ijtimoiy bullingning eng xavfli jihati – u yashirin, ko‘p hollarda o‘qituvchilar tomonidan sezilmaydi. Ammo bunday ajratish o‘quvchining o‘zini jamiyatdan chetlatilgan, befoyda va ishonchsiz his qilishiga olib keladi [7].

Bulling holatlari o‘quvchining nafaqat maktabdagi ta’limiy faoliyatiga, balki uning ruhiy holatiga, shaxsiy o‘ziga bahosi, hissiy barqarorligiga va ijtimoiy moslashuviga chuqur salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra tadqiqotchilar tomonidan bulling qurbonlarida ruhiy travma alomatlari, o‘zini izolyatsiya qilish, tashvish holatlari, depressiv kechinmalar va hatto suitsid xavfining ortishi qayd etiladi [5].

Psixologiyada bulling oqibatlarini tushuntiruvchi asosiy nazariyalar quyidagilar:

Travmatik stress nazariyasi (Herman, 1992): Takroriy tajovuz shaxs ruhiyatida stressga chidamsizlik, tashvishli vaziyatlarda tezda sinish, uyqu buzilishi, o‘zini aybdor his qilish kabi holatlarni keltirib chiqaradi [3].

O‘zini baholash nazariyasi (Rosenberg, 1965): Bulling qurboni o‘zini ijtimoiy jihatdan past darajada baholay boshlaydi, «men yaramayman», «hech kim meni yoqtirmaydi» degan ichki monolog shakllanadi. [8].

Ijtimoiy taqqoslash nazariyasi (Festinger, 1954): O‘quvchi doimiy ravishda o‘zini boshqalar bilan solishtirib, o‘zining zaif yoki noloyiq ekanligiga ishonch hosil qiladi [146].

Depressiya – bullingning eng ko‘p uchraydigan psixologik oqibatlaridan biridir. Uning asosiy belgilari quyidagilar: doimiy g‘amginlik va tushkunlik; o‘z hayotidan norozilik; diqqat jamlay olmaslik; hayotiy faoliyatga qiziqishning yo‘qolishi.

Craig va Pepler (2011) tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bunday bolalar keyinchalik ijtimoiy fobiyaga duchor bo‘lishi, kasb tanlashda qiyinchiliklarga uchrashi, yetuk shaxs sifatida shakllana olmasligi mumkin. O‘ziga past baho berish bullingning eng uzoq muddatli oqibatlaridan biridir. Jabrlanuvchi bola o‘zini yaroqsiz, qadrsiz, ijtimoiy maqomsiz his qiladi. Bu esa uning shaxsiy identitetini inkor etish, ijtimoiy rollarni rad etish, kommunikatsiyadan chetlashish, passivlik va ijtimoiy befarqlikka olib keladi [7].

Rigby (2008) ta’kidlaganidek, bulling qurboni bo‘lgan bolalar ko‘pincha o‘z qadr-qimmatini himoya qila olmaydigan, xavotirli, o‘z-o‘zini inkor qiluvchi shaxslarga aylanadi. Bu holat maktabdagi ishtirokini, o‘zlashtirishini, hattoki do‘stlik va muhabbatga munosabatini ham izdan chiqaradi [6].

Suitsidal fikrlar va urinishlar bulling holatlarining eng og‘ir psixologik oqibatlaridan biridir. WHO (2021) ma’lumotlariga ko‘ra, 15-19 yoshli yoshlar o‘rtasida o‘limning yuqori darajadagi keng tarqalishining sabablaridan biri – bu o‘z joniga qasd qilishdir [2]. Bunday vaziyatning yuzaga kelishida bulling holatini ham bitta omil sifatida ko‘rsatish mumkin.

Bulling hodisasi faqatgina o‘quvchining psixologik salomatligiga emas, balki uning ta’limiy faoliyati, o‘quv jarayoniga bo‘lgan munosabati, o‘zlashtirish darajasi va maktab muhitida ishtirok etishiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatadi [4]. Shu jihatdan, bullingni pedagogik muammo sifatida o‘rganish ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, bulling holatlari kuzatilgan sinflarda o‘quvchilarning akademik natijalari, ta’limga bo‘lgan qiziqishi va intizomi keskin pasayadi [3].

Bunday muhitda o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifoda eta olmaydi, darslarga befarq bo‘ladi, ijodiy topshiriqlarda qatnashmaydi. Bu esa o‘z navbatida uning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir qiladi.

Akademik muvaffaqiyatsizlik – o‘quvchining fanlarni o‘zlashtirish darajasining pastligi, bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanmaganligidir. Bulling bunday muvaffaqiyatsizlikka quyidagi yo‘llar bilan olib keladi: diqqatni jamlay olmaslik (kognitiv stress), mashg‘ulotlarda faol ishtirok etmaslik (ijtimoiy

ajralish), o‘qituvchi va guruh bilan bo‘lgan salbiy tajriba, o‘zini ifoda eta olmaslik, qo‘rquv va uyatchanlik [2].

Rigby (2008) nazarida, bulling mavjud bo‘lgan maktab muhitida o‘quvchilar o‘z imkoniyatlarini ko‘rsata olmaydi, o‘zini zaif his qiladi va bu o‘z-o‘zini rag‘batlantirishni pasaytiradi. Bu esa o‘z navbatida fanning chuqur o‘zlashtirilmasligiga olib keladi [5].

Bulling hodisasi o‘z tabiatiga ko‘ra nafaqat shaxsiy psixologik, balki jamoaviy, ijtimoiy va madaniy mezonlarga bevosita bog‘liqdir. U o‘quvchi shaxsining jamiyatga integratsiyalashuvi, ijtimoiy identiteti, kommunikativ madaniyati va o‘zaro munosabatlar sifatini jiddiy izdan chiqarishi mumkin. Bu esa bullingning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini alohida tahlil qilish zaruratini tug‘diradi.

Ijtimoiy ajralish – bu shaxsning ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilinmasligi, befarqlik, chetlab o‘tilish, e’tiborsizlik va izolyatsiyaga uchrashidir. Bulling qurboni bo‘lgan o‘quvchi ko‘pincha sinfdoshlar tomonidan suhbatga aralashishga qo‘yilmaydi, o‘yin yoki guruh ishlari vaqtida inkor etiladi, sovuqqon munosabatlarga duchor bo‘ladi.

Ko‘pchilik bulling qurbonlarini passiv, himoyasiz deb tasavvur qilgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda ular keyinchalik o‘z tajribalarining asoratida reaktiv agressorlarga aylanib qolishlari mumkin. Bunday o‘quvchilar, zo‘ravonlikni normal deb qabul qiladi, o‘zini kuch bilan himoya qilishga intiladi, boshqa zaif bolalarga nisbatan bullerlik harakatlarini ko‘rsatadi.

Bulling muammosi faqat pedagogik yoki psixologik muammo bo‘lib qolmay, u huquqiy himoyani talab qiluvchi, jamiyatdagi ijtimoiy xavfsizlik, shaxsiy daxlsizlik va bolalar huquqlari bilan bog‘liq dolzarb masaladir. Shu bois, zamonaviy davlatlar bullingga qarshi qonunchilik asoslarini mustahkamlash, institutsional chora-tadbirlarni shakllantirish hamda profilaktika va reabilitatsiya tizimlarini qonuniy yo‘l bilan tartibga solishga intilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham bu borada bir qator huquqiy hujjatlar va amaliy mexanizmlarni ishlab chiqishga kirishgan [5].

Bugungi globallashuv sharoitida bullingga qarshi kurashish faqat tarbiyaviy yoki psixologik chora bilan cheklanmasligi lozim. Uning oldini olish va unga qarshi samarali chora ko‘rish uchun mamlakat miqyosida qonunchilik asoslarini takomillashtirish, xalqaro tajribalari o‘rganib, moslashtirish, har bir maktabda huquqiy va psixologik monitoring tizimini joriy qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlasheridze va boshqalar (2018) – Bullingning inson kapitali rivojlanishiga ta’siri bo‘yicha tadqiqot. daryo.uz.

2. De Luca L., Menesini E. (2019). The Teacher’s Role in Preventing Bullying – o‘qituvchi kompetensiyasi va bulling darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik tadqiqoti. frontiersin.orgfrontiersin.org.

3. Маланцева О. «Буллинг» в школе. Что мы можем сделать? // социальная педагогика. 2007. – №4. – С.90-92.

4. Xoldorova I.A. va boshq. «2023-2028-yillarda maktablarda bulling holatlarini oldini olish bo‘yicha Milliy strategiya» loyihasijdpu.uz

5. Olweus D. «Bullying at School: What We Know and What We Can Do» – Oxford, 1993. (Bullingni maktabda aniqlash va unga qarshi kurashish bo‘yicha asosiy nazariy ma’lumotlar, bullingga qarshi dastur tamoyillari). (Trening dasturini tuzishda nazariy asos sifatida foydalanilgan).

6. Olweus D. Bullying or peer abuse in school: intervention and prevention. In G. Davies et al. (Eds.), Psychology, law and criminal justice: international developments in research and practice 1995. – Berlin: Walter de Gruyter, – pp. 248-263.

7. Rigby K. Bullying in schools and what to do about it. Melbourne: The Australian Council for Educational Research, 1996.

8. Rigby K. Effects of peer victimization in schools and perceived social support on adolescent well-being // Journal of Adolescence, 2000. – №23. – pp. 57-68.

9.Oribboyeva, D. (2024). BULLING O‘SMIRLARDA DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, *1*(12), 115–117. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/58095

10. Ориббоева, Дилафруз Дадамирзаевна. "THE INFLUENCE OF SOCIAL COMPETENS ON PROFESSIONAL CHOICE." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 1.9 (2019): 256-261.

11. Орифбоева, Д. Д., & СРЕДНЕЙ, О. ШКОЛЕ//Форум молодых ученых. 2017.№ 6 (10). *URL: https://cyberleninka. ru/article/n/optimizatsiya-uchebno-poznavatelnogo-protsessa-v-sredney-shkole (дата обращения: 31.03. 2025).*

12. Орифбоева Д. Д. ОПТИМИЗАЦИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ // Форум молодых ученых. 2017. №6 (10). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/optimizatsiya-uchebno-poznavatelnogo-protsessa-v-sredney-shkole (дата обращения: 14.01.2026).

13. Ориббоева Д. Д., Каримова Н. Б. Психологик тадқиқотларда буллинг муммосининг гендер тахлили // Science and Education. 2025. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psihologik-tad-i-otlarda-bulling-mummosining-gender-tahlili (дата обращения: 14.01.2026).

14. Ориббоева, Д. Д. (2025). ММ Адашалиева Вопросы внедрения и развития инклюзивного образования в странах центральной азии. *Ёш олимлар ахборотномаси»-«Вестник молодых ученых*.

15. Orifboeva, D. D. (2016). O‘QITISh FAOLIYATI JARAYONIDA Stressni oldini olish. *NovaInfo. Ru*, *3*(41), 217-220.

16. Shuhratjon Shukurjon O‘g‘li Yoqubjanov, Dilafruz Oribboyeva Temperament va xarakter shakllanishida ijtimoiy omillarning roli // Science and Education. 2025. №12. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/temperament-va-xarakter-shakllanishida-ijtimoiy-omillarning-roli (дата обращения: 14.01.2026).

UDK: 37.013.2:37.091.3

Mamatov Dilshod Xasanovich,
Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi "Amaliy fanlar va axborot texnologiyalari" kafedrasi dotsenti

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. Maqolada texnologiya darslarida ta'lim muassasalari o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish masalalari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, unda texnologiya darslarida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish yo'llari va ularning ahamiyati batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: axborot, kompetensiya, kundalik faoliyat, qobiliyat, ta'lim, tayanch kompetensiyalar, texnologiya, o'qituvchi, talaba, o'quvchi.

ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ БАЗОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

Аннотатция. В статье расстатривается вопросы формирования базовых компетенций у обучащихся образовательных учреждений на занятиях технологии. Также подробно описаны способы формирования основных компетенций у обучащихся на занятиях технологии.

Ключевые слова: информация, компетенция, повседневная деятельность, способность, образование, базовые компетенции, технология, учитель, студент, ученик.

WAYS OF FORMING STUDENTS' BASIC COMPETENCIES IN TECHNOLOGY LESSONS

Abstract. This article examines the development of basic competencies in students at educational institutions during technology classes. It also describes in detail the methods for developing core competencies in students during technology classes.

Key words. information, competence, daily activities, ability, education, basic competencies, technology, teacher, student, pupil.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'limda texnologik ta'limga jiddiy e'tibor qaratilmoqda va davlat rahbarining shaxsiy tashabbuslari bilan umumiy o'rta ta'lim

maktablarining oldiga muhim vazifalar belgilab berildi. Avvallari o‘quvchilarni ta’limning keyingi bosqichiga tayyorlash maktablarning birinchi navbatdagi vazifasi hisoblangan bo‘lsa, hozirgi kunda ularning asosiy maqsadi etib bolalarni hayotga tayyorlash, maktabni tamomlab chiqayotgan har bir bitiruvchi kamida bitta kasbning egasi bo‘lib chiqishi kerakligi belgilab berildi.

Hozirgi globallashuv sharoitida o‘quvchi-yoshlarimizni mustaqil hayotga tayyorlashda ularni shaxsiy va jamoa oldiga kutilmaganda qo‘yilgan muammolarning maqbul yechimini topa oladigan, mustaqil ravishda zaruriy axborotlarni izlab topa oladigan va ulardan tahlil asosida zaruriylarini ajrata biladigan, barcha kishilar bilan muloqotga kirisha oladigan, umumiy o‘rta ta’lim muassacasida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik faoliyatlarida qo‘llay oladigan komil inson qilib tarbiyalashimiz lozim. Mazkur vazifalarni o‘quvchilarning yoshligidan boshlab amalga oshirilmasa ularda ushbu xususiyatlarni shakllantirish qiyin kechadi.

Olib borilgan kuzatishlarimizdan shu narsa aniqlandiki, ko‘pchilik V-VII sinf o‘quvchilari turli xil materiallarga kuydirib ishlash, o‘ymakorlik kabi usullarda va iskanalar yordamida naqsh solish ishlariga juda qiziqar ekanlar. Shuning uchun texnologiya darslarida V-VII sinf o‘quvchilariga yoshlariga mos holda naqshlar, ularning turlari, yog‘och materiallarga naqsh solishda ishlatiladigan asbob-uskunalar, ishlash usullari haqida tushuncha berish, amaliy ishlar o‘tkazish va bunda xalq xunarmandchiligiga oid ma’lumotlardan foydalanib borish, yuqori sinflarda esa buyumlarni loixalash davomida texnologik xaritalar chizish orqali xayot faoliyatida ishlatiladigan buyum va jixozlarga o‘zgartirish kiritib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, hozirgi kunda inson axborot olamida yashaydi. O‘qishda ham, kundalik faoliyatda ham muaffaqiyatlarga erishish uchun zaruriy axborotga ega bo‘lish, ularni izlab topish, undan keraklisini ajratib olish va foydalanishni o‘rganishi kerak.

Bundan tashqari umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlarini ta’minlash bilan birga ularda o‘z fikrini boshqalarga tushuntira olish, boshqalarni tinglab, ularni tushuna olish, bahsga kirishish kabi kompetensiyalarni shakllantirish kerak. Shu bilan birga ularni dars jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayotda uchraydigan muammolarni hal etishda foydalana olishga o‘rgatish zarur. Shu sababli ham bu vazifalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasasida fanlarni o‘qitish orqali amalga oshirish lozim.

O‘quvchi o‘z kundalik faoliyatida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh kadr bo‘lib yetishishi uchun o‘quvchilar fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalarga ham ega bo‘lishi lozim.

Shuning uchun ham texnologiya fani orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ular o‘zlashtirgan bilimlari asosida egallagan

ko‘nikma va malakalarini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Biz quyida umumiy o‘rta ta’lim maktablari texnologiya kursida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish yo‘llari bo‘yicha o‘z tavsiyalarimizni bayon qilmoqchimiz.

O‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda davlat tili, xorijiy tillarni o‘zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, amaliy mashg‘ulotlarni o‘zaro bajarishda, ijodiy loyiha ishlarini bajarish malakalarini shakllantirishda, yozma va og‘zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirish, texnologiya faniga oid atamalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o‘rgatish zarur. Buning uchun o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, juft-juft bo‘lib davra suhbatlari, bahs-munozaralar orqali o‘quvchilarda texnologiya faniga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish zarur. Chunki kichik guruhlarda yoki juft-juft bo‘lib ishlaganda o‘quvchilar bir biriga ta’rifni, mavzu matnini aytib berishi mumkin.

O‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish uchun ularni mavzuga oid ma’lumotlarni mavjud axborot manbalaridan (internet, matbuot, radio, televidenie, telefon va boshqalar) topa olish va foydalana olishni, mavzuga oid ma’lumotlar bazasini yarata olish, ushbu ma’lumotlar ichidan eng asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilishga tayyorlash lozim. Buning uchun o‘quvchilarga oldindan mavzu bo‘yicha savolnoma berib qo‘yiladi. Bunda o‘quvchi o‘zi mustaqil ravishda harakat qilib, kerak bo‘lsa ota-onasidan yordam olib, yangi dars mavzusiga tayyorlanib keladi. Texnologiya fanini o‘qitishda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o‘quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish, axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘quvchilar komil inson bo‘lib voyaga yetishlari uchun ular mavzuga oid ma’lumotlar orqali o‘z-o‘zini aqliy rivojlantirib borishi va intellektual kamolotga intilishi, o‘z ustida mustaqil ravishda muntazam ishlay olishi, kundalik turmushda uchraydigan muammolarni mustaqil hal eta olishi zarur. Bu degani ular o‘z xatti-harakatini xolisona baholash, o‘z-o‘zini nazorat qila olish, halollik, to‘g‘rilik kabi shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishlari kerak. O‘quvchilarda mazkur kompetensiyani shakllantirishda umuminsoniy fazilatlariga ega bo‘lish, Vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lish, yangiliklarga intilish va o‘zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro‘y berayotgan progressiv va innovatsion o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o‘rgatish zarur. Shuningdek, o‘qituvchilar o‘quvchilarda o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantira olish uchun ularda shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil o‘qib-o‘rganish, mustaqil ravishda izlanish, o‘z xatti-harakatini baholash, o‘z-o‘zini nazorat qila bilish, o‘qib-

o‘rgangan bilim, ko‘nikma va malakalari va o‘z hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish sifatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan interfaol metodlarni qo‘llash, darslarda qo‘shimcha materiallar yordamida loyiha ishlarini bajarib borishlari lozim.

O‘quvchi ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasiga ega bo‘lishi uchun u mavzuga oid ma’lumotlarning jamiyatda muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunishi va bu ma’lumotlarning bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorligini his etishi kerak. Bunda asosiy vazifa o‘quvchilarda fuqarolik burchi, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo‘lish hamda chizma va loyihalarni tushunish hamda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat. Mazkur kompetensiya asosan o‘quvchilarda chizmalarni loyihalash, test savollarining yechimini topish, og‘zaki savollarga javob berish, o‘z huquq va majburiyatlarini bilish, kundalik hayotda uchraydigan vaziyatlarda muloqotga kirishish va vaziyatga nisbatan o‘z fikrini bildirish, o‘z bilimini bayon eta olish, o‘quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilarda ushbu kompetensiyalarni shakllantirish uchun biz texnologiya darslarida va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida didaktik o‘yinlar texnologiyalaridan foydalanishni tavsiya etamiz.

Xulosa qilib aytganda, texnologiya darslarida o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni samarali shakllantirish ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etishni talab etadi. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olishi, mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois texnologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ijodiy, kommunikativ va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Texnologiya fanini o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar, xususan, hamkorlikda o‘qitish, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish hamda interaktiv metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Bunday yondashuvlar orqali o‘quvchilar dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, o‘z fikrini erkin ifodalash, jamoada ishlash va o‘zaro fikr almashish ko‘nikmalarini egallaydi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan topshiriqlar o‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, darslarda didaktik va rolli o‘yinlardan, o‘yinga asoslangan texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda mavzularni yengil va samarali o‘zlashtirish imkonini beradi. Ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, tarixiy va salomatlik bilan bog‘liq muammoli vaziyatlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarda hayotiy kompetensiyalar shakllanadi. Syujetli masalalar, ijodiy xarakterdagi uy vazifalari, loyiha ishlari, bahs-munozaralar, viktorinalar va krossvordlardan foydalanish esa o‘quvchilarning mustaqil ishlash, izlanish olib borish va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, multimedia vositalari va raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga keng joriy etish o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Elektron taqdimotlar, videodarslar, virtual laboratoriyalar va internet resurslaridan foydalanish darslarning samaradorligini oshirib, ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv tashkil etishga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarga gazeta va jurnallar, qo‘shimcha adabiyotlar, lug‘atlar hamda internet manbalaridan mustaqil foydalanishni o‘rgatish ularning axborot madaniyatini rivojlantiradi.

Demak, texnologiya darslarini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil etish o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Bu esa kelajakda ularning kasbiy faoliyatga tayyor, mustaqil fikrlaydigan, kreativ va raqobatbardosh shaxs bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4884-Qarori.

3. O.Qo‘ysinov, A.Nosirov. Texnologiya fanidan Milliy o ‘quv dasturi. T.: Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2021.

4. Z.Teshaboev. “Texnologiya fanini o‘qitish metidikasi”. O‘quv qo‘lanma, “Klassik” nashriyoti 2023.

5. I.Karimov, D.Mamatov. “Umumta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. “Klassik” nashriyoti 2021.

UDK: 711.4:332.8(575.1)

Bayturayev Akmal Faxriddinovich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi direktor o‘rinbosari

SURXONDARYODA ZAMONAVIY TURAR-JOYLAR VA AHOLI MASSIVLARINING BARPO ETILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida zamonaviy turar-joylar va aholi massivlarini barpo etish jarayonlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hamda hudud rivojiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, uy-joy qurilishida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish va davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada kelgusidagi istiqbollar hamda zamonaviy shaharsozlik tamoyillarining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy turar-joy, aholi massivlari, urbanizatsiya, infratuzilma, qurilish texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ipoteka, Surxondaryo.

СТРОИТЕЛЬСТВО СОВРЕМЕННОГО ЖИЛЬЯ И ЖИЛЫХ МАССИВОВ В СУРХАНДАРЬЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются процессы строительства современных жилых домов и жилых массивов в Сурхандарьинской области, их социально-экономическое значение и влияние на развитие региона. Также проанализированы вопросы внедрения современных технологий в строительстве, развития инфраструктуры и механизмов государственной поддержки. Особое внимание уделено перспективам развития и значению современных принципов градостроительства.

Ключевые слова: современное жильё, жилые массивы, урбанизация, инфраструктура, строительные технологии, социально-экономическое развитие, ипотека, Сурхандарьинская область.

CONSTRUCTION OF MODERN HOUSING AND RESIDENTIAL AREAS IN SURKHANDARYA

Annotation. This article examines the processes of constructing modern residential buildings and housing complexes in the Surkhandarya region, their socio-economic significance, and their impact on regional development. It also analyzes the introduction of modern construction technologies, infrastructure development, and state support mechanisms. The article highlights future prospects and the importance of modern urban planning principles.

Keywords: modern housing, residential complexes, urbanization, infrastructure, construction technologies, socio-economic development, mortgage, Surkhandarya region.

Surxondaryo viloyatida so‘nggi yillarda aholi farovonligini oshirish, yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash hamda hududlarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, zamonaviy infratuzilmaga ega bo‘lgan turar-joylar qurish, yangi aholi massivlarini barpo etish va mavjud hududlarni rekonstruksiya qilish orqali viloyatning arxitektura qiyofasini yangilash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Aholi sonining ortib borishi, migratsiya jarayonlari va urbanizatsiya sur’atlarining tezlashuvi uy-joylarga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda. Shu bois, zamonaviy shaharsozlik talablariga javob beradigan, qulay va xavfsiz yashash muhitini yaratish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylandi. Bu borada nafaqat ko‘p qavatli uylar, balki namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan kottej tipidagi uylar ham keng ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, amalga oshirilayotgan qurilish ishlari faqat uy-joy barpo etish bilangina cheklanib qolmay, balki muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, ijtimoiy soha obyektlarini qurish va aholiga xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini kengaytirish bilan chambarchas bog‘liq holda olib borilmoqda. Natijada yangi barpo etilayotgan massivlar zamonaviy, qulay va barcha zarur shart-sharoitlarga ega yashash hududlariga aylanmoqda.

Ayniqsa, davlat tomonidan uy-joy qurilishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar, ipoteka kreditlari va subsidiyalar tizimi aholining o‘z uyiga ega bo‘lish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu esa o‘z navbatida, qurilish sohasining jadal rivojlanishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga hamda hudud iqtisodiyotining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Shu tariqa, Surxondaryo viloyatida zamonaviy turar-joy massivlarini barpo etish nafaqat hududning tashqi qiyofasini o‘zgartirmoqda, balki aholining turmush tarzini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

1. Zamonaviy uy-joy qurilishining dolzarbligi. Bugungi kunda aholi sonining barqaror o‘sib borishi, yosh oilalar sonining ortishi hamda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi uy-joylarga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, Surxondaryo viloyatida zamonaviy uy-joylar qurilishi ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylangan. Xususan, ko‘p qavatli turar-joy binolari, kottej tipidagi uylar va yangi massivlar qurish orqali aholining yashash sharoitlarini yaxshilashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mazkur jarayon aholining uy-joyga bo‘lgan ehtiyojini qondirish bilan birga, hududda zamonaviy shaharsozlik madaniyatini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda. Shuningdek, yangi uy-joylar qurilishi orqali aholi turmush sifati oshib, ijtimoiy barqarorlik ta’minlanmoqda. Bu esa o‘z navbatida viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. Yangi aholi massivlarining tashkil etilishi. Surxondaryo viloyatining turli tuman va shaharlarida zamonaviy talablar asosida yangi aholi massivlari bosqichma-

bosqich barpo etilmoqda. Ushbu massivlar puxta rejalashtirilgan bosh rejalar asosida qurilib, hududning geografik va iqlimiy xususiyatlari ham inobatga olinmoqda.

Massivlarda zamonaviy arxitektura va dizayn yechimlari qo‘llanilib, uy-joylar energiya tejamkor va ekologik xavfsiz materiallardan bunyod etilmoqda. Har bir yangi massivda aholining qulay yashashi uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish ko‘zda tutilgan. Xususan, yashash hududlari dam olish maskanlari, bolalar maydonchalari va yashil hududlar bilan uyg‘un holda tashkil etilmoqda.

Natijada, yangi massivlar nafaqat yashash joyi, balki zamonaviy hayot tarzi shakllanadigan muhitga aylanib bormoqda.

3. Infratuzilma bilan ta’minlash masalalari. Zamonaviy turar-joy massivlarini barpo etishda infratuzilma bilan ta’minlash masalasi alohida e’tiborga olinmoqda. Chunki uy-joylarning qulayligi va yashash sifati bevosita muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanganlik darajasiga bog‘liqdir.

Shu bois yangi qurilayotgan massivlarda quyidagi infratuzilma obyektlari kompleks tarzda barpo etilmoqda:

uzluksiz ichimlik suvi va elektr energiyasi ta’minoti

tabiiy gaz va zamonaviy issiqlik tizimlari

sifatli ichki yo‘llar, piyodalar yo‘laklari va jamoat transporti qatnovi

zamonaviy maktablar, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va tibbiyot muassasalari

savdo markazlari, maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalari

Mazkur infratuzilmaning kompleks rivojlanishi aholi uchun qulay, xavfsiz va barqaror yashash muhitini yaratishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu hududlarda iqtisodiy faollik oshib, yangi xizmat turlari rivojlanishiga ham zamin yaratilmoqda.

4. Zamonaviy texnologiyalar va qurilish sifati. So‘nggi yillarda qurilish sohasida ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, zamonaviy qurilish materiallari, energiya tejamkor texnologiyalar hamda raqamli loyihalash tizimlaridan keng foydalanish natijasida qurilish jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshmoqda.

Qurilish ishlarida sifat nazorati tizimi kuchaytirilib, barcha bosqichlarda texnik me’yor va standartlarga qat’iy rioya etilishi ta’minlanmoqda. Shu bilan birga, ekologik jihatdan xavfsiz, bardoshli va uzoq muddat xizmat qiladigan materiallardan foydalanish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Natijada barpo etilayotgan turar-joylar nafaqat zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lmoqda, balki ularning mustahkamligi, energiya samaradorligi va ekspluatatsiya muddati ham yuqori darajada ta’minlanmoqda.

5. Ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Yangi turar-joy massivlarining barpo etilishi Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Eng avvalo, qurilish jarayonlari keng ko‘lamda amalga oshirilayotgani bois turli sohalarda yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, bu esa aholi bandligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, yangi massivlar atrofida savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarining ko‘payishi kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining faol rivojlanishiga turtki bermoqda. Bu esa hudud iqtisodiyotining jonlanishiga va ichki bozorning kengayishiga olib keladi.

Zamonaviy uy-joylar va infratuzilmaning mavjudligi hududning investitsiyaviy jozibadorligini oshirib, mahalliy va xorijiy investorlar e’tiborini jalb etishga xizmat qilmoqda. Natijada viloyatda yangi loyihalar amalga oshirilishi uchun qulay muhit shakllanmoqda.

Eng muhimi, aholining zamonaviy va qulay uy-joylar bilan ta’minlanishi ularning turmush darajasini sezilarli darajada yaxshilab, farovon hayot kechirishiga zamin yaratmoqda. Bularning barchasi yakuniy natijada viloyatning umumiy rivojlanish sur’atlarining oshishiga olib kelmoqda.

6. Davlat dasturlari va qo‘llab-quvvatlash. Uy-joy qurilishi sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, bu borada keng qamrovli dastur va loyihalar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, aholining turli qatlamlarini arzon va qulay uy-joylar bilan ta’minlash maqsadida imtiyozli ipoteka kreditlari, subsidiya va kompensatsiya mexanizmlari joriy etilgan.

Mazkur qo‘llab-quvvatlash choralari, ayniqsa, yosh oilalar, kam ta’minlangan fuqarolar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Davlat tomonidan ajratilayotgan moliyaviy resurslar va yengilliklar natijasida fuqarolarning o‘z uyiga ega bo‘lish darajasi ortib bormoqda.

Shuningdek, qurilish tashkilotlari faoliyatini rag‘batlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va zamonaviy uy-joylar qurilishini jadallashtirish maqsadida soliq imtiyozlari hamda boshqa qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa o‘z navbatida qurilish sohasining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

7. Kelgusidagi istiqbollar. Kelgusida Surxondaryo viloyatida zamonaviy urbanizatsiya jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqish rejalashtirilgan. Xususan, “aqlli shahar” konsepsiyasi asosida innovatsion texnologiyalar bilan jihozlangan yangi turar-joy massivlarini barpo etish ustuvor vazifalardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Bunday hududlarda raqamli boshqaruv tizimlari, energiya samarador texnologiyalar va zamonaviy kommunikatsiya vositalari keng joriy etilishi ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga, ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida yashil hududlarni kengaytirish, zamonaviy bog‘ va istirohat maskanlarini barpo etish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshiriladi. Bu esa aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Kelgusida infratuzilmani yanada rivojlantirish, transport tizimini takomillashtirish va xizmat ko‘rsatish sohalarini kengaytirish orqali hududda yuqori darajadagi zamonaviy yashash muhiti shakllantiriladi. Natijada Surxondaryo viloyati nafaqat qulay yashash hududi, balki investitsiya va innovatsiyalar uchun jozibador markazlardan biriga aylanishi kutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo viloyatida zamonaviy turar-joylar va aholi massivlarining barpo etilishi hududni kompleks rivojlantirishning eng muhim

yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli qurilish ishlari nafaqat yangi uy-joylar sonining ortishiga, balki mavjud hududlarning zamonaviy qiyofa kasb etishiga ham xizmat qilmoqda.

Mazkur jarayon aholining yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash, ularni barcha zarur infratuzilma bilan ta’minlash hamda qulay va xavfsiz hayot muhitini yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, zamonaviy arxitektura yechimlari, innovatsion qurilish texnologiyalari va ekologik yondashuvlarning qo‘llanilishi barpo etilayotgan turar-joylarning sifat va samaradorligini yanada oshirmoqda.

Shu bilan birga, yangi aholi massivlarining tashkil etilishi hududda iqtisodiy faollikni kuchaytirib, yangi ish o‘rinlarini yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda investitsiyalarni jalb etish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Eng muhimi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari natijasida aholi farovonligi oshib, fuqarolarning zamonaviy va munosib turmush kechirishlari uchun mustahkam zamin yaratilmoqda. Bu jarayon kelajak avlodlar uchun yanada qulay, xavfsiz va barqaror yashash muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Surxondaryo viloyatida zamonaviy turar-joylar va aholi massivlarini barpo etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar hududni har tomonlama rivojlantirish, uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda zamonaviy shaharsozlik tamoyillarini hayotga izchil tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.
2. Uy-joy qurilishida zamonaviy texnologiyalar va materiallarga oid ilmiy maqolalar va tadqiqotlar.
3. Statistika agentligining hududiy rivojlanish va aholi soni bo‘yicha ma’lumotlari.
4. Hududlarni kompleks rivojlantirish va infratuzilmani modernizatsiya qilishga oid davlat dasturlari.
5. Ekologik barqaror qurilish va “yashil iqtisodiyot”ga oid ilmiy tadqiqotlar.
6. Internet resurslari: lex.uz, stat.uz, gov.uz rasmiy saytlari materiallari.

UDK: 070:504:316.77

Өтениязова Гүлзада,
"Қарақалпақстан" телеканалының телебасшысы, еркин излениўши

ЭКОЛОГИЯЛЫҚ КРИЗИС ШӘРАЯТЫНДА ЖУРНАЛИСТЛЕРДИҢ КӘСИПЛИК ШАХСЫН ТРАНСФОРМАЦИЯЛАЎ МӘСЕЛЕСИ

Аннотация. Мақалада антропосенниң экологиялық кризиси шәраятында журналистлердиң кәсиплик өзгешелигиниң өзгериўи талланған. Дәстүрий объектив журналистика еле де жедел, шешимлер ҳәм турақлы раўажланыўға бағдарланған журналистикаға айланып атырғаны көрсетип өтилди. Өзгерислердиң тийкарғы факторлары атап өтилди: халықтың күтиўлериниң артыўы ҳәм журналистлердиң психологиялық компетенцияларын раўажландырыў зәрүрлиги. Бийтәреплик ҳәм социаллық жуўапкершилик арасындағы роллерде кескин парық бар екенлиги атап өтиледи.

Таяныш сөзлер: антропоцен, экологиялық журналистика, трансформациялық журналистика, профессионаллық өзине тәнлик, объективлик, турақлы раўажланыў.

ПРОБЛЕМА ТРАНСФОРМАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЛИЧНОСТИ ЖУРНАЛИСТОВ В УСЛОВИЯХ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО КРИЗИСА

Аннотация. В статье рассматривается трансформация профессиональной идентичности журналистов в условиях экологического кризиса антропоцена. Отмечается, что традиционная объективная журналистика постепенно трансформируется в журналистику, ориентированную на оперативность, поиск решений и устойчивое развитие. Выделены основные факторы изменений: рост общественных ожиданий и необходимость развития психологических компетенций журналистов. Подчеркивается наличие существенных различий между принципами нейтральности и социальной ответственности.

Ключевые слова: антропоцен, экологическая журналистика, трансформационная журналистика, профессиональная идентичность, объективность, устойчивое развитие.

THE ISSUE OF TRANSFORMING THE PROFESSIONAL IDENTITY OF JOURNALISTS IN THE CONDITIONS OF AN ECOLOGICAL CRISIS

Abstract. This article examines the transformation of journalists' professional identity in the context of the anthropocene and environmental crisis. It shows that traditional objective journalism is shifting toward a more active, solution-oriented, and sustainability-focused approach. Key factors include changing social

expectations and the need for psychological competencies among journalists. The study highlights the role tension between neutrality and social responsibility.

Keywords. Anthropocene, environmental journalism, transformative journalism, professional identity, objectivity, sustainable development.

Антропоцен тек ғана геологиялық дәўир емес, ал заманагөй жәмийеттиң сиясий, экономикалық, мәдений ҳәм институционаллық тийкарларына терең тәсир көрсетиўши дәўир болып табылады. Әсиресе, бул процесс коммуникация ҳәм журналистика саласына үлкен өзгерислер алып келмекте. Дәстүрий журналистика узақ ўақыт даўамында объективлилик, бийтәреплик ҳәм фактлерди қалыс сәўлелендириў принциплерине сүйенип келди. Журналист өзиниң кәсиплик ўазыйпасын ўақыяларды сырттан бақлаўшы ҳәм жәмийетке ҳақыйқатлықты жеткериўши сыпатында қабыл етти. Бул модель салыстырмалы түрде турақлы социаллық ҳәм тәбийий муҳитке тийкарланған болып, журналисттиң ўақыяларға араласпаўын кәсиплик этиканың тийкарғы өлшемлериниң бири сыпатында қарастырды.

Бирақ XXI әсирде глобал экологиялық кризистиң күшейиўи, климат өзгериўи, суў ҳәм ресурслар таңқыслығы, биологиялық түрлердиң жойылыўы, ҳаўаның пәс сапасы ҳәм тәбийий апатлардың көбейиўи журналистика алдындағы дәстүрий түсиниклерди қайтадан көрип шығыўды талап етпекте. Бүгинги күнде экологиялық мәселелер тек ғана илимий яки сиясий тема емес, ал пүткил инсаныяттың қәўипсизлиги менен тиккелей байланыслы глобал мәселе сыпатында қаралмақта. Сол себепли журналистлер де тек фактлерди жеткериў менен шекленип қалмастан, жәмийетти экологиялық қәўиплер ҳаққында саналы түрде хабардар етиў, турақлы турмыс тәризин тәшўиқлаў ҳәм жәмәәтшиликтиң экологиялық мәдениятын қәлиплестириў сыяқлы жаңа ўазыйпаларды атқармақта.

Экологиялық кризис жағдайында журналисттиң кәсиплик өзине тәнлиги де өзгериске ушырамақта. Егер алдын журналист өзиниң ролин "бийтәреп бақлаўшы" сыпатында көрген болса, енди ол жәмийеттеги өзгерислерге тәсир көрсетиўши, социаллық жуўапкершиликти сезиниўши ҳәм шешимлерге бағдарланған коммуникация процессиниң белсенди қатнасыўшысына айланып бармақта. Бул болса трансформациялық журналистика түсинигиниң қәлиплесиўине алып келмекте. Трансформациялық журналистика тек проблема ҳаққында хабар бериўди емес, ал оны шешиў жолларын излеў, экспертлер, сиясий институтлар ҳәм жәмәәтшилик арасында диалог орнатыўды да өз ишине алады.

Сонымен бирге, экологиялық темаларды сәўлелендириў журналистлерден жаңа компетенцияларды талап етеди. Олар тек журналистлик шеберликке емес, ал экология, психология, кризистик коммуникация ҳәм дата-анализ салаларында да билимге ийе болыўы керек. Себеби экологиялық кризиске байланыслы хабарлар көп жағдайда халық арасында қорқыныш, стресс яки пессимизмди күшейтиўи мүмкин. Сонлықтан

журналистлер мәўжут жағдайды ҳақыйқый көрсетиў менен бирге, жәмийетте үмит ҳәм жуўапкершилик сезимин де қәлиплестириўге умтылыўы лазым.

Демек, антропоцен дәўири журналистиканы тек мазмун жағынан емес, ал кәсиплик философиясы, этикасы ҳәм социаллық миссиясы жағынан да қайта өзгертпекте. Бүгинги журналист енди тек хабар жеткериўши емес, ал жәмийеттиң турақлы келешегин қәлиплестириўге үлес қосыўшы белсенди социаллық субъект сыпатында майданға шықмақта.

Журналистика ҳәм экологиялық психология тараўындағы изертлеўлерге тийкарланған теориялық базаны пайдаланып, изертлеўде идентлиликтиң өзгериўине тәсир етиўши еки тийкарғы фактор: "шешимге бағдарланған" ҳәм "ашық-айдынлық" журналистикасына өтиў, сондай-ақ, эмоционаллық турақлылық, радикаллық рефлексивлик ҳәм шегараларды белгилеў бойынша жумысларды орынлай алыў сыяқлы белгили бир психологиялық компетенцияларға болған талапты ажыратып көрсетеди. "Бийтәрепликтен ашық-айдынлыққа қарай: аудитория жаңалық шөлкемлериниң қәдириятлары ҳәм миссиясы бойынша ашық-айдынлылықты талап етпекте. Экзистенциаллық мәселелерде өзин пүткиллей бийтәреп тутыўдың орнына, "трансформациялық журналистика" фактлердиң исенимлилигиниң қатаң стандартларына әмел еткен ҳалда экологиялық турақлылыққа анық умтылыўды қоллап-қуўатлайды" [1]. Изертлеў нәтийжелери фактлердиң қатаң анықлығы арасындағы теңсалмақлылықты табыўға умтылыўда журналистлер дус келетуғын әҳмийетли "ролли қатаңлық"ти атап өтеди.

Бул изертлеўде еки дәрежели теориялық тийкардан пайдаланылады. Бириншиден, кәсиплик нормалар мәлимлеме жеткериўдиң пассив моделинен жедел қатнасыў моделине қалай өтип атырғанын түсиниў мақсетинде журналистика, атап айтқанда, "ролди қабыл етиў" ҳәм "трансформациялық журналистика" концепциясына сүйенеди [2]. Екиншиден, экзистенциаллық қәўип-қәтерлерди сәўлелендиретуғын журналистлер ушын эмоционаллық ҳәм когнитивлик машқалаларды шешиўде экологиялық психологияны өз ишине алады.

Методология заманагөй изертлеўлерди ҳәр тәреплеме улыўмаластырыў ҳәм анализлеўден ибарат. Биз 2006-2025-жыллар аралығындағы илимий әдебиятларды таллап, "трансформациялық журналистика," социаллық-экологиялық өтиў нормалары ҳәм экологиялық журналистиканың психологиялық тәсирине айрықша итибар қараттық. Бул ҳәр қыйлы тараўларды синтезлестирип, изертлеўде экологиялық кризис басымы астында журналистлик өзине тәнликтиң эволюциясы бақланады, тийкарғы қарама-қарсылықлар ҳәм зәрүр компетенциялар анықланады.

Нәтийжелер: бирдейликтиң өзгериўине тәсир етиўши факторлар. Бизиң таллаўымыз журналистлердиң кәсиплик өзлигин қайта көрип шығыўға мәжбүр ететуғын еки тийкарғы факторды анықлайды.

1-фактор: социаллық күтиўлердиң өзгериўи. Журналисттиң социаллық роли кәсиплик стандартлар ҳәм жәмийетшиликтиң күтиўлери арасындағы

кеңисликти көрсетеди. Экологиялық кризис дәўиринде бул күтиўлер "әпиўайы мәлимлеме"ден "трансформациялық коммуникация"ға өтти.

2-фактор: Зәрүр психологиялық қәсийетлер. Екинши фактор ишки болып, кризис дәўиринде экологиялық журналистика тараўындағы кәсипти даўам еттириў ушын зәрүр болған психологиялық пазыйлетлерге тийисли. "Эмоционаллық турақлылық: жарақатландырыўшы экологиялық мәлимлеменің тәсири "жарақат алдындағы стресс" ямаса күйиўге алып келиўи мүмкин. Психологиялық турақлылық-созылмалы стресске қарамастан, кәсиплик искерлик қәбилетин сақлап қалыў қәбилети тийкарғы компетенциялардан бирине айланды" [3].

"Радикаллық рефлексивлик: Журналистлер өз ролин, бир тәреплемелигин ҳәм экологиялық изин сын көзқарастан таллаўды нәзерде тутатуғын "радикаллық рефлексивлик"ти қәлиплестириўи керек. Бул рефлексив этика тийкары журналистке анықлыққа умтылып, өз көзқарасының шекленгенин тән алыў имканиятын береди" [1].

"Пәнлер кесилиспесинде ислеў ҳәм бирге ислесиў: Климат мәселелерин нәтийжели сәўлелендириў ушын илим, сиясат ҳәм үгит-нәсиятлаў сыяқлы түрли тараўлардағы жумысларда "бейимлесиўшеңлик" зәрүр. Журналистлер өзлериниң кәсиплик өзлигин сақлаған ҳалда, қыйын мәлимлеме орталығында мүнәсибетте болыў ушын бирге ислесиў көнликпелерин қәлиплестириўи керек" [3].

Талқылаў: Ролге байланыслы кескинлик ҳәм "қорғаўшы" ҳәм "бақлаўшы" арасындағы қарама-қарсылық. Изертлеў нәтийжелери дәстүрий объективлик нормаларын турақлылықты тәмийнлеў бойынша нормативлик миннетлеме менен бирлестириўге урынып атырған журналистлер сезилерли дәрежеде "ролге байланыслы күшлениў"ге дус келетуғынын көрсетеди. Бул қарама-қарсылық бир неше түрде көринеди:

Объективлик парадокси: журналистлердиң пикиринше, ўақыяларды қатаң "бийтәреплик"те сәўлелендириў талқылаўдың бир тәрепи (мәселен, климат өзгериўин нейтралластырыў) илимий тийкарланбаған жағдайда алжастырыўы мүмкин. Бул журналист жалған теңсалмақлылықты емес, ал, илимий ҳақыйқатты қорғайтуғын "фактлерге тийкарланған үгит-нәсият" тәрепке өтиўге алып келеди.

Қәнигелесиў мутациясы: Экологиялық журналистика ендиги күнде арнаўлы тараў емес, ал, барлық репортажлардың тийкарғы дыққат объектине айланды. Себеби, бул журналистлерден арнаўлы билимге ийе универсал болыўды талап етеди, бул болса, олардың кәсиплик өзлигин еле де тереңлестиреди,.

Институционаллық позициялаў: Журналистлер көбинесе өз шөлкемлеринде ишки келиспеўшиликлерге дус келеди, себеби, дәстүрий редакциялық структуралар елеге шекем экологиялық кризис шәраятында талап етилетуғын ўақыяларды нәзик, өзгермели сәўлелендириўден көре, сенсационаллық ямаса нейтрал мәлимлеме бериўге үстемлик бериўи мүмкин.

Жуўмақлар. Экологиялық кризис шәраятында журналистлердиң кәсиплик өзгешелиги түп тийкарынан өзгермекте. Егер дәстүрий журналистикада репортёрдың тийкарғы ролі ўақыяларды қалыс бақлаў ҳәм оларды жәмийетке жеткериў менен шекленген болса, бүгинги антропоцен дәўиринде журналист барған сайын социаллық ҳәм экологиялық өзгерислердиң белсенди қатнасыўшысына айланып бармақта. Бул процесс тек кәсиплик усыллардың емес, ал журналисттиң өзиниң жәмийет алдындағы миссиясын қайтадан аңлаўын талап етеди. Яғный, журналист енди тек хабар жеткериўши емес, ал экологиялық қәўиплер ҳаққында жәмәәтшиликти хабардар етиўши, турақлы раўажланыў идеяларын алға сүретиўши ҳәм социаллық жуўапкершиликти күшейтиўши субъект сыпатында майданға шықмақта.

Бул трансформация журналистлердиң жеке таңлаўынан көри, өзгерип атырған социаллық үмитлер ҳәм экологиялық кризистиң экзистенциаллық характери менен тығыз байланыслы зәрүрлик болып табылады. Себеби климат өзгериўи, тәбийий ресурслардың азайыўы ҳәм экологиялық апатлардың көбейиўи жәмийеттен тек тез ҳәм анық информацияны ғана емес, ал мәселелердиң шешими бойынша жол көрсетиўди де талап етпекте. Сол себепли журналистикада "шешимге бағдарланған" ҳәм "жуўапкершиликке тийкарланған" коммуникацияның әҳмийети артып бармақта.

Сонымен бирге, экологиялық темаларды узақ ўақыт сәўлелендириў журналистлерге психологиялық қысым да түсиреди. Үзликсиз негатив хабарлар, глобал қәўиплер ҳәм келешекке болған аныҳсызлық журналистлерде кәсиплик күйиниў, эмоционаллық шаршаў ҳәм психологиялық стресс келтирип шығарыўы мүмкин. Сонлықтан психологиялық турақлылықты, эмоционаллық интеллектти ҳәм рефлексивлик әдеп-икрамлылық қағыйдаларын раўажландырыў бүгинги журналист ушын үлкен әҳмийетке ийе. Бул қасиетлер журналисттиң кәсиплик исенимлилигин сақлап қалыўға, фактлерге сын көз бенен қараўына ҳәм аудитория менен сапалы коммуникация орнатыўына жәрдем береди.

Усы өзгерислер журналистикалық билимлендириў системасына да жаңа талаплар қоймақта. Бүгинги күнде журналистлерди таярлаў тек дәстүрий "әдил объективлик" принциплерин үйретиў менен шекленбестен, ал "фактлерге тийкарланған журналистика", экологиялық коммуникация, кризистик хабар бериў ҳәм медианың социаллық жуўапкершилиги сыяқлы бағдарларды да өз ишине алыўы керек. Жас журналистлер экологиялық мәселелерди терең түсиниў, илимий мағлыўматларды таллаў ҳәм жәмийетке түсиникти формада жеткериў бойынша арнаўлы компетенцияларға ийе болыўы зәрүр.

Сондай-ақ, жаңалық редакциялары ҳәм медиа ўйымлары да өзгерип атырған антропоцен жағдайына бейимлесиўи керек. Редакциялар журналистлерге жаңа кәсиплик ролин атқарыў ушын психологиялық қоллап-қуўатлаў системасын жаратыўы, шығармашылық еркинликти кеңейтиўи ҳәм экологиялық темаларды терең изертлеў ушын қолайлы шараятлар жаратыўы

лазым. Тек сонда ғана журналистика жәмийеттиң экологиялық санасын раўажландырыўда ҳәм турақлы келешекти қәлиплестириўде өзиниң әҳмийетли социаллық миссиясын толық орынлай алады.

Әдебиятлар:

1. Apuntes para una teoría ética normativa del periodismo ante la crisis climática. Revista Crítica de Ciencias Sociales. 2025. №136.. 3–24 p.
2. Brüggemann M. Brüggemann, Michael; Frech, Jannis; Schäfer, Torsten-2022. Transformative journalisms: How the ecological crisis is transforming journalism. in: Hansen, A. (Ed.), The Routledge Handbook of Environment and Communication.Second Edition. Routledge, New York. 9-10 p.
3. Schoenfeld, A. C. The Ecosystem of Environmental Communication: An Analytical Review. In: Guillerie, Renée (Ed.), A. Clay. An Annotated Bibliography of Environmental Communication: Research and Commentary (1969–1979). Ohio State University, 1979. 27–37p.
4. Crozet, D. Environmental Journalism in the Face of New Environmental Conflicts: The Transformation of Specialization. Master's Thesis in Professional Journalism. Stendhal University Grenoble 3, UFR LLASIC (Faculty of Foreign Languages, Literatures and Civilizations), Department of Journalism, Academic Year 2014–2015, 2015. 3–7p.

UDK: 37.013.42:613.95

To'rayeva Sayyora Sattorovna,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
"Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

TA'LIM TIZIMIDA SOG'LOM AVLODNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim tizimida sog'lom avlodni shakllantirishning pedagogik, ijtimoiy va ma'naviy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlarning jismoniy, ruhiy hamda ma'naviy salomatligini ta'minlashda ta'lim muassasalarining o'rni, sog'lom turmush tarzini shakllantirish mexanizmlari va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: sog'lom avlod, ta'lim tizimi, sog'lom turmush tarzi, barkamol shaxs, pedagogik yondashuv, jismoniy tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ta'lim muhit.

ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ПОКОЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические, социальные и духовно-нравственные основы формирования здорового поколения в системе образования. Также рассматриваются роль образовательных учреждений в обеспечении физического, психического и духовного здоровья молодежи, механизмы формирования здорового образа жизни и значение современных педагогических подходов.

Ключевые слова: здоровое поколение, система образования, здоровый образ жизни, гармонично развитая личность, педагогический подход, физическое воспитание, духовно-нравственное воспитание, образовательная среда.

ISSUES OF FORMING A HEALTHY GENERATION IN THE EDUCATION SYSTEM

Abstract. This article analyzes the pedagogical, social, and spiritual foundations of forming a healthy generation within the education system. It also highlights the role of educational institutions in ensuring students' physical, mental, and spiritual well-being, as well as the mechanisms of promoting a healthy lifestyle and the importance of modern pedagogical approaches.

Keywords: healthy generation, education system, healthy lifestyle, well-rounded personality, pedagogical approach, physical education, moral education, educational environment.

Hozirgi globallashuv davrida jamiyatning barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan yosh avlodning jismoniy va ma’naviy salomatligiga bog‘liqdir. Sog‘lom, bilimli va intellektual salohiyatga ega bo‘lgan yoshlar har qanday davlat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Shu sababli ta’lim tizimida sog‘lom avlodni shakllantirish masalasi dolzarb pedagogik va ijtimoiy muammo sifatida e’tirof etilmoqda.

Bosh qomusimizda quyidagi modda mavjud. “Har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli…” [1.9-bet].

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlagandek: “Hayotda o‘z isbotini topgan bir haqiqat ham doim yodimizda turishi zarur: faqat sog‘lom va barkamol millatgina buyuk ishlarga qodir buladi. Binobarin, shunday ekan, xalqning salomatligi darajasi mamlakatimizning saloqiyati, qayot sifati va kelajak avlodlarning taqdirini belgilovchi, milliy xavfsizligimizni ta’minlovchi eng muqim kursatkichlardan biri qisoblanadi. Demak, xalqimiz salomatligini mustaxkamlash, tibbiyot sohasini isloh etish, jamiyatda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish kabi vazifalar bizning doimiy diqqat e’tiborimizda bulishi tabiiydir[1.180-bet].

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Inson sog‘lig‘i – dunyodagi eng bebaqo boylik, tengsiz ne’matdir.

Ta’lim tizimida sog‘lom avlodni shakllantirish masalalariga to‘xtalib o‘tamiz.

Umumta’lim maktablarida o‘qitilayongan “Tarbiya” fani darsliklari mavzularida o‘quvchilarga davlat ta’lim standarti asosida 4-sinfda “Sog‘lom fikrga ega bo‘ladi”, 5-sinfda “Mustaqil sog‘lom fikrga ega bo‘ladi”, 6-sinfda ”Mustaqil sog‘lom fikrlaydi”, 8-sinfda “Sog‘lom turmush tarziga ega bo‘ladi”, 9-sinfda “Sog‘lom turmush tarziga rioya qiladi” kabi ko‘nikmalar shakllantirilishi belgilab berilgan.

Masalan: Tarbiya fanining 4-sinf darsligida 27-28 mavzu “Sog‘lik – katta boylik” deb ataladi. Ijodiy matn berilgan: Har kuni yaxshi ishlarga 10 daqiqa ajratsangiz, bir yil ichida siz kamida 60 soat vaqtingizni foydali o‘tkazishga erishasiz. Tongda ertaroq uyg‘onishga harakat qiling. O‘rningizni tartibga keltiring. Yuz-qo‘lingiz va tishingizni yuvgach, badantarbiya uchun 15 daqiqa ajrating. Tanangizdagi suvsizlikni bartaraf qilish uchun nonushtadan avval limon aralashtirilgan iliq suv ichish salomatlikka foydalidir. Tongda nonushtaga qadar yarim soat biror mashg‘ulotga vaqt ajrating.

5-sinf “Tarbiya” fani darsligining 21-22-mavzularidan o‘rin olgan “Sog‘ligimiz – boyligimiz” mavzusida mulohaza uchun quyidagi topshiriq berilgan:“Ba’zi insonlarda yomon odatlar ham bo‘ladi. Masalan: chekish, spirtli ichimliklarni iste’mol qilish, kompyuter oldida uzoq vaqt o‘tirish va boshqalar. Bunday odatlardan insonning sog‘lig‘i va ahvoli yomonlashadi. Mazkur odatlardan insonning sog‘lig‘i va ahvoli yomonlashadi o‘ziga bog‘liq: kimdir sog‘lom turmush tarziga amal qiladi, kimdir o‘z sog‘lig‘iga o‘zi zarar yetkazadi.

6-sing “Tarbiya” darsligi 19-20-mavzularidan o‘rin olgan “Salomatlik-ulkan boylik” mavzusida buyuk mutafakkirimiz Ibn Sino o‘z shogirdlariga qarab: “Sizlarni 5 ta buyuk tabiblarga qoldirib ketyapman. Agar ularning gaplari ga doimo

amal qilsangiz, bir umr kasal bo‘lmaysiz”, – deb javob qaytaribdi. Shogirdlar bu javobdan yanada hayratda qolib: “Doimo Siz bilan birga, ilmingizni qunt bilan egallab yurgan bo‘lsak, biz bu 5 ta tabibni hech ko‘rmaganmiz”, – deyishibdi.

Ibn Sino: “Bularning birinchisi – ozodalik, ikkinchisi – badantarbiya, uchinchisi – parhez, to‘rtinchisi – mijoz, beshinchisi-kayfiyat”. Sizlar doimo shu tabiblarning aytganlariga amal qilsangiz, umringiz uzun bo‘ladi, hech qanday kasallik sizlarni yengga olmaydi. Mening bu gapla rimni boshqalarga ham yetkazinglar”, – deb uqtiribdi.

8-9 sinflarda “Tarbiya” fani va “Adabiyot” fanini integratsiya asosida o‘tishda Abdulla Avloniy bobomizning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan o‘rin olgan “Badan tarbiyasi” bo‘limidan foydalanish yaxshi samara beradi: “Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog‘ badanga ega bo‘lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar.Maishatimizni rohatda bo‘lmog‘i jasadimizning sog‘lom bo‘lmog‘iga bog‘lidur. Biz sihatimizni saqlamak ila amr olinganmiz, shuning uchun vujudimizi hifzi-sihatga zid bo‘lgan yomon odatlar ila churitmakdan saqlanmakligimiz lozimdur. Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o‘ng ila terisi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustini qo‘yib astarini yuvub ovora bo‘lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog‘lom bir vujud kerakdur”[2.4-bet].

Natijalar va ularning muhokamasi. Zamonaviy pedagogika fanida ta’lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri yoshlarni nafaqat bilim bilan qurollantirish, balki ularni jismonan sog‘lom, ruhiy barqaror va ma’naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat ekanligi ta’kidlanadi. Bunday yondashuv ta’lim va tarbiya jarayonining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashni talab qiladi.

Bundan xuloa chiqarsak,sog‘lom avlod tarbiyasi har bir davrning eng muhim tomoni va vazifasi bo‘lib kelgan. O‘quvchilar yuqoridagi darsliklar orqali o‘zlari duch keladigan va duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarga hayoti davomida kuzatib, tadqiq qilib, amaliy topshiriqlarni tahlil qilish orqali yechib boradi.

Ularda yoshligidan to‘g‘ri ovqatlanish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi va o‘zining sog‘ligini himoya qilishga odatlanadi. Sog‘lom avlodni shakllantirish kabi davlat siyosati ongli ravishda amalga oshadi va sog‘lom fikr ,sog‘lim jamiyat rivojlanadi.

Ta’lim tizimida sog‘lom avlodni shakllantirish masalalari ko‘plab pedagog olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ushbu jarayonning samaradorligi ta’lim muhitining sifatiga, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasiga hamda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajasiga bog‘liqdir.

“Sog‘lom avlod” tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, u shaxsning jismoniy, ruhiy va ma’naviy jihatdan barkamol rivojlanishini anglatadi.

Ilmiy adabiyotlarda sog‘lom shaxs quyidagi mezonlar asosida tavsiflanadi:

- jismoniy sog‘lomlik;
- ruhiy barqarorlik;
- ma’naviy yetuklik;

- ijtimoiy faoliyatga tayyorlik;
- sog‘lom turmush tarziga amal qilish.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, sog‘lom avlodni shakllantirish jarayoni uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshirilishi lozim. Bu jarayonda o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda ularning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega.Shuningdek, sog‘lom avlodni tarbiyalash jarayonida shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish, uning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos pedagogik yondashuvlarni qo‘llash zarur

Ta’lim tizimida sog‘lom avlodni shakllantirish ko‘plab pedagogik omillarning uyg‘unligiga bog‘liq.

Ular orasida quyidagilar alohida ahamiyatga ega: Yoshlarning jismoniy salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari muhim o‘rin tutadi. Muntazam jismoniy mashqlar yoshlarning organizmini chiniqtiradi, ularning jismoniy rivojlanishini ta’minlaydi hamda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Ta’lim muassasalarida sport to‘garaklari, musobaqalar va ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish yoshlarning jismoniy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ta’lim muassasasida sog‘lom psixologik muhitning mavjudligi o‘quvchilarning ruhiy salomatligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samimiy munosabatlar, o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan pedagogik hamkorlik yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash sog‘lom avlodni shakllantirishning muhim tarkibiy qismidir.Ma’naviy-axloqiy tarbiya orqali yoshlarning vatanparvarlik tuyg‘usi, mas’uliyat hissi hamda jamiyat oldidagi burchini anglash kabi fazilatlari shakllanadi.

Sog‘lom avlodni shakllantirish jarayonida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- gigiyena madaniyatini shakllantirish;
- to‘g‘ri ovqatlanish madaniyatini rivojlantirish;
- zararli odatlarning oldini olish;-jismoniy faollikni oshirish.

Mazkur jarayonda ta’lim muassasalarida turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, seminarlar va trening mashg‘ulotlarini tashkil etish samarali natija beradi. Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar sog‘lom avlodni tarbiyalash jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Jumladan:

- interaktiv ta’lim metodlari;
- trening va workshop mashg‘ulotlari;
- loyihaviy ta’lim;
- raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish.

Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ularning sog‘lom turmush tarziga nisbatan ongli munosabatini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida sog'lom avlodni shakllantirish jamiyat taraqqiyotining eng muhim va strategik ahamiyatga ega bo'lgan shartlaridan biridir. Zero, sog'lom, ma'naviy yetuk va intellektual salohiyati yuqori bo'lgan yoshlar har qanday davlatning barqaror rivojlanishi va kelajakdagi taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy kuch hisoblanadi. Shu bois, bu yo'nalishdagi ishlar davlat siyosati darajasida doimiy e'tibor va qo'llab-quvvatlashni talab etadi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Biz uchun bebaho boylik bo'lgan inson salomatligini asrash maqsadida sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning birlamchi bo'g'inidagi bo'linmalar va qishloq vrachlik punktlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, tez tibbiy yordam va yuqori texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatadigan, ixtisoslashgan maxsus markazlarni yanada rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish Hukumatning e'tibor markazida bo'lishi darkor" [3, 16-bet]. Ushbu fikrlar inson salomatligini muhofaza qilish nafaqat tibbiyot sohasi, balki butun ta'lim tizimi va jamiyatning ustuvor vazifasi ekanini ko'rsatadi.

Sog'lom, ma'naviy barkamol va intellektual jihatdan rivojlangan yosh avlodni tarbiyalash mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlaydi. Shu sababli ta'lim muassasalarida sog'lom pedagogik muhitni shakllantirish, o'quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, sport va sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, zamonaviy interaktiv metodlardan samarali foydalanish hamda o'qituvchi va ota-onalar hamkorligini mustahkamlash sog'lom avlodni shakllantirish jarayonining samaradorligini yanada oshiradi. Natijada ta'lim tizimi orqali jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan va ijtimoiy faol yosh avlodni tarbiyalash imkoniyatlari kengayadi hamda jamiyatning barqaror rivojlanishiga mustahkam zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil 30.IV.
2. Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston, 2024-yil.
3. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demakratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz,O'zbekiston nashriyoti, 2016-yil.
3. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.1913-yil.
4. Tarbiya fani darsligi. 4-sinf darsligi, 86-bet.
5. Tarbiya fani darsligi. 6-sinf darsigi, 66-bet.

UDK 811.111:37.02

Eshchanova Gulzira,
Pedagogical skill center of the Republic Of Karakalpakstan,senior teacher of English at Department of "Language Teaching Methodology"

TEACHING ENGLISH WITH TEXTS

Abstract. This article reaseach the importance of using texts in teaching English. Texts help students increase vocabulary, improve grammar and pronunciation, and develop communication skills in real-life situations. By working with stories and everyday texts, learners improve their language skills reading, writing, listening, and speaking. The article also represents effective teaching approaches and ways to engage students actively in lessons.

Keywords: English language, Language learning, Learning through texts, Vocabulary, Grammar comprehension, Listening and speaking, Story.

MATNLAR YORDAMIDA INGLIZ TILINI O'QITISH

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilini o'rganishda matnlardan foydalanishning ahamiyatini tushuntiradi. Matnlar yordamida o'quvchilar lug'atni oshiradi, grammatika va talaffuzni yaxshilaydi, shuningdek, real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. A2 darajadagi hikoyalar va kundalik matnlar orqali o'quvchilar o'qish, yozish, tinglash va gapirish ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida rivojlantiradi. Shuningdek, maqola samarali dars tashkil etish va o'quvchini faol jalb qilish metodlarini ham ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, til o'rganish, matnlar orqali o'qish, lug'at, grammatikani tushunish, tinglash va gapirish, A2 daraja, hikoya.

ОБУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ НА ОСНОВЕ ТЕКСТОВ

Аннотация. Эта статья объясняет важность использования текстов при изучении английского языка. Тексты помогают учащимся расширять словарный запас, улучшать грамматику и произношение, а также развивать навыки общения в реальных жизненных ситуациях. Работа с рассказами повседневными текстами одновременно развивает навыки чтения, письма, аудирования и говорения. В статье также представлены эффективные методы и подходы преподавания и способы активного вовлечения студентов на урок.

Ключевые слова: английский язык, изучение языка, обучение через тексты, словарный запас, понимание грамматики, аудирование и говорение, уровень А2, рассказ.

In today's job market, knowing English provides a great advantage: it becomes much easier to find a well-paid job, work in international companies, or run a global

business. English is also useful when traveling — no matter where you go, being able to speak English helps you communicate, find your way, and solve everyday problems. Additionally, many movies, songs, software, and online materials are in English, giving learners access to a wider range of information and cultural content. Therefore, learning English is not only practically beneficial but also very important for personal growth.

In the contemporary era of globalization, the acquisition of English has transcended being a mere academic elective to become an indispensable tool for socio-economic and intellectual mobility. As the primary *lingua franca* of the 21st century, English serves as the bridge between diverse cultures, enabling seamless intercultural communication and the formation of global networks that would otherwise be hindered by linguistic barriers. Beyond simple conversation, proficiency in English facilitates participation in the "Global Village," allowing individuals to engage in international discourse, diplomacy, and the collective resolution of transborder issues.

From a scholarly and professional perspective, the hegemony of English in the realms of science, technology, engineering, and mathematics (**STEM**) is absolute. The vast majority of high-impact research, peer-reviewed journals, and technical documentation are disseminated in English, establishing it as the gatekeeper to cutting-edge human knowledge. Consequently, linguistic competence acts as a significant catalyst for professional advancement; it empowers researchers to share their findings on a global stage and provides students with access to the world's most prestigious educational repositories. In a digital landscape where over half of all web content is authored in English, the language functions as a vital portal to information literacy. Therefore, mastering English does not simply add a skill to a resume; it fundamentally expands an individual's cognitive and professional horizons, granting them a competitive edge in a hyper-connected, knowledge-driven global economy.

To ensure maximum efficacy in English Language Teaching (ELT), it is imperative to adopt a multi-dimensional approach that transcends rote memorization and centers on the holistic development of the learner. Central to this paradigm is the principle of **learner-centered instruction**, which dictates that pedagogical strategies must be meticulously tailored to the student's chronological age, cognitive maturity, and specific socio-cultural interests. By aligning the curriculum with the learner's personal and professional motivations, educators can significantly enhance intrinsic motivation, which is a primary driver of long-term retention.

Furthermore, because language is fundamentally a tool for social interaction, the instructional focus must shift from theoretical knowledge to **Communicative Language Teaching (CLT)**. This methodology prioritizes practical application, utilizing immersive listening tasks, authentic conversational simulations, and task-based learning to mirror real-world scenarios. In this framework, the acquisition of grammar is transformed from a static study of abstract syntactical rules into a dynamic process of **inductive learning**. Instead of memorizing isolated formulas, learners encounter grammatical structures within meaningful contexts, allowing them to internalize the underlying logic of the language through active usage. This

contextualization ensures that linguistic elements are not just "known" in an academic sense, but are "acquired" as functional skills, enabling the learner to navigate diverse communicative environments with fluidity and spontaneity. Ultimately, by balancing affective factors with rigorous practical engagement, the teaching process creates a robust foundation for both academic proficiency and genuine communicative competence.

Motivating students and engaging them actively in the lesson is also essential. Using interactive methods, modern technologies, videos, audio materials, games, and group activities increases the effectiveness of learning. The lesson should ensure that students participate actively, express their thoughts freely, and feel comfortable making mistakes without fear.

The teacher should notice each learner's individual difficulties and apply an appropriate approach, while also providing regular feedback to support the learning process. Most importantly, learners should feel that English is useful in daily life, and they should be given opportunities to use the language in practice. This practical reinforcement is a crucial part of effective teaching.

The pedagogical significance of utilizing level-appropriate texts in English Language Teaching (ELT) cannot be overstated, as it serves as the fundamental scaffold for linguistic development. When instructional materials are precisely calibrated to a learner's proficiency level, they facilitate a systematic acquisition of language that mimics natural cognitive processing. At the introductory stages, such as the **A1 and A2 levels** of the Common European Framework of Reference (CEFR), simplified texts provide a controlled environment where students can internalize high-frequency vocabulary and foundational syntax without the interference of idiomatic complexity. This clarity is essential for fostering "learner agency" and self-efficacy, as early successes in comprehension directly correlate with sustained motivation and a reduction in foreign language anxiety.

As learners transition into intermediate and advanced stages (**B1 through C1**), the role of the text shifts from basic decoding to the development of higher-order thinking skills. Exposure to more sophisticated discourse allows students to navigate nuanced semantic fields, grasp subtle rhetorical devices, and engage in critical analysis. This progression is deeply rooted in the concept of the **Zone of Proximal Development (ZPD)**; for optimal acquisition to occur, the input must be "comprehensible plus one" ($i + 1$), meaning it should be slightly beyond the learner's current mastery. If the linguistic demand is disproportionately high, it leads to cognitive overload and frustration, effectively halting the learning process. Conversely, stagnant or overly simplistic input fails to trigger the necessary cognitive engagement required for fluency. By meticulously aligning reading materials with CEFR benchmarks, educators create a "moderate challenge" environment that ensures grammatical structures and lexical items are introduced in a logically sequenced, pedagogically sound order, ultimately transforming the act of reading from a passive exercise into a dynamic engine for academic and communicative growth.

Moreover, texts at each level help develop essential skills such as reading comprehension, listening comprehension, expressing opinions, and participating in discussions. Tasks such as comprehension questions, discussions, retelling, and content analysis strengthen critical thinking and communicative abilities. Learning different topics at each stage also exposes students to cultural, social, and practical aspects of the language.

Below, we have developed several recommendations for working with texts.

Exercise 1:

Red Berry 	Mary ate a blueberry. She loved blueberries. Then she ate a blackberry. She loved blackberries. Then she ate a strawberry. She loved strawberries. Mary was confused. A blueberry is blue, so you call it a blueberry. A blackberry is black, so you call it a blackberry. A strawberry is red. So, why don't you call it a redberry? Mary asked her mom. Her mom didn't know. She asked her dad. Her dad didn't know. She asked her little brother. "Because a red berry is a cherry!" her brother said.

A2 Level Tasks

I.True or False

1. Mary likes blueberries.
2. Mary's mom knows why a strawberry is not called a redberry.
3. A strawberry is red.
4. Mary's brother says a red berry is a cherry.
5. A blackberry is blue.

II. Multiple Choice

1. What did Mary eat first?
a) A strawberry
b) A blueberry
c) A blackberry
2. Who answered Mary's question?
a) Her dad
b) Her mom
c) Her little brother
3. What color is a blackberry?
a) Red
b) Blue
c) Black

III. Answer the Questions

1. Why was Mary confused?
2. What color is a blueberry?
3. Does Mary love strawberries?
4. Who didn't know the answer to Mary's question?

IV. Fill in the Blanks

1. Mary ate a _____, a blackberry, and a strawberry.
2. A strawberry is _____.
3. Mary asked her _____ and _____, but they didn't know the answer.

Exercise 2:



My working day starts very early. From Monday to Friday I get up at 3:30, have a shower and a cup of coffee. I leave home at 4:10 and get to the studio at 5:00. My programme *Good Morning Britain* is from 7:00 to 9:00. I leave the studio at 10:15, go shopping, visit friends, and get home at 3:00. A woman helps me with housework and ironing. I read the newspaper and do some work. My husband comes home at 5:30 and I cook dinner. In the evening we stay at home, watch TV, and I go to bed at 8:30. I'm usually asleep by 9:00. I think my job is interesting, but I don't like getting up early.

I. True/False

1.She gets up at 3:30.
2.She leaves home at 5:00.
3.Her programme finishes at 9:00.
4.She goes shopping after work.
5.She goes to bed at 10:00.

II. Fill in the blanks

1.She gets up at _____.
2.She leaves home at _____.
3.Her programme Good Morning Britain is from _____ to _____.
4.Her husband comes home at _____.
5.She is usually asleep by _____.

III.Multiple Choice

1.Who helps her with housework?
a) Her husband
b) A woman
c) Her friend
2.What does she do in the evening?
a) Go out
b) Watch TV
c) Work
3.Why doesn't she like her job?
a) It is boring
b) She doesn't like getting up early
c) She doesn't like cooking

Learning English through texts is one of the most effective and practical ways to improve language skills. Texts provide learners with real examples of vocabulary, grammar, and sentence structures used in everyday communication. By reading different types of texts such as stories, articles, dialogues, newspapers, and essays, students can develop a deeper understanding of the English language and become more confident users of it.

First of all, reading texts helps students improve their reading comprehension skills. When learners read regularly, they become faster at understanding information, identifying main ideas, and guessing the meaning of unfamiliar words from context. This process trains the brain to think in English and increases overall language fluency. In addition, reading exposes students to a wide range of vocabulary. Instead of memorizing isolated words, learners see how words are used naturally in sentences and situations. This makes it easier to remember and correctly use new expressions in speaking and writing.

Another important advantage of learning through texts is grammar improvement. Grammar rules can sometimes seem difficult when they are studied only from textbooks. However, reading allows students to observe grammar in context. They can notice how tenses, prepositions, articles, and sentence patterns are used by native speakers and writers. As a result, students gradually begin to use correct grammar more naturally in their own communication.

Texts also help learners improve writing skills. By reading well-written materials, students learn how to organize ideas, connect sentences, and express opinions clearly. They become familiar with different writing styles and formats, which can help them when writing essays, emails, reports, or personal messages. Reading good texts inspires students to write more creatively and accurately.

Furthermore, reading English texts can improve listening and speaking skills. Many texts include dialogues and conversational language that reflect real-life communication. Students can learn pronunciation, common phrases, and expressions that native speakers use in everyday situations. If learners read texts aloud or discuss them with classmates and teachers, they practice speaking and build confidence in communication.

Learning through texts is also interesting and motivating. Students can choose topics they enjoy, such as sports, science, history, technology, travel, or literature. When learners read about subjects they like, they become more engaged and motivated to continue studying English. This creates a positive learning experience and encourages independent learning habits.

In today's world, English texts are easily available through books, websites, social media, magazines, and online articles. This gives students many opportunities to practice English both inside and outside the classroom. Regular reading helps learners strengthen memory, improve concentration, and develop critical thinking skills at the same time.

In conclusion, reading English texts is an excellent method for language learning because it develops vocabulary, grammar, reading comprehension, writing ability, speaking confidence, and listening skills together. Consistent reading practice not only improves language proficiency but also broadens knowledge and understanding of different cultures and ideas. Therefore, students should make reading English texts a regular part of their daily learning routine.

References:

1. Ne'matov H., G'ulomov A., Ziyodova T. "O'quvchilar so'z boyligini oshirish". O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 1996.

2. O'TDA IV yig'ini tezislari «Ta'lim jarayonida matn ustida ishlashning asosiy omillari». Toshkent 1997-yil.

3. T. Ziyodova «Matn yaratish texnologiyasi». Toshkent «Fan» 2007-yil.

4. Hamroyev G'. Ona tilidan o'quv topshiriqlari tuzish metodikasi. –Toshkent, Donishmand ziyosi, 2021. 154 b.

5. Qodirov M., Ne'matov H. Mengliyev B. va boshq. Ona tili 8-sinflar uchun darslik. – T.: Cho'lpon. 2019. 6 b. Mengliyev B., Toshmirzaeva Sh., Majidova S., Atoeva S. 10- sinf "Ona tili" darsligi 2-qism. – T.: Cho'lpon. 2020. 186 b.

UDK 352(575.1):321

Boyxurozov Xurshid Axmad o'g'li,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

OMMAVIY BOSHQARUV TIZIMIDA MAHALLIY O'ZINI O'ZI BOSHQARISH INSTITUTI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA O'ZBEKISTONNING TARIXIY TAJRIBASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalliy o'zini o'zi boshqarish, ommaviy boshqaruv konsepsiyasi shuningdek, O'zbekistonda mahalliy o'zini o'zi boshqaruvining an'analari: tarixiy rivojlanishning turli boshqichlari o'rtasidagi o'zaro munosabat nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. ommaviy hokimiyat, davlat hokimiyati, ijobiy tartibga solish, o'zini o'zi boshqarish, Erkin jamoa konsepsiyasi, O'zini o'zi boshqarishning davlat konsepsiyasi, mahalla.

ИНСТИТУТ МЕСТНОГО САМОУПРАВЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ПУБЛИЧНОГО УПРАВЛЕНИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ИСТОРИЧЕСКИЙ ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В этой статье теоретически проанализированы концепция местного самоуправления, а также принципы местного самоуправления в Узбекистане: взаимодействие между различными аспектами исторического развития.

Ключевые слова. массовая власть, государственная власть, положительное регулирование, самоуправление, Концепция свободного коллектива, Государственная концепция самоуправления, махалля.

THE INSTITUTION OF LOCAL SELF-GOVERNMENT IN THE SYSTEM OF PUBLIC ADMINISTRATION: THEORETICAL APPROACHES AND HISTORICAL EXPERIENCE OF UZBEKISTAN

Abstract. This article theoretically analyzed the concept of local self-government, as well as the principles of local self-government in Uzbekistan: interaction between various aspects of historical development.

Keywords. mass power, state power, positive regulation, self-government, Concept of a free collective, State concept of self-government, mahalla.

Ommaviy hokimiyat va davlat hokimiyati tushunchalari o'rtasidagi nazariy farqlarni aniqlashtirish hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish institutining huquqiy tabiatini tadqiq etish bugungi davlat boshqaruvi islohotlari uchun ustuvor ahamiyatga ega. Uzoq vaqt davomida ushbu tushunchalarning aynanlashtirilishi ommaviy boshqaruvda xalq ishtiroki va nomarkazlashuv jarayonlariga to'sqinlik

qilib kelgan bo‘lsa, zamonaviy bosqichda mahalla kabi milliy institutlarning tarixiy evolyutsiyasini o‘rganish va ularning davlat hokimiyati tizimidan ajratilgan holda, ommaviy boshqaruvning mustaqil bo‘g‘ini sifatida shakllanishini asoslash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Ayniqsa, Germaniya va Anglo-sakson modellari kabi xorijiy tajribalarni O‘zbekistonning boy tarixiy tajribasi, xususan, Temuriylar davridan boshlab shakllangan mahalla boshqaruv tizimi bilan qiyosiy tahlil qilish, mahalliy jamoalarning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish va boshqaruv samaradorligini ta’minlashning konseptual asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari tanlangan bo‘lib, ular mahalla institutining uch bosqichli rivojlanish davrini xronologik tahlil qilish imkonini beradi. Ishda qiyosiy-huquqiy tahlil metodidan mahalliy boshqaruvning xalqaro modellarini o‘rganishda, tizimli yondashuvdan esa ommaviy hokimiyatni jamiyat, jamoa va individ munosabatlari kesimida tadqiq etishda foydalanildi. Shuningdek, nemis yuridik maktabi vakillarining (L. Shteyn, R. Geyts) "erkin jamoa" va "davlat konsepsiyasi" nazariyalari metodologik tayanch bo‘lib xizmat qilib, ommaviy boshqaruvni davlat, nodavlat va xususiy tuzilmalar hamkorligi sifatidagi subyektiv xulosalarni shakllantirishga asos bo‘ldi.

Uzoq yillar mobaynida turli adabiyotlarda ommaviy hokimiyati va davlat hokimiyati bir xil hodisalar ekanligiga haqida tushunchalar mavjud. (ba’zida hozirgacha saqlanib kelmoqda). Ommaviy va davlat hokimiyatining bir xil yondashuv ekanligi ba’zan davlat va huquq nazariyasi bo‘yicha darsliklarda uchraydi. Mazkur tushunchalarni farqli va o‘ziga xos o‘xshash jihatlarini tadqiq qilish uchun, dastlab ommaviy hokimiyat va davlat hokimiyati tushunchalari aniqlashtirib olish lozim.

Aslida *hokimiyat* deganda, umumiy ma’noda muayyan subyektning (individ, jamoa, tashkilot) boshqa subyekt (individ, jamoa, tashkilot) irodasini va yurish turishini shaxsiy yoki boshqa shaxslarning manfaatlari yuzasidan bo‘ysundirishi tushuniladi.

Hokimiyatni turli xil mezonlar bo‘yicha tasniflash mumkin. Xususan, ijtimoiy darajalariga ko‘ra u quyidagicha tasniflanadi:

a) butun jamiyat doirasidagi hokimiyat;

b) u yoki bu jamoa doirasidagi hokimiyat;

v) ikki individ munosabatlari o‘rtasidagi hokimiyat.

Yuqoridagi uch xil darajadagi hokimiyatning mezonlaridan birinchisi ommaviy hokimiyatni anglatsa, ikkinchi va uchinchi tasniflar subyektlar o‘rtasidagi hokimiyatni nazarda tutadi.

Inson jamoalarida hokimiyat fenomeni ko‘p xususiyatlarga ega (shaxsiy, ommaviy, korporativ, siyosiy, harbiy, qonunchilik va boshqalar.). Ushbu hodisani o‘rganish keskin munozaralar bilan birga vujudga keladi (hatto “hokimiyat” atamasini butunlay tark etishga chaqiradi), jumladan, hokimiyat va ommaviy hokimiyat kabi turli tushunchalar paydo bo‘ladi. Ijtimoiy qo‘llaniladigan bunday eng umumiy tushunchalardan biri muayyan guruhlardagi hokimiyat va ommaviy hokimiyat tushunchasidir.

Ommaviy hokimiyat terminidagi ommaviy so‘zining mazmun-mohiyatini teranroq oydinlashtirib olish lozim. *"Ommaviy"* so‘zi turli ma’nolarga ega bo‘lib, Qadimgi Rim davriga to‘g‘ri keladi. Ushbu tushuncha lotin tilida *"publica"* – *umumiy ish, xalq ishi* terminidan kelib chiqqanligini alohida ta’kidlash mumkin. U davlat, xususan, fuqarolarning siyosiy hamjamiyati sifatida, hozirgi kunda aytadigan bo‘lsak, ijtimoiy va davlat tamoyillarini birlashtirgan hodisa sifatida qaraladi. O‘sha paytda rimliklar uchun bunday farq mavjud emas edi va hatto hozir ham G‘arb tillarida "ommaviy" so‘zi muallifning unga kiritgan ma’nosiga qarab, jamoatchilikni ham, davlatni ham anglatishi mumkin.

Zamonaviy demokratik mamlakatlarda ommaviy boshqaruv nafaqat davlat, ya’ni davlat tizimiga bo‘ysunadigan va davlat manfaatlariga xizmat qiladigan faoliyat deb tushuniladi, balki aynan "ommaviy", ya’ni *xalqning davlat ishlarida ishtirok etishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshiruvchi sifatida talqin etiladi.* Alohida ta’kidlash zarurki, bugungi kunga qadar "ommaviy boshqaruv", "ommaviy xizmat", "ommaviy hokimiyat" tushunchalari O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida deyarlik aks etmagan. Shu bilan birga, milliy fan va siyosiy-huquqiy amaliyotda hokimiyatning ommaviy faoliyat yuritishi zarurligini anglab yetish ortib bormoqda.

Ommaviy boshqaruv muayyan organlar va mansabdor shaxslarning ijtimoiy faoliyati, norma ijodkorligi, ma’muriy, nazorat, tashkiliy va boshqa faoliyati sifatida qaraladi. O‘zbekiston yuridik fanda ommaviy boshqaruvdan farqli o‘laroq, davlat boshqaruvi tushunchasi adabiyotda keng tahlil etilgan, ko‘plab fikr va mulohazalar bildirilgan, turli nazariy konsepsiyalar ilgari surilgan. Biroq, shunday nazariy muammo mavjudki, alohida chiqishlarga qaramay, ushbu masalaga bag‘ishlangan mahalliy adabiyotlarning aksariyati faqat sobiq sovet tizimi davlat boshqaruvini tahlil etishga oid, uning tabiati esa, albatta, zamonaviy hayot voqeliklariga mos emasligi aniq. Ma’muriy huquq fanida mavjud ilmiy asoslangan konsepsiyalarga muvofiq, ommaviy boshqaruv ostida *davlatni boshqarish tushuniladi*, bunda boshqaruv tushunchasi tashkiliy, moddiy va formal mazmundagi boshqaruvni ajratadi.

Germaniyalik yuristlardan I. Yusti, Y. Zonnenfeld, G. Berg va R. Mol ommaviy boshqaruv konsepsiyasining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan olimlar hisoblanadi. Germaniyaning zamonaviy ma’muriy huquqi, birinchi navbatda, "ommaviy boshqaruv" tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Nemis yuridik olimlarining ko‘pchiligi ommaviy boshqaruvini bir ta’rifda ifodalashning iloji yo‘q deb hisoblaydilar. Bu davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyati turlarining xilma-xilligidan kelib chiqadi. Ularning ta’kidlashicha, "Ommaviy boshqaruv" tushunchasining uchta an’anaviy ma’nosi mavjud bo‘lib, ular quyidagilar hisoblanadi.

a) *tashkiliy ma’noda* – "ommaviy boshqaruv" davlat boshqaruvining dolzarb subyektlari va ularning iyerarxiyasi;

b) *moddiy ma’noda* – "ommaviy boshqaruv" davlatning o‘z maqsadlarini amalga oshirishdagi faoliyati bo‘lib, qonun chiqarish va sud ishlarini yuritish bundan mustasno.

v) *rasmiy ma'noda* – "ommaviy boshqaruv" davlat boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladigan barcha tadbirlardir.

Shuni e'tirof etish joizki, yuqori samarali davlat boshqaruvi haqida o'ylash, qaror qabul qilish jarayonidagi siyosiy plyuralizm, hokimiyatni yanada muvozanatli taqsimlash, mas'uliyat va javobgarlik oshirish hamda fuqarolarning ishtiroki kengaytirish GFRda yangi ommaviy boshqaruvning zamonaviy konsepsiyalarining yaratilishiga zamin tayyorladi.

Shulardan biri yangi ommaviy boshqaruvi konsepsiyasi bo'lib, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari va mas'uliyatlarini kengaytirish orqali boshqaruvni nomarkazlashtirishni ko'zda tutadi. Hukumatning asosiy vazifasi mahalliy jamoalarga o'z muammolarini hal qilish va ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini nazorat qilish imkonini berishdan iborat. Bunday yondashuv mahalliy o'zini o'zi boshqarishning asosiy qadriyatlari – *avtonomiya* (markazlashmagan boshqaruv), *demokratiya* (fuqarolik ishtiroki) va *samaradorlik* (hukumatning aholiga yaqinligi) bilan bog'liq. Davlat monitoring qilish va umumiy strategiyani ishlab chiqish vazifalarini saqlab qolgan holda davlat xizmatlarini ko'rsatish vazifalarini nodavlat (tijorat va jamoat) tashkilotlarga, jumladan mahalliy o'zini o'zi boshqarish topshiradi. Bunday nomarkazlashtirish boshqaruvning moslashuvchanligi va samaradorligini oshirishga imkon beradi, shuningdek, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar o'rtasidagi raqobatni kuchaytiradi, fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyatni oshiradi. Yangi ommaviy boshqaruvi konsepsiyasining kamchiliklaridan biri davlat sektorini tijoratlashtirishdan va davlatning ijtimoiy-siyosiy sohadagi ishtirok etishini kamaytirishdan iborat.

Umuman olganda, davlat boshqaruvi deganda davlat va jamiyatni davlat organlari orqali boshqarish, ya'ni markazdan bevosita boshqarish tushunilsa, ommaviy boshqaruv deganda butun jamiyatni boshqarishda davlatning muhim funksiyalarini va vakolatlarini, nafaqat davlat organlariga balki mahalliy boshqaruv va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga berish orqali boshqarish tushuniladi va uning asosiy vazifasi jamoaviy muammolarni hal qilishni ta'minlash hisoblanadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, xorijiy adabiyotlarga tayangan xolda, quyidagi subyektiv xulosaga kelindi: "Ommaviy boshqaruv – aholi manfaatlarini qondirish va jamoaviy muammolarni hal qilishni ta'minlashga mo'ljallangan davlat, nodavlat, xususiy va boshqa tuzilmalar o'rtasidagi hamkorlik tizimidir".

Bundan tashqari, ommaviy hokimiyat tarmog'ida yana bir hokimiyat mavjud bo'lib, u bevosita mustaqil faoliyat hisoblanib, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni bevosita mustaqil hal etadigan mahalliy o'zini o'zi boshqarish hisoblanadi. Mahalliy darajadagi mahalliy o'zini o'zi boshqarish hokimiyatini ijtimoiy hokimiyatning bir turi deb hisoblash mumkin. Bu hokimiyat xorijiy davlatlar tajribasiga va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan, davlat hokimiyatdan ajratilgan bo'lsa ham, u bilan bahamjihat harakat qiladi, aholini tegishli hududlar hayotini idora qilishga doir qarorlar ishlab chiqish va amalga oshirishga jalb qilishning turli vositalaridan foydalanadi.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, mahalliy o'zini o'zi boshqarish nazariyasi dastlab XVIII asrning ikkinchi yarmida G'arbiy

Yevropada paydo bo‘ldi. Uning tabiati va jamiyatdagi o‘rni mahalliy hokimiyatlar va o‘zini o‘zi boshqarish organlarining *fuqarolar tomonidan saylanish prinsipi g‘oyalari bilan bog‘liqdir*. Yangi tarixning ilk davrida fuqarolar tomonidan saylanadigan o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mustaqilligi konsepsiyasi, ularning qishloq jamoalari va shaharlardagi ishlarga rahbarlik qilishida markaziy hokimiyatga nisbatan alohidaligiga hamda boshqaruvning mustaqilligiga imkoniyat yaratadi. Bu organlarga davlat boshqaruvi sohasidan tashqaridagi alohida bir bo‘g‘in sifatida qarash rusumga kirdi.

XIX asrdagi manbalarda “o‘zini o‘zi boshqarish” tushunchasi AQSH shtatlari, Shveysariya kantonlariga berilgan nisbat sifatida ishlatilgan. Buyuk Britaniyada esa, o‘zini o‘zi boshqarish organlari deganda kelishuv sudlari, maslahatchilar sudlari va parlament institutlari tushunilgan. XIX asrdayoq mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning *uchta – ingliz, fransuz va pruss* modellari shakllangan edi. Hozirgi paytda anglo-sakson, fransuz (yoki janubiy Yevropa) va german (yoki shimoliy – O‘rta Yevropa) modellari hayotda amal qilmoqda.

Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi davlatlarda keng tarqalgan mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning Anglo-sakson modeli – mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning mustaqilligi, birinchi navbatda *aholi tomonidan boshqarilishi, mahalliy davlat organlari va davlat ma’muriyati vakillarining ishtirok etmasligi bilan* ajralib turadi. Mazkur modelda mahalliy boshqaruvning asosiy prinsipi – *“ijobiy tartibga solish prinsipi”* bo‘lib, qonun doirasida va berilgan vakolatlar doirasida mustaqil harakat qilishni bildiradi.

Ushbu davlatlarda munitsipal boshqaruv organi quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi:

1) munitsipalitetga qarashli hududni rivojlantirish;

2) soliqlar va to‘lovlar orqali o‘z byudjetini shakllantirish;

3) sotsial xizmat ko‘rsatish shakllarining aholiga qulay turlarini joriy qilish;

4) jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritish;

5) aholining turli qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida xayriya tadbirlarini uyushtirish;

6) hududidagi yuridik shaxslar, kompaniyalar hamda ishlab chiqaruvchilarning xomiyligini ta’minlash maqsadida elektron hamkorlikni amalga oshirish.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning fransuz modeli – Fransiya, Italiya, Ispaniya, Belgiya va Lotin Amerikasi, Yaqin Sharq va fransuz tilida so‘zlashadigan Afrika mamlakatlarida keng tarqalgan. Uning xususiyatlari: *mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning mustaqilligi cheklangan va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari yuqori turuvchi ma’muriy organga bo‘ysungan xolda faoliyat yuritadi.* Mazkur modelda *“nazorat qilish prinsipi”* ustunlik qiladi. Mahalliy hokimiyat organlari qonunlarda aniq taqiqlanmagan barcha harakatlarni amalga oshirish huquqiga egadirlar, quyi mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini nazorat qilib boradi.

Zamonaviy ilmiy va yuridik adabiyotlarda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishga doir bir qancha asosiy konsepsiyalar mavjud bo‘lib, ular quyidagilarni tashkil etadi.

Erkin jamoa konsepsiyasi. XIX asrning boshlarida nemis olimlari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uning bosh g‘oyasi tarixan davlatdan ilgari yuzaga kelgan jamoa ishlariga davlatning aralashuvini cheklash zarurligini asoslashdan iborat. Tabiiy huquq g‘oyasiga asoslangan ushbu nazariya jamoani davlatdan mustaqil ravishda tabiiy shakllangan organizm sifatida tan olishdan kelib chiqqan. Erkin jamoa nazariyasining g‘oyalari ayrim mamlakatlar qonunchiligida ham o‘z aksini topgan. Masalan, Belgiyaning 1831-yilgi Konstitutsiyasida qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyati bilan bir qatorda, maxsus “jamoa hokimiyati” (mahalliy hokimiyat) ham tan olingan.

O‘zini o‘zi boshqarishning davlat konsepsiyasi. XIX asrda nemis olimlari Lorens Shteyn va Rudolf Geyts tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur nazariyaga ko‘ra, o‘zini o‘zi boshqarish mahalliy davlat boshqaruvining tashkil etishning shakllaridan biri hisoblanadi. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning barcha vakolatlari davlat tomonidan berilgan. Biroq mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishni hukumatga tegishli shaxslar emas, balki uning natijalaridan manfaatdor bo‘lgan mahalliy aholi amalga oshiradi. Unda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning aynan davlatga xos xususiyati ta’kidlab o‘tiladi.

Ushbu nazariya doirasida ikkita asosiy yo‘nalish, ya’ni R.Geyts nomi bilan bog‘liq *siyosiy yo‘nalish* va L. Shteyn nomi bilan bog‘liq *yuridik yo‘nalish* ajratiladi. *Siyosiy yo‘nalish* tarafdorlari mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mustaqilligini ular tashkil etilishining tartibi bilan bog‘lab ko‘rsatadilar. R.Geyst mahalliy boshqaruvni shu joy aholisi o‘rtasida obro‘-e’tibor qozongan shaxslar bepul asosda amalga oshirishi kerak, deb hisoblaydi. Bunga mahalliy o‘znni o‘zi boshqaruv funksiyalarini bepul amalga oshiradigan mansabdor shaxslarni saylab yoki tayinlab qo‘yish yo‘li bilan erishilishi kerak.

Yuridik yo‘nalish tarafdorlari mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mustaqilligini bu organlar bevosita davlat organlari emas, balki davlat ma’lum boshqaruv vakolatlarini zimmasiga yuklagan mahalliy jamoatchilik organlari ekanligida deb biladilar.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruvi – nisbatan nomarkazlashgan davlat boshqaruvining shaklidir. Bunday boshqaruv organlarining asosiy belgilari, bu – ularning saylanishligi va mahalliy ahamiyatga molik bo‘lgan ishlarga rahbarlik qilishdagi nisbatan mustaqilligidir (o‘z ijroiya apparati, mahalliy soliqlarni belgilash, olish va me’yoriy hujjatlar qabul qilish huquqlari mavjud bo‘ladi). Mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv organlarida davlat tashkilotining elementlari bo‘ladi. Ammo joylardagi davlat organlari o‘rtasida ular oliy darajani egallamaydi, chunki hududlarni boshqarish vakolatlarining ko‘pchiligi ulardan olinib, hukumat, vazirliklar va ayrim agentliklarga berilgan.

Xorijiy olimlarning fikricha, “o‘zini o‘zi boshqarish” tushunchasi Buyuk fransuz inqilobi davridagi mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishga daxldor bo‘lib, davlatga nisbatan jamoa (kommuna)lar mustaqilligining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lsa, nemis olimlari (baron fon Shtyeyn va boshqalar) bu tushunchani mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv “fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishdagi faol shaklidir”, deb yozgan edi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, mahalliy (yoki munitsipal) boshqaruv deganda ma'muriy hududiy birliklardagi aholining manfaatlarini ifodalaydigan va saylab qo'yiladigan organlar hamda ularning ma'muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga molik ishlarni boshqarishga aytiladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning noyob shakli, sharqona demokratik boshqaruv uslubi – mahalla hisoblanib, azaldan mavjuddir za uzoq o'tmishga ega. Shuningdek, u milliy qadriyatlarni, xalqning ommaviy yashash turmush tarzini o'zida to'la-to'kis mujassam etadi.

Manbalarni o'rganish, tahlil qilish jarayonida tug'ilgan mantiqiy xulosaga ko'ra, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining asosiy bo'g'ini bo'lmish *mahalla* institutining vujudga kelish tarixi va ularning shakllanish jarayoni uchta davriy bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich – mahallaning milliy qadriyatlarimizni, ma'naviy muhitni mujassam etgan jamoaviy turmush tarzi sifatida shakllanishi, ya'ni o'zbek millati, o'zbek davlatchiligi shakllanishdan to Turkiston Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylangungacha bo'lgan davr.

Ikkinchi bosqich – Turkiston Rossiyaning mustamlakasiga aylangan davrdan to O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgungacha bo'lgan davr.

Uchinchi davr – O'zbekistonning mustaqillik yillari davri.

Ma'lumki, VII asr oxiri – VIII asr boshlariga kelib O'rta Osiyoda islom dinining keng tarqalishi bilan shaharlar va qishloqlarning o'troq aholisi yashaydigan qismiga nisbatan "mahalla" atamasi ishlatila boshlangan. "Mahalla" so'zi arabcha "mahal" so'zidan olingan bo'lib, *"istiqomat qiladigan joy", "hudud"* degan ma'nolarni anglatadi.

Mahalla hayotining jamoa bo'lib yashash tarzi o'zini o'zi boshqarish tizimini keltirib chiqargan. Mahallaga saylab qo'yiladigan oqsoqol boshchilik qilgan. Turli manbalarning guvohlik berishicha, noloyiq odamlarni saylab qo'yish jamoaga ko'p noqulayliklar va ko'ngilsizliklar keltirishini yaxshi tushungan aholi oqsoqol va uning yordamchilarini saylashga hamma vaqtda ham juda jiddiy munosabatda bo'lgan. Oqsoqol shahar ma'murlari oldida mahallaning rasmiy vakili hisoblangan, shu sababli oqsoqol ular tomonidan tasdiqlangan.

Amir Temur o'zining ulkan imperiyasini barpo etgandan so'ng, mamlakatni boshqarish uchun bir qator ommaviy va mahalliy boshqaruv tizimlarini joriy etdi. Mahalliy boshqaruvga asosan mamlakatni uluslarga bo'lib idora qilgan. Ulus hukmdori mamlakat miqyosidagi katta viloyat hukmdori hisoblanib, Sohibqiron tomonidan tayinlangan va o'z devonlari, xazinasi va qo'shiniga rahbarlik qilgan.

Viloyatlar asosan tumanlarga bo'linib, tuman amiri yoki tuman begi tomonidan boshqarilgan. Tuman amiri o'sha joy aholisining tinchlik vaqtida dalalarda, korxonalarda, ustaxonalarda mehnat qilishiga sharoit yaratib, urush vaqtida bir tuman (10-12 ming) qo'shin yetkazib berishi shart edi.

Mingboshilar, qishloq oqsoqollari tuman amiri, viloyat hokimi, ulus hukmdoriga bo'ysunib, ularning farmonlari bajarilishini ta'minlaganlar va ular mahalliy boshqaruvning eng quyi bo'g'ini edi.

XIX asrning boshidayoq mahallalar daha boshliqlari bo‘lgan mingboshilar tomonidan belgilanadigan *yuzboshi (oqsoqol)*lar tomonidan boshqarilgan. Yuzboshilar mingboshilarga bo‘ysungan, ularning ko‘rsatmalarini bajargan. O‘tmishda yuzboshi va uning yordamchilari mahalla boshqaruvini tashkil etishgan, boshqaruvchi vakillar umumiy yig‘inlarda saylangan.

Jamoa boshlig‘i qilib ko‘pincha boy bo‘lmagan, o‘rtahol, katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan hurmatli kishini saylaganlar. U fuqarolar o‘rtasida hurmat-e’tiborga ega bo‘lishi va shahar yig‘inida, daha sudida mahalla manfaatlarini munosib ravishda himoya qila olishi lozim edi.

Mahalla rahbariyatining asosiy vazifasi jamiyat hayotida tartib saqlanishini ta’minlash, barcha an’anaviy me’yorlarning bajarilishiga ko‘z-quloq bo‘lib turish, urf-odatlarga rioya qilish va ularni buzgan, jamoat majburiyatlaridan bo‘yin tovlaganlarni jazolashdan iborat bo‘lgan. Mahalla rahbariyati ariq-hovuzlarni tozalash, ularni ozoda saqlash, yangi, obod ko‘chalar, yo‘llar qurish va boshqa mahalla obodonchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa jamoat ishlarini uyushtirganlar.

Ikkinchi katta bosqich – Turkiston Rossiyaning mustamlakasiga aylangan davrdan to O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgungacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasini mustamlakasiga aylantirgan so‘ng o‘lka boshqaruvini zo‘ravonlikka asoslangan boshqaruv tizimini joriy etganini ko‘rish mumkin. Chor imperiyasi o‘lka xalqlarining xohish-irodasi va roziligiga qaramasdan o‘lkada to‘la erkin bo‘lishni xohlardi. Shu boisdan ham, Turkiston general-gubernatorlik boshqaruv tizimini joriy etib, ommaviy hokimiyatdan tortib mahalliy boshqaruvgacha bo‘lgan butun tizimni o‘z qo‘li ostida birlashtirdi va idora qildi. Ma’lumki, 1865-yil 6-avgustda Aleksandr II “Turkiston viloyatini idora qilish to‘g‘risidagi Muvaqqat Nizom”ni tasdiqladi. Hokimiyatni tashkil etuvchi tizim “harbiy-xalq boshqaruvi” deb yuritilgan. Mahalliy hokimiyat boshlig‘i bo‘lmish harbiy gubernator qo‘lida harbiy va fuqaroviy hokimiyat jamlangan edi. Harbiy gubernatorni “yarimpodshoh” deb atagan mahalliy aholi u o‘rta Osiyoda chinakam podsho ekanligiga urg‘u berar edi. Joylarda ma’muriyatga rahbarlik qilgan bo‘lim boshliqlari ayni mahalda harbiy komendantlar ham bo‘lishgan. Bu shaxslar mahalliy aholi ustidan umumiy politsiya nazoratini amalga oshirar edi. Shuningdek, shahar, qishloq boshqaruvi tizimida tuman boshlig‘i tasarrufida uchastka (bo‘lim) pristavi bo‘lib, unga *mahalla oqsoqollari, ellikboshi, o‘nboshilar* bo‘ysundirilgan edi. Mahalliy xalq ma’muriyati esa (ular tuzum, ya’ni mahalliy ma’muriyat deyilardi) yordamchi rolini o‘ynardi.

Mahalliy boshqaruv tizimi rus ma’muriyati qo‘lida bo‘lgan. Rus ma’muriyatining aholiga *“o‘zini o‘zi boshqarish”* va *“saylov huquqini berishi”* g‘irt lo‘ttibozlikdan iborat ekanligini ta’kidlab, aslida ishning tizginini o‘z qo‘lida saqlab qolishni maqsad qilgan edi.

Shuningdek, chor imperiyasi mahalliy boshqaruv idoralariga mas’ul amaldorlarni tanlanishga ham alohida e’tibor qaratib, bu ishni nihoyatda o‘ylab ish tutgan. Jumladan, mahalliy millatparvar va taraqqiyparvar shaxslarni volost, hatto mahalla boshqaruvchisi, oqsoqol, yuzboshi, ellikboshi yoki qozi sifatida saylashda o‘zining vakillarini tayinlashga harakat qilgan. E’tiborli jihati shuki, *“Turkiston*

o'lkasini boshqarish haqidagi nizom" deb atalgan hujjat esa ularga bu ishda keng vakolatlar taqdim etgan. Rus ma'muriyatining mazkur siyosatidan ko'zlagan asosiy maqsadi shuki, o'lkaning ziyoli qatlamini hokimiyat tepasiga yaqinlashtirmaslik va o'lkada yakka hukmron bo'lishdan iborat bo'lgan.

Jumladan, 1920-yil boshlarida sovet hukumati mahallalar vazifasini cheklash va o'ziga bo'ysundirishga intildi, bu hol mahalla faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Turkistonda sovet hokimiyati tomonidan *shahar kvartallari* o'rniga mahalla komissiyalari nomli hokimiyat instituti joriy qilindi. Ushbu komissiyalar 1922-1923-yillarda Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissarligi farmoyishi bilan qonuniylashtirilgan va rasmiy maqom olgan. Ularning asosiy vazifasi *aholidan soliq yig'ishda moliyaviy tashkilotlarga yordam berish, hovli va ariqlarni tozalashni nazorat qilishdan* iborat bo'lgan.

1932-yil 17-aprelda O'zbekistonda birinchi marotaba shaharlardagi mahalla qo'mitalari to'g'risida Nizom qabul qilindi. Mahalla qo'mitasi uch kishidan (rais, o'rinbosar va kotib) iborat bo'lib, ular umumiy yig'ilishlarda aholi tomonidan saylangan.

1941-yilda O'zbekiston SSR xalq komissarlari soveti shaharlardagi mahalla komitetlari haqidagi Nizomning yangi tahririni qabul qiladi. Ushbu Nizom talablariga ko'ra, mahalla komitetlari a'zolari mehnatlariga hech qanday haq olmas edi. Mahalla komitetlari moliyaviy-xo'jalik ishlari (oshxonalar, choyxonalar, sartaroshxonalar ochish va ularni ishlatish) bilan shug'ullanishlari mumkin emas edi.

Ikkinchi jahon urushi davrida mahalla baynalmilalchilik tabiatini namoyon etdi. Urush davrida mahalla qo'mitalari armiyaga chaqiruvni tashkil etish, aholidan posilka jo'natish, ko'chirib keltirilgan aholi va bolalarni joylashtirishda faol ishtirok etdi.

1953-yil 3-aprelda O'zbekiston SSR Ministrlar kengashining "O'zbekiston SSR shaharlaridagi mahalla (kvartal) qo'mitalari to'g'risida"gi Qarori qabul qilinib, unda mahallalarning soliq yig'ishdagi amaliy vazifasi o'z dolzarbligini yo'qotdi.

1961-yilning avgustida O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan chiqarilgan "Respublika shahar, qishloq, posyolkalaridagi va ovullaridagi mahalla qo'mitalari to'g'risidagi"i Nizomda ham mahallaga yuridik shaxs maqomi berilmagan edi. Mahalla qo'mitalari biron-bir moliyaviy xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas, ular oldi-sotdi, ijaraga berish ishlarini bajarishda qatnashishlari mumkin emas edi. Mahallaning huquq va vakolatlari cheklangan edi. Asosiy e'tibor mahallalarni qishloq xo'jaligi va kolxozlarga oid vazifalarni bajarishga safarbar etishga qaratilgan.

Qayta qurish davriga kelib mahallalarga nisbatan munosabat bir muncha o'zgardi. 1990-yilning 9-aprelida ilk bor mahallar faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonun, ya'ni "SSSRda mahalliy o'zini o'zi boshqarish va mahalliy xo'jaliklar borasidagi dastlabki tadbirlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ittifoqdagi Respublikalar, shu jumladan O'zbekiston SSR ham, SSSR qonuniga muvofiq, mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risida o'z qonunlarini qabul qilishlari lozim edi. Sovet Ittifoqining tanazzulga yuz tutib borayotganligi tufayli bu

masalaning hal etilishi kundan-kunga murakkablashib bordi. Shu sababli "SSSRda mahalliy o'zini o'zi boshqarish va mahalliy xo'jaliklar borasidagi dastlabki tadbirlar to'g'risida"gi qonuni amalda hayotga tatbiq etilmadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, mahallalarning vakolatlari va funksiyalari markaz tomonidan nazorat qilinar edi, ya'ni deyarli mustaqil tuzilma emasdi.

Ilmiy adabiyotlarning guvohlik berishicha, sovet imperiyasi o'lkamizda o'zbek davlatchiligining barcha ko'rinishlarini butunlay yo'qotish va ruscha idora uslubini qat'iy joriy etish uchun izchil faoliyat olib borganligini to'la tasdiqlaydi. Ammo, shunday sharoitda ham, xalqimiz o'z irodasi bilan tanlagan *mahalla boshqaruvi* sinovidan mardonavor o'tganligini ko'rish mumkin.

Samarqand Toshkent, Andijon, Qo'qon va boshqa yirik *shaharlar dahalarga*, ular esa, o'z navbatida *mahallalarga* bo'linib faoliyat yuritganini va mahallalarga oqsoqollar boshchilik qilganligini ko'rish mumkin.

Shunday qilib, mahallalar oshkora ravishda davlat hokimiyati idoralari bo'lib qoldi. Biroq bu mahalliy xarakterda bo'lsa ham, ammo markaziy idoralar doirasida mustaqil ish olib boradigan, sinfiy kurashda oshkora ishtirok etuvchi hokimiyat emas edi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq, ommaviy boshqaruvni va davlat boshqaruvini tashkil etish va ularni erkinlashtirish yo'li bilan birga mahalliy o'zini o'zi boshqarish faoliyatiga rivojlantirish masalasiga alohida urg'u bera boshladi. Millat va jamoat (ommaviy) tizimi hamda sharqona demokratik o'zini o'zi boshqarishning timsoli hisoblangan mahallaning mavqeyi tiklandi va uning faoliyati uchun huquqiy baza yaratildi. Mahallaning nufuzini ko'tarish nafaqat iqtisodiy, nafaqat ijtimoiy, balki siyosiy, tarbiyaviy, ulkan ma'naviy masala hisoblanar edi.

Davlatning mahalliy o'zini o'zi boshqarish borasida olib borayotgan siyosatini ikkita muhim vazifani hal etishi ko'zda tutilgan edi. Birinchisi, *ma'naviy vazifa* bo'lib, u o'zbek xalqining ming yillik tarixidagi noyob, eng aziz an'analarini, qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iborat. Ikkinchisi, *boshqaruv vazifa* bo'lib, mahalla institutini bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklash va uning vakolatlarini kengaytirishdan iborat.

E'tiborli jihati shuki, mahalla timsolida sharqona demokratiya shakli ko'rilmoqda. Bu narsa birinchi marta O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Oliy Kengash tomonidan 1993 yilning 2-sentyabrida qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida o'z ifodasini topgan edi.

Davrning yangicha talablariga muvofiq yuzaga kelgan bu Qonun ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va tarixiy rivojlanish an'analaridan kelib chiqqan hayotimizda katta voqea bo'ldi. Unda ma'lum ma'noda jamiyatimizning hayot tarzi boshlab berildi.

Shunday qilib, yaqin-yaqinlargacha hududiy qo'shnichilik jamoasi mamlakatimizning turli mintaqalarida turlicha nomlarda atalganligini ko'rishimiz mumkin: *mahalla, mahallot (joy), guzar, jamoa, elat, elod.* XX asrning 90 yillaridan shahar va qishloqlardagi hududiy-qo'shnichilik jamoasi yagona

"mahalla" atamasi bilan yuritiladigan bo'ldi. Mahalla fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan noyob usullardan biri hisoblanadi. Qadimda vujudga kelgan qo'shnichilik jamoasi butun tarix mobaynida o'z hayotiy kuchini saqlab qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odilqoriyev X. T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. "Adolat", 2018 – 78 b.
2. Чиркин В. Е. Публичная власт в современном обществе// Журнал Российский права. 1997 – 3 б.
3. Fayziyev X. S. "Davlat boshqaruvi organlarida yuridik xizmat tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish": Yurid. fan. nomz.…dis. – T.: 2020. – 98 b.
4. В. Малиновская. Особенности развития науки административного права в Германии. DOI 10.24833/2073-8420-2017-1-42-51-58.
5. V. Malinovskaya. Osobennosti razvitiya nauki administrativnogo prava v Germanii. DOI 10.24833/2073-8420-2017-1-42-51-58. http://pravo.mgimo.ru/sites/default/files/pdf/08_malinovskayavm.pdf.
6. Гриценко Е. В. Местное самоуправление в системе публичного управления федеративного государства: Значение опыта ФРГ для России. – Иркутск: Издателство ИГЕА, 2001. – 67 s.
7. Jalilov Sh.I. O'zbekiston Respublikasining o'zini o'zi boshqirish huquqi. – T.: "VORIS-NASHRIYOT", 2007. – 261 b.;
8. O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimini yanada takomillashtirishning qiyosiy-huquqiy tahlili http://m.zamin.uz/62345.html.
9. Гриценко Е. В. Местное самоуправление в системе публичного управления федеративного государства: Значение опыта ФРГ для России. – Иркутск: Издателство ИГЕА, 2001. – 89 с.
10. Jalilov Sh.I. O'zbekiston Respublikasining o'zini o'zi boshqirish huquqi. – T.: "VORIS-NASHRIYOT", 2007. – 192 b.
11. Qirg'izboyev M. O'zini o'zi boshqarish: asosiy tushunchalar, xorijiy tajribalar va amaliyot. Demokratlashtirish va inson huquqlari – 2001y. № 1, 30-37-betlar.
12. Sh. I. Jalilov. O'zbekiston Respublikasining o'zini o'zi boshqarish huquqi. – T.: "VORIS-NASHRIYOT", 2007. – 182 b.;
13. Shahrisabzdagi qadimgi mahallalar. https://kashreport.uz/shahrisabzdagi-qadimiu-mahallalar.
14. S. M. Xidirov. Amir Temur davlatining tashkil topishi va davlat tuzumi, Avtoreferat. — T.: 2002.
15. Jalilov Sh.I. O'zbekiston Respublikasining o'zini o'zi boshqarish huquqi. – T.: "VORIS-NASHRIYOT", 2007. – 162 b.;
16. Turkiston general-gubernatorligining siyosiy-ma'muriy tizimi, https://www.e-tarix.uz/vatan-tarixi/697-maqola.html.
17. O'zbekistonning yangi tarixi. 1 – kitob, 204 b.

UDK 792.02:792.072.3:7.038

Tleumuratova Aziza Jumabek qizi,
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tadqiqotchisi

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT AKADEMIK MUSIQALI TEATRIDA "JAMILA" SPEKTAKLINING SSENOGRAFIK TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida sahnalashtirilgan "Jamila" spektaklining ssenografik talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda sahna makoni, dekoratsiya, yorug'lik, rang yechimlari, kostyum va rekvizitlarning dramatik mazmunni ochib berishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, spektaklning boshqa teatr sahnalaridagi talqinlari bilan qiyosiy jihatlar ko'rib chiqilib, qoraqalpoq teatriga xos estetik xususiyatlar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ssenografiya, teatr san'ati, "Jamila" spektakli, Chingiz Aytmatov, sahna makoni, dekoratsiya, yorug'lik dramaturgiyasi, vizual dramaturgiya, qoraqalpoq teatri, sahna talqini, musiqali teatr, kostyum, rekvizit, dramatik obraz.

СЦЕНОГРАФИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СПЕКТАКЛЯ «ДЖАМИЛЯ» В БЕРДАКСКОМ КАРАКАЛПАКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ АКАДЕМИЧЕСКОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ТЕАТРЕ

Аннотация. В данной статье анализируется сценографическая интерпретация спектакля «Джамиля», поставленного в Бердакском Каракалпакском государственном академическом музыкальном театре. В исследовании рассматривается роль сценического пространства, декораций, светового и цветового решения, костюмов и реквизита в раскрытии драматического содержания спектакля. Также освещаются сравнительные аспекты театральных интерпретаций и эстетические особенности каракалпакского театра.

Ключевые слова: сценография, театральное искусство, спектакль «Джамиля», Чингиз Айтматов, сценическое пространство, декорация, световая драматургия, визуальная драматургия, каракалпакский театр, сценическая интерпретация, музыкальный театр, костюм, реквизит, драматический образ.

SCENOGRAPHIC INTERPRETATION OF THE PERFORMANCE "JAMILA" AT THE BERDAQ KARAKALPAK STATE ACADEMIC MUSICAL THEATRE

Annotation. This article analyzes the scenographic interpretation of the performance "Jamila" staged at the Berdaq Karakalpak State Academic Musical Theatre. The study examines the role of stage space, decoration, lighting, color solutions, costumes, and props in revealing the dramatic content of the performance. Comparative aspects of different theatrical interpretations are also considered, highlighting the unique aesthetic features of the Karakalpak theatre.

Keywords: scenography, theatre art, "Jamila" performance, Chingiz Aitmatov, stage space, decoration, lighting dramaturgy, visual dramaturgy, Karakalpak theatre, stage interpretation, musical theatre, costume, props, dramatic image.

Bugungi kunda teatr san'ati jamiyatning ma'naviy-madaniy hayotida muhim o'rin egallovchi san'at turlaridan biri sifatida rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, zamonaviy teatr jarayonida sahna asarining g'oyaviy-badiiy mazmunini ochib berishda ssenografiyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ssenografiya spektaklning vizual yechimini yaratish bilan bir qatorda, dramatik konflikt, qahramon ruhiyati va asarning falsafiy mazmunini tomoshabinga yetkazuvchi muhim badiiy vosita hisoblanadi. Sahna makoni, dekoratsiya, yorug'lik, rang, kostyum va rekvizit kabi elementlar spektaklning umumiy estetik qiyofasini shakllantirib, tomoshabin hissiy qabuliga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Turkiy xalqlar adabiyotining yirik namoyandasi Chingiz Aytmatov ijodi jahon adabiyoti va teatr san'atida alohida o'rin egallaydi. Adibning asarlarida inson ruhiyati, muhabbat, erkinlik, milliy qadriyatlar va jamiyatdagi murakkab munosabatlar chuqur badiiy ifoda etilgan. Ayniqsa, yozuvchining "Jamila" qissasi insoniy muhabbat va erkin tanlov mavzusini o'zida mujassamlashtirgan eng mashhur asarlaridan biri sifatida dunyo miqyosida e'tirof etilgan. Fransuz adibi Lui Aragon ushbu asarni "dunyodagi eng go'zal sevgi qissasi" deb baholagani ham bejiz emas. Keyinchalik asar ko'plab tillarga tarjima qilinib, turli mamlakatlar teatr sahnalarida muvaffaqiyatli sahnalashtirildi.

"Jamila" asari asosida yaratilgan spektakllar qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, tatar, ozarbayjon hamda boshqa xalqlar teatrlarida turlicha sahnaviy talqin qilinib, har bir teatrning milliy estetik qarashlari va ssenografik izlanishlarini namoyon etdi. Ayniqsa, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida sahnalashtirilgan "Jamila" spektakli o'zining psixologik dramatizmi, aktyorlik ijrosi va o'ziga xos ssenografik yechimlari bilan ajralib turadi. Spektaklda milliy teatr an'analari zamonaviy sahna ifoda vositalari bilan uyg'unlashib, asarning emotsional ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Spektaklning yana bir muhim jihati shundaki, unda Jamila obrazi erkinlik va ichki jasorat timsoli sifatida talqin qilinadi. Rejissorlik yechimi, sahna makonining tashkil etilishi, yorug'lik dramaturgiyasi hamda aktyor plastikasi orqali qahramonlarning ruhiy kechinmalari chuqur ochib berilgan. Shu bilan birga, spektakl qoraqalpoq tilida sahnalashtirilgan bo'lsa-da, uning dramatik mazmuni va hissiy ta'siri turli millat vakillari tomonidan ham iliq qabul qilingan.

Mazkur maqolaning maqsadi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida sahnalashtirilgan "Jamila" spektaklining ssenografik talqinini ilmiy jihatdan tahlil qilish, undagi sahna yechimlari, dekoratsiya, yorug'lik, kostyum va rekvizitlarning badiiy funksiyasini ochib berishdan iborat. Shuningdek, spektaklning boshqa teatr sahnalaridagi talqinlari bilan qiyosiy jihatlarini o'rganish orqali qoraqalpoq teatriga xos estetik xususiyatlarni aniqlash ham tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Chingiz Aytmatovning "Jamila" qissasi urush yillaridagi qishloq hayoti fonida insoniy muhabbat, erkinlik va ruhiy tanlov mavzularini yorituvchi asarlardan biridir. Asar voqealari Seyit nomli o'smir yigit tilidan hikoya qilinadi. Syujet markazida urushga ketgan eri Sodiqni kutayotgan Jamila hamda frontdan yarador holda qaytgan Daniyar o'rtasidagi ruhiy yaqinlik va muhabbat tasvirlanadi. Voqealar rivoji davomida Jamila jamiyatdagi an'anaviy qarashlar va ichki hissiyotlari o'rtasida murakkab tanlov qarshisida qoladi. Asarda muhabbat inson erkinligi va qalb haqiqatining ramzi sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan "Jamila" qissasi nafaqat sevgi haqidagi asar, balki inson ruhiyati va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarni ochib beruvchi falsafiy-psixologik asar sifatida ham ahamiyatlidir.

"Jamila" spektakli dunyoning ko'plab teatr sahnalarida turli talqinlarda sahnalashtirilgan asarlardan biri hisoblanadi. Xususan, Qirg'iz Respublikasidagi K.Medetbekov nomidagi Talas viloyat musiqali drama teatri hamda Sh. Termechikov nomidagi Chuy viloyat drama teatri sahnalarida, Tataristonning Tuymanzi davlat drama teatrida, Qozog'istondagi Qurmanbek Jandarbekov nomidagi drama teatri, Taraz Toqpanov teatri hamda Bayten Omarov nomidagi "Jas sahna" qozoq-rus teatrida muvaffaqiyatli namoyish etilgan. Shuningdek, spektakl O'zbekiston davlat Satira teatri, Davlat drama teatri hamda Hindistonning Nyu-Dehli shahrida Bharat Rang Mahotsav xalqaro teatr festivali doirasida ham sahnalashtirilgan. Bundan tashqari, "Jamila" asari asosida yaratilgan myuzikl talqinlari ham xalqaro tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olingan. Ayniqsa, Ozarbayjon sahnasida namoyish etilgan "Jamila" myuzikli zamonaviy ssenografiya, original musiqa, xoreografiya va tarixiy kostyumlar uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Turli teatr sahnalaridagi "Jamila" spektakllari bir-biridan rejissorlik talqini, sahna estetikasi va ssenografik yechimlari bilan farqlanadi. Masalan, qirg'iz teatrlarida folklor va etnografik unsurlar ustunlik qilsa, qozoq teatrlarida monumental sahna kompozitsiyasi hamda poetik ramziylik kuchliroq seziladi. Tatar teatrlarida metaforik sahna tili va shartli dekoratsiya ko'proq qo'llaniladi. Hindiston sahnasida esa asarning asosiy urg'usi ayol erkinligi va muhabbatning ijtimoiy bosimga qarshi kurashiga qaratilgan bo'lib, spektakl ko'proq plastik harakat va hissiy dramatizm asosida qurilgan. Ozarbayjon myuziklida esa musiqiy-plastik yechimlar, ommaviy mizanssenalar va monumental sahna kompozitsiyasi ustunlik qiladi.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida sahnalashtirilgan "Jamila" spektakli esa boshqa sahna talqinlaridan o'zining milliy koloriti, qoraqalpoqona atmosfera va psixologik dramatizmi bilan ajralib turadi. Mazkur spektakl 2018-yilda rejissor M. Usenov tomonidan sahnalashtirilgan bo'lib,

sahnalashtiruvchi rassom sifatida Z. Saipov faoliyat olib borgan. Spektaklda qoraqalpoq xalqining ruhiyati, milliy xarakteri va sahna madaniyatiga xos jihatlar muvaffaqiyatli aks ettirilgan. Ayniqsa, sahna makoni, dekoratsiya va kostyumlarda qoraqalpoq milliy koloritining sezilishi spektaklning badiiy ta'sirchanligini yanada kuchaytirgan.

Spektakl muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri yosh aktyorlarning mahoratli ijrosi bilan bog'liq. Aktyorlar obrazlarni shunchaki ijro etish bilan cheklanmay, qahramonlarning ichki ruhiy kechinmalarini tabiiy va ta'sirchan ochib bera olgan. Ayniqsa, Jamila, Daniyar va Seyit obrazlari tomoshabinlarda ijobiy taassurot uyg'otsa, Ospan obrazi orqali salbiy xarakter muvaffaqiyatli ifodalangan. Spektaklda Jamila obrazi erkinlik va ichki jasorat timsoli sifatida talqin qilinadi.

Spektakl ssenografiyasida qo'llangan dinamik, ya'ni harakatlanuvchi dekoratsiya sahna makonining badiiy va plastik yechimini boyitishga xizmat qilgan. Dekoratsiyaning harakat asosida o'zgarib borishi voqealar rivojining ritmini kuchaytirib, dramatik harakatning vaqt va makondagi uzviyligini ta'minlaydi. Sahna qurilishida stanoklardan keng foydalanilishi aktyorlarning erkin harakatlanishi va mizanssenalarning tabiiy shakllanishiga imkon yaratgan. Dekoratsiya faqat vizual fon sifatida emas, balki aktyor harakati va dramatik voqealar rivojiga xizmat qiluvchi faol sahna elementi sifatida qo'llanilgan.

Tadqiqotchi V. Berezkin ta'kidlaganidek, dinamik dekoratsiya teatrning vaqt va makonda rivojlanuvchi sintetik san'at sifatidagi muhim ifoda vositalaridan biri hisoblanadi [2.52]. Spektaklda qo'llangan harakatlanuvchi dekoratsiya orqali voqealarning dramatik ritmi, qahramonlarning ruhiy holati hamda asardagi makon va zamon muhiti ta'sirchan ochib berilgan. Ayniqsa, dekoratsiyada urush davridagi qishloq muhiti, xalqning yashash tarzi va davr ruhi ishonarli ifodalangan.

Spektaklda yorug'lik va soya elementlaridan ham samarali foydalanilgan. Yorug'lik dramaturgiyasi yordamida qahramonlarning ruhiy kechinmalari va dramatik vaziyatlar yanada kuchaytirilgan. Ayrim sahnalarda yorug'likning keskin almashinuvi dramatik konfliktni kuchaytirsa, yumshoq va iliq ranglar Jamila hamda Daniyar obrazlari o'rtasidagi hissiy yaqinlikni ochib berishga xizmat qilgan.

Spektakl kostyumlari rassom Sarvinoz Davqarayeva tomonidan ishlangan bo'lib, qahramonlar liboslarida tarixiy davr kostyumlari chuqur o'rganilgani seziladi. Kostyumlarning rang tanlovi, bichimi va milliy unsurlari obrazlarning xarakterini ochib berishga xizmat qilgan. Bu esa spektaklning vizual yaxlitligi va badiiy ishonarliligini yanada kuchaytirgan.

Qoraqalpoq sahnasidagi "Jamila" spektaklining yana bir muhim jihati shundaki, u qoraqalpoq tilida sahnalashtirilgan bo'lsa-da, uning dramatik mazmuni va hissiy ta'siri turli millat vakillari uchun ham tushunarli bo'lib qolmoqda. Bu esa spektaklning universal badiiy tilga ega ekanligini ko'rsatadi. Janabay Utepbergenov ta'kidlaganidek, spektaklning muvaffaqiyati asarning kuchi hamda rejissorlik talqinining uyg'unligida namoyon bo'ladi [3.23].

Xulosa qilib aytganda, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida sahnalashtirilgan "Jamila" spektakli qoraqalpoq teatr san'atining zamonaviy badiiy-estetik izlanishlarini o'zida mujassamlashtirgan muhim sahna asarlaridan biri

sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Spektaklning ssenografik talqini orqali sahna makoni, dekoratsiya, yorug'lik dramaturgiyasi, ranglar uyg'unligi hamda kostyum yechimlari dramatik mazmun bilan uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, sahna bezaklarida qoraqalpoq xalqining milliy ruhini ifodalovchi unsurlarning qo'llanilishi tomoshabinda voqealar sodir bo'layotgan muhitni chuqur his etish imkonini yaratadi. Milliy koloritning yorqin aks etishi spektaklning nafaqat badiiy ta'sirchanligini oshiradi, balki qoraqalpoq xalqining madaniy-estetik qarashlarini ham namoyon etadi.

Spektaklda psixologik dramatizmning kuchli ifodalanishi qahramonlarning ichki kechinmalarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etgan. Jamila obrazi orqali inson qalbidagi erkinlikka intilish, samimiy muhabbat va hayotiy tanlov masalalari chuqur badiiy talqin qilinadi. Ssenografik vositalar, xususan yorug'lik va sahna kompozitsiyasi qahramonlarning ruhiy holatini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Yorug'likning turli holatlarda o'zgarib borishi, ranglarning ramziy ma'noda qo'llanilishi hamda sahna makonining dinamik tarzda tashkil etilishi spektaklning emotsional ta'sirini kuchaytiradi. Shu jihatdan mazkur sahna asari qoraqalpoq teatrida zamonaviy ssenografiyaning muvaffaqiyatli namunasi sifatida baholanishi mumkin.

"Jamila" asarining turli xalqlar teatrlarida qayta-qayta sahnalashtirilayotgani uning umuminsoniy mazmun va universal badiiy qiymatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Chingiz Aytmatov tomonidan yaratilgan ushbu asarda insoniy tuyg'ular, muhabbat va vijdon erkinligi, shaxsning ichki olami hamda ruhiy jasorati kabi g'oyalar ilgari surilgan bo'lib, ular millat va hudud tanlamaydigan abadiy qadriyatlar hisoblanadi. Shu sababli asar turli madaniy muhitlarda ham tomoshabin tomonidan birdek iliq qabul qilinadi va har bir xalq o'z mentaliteti hamda estetik qarashlaridan kelib chiqib uni qayta talqin etishga intiladi.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatridagi sahna talqinida ham aynan milliylik va universallik uyg'unligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Spektaklda qoraqalpoq xalqining turmush tarzi, urf-odatlari, estetik didi va hayot falsafasi sahna vositalari orqali nozik ifoda etilgan bo'lsa, asarning asosiy g'oyalari butun insoniyat uchun umumiy bo'lgan ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Bu esa spektaklning badiiy ta'sir doirasini kengaytirib, uni nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham qiziqish uyg'otadigan sahna asariga aylantiradi.

Shuningdek, mazkur spektakl yosh tomoshabinlarni estetik va ma'naviy jihatdan tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega. Unda insoniy sadoqat, samimiyat, ruhiy poklik va erkin fikrlash g'oyalari ilgari surilib, tomoshabinni hayotiy qadriyatlar haqida mushohada yuritishga undaydi. Ayniqsa, zamonaviy globallashuv jarayonida milliy teatr san'atining ana shunday yuksak badiiy asarlar orqali rivojlanishi xalqning madaniy o'zligini saqlash va boyitishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, "Jamila" spektaklining ssenografik talqini qoraqalpoq teatr san'atining ijodiy salohiyatini, zamonaviy sahna madaniyatiga mos ravishda rivojlanayotganini hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga

qodir ekanligini namoyon etadi. Shu bois mazkur spektakl qoraqalpoq teatr san'ati tarixida o'ziga xos badiiy-estetik hodisa sifatida muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri arxiv materiallari.
2. Berezkin V. Spektakl i stsenicheskoye prostranstvo. – Moskva: Sovetskaya Rossiya, 1968. – B. 82.
3. Utepbergenov J. "Rejissor asarning umrini boqiy qiladi" // Teatr jurnali. – 2019. – №4. – B. 23.

UDK 159.9:616-089:615.851

Qosimov Adhamjon Zafar o'g'li,
Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam ilmiy markazi
Qashqadaryo filiali umumiy xirurgiya yo'nalishi
bo'yicha klinik ordinatori

OPERATSIYA OLDI PSIXOLOGIK INTERVENSIYALARNING BEMORLAR REABILITATSIYASIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridagi kasalxonalar bemorlarida operatsiya oldi psixologik intervensiyalarning samaradorligi o'rganildi. Spilberger-Hanin metodikasi orqali bemorlarning tashvish darajasi, stressga chidamlilik, umid va motivatsiya, kayfiyat barqarorligi hamda psixologik moslashuv ko'rsatkichlari baholandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, intervensiya olgan bemorlarda tashvish darajasi pasaygan, stressga chidamlilik va psixologik moslashuv sezilarli darajada oshgan. Ushbu natijalar operatsiya oldi psixologik tayyorgarlikning bemorlarning ruhiy barqarorligini oshirish va reabilitatsiya jarayonini tezlashtirishda muhimligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: psixologik intervensiya, operatsiya oldi tayyorgarlik, bemorlar reabilitatsiyasi, tashvish darajasi, stressga chidamlilik, psixologik moslashuv.

ВЛИЯНИЕ ПРЕДОПЕРАЦИОННЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИНТЕРВЕНЦИЙ НА РЕАБИЛИТАЦИЮ ПАЦИЕНТОВ

Аннотация. В исследовании изучалась эффективность предоперационных психологических вмешательств у пациентов больниц Самаркандской и Кашкадарьинской областей. С помощью методики Спилбергера-Ханина оценивались показатели тревожности, стрессоустойчивости, надежды и мотивации, стабильности настроения и психологической адаптации. Результаты показали, что у пациентов, получивших психологические интервенции, уровень тревожности снизился, а стрессоустойчивость и психологическая адаптация значительно повысились. Эти результаты подтверждают важность предоперационной психологической подготовки для повышения психической устойчивости пациентов и ускорения процесса реабилитации.

Ключевые слова: психологическое вмешательство, предоперационная подготовка, реабилитация пациентов, уровень тревожности, стрессоустойчивость, психологическая адаптация.

THE IMPACT OF PREOPERATIVE PSYCHOLOGICAL INTERVENTIONS ON PATIENT REHABILITATION

Abstract. This study investigated the effectiveness of preoperative psychological interventions among patients in hospitals of Samarkand and

Kashkadarya regions. The Spilberger-Hanin methodology was used to assess anxiety levels, stress resilience, hope and motivation, mood stability, and psychological adaptation. The results demonstrated that patients who received psychological interventions exhibited significantly lower anxiety levels and higher stress resilience and psychological adaptation. These findings underscore the importance of preoperative psychological preparation in enhancing patients' mental stability and accelerating the rehabilitation process.

Keywords: psychological intervention, preoperative preparation, patient rehabilitation, anxiety level, stress resilience, psychological adaptation.

Jarrohlik operatsiyalari bemorlar hayotida jismoniy og‘irlik bilan birga, sezilarli psixoemotsional stress omili sifatida namoyon bo‘ladi. Operatsiya oldi psixologik holatning yuqori darajadagi stress, xavotir va ruhiy charchoq bilan kechishi bemorlarning reabilitatsiya jarayonini sekinlashtiradi, ularning umumiy farovonligi va sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli operatsiya oldi davrda bemorlarning ruhiy holatini baholash, ularni qo‘llab-quvvatlash va mos psixologik intervensiyalarni qo‘llash tibbiy amaliyot, sog‘liqni saqlash tizimi hamda psixologiya fanida dolzarb vazifa hisoblanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi rahbari tomonidan sog‘liqni saqlash sohasini tubdan takomillashtirishga doir keng ko‘lamli huquqiy hujjatlar va qarorlar qabul qilindi. Xususan, 2019–2025 yillarda aholi ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan, bu qaror psixologik yordam ko‘rsatish tizimini yaxshilash hamda kasallik oldini olish, aniqlash va reabilitatsiya jarayonlarini kengaytirish yo‘nalishlarini belgilaydi[2]. Shuningdek, 2024 yil 20 sentabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi qonunni imzoladi, bu hujjat psixologik xizmat ko‘rsatishning tashkil etilishi, standartlari, shakllari va qat’iy talablarini belgilaydi, shuningdek bemorlarning ruhiy holatini qo‘llab-quvvatlashni huquqiy asos bilan mustahkamlaydi[1]. Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan Prezident qarorlari tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish, zamonaviy tibbiy texnologiyalarni joriy etish, shuningdek bemorlar uchun protez-ortopedik yordam va reabilitatsiya infratuzilmasini kengaytirishni o‘z ichiga oladi. Bularning barchasi bemorlarning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash va operatsiyadan oldingi psixologik tayyorgarlikni ham davlat siyosati darajasida kuchaytirilganligini ko‘rsatadi. Shu kontekstda, ilmiy tadqiqotlar bemorlarning psixologik holati, irodaviy sifatlar va intervensiyalarning reabilitatsiya jarayoniga ta’sirini aniq ilmiy mezonlarga asoslangan holda o‘rganishni talab etadi.

Tibbiyot psixologiyasida operatsiya oldi psixologik intervensiyalar relaksatsiya mashqlari, kognitiv-xulq terapiyasi, psixologik maslahatlar va kompleks ma’lumot berish kabi metodlar bemorlarning stress va xavotir darajasini kamaytirish, emotsional barqarorlikni oshirish hamda irodaviy resurslarni mustahkamlashga yo‘naltiriladi. Mazkur psixologik yondashuvlarning samaradorligi nafaqat bemorning ruhiy holatini yaxshilaydi, balki keyingi reabilitatsiya jarayoni tezligi, jarrohlik natijalari va bemorlarning operatsiyadan

keyingi sog‘lig‘iga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu nafaqat psixologik intervensiyalar nafaqat nazariy, balki klinik amaliyotda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrdagi mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar jarrohlik natijalari va ruhiy holat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatmoqda. Masalan, A.E. Hall va hamkasblari tomonidan olib borilgan tizimli tekshiruv natijalari shuni isbotlaydiki, operatsiya oldi psixologik intervensiyalar operatsiyadan keyingi tiklanish jarayoni natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, bemorlarning stress darajasi, og‘riq hissi va depressiya alomatlarini kamaytiradi hamda bemorning kasalxona yoki tibbiyot muassasasiga shifokor nazorati ostida davolanish maqsadida yotqizilishi jarayoni muddatini qisqartiradi[3]. Bu izlanishlar psixologik yordam bemorlarni nafaqat operatsiya jarayoniga psixologik tayyorlash, balki ularning jarrohlik keyingi tiklanish jarayonini ham qo‘llab-quvvatlashda muhim ekanini ko‘rsatadi.

Hirst N. va hamkasblari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, rak kabi og‘ir patologiyalarda operatsiya oldidan amalga oshiriladigan intervensiyalar bemorlarning jarrohlikdan keyin yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlarni yengib o‘tishida, ularning emotsional barqarorligini ta’minlashda hamda umumiy hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlar qolga kiritgan natijalar operatsiya oldi psixologik yordam faqat qisqa muddatli samara bilan cheklanib qolmasdan, balki uzoq muddatli reabilitatsiya jarayoniga ham ijobiy ta’sir etishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, qator ilmiy ishlarda psixologik intervensiyalar bemorlarning immun tizimi faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi, og‘riqni subyektiv qabul qilish darajasini pasaytirishi va umuman olganda hayot sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan[4]. Shu bilan birga, ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlarda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar, tanlangan namuna hajmi hamda intervensiyalarning davomiyligi va vaqtiga oid farqlar natijalarni umumlashtirishni ma’lum darajada qiyinlashtiradi. Shu bois, uzluksiz psixologik qo‘llab-quvvatlashning uzoq muddatli samaradorligi hozirgi vaqtda yetarli darajada chuqur o‘rganilmaganligicha qolmoqda.Yuquridagilardan xulosa chiqargan holda, tadqiqotimiz maqsadini belgiladik, vazifalarni ishlab chiqildi va maqsadga mos metodlarini saralab olindi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — jarrohlik operatsiyasi oldidan psixologik intervensiyalarning bemorlarning reabilitatsiya jarayoniga ta’sirini aniqlash va ilmiy jihatdan baholashdir. Tadqiqot operatsiya oldi psixologik yordamning operatsiya keyingi tiklanish, emotsional barqarorlik va bemorlarning irodaviy tayyorgarligiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bemorlarning operatsiya oldi psixologik va emotsional holatini tizimli tarzda baholash; xavotir, stress va motivatsiya darajasini aniqlash.
2. Psixologik intervensiyalar turini, usullarini va ularning samaradorligini ilmiy tahlil qilish; relaksatsiya mashqlari, kognitiv-xulq terapiyasi va maslahatlar kabi yondashuvlarni o‘rganish.
3. Psixologik intervensiyalar bilan reabilitatsiya natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va ularning o‘zaro ta’sir mexanizmlarini tahlil qilish.

Tadqiqotda jami 120 bemor ishtirok etdi, ularning yarmi nazorat, yarmi eksperimental guruhga ajratildi. Psixologik holatni baholash uchun Spilberger–Hanin (Spielberger–Hanin) metodikasi qo‘llanildi, bu metodika bemorlarning xavotir darajasi, stressga chidamlilik, motivatsiya va psixologik moslashuv kabi ko‘rsatkichlarini o‘lchaydi (Spielberger, 1983; Hanin, 2000). Guruhlar o‘rtasidagi farqlar Mann–Whitney U testi orqali baholandi. Ushbu metodika bemorning shaxsiy xususiyatlari va hozirgi vaziyatga bog‘liq xavotirlik darajasini alohida o‘lchashga imkon beradi. Shu orqali bemorlarning psixologik holati, stressga chidamliligi va operatsiyaga tayyorgarligi haqida aniq ma’lumotlar olish mumkin bo‘ldi. Natijalar asosida reabilitatsiya jarayonini individual tarzda rejalashtirish va bemorlarning ruhiy holatini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoniyati paydo bo‘ldi.

1-jadval

Spilberger-Hanin metodikasi natijalari. Operatsiya oldi bemorlar (Qashqadaryo viloyati kasalxonasi, ayol va erkak bemorlar) (intervensiyalar bo‘yicha) (Mann-Whitney testi; N = 120)

Ko‘rsatkichlar	Guruh	N	O‘rtacha rank	U	p
Tashvish darajasi	Ayol bemorlar	60	63,10	1320,500	0,019*
	Erkak bemorlar	60	57,90		
Stressga chidamlilik	Ayol bemorlar	60	66,25	1275,000	0,007**
	Erkak bemorlar	60	54,75		
Umid va motivatsiya	Ayol bemorlar	60	64,00	1305,000	0,014*
	Erkak bemorlar	60	57,00		
Kayfiyat barqarorligi	Ayol bemorlar	60	60,85	1415,000	0,112
	Erkak bemorlar	60	60,15		
Psixologik moslashuv	Ayol bemorlar	60	64,50	1290,500	0,010*
	Erkak bemorlar	60	56,50		

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Qashqadaryo viloyati kasalxonasi bemorlarida operatsiya oldi psixologik intervensiyalar ruhiy barqarorlikni oshirish va reabilitatsiya jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.Tashvish darajasi bo‘yicha farq ayol va erkak bemorlar o‘rtasida aniq ko‘zga tashlandi. Eksperimental guruhdagi ayol bemorlar (63,10) va erkak bemorlar (57,90) tashvish darajasida nazorat guruhiga nisbatan sezilarli farq ko‘rsatdi ($U=1320,500$; $p<0,05$). Bu intervensiyalar bemorlarning ruhiy holatini barqarorlashtirish va xavotirni kamaytirishga yordam berganini bildiradi.

Stressga chidamlilik eksperimental guruh bemorlarida ancha yuqori bo‘ldi: ayollarda 66,25, erkaklarda 54,75. Bu ko‘rsatkichlar bemorlarning operatsiyaga tayyorgarligini, psixologik barqarorligini va murakkab tibbiy jarayonlarga moslashuvini oshirishda intervensiyalarning samaradorligini tasdiqlaydi (U=1275,000; p<0,01).

Umid va motivatsiya eksperimental guruh bemorlarida ayollarda 64,00, erkaklarda 57,00 ko‘rsatkichida bo‘lib, bu ularning operatsiyaga ijobiy munosabatini va faol reabilitatsiya jarayonida ishtirok etishga tayyorligini ko‘rsatadi. Farq statistik jihatdan ishonchli (U=1305,000; p<0,05).

Kayfiyat barqarorligi bo‘yicha farq ayol va erkak bemorlar o‘rtasida sezilarli emas: eksperimental guruh ayollarda 60,85, erkaklarda 60,15; U=1415,000; p>0,05. Bu ko‘rsatkichni oshirish uchun qo‘shimcha individual psixoterapevtik yondashuvlar zarur.

Psixologik moslashuv eksperimental guruh bemorlarida ayollarda 64,50, erkaklarda 56,50 darajasida bo‘lib, nazorat guruhiga nisbatan sezilarli farq ko‘rsatdi (U=1290,500; p<0,05). Bu natija bemorlarning operatsiyaga tayyorgarligini va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda intervensiyalarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, operatsiya oldi psixologik intervensiyalar ayol va erkak bemorlar uchun tashvish va stressni kamaytirish, psixologik barqarorlik, umid, motivatsiya va psixologik moslashuvni oshirish orqali reabilitatsiya jarayonini samarali qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu intervensiyalar bemorlarning irodaviy va o‘z-o‘zini boshqarish sifatlarini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Kelajakda intervensiyalarni individual psixologik profilga moslashtirish, uzoq muddatli kuzatuvlar o‘tkazish va jarayonning har bosqichida bemor va oilani faol jalb qilish orqali reabilitatsiya samaradorligini yanada oshirish tavsiya etiladi.Samarqand viloyati shifoxonasida davolanayotgan ayol va erkak bemorlardan Spilberger–Hanin metodikasi asosida olingan natijalar operatsiya oldi davrida bemorlarda xavotir darajasining turlicha ekanligini ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, bemorlarning aksariyatida operatsiya oldidan vaziyatli xavotir darajasi yuqori ekani kuzatildi. Bu holat, asosan, operatsiya natijalari haqidagi noaniqlik, og‘riqdan qo‘rquv hamda tiklanish jarayoni bilan bog‘liq xavotirlar bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ayrim bemorlarda shaxsiy xavotir ko‘rsatkichlari ham yuqori bo‘lib, bu ularning individual psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlandi.Jinsiy tafovutlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ayol bemorlarda emotsional reaktivlik nisbatan yuqoriroq bo‘lib, ular orasida xavotir darajasi erkaklarga qaraganda ko‘proq uchrashi mumkin. Erkak bemorlarda esa xavotir ko‘rsatkichlari nisbatan pastroq bo‘lsa-da, ayrim hollarda ichki kechinmalarni yashirish tendensiyasi kuzatildi.Ushbu natijalar operatsiya oldi davrda psixologik intervensiyalarni qo‘llash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Xususan, individual psixologik maslahatlar, relaksatsiya usullari va ma’lumot berishga yo‘naltirilgan yondashuvlar bemorlarning xavotir darajasini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

2-jadval

Spilberger-Hanin metodikasi natijalari. Operatsiya oldi bemorlar (Samarqand viloyati kasalxonasi, ayol va erkak bemorlar) *(Mann-Whitney testi; N = 120)*

Ko‘rsatkichlar	Guruh	N	O‘rtacha rank	U	p
Tashvish darajasi	Ayol bemorlar	60	61,20	1302,500	0,018*
	Erkak bemorlar	60	59,80		
Stressga chidamlilik	Ayol bemorlar	60	66,00	1220,000	0,005**
	Erkak bemorlar	60	55,00		
Umid va motivatsiya	Ayol bemorlar	60	63,10	1275,500	0,012*
	Erkak bemorlar	60	57,90		
Kayfiyat barqarorligi	Ayol bemorlar	60	60,85	1415,000	0,108
	Erkak bemorlar	60	60,15		
Psixologik moslashuv	Ayol bemorlar	60	64,50	1260,500	0,009*
	Erkak bemorlar	60	56,50		

Tashvish darajasi: Ayol bemorlar (61,20) va erkak bemorlar (59,80) o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli (U=1302,500; p<0,05) bo‘lib, ayol bemorlar intervensiya natijasida sezilarli darajada pastroq tashvish ko‘rsatdi. Bu psixologik yondashuvlar bemorlarning operatsiyaga tayyorgarligi va xavotirni boshqarish qobiliyatini oshirganini bildiradi.

Stressga chidamlilik: Ayol bemorlar (66,00) va erkak bemorlar (55,00) ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farq yuqori darajada ishonchli (U=1220,000; p<0,01). Bu intervensiyalar ayollarning ruhiy barqarorligini va operatsiyaga tayyorligini sezilarli darajada kuchaytirganini ko‘rsatadi.

Umid va motivatsiya: Ayol bemorlar (63,10) va erkak bemorlar (57,90) ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli (U=1275,500; p<0,05). Bu bemorlarning ruhiy tayyorgarligi va reabilitatsiya jarayonida faol ishtirok etishga tayyorligini tasdiqlaydi.

Kayfiyat barqarorligi: Ayol (60,85) va erkak (60,15) bemorlar o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatga ega emas (U=1415,000; p>0,05). Bu ko‘rsatkichni oshirish uchun individual psixoterapevtik yondashuvlar va monitoring tavsiya etiladi.

Psixologik moslashuv: Ayol bemorlar (64,50) va erkak bemorlar (56,50) ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farq ishonchli (U=1260,500; p<0,01) bo‘lib, bu intervensiyalar bemorlarning operatsiyaga tayyorgarligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini yaxshilaganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bemorlarida operatsiya oldi psixologik intervensiyalar; birinchidan, bemorlarda tashvish va stressni kamaytiradi, ularning ruhiy barqarorligini oshiradi va operatsiyaga tayyorgarligini mustahkamlaydi. Umid va motivatsiyani oshiradi, bemorlarni faol reabilitatsiya jarayonida ishtirok etishga rag‘batlantiradi. Psixologik moslashuvni rivojlantiradi, murakkab tibbiy jarayonlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Kayfiyat barqarorligi bo‘yicha farq statistik ahamiyatga ega bo‘lmasa-da, qo‘shimcha individual yondashuvlar orqali yaxshilanishi mumkin. Ayol va erkak bemorlar bo‘yicha natijalar psixologik intervensiyalarni operatsiya oldi tayyorgarlik jarayoniga kiritish reabilitatsiya samaradorligini oshirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi. Kelajakda individual psixologik profilga mos intervensiyalar va uzoq muddatli kuzatuvlar reabilitatsiya natijalarini yanada yaxshilash imkonini beradi.

Samarqand va Qashqadaryo viloyati kasalxonasi bemorlari o‘rtasida natijalar qiyoslagandi va quyidagi tafovutlar aniqlandi.

Tashvish darajasi: Samarqand viloyati bemorlarida ayol bemorlar 61,20, erkak bemorlar 59,80 ko‘rsatkich bilan tashvish darajasi nisbatan past bo‘lib, intervensiya samarasi sezilarli ($p<0,05$) aniqlangan. Qashqadaryo viloyati bemorlarida esa ayollar 58,20, erkaklar 62,80 ko‘rsatkich bilan, ayollarda tashvish darajasi past, erkaklarda esa yuqori bo‘lib, farqlar biroz o‘zgacha dinamika ko‘rsatgan. Bu shuni bildiradiki, viloyatlarda bemorlarning psixologik tayyorgarligi va tashvish darajasi demografik va hududiy xususiyatlarga bog‘liq farq qilishi mumkin.

Stressga chidamlilik: Samarqand viloyati ayol bemorlarida 66,00, erkak bemorlar 55,00 ko‘rsatkichlari bilan sezilarli farq ($p<0,01$) kuzatilgan. Qashqadaryo bemorlarida esa ayollar 67,44, erkaklar 59,44 ko‘rsatkichlari bilan, viloyatlar orasida ayollarning stressga chidamliligi bir oz yuqoriroq, erkaklar ko‘rsatkichlari esa deyarli bir xil darajada. Bu intervensiyalarning viloyatlar bo‘yicha ta’siri o‘xshash bo‘lsa-da, ayol bemorlar psixologik tayyorgarlikda doimiy ustunlikni saqlaydi.

Umid va motivatsiya: Samarqand viloyati ayol bemorlar 63,10, erkaklar 57,90 bilan yuqori ko‘rsatkichni namoyish qilgan. Qashqadaryo bemorlarida esa ayollar 67,27, erkaklar 59,60 ko‘rsatkichlari bilan, ayollarda motivatsiya va umid yanada yuqori, erkaklarda o‘xshash darajada bo‘lgan. Bu viloyatlar orasidagi farq ayollarda intervensiyalarning yanada samarali ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Kayfiyat barqarorligi va psixologik moslashuv: Ikkala viloyat bemorlarida kayfiyat barqarorligi bo‘yicha farq statistik ahamiyatga ega emas, lekin psixologik moslashuv Samarqand viloyatida ayollarda 64,50, erkaklarda 56,50, Qashqadaryoda ayollarda 67,02, erkaklarda 59,87 bo‘lib, intervensiyalar bemorlarning mustaqil qaror qabul qilish va psixologik moslashuvini har ikkala hududda sezilarli darajada yaxshilagan. Bundan **ayol bemorlar psixologik intervensiyalardan har doim yuqori samaradorlik ko‘rsatgan,** viloyatlardan qat’i nazar, ularning tashvish darajasi past, stressga chidamliligi va motivatsiyasi yuqori bo‘lgan, **erkak bemorlar ko‘rsatkichlari viloyatga qarab o‘zgaruvchan,** ba’zi hududlarda tashvish darajasi yuqori bo‘lishi, intervensiyalar samaradorligi bilan bog‘liq hududiy yoki demografik omillar mavjudligini ko‘rsatadi degan xulosaga kelish mumkin.

Demak, **stressga chidamlilik va psixologik moslashuv** barcha hududlarda intervensiya natijasida sezilarli darajada oshgan, bu operatsiyaga tayyorgarlik va reabilitatsiya jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Kelajakda intervensiyalarni hududiy xususiyatlar va bemor demografiyasiga moslashtirish, individual psixologik profilga (insonning shaxsiyati, hissiy holati, stressga chidamliligi va xatti-harakat uslubi) qarab yondashuv ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aholiga psixologik yordam koʻrsatish toʻgʻrisidagi. Toshkent. Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, 05.11.2024 yildagi OʻRQ-989-son. Qarori
2. 2019-2025-yillarda Oʻzbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.02.2019 yildagi PQ-4190-son
3. Respublikada sogʻliqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat koʻrsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.05.2025 yildagi PF-88-son
4. Hall, A.E., и др. (2015). Психологические интервенции и результаты хирургического вмешательства: систематический обзор и мета-анализ. Journal of Clinical Psychology in Medical Settings, 22(3), 267–279.
5. Hirst, N., и др. (2018). Предоперационная психологическая поддержка и восстановление после онкологических операций. Psycho-Oncology, 27(9), 2137–2146.

UDK: 37.02:004.8:373.3

Nigmatullayeva Matluba Izzatullo qizi,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha ta'limni muvofiqlashtirish bo'limi yetakchi mutaxassisi

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BILISH MUSTAQILLIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning bilish mustaqilligini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun'iy intellekt asosidagi ta'lim muhitining o'quvchilarning motivatsiyasi, kognitiv faolligi va mustaqil bilim olish ko'nikmalariga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, adaptiv o'qitish tizimlari, intellektual platformalar hamda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, boshlang'ich ta'lim, bilish mustaqilligi, adaptiv o'qitish, raqamli ta'lim muhiti, motivatsiya, kognitiv rivojlanish, raqamli kompetensiya.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ САМОСТОЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В статье анализируются теоретико-методологические основы формирования познавательной самостоятельности учащихся начального образования с использованием технологий искусственного интеллекта. Рассматривается влияние интеллектуальной образовательной среды на мотивацию, когнитивную активность и навыки самостоятельного обучения учащихся. Обоснована педагогическая значимость адаптивных систем обучения, интеллектуальных платформ и развития цифровых компетенций.

Ключевые слова: искусственный интеллект, начальное образование, познавательная самостоятельность, адаптивное обучение, цифровая образовательная среда, мотивация, когнитивное развитие, цифровая компетентность.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING COGNITIVE INDEPENDENCE THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of developing cognitive independence in primary education through the use of

artificial intelligence technologies. The study highlights the impact of AI-based educational environments on students' motivation, cognitive activity, and independent learning skills. The pedagogical significance of adaptive learning systems, intelligent educational platforms, and the development of digital competencies is also substantiated.

Keywords: artificial intelligence, primary education, cognitive independence, adaptive learning, digital learning environment, motivation, cognitive development, digital competence.

Zamonaviy pedagogik fanda bilish mustaqilligi (ko‘plab manbalarda “bilish faolligi”, “o‘quv mustaqilligi”, ingliz tilidagi adabiyotlarda *cognitive autonomy*, *learner independence* tushunchalari bilan ifodalanadi) boshlang‘ich ta’limning eng muhim pedagogik natijalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Chunki bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimining asosiy vazifasi tayyor bilimlarni uzatish emas, balki o‘quvchini mustaqil fikrlashga, muammoni tahlil qilishga, axborotni saralash va undan samarali foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida shakllangan bilish mustaqilligi keyingi ta’lim bosqichlarida o‘quvchining intellektual rivojlanishi, o‘z-o‘zini boshqarishi va ijodiy salohiyatini namoyon etishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ta’lim islohotlarida ham shaxsning mustaqil fikrlashi va ijodiy tafakkurini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Jumladan, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da ta’lim oluvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, innovatsion yondashuv asosida qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish zarurligi alohida ta’kidlangan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4996-sonli qarori sun’iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarga, jumladan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich joriy etishning huquqiy va institutsional asoslarini belgilab berdi. Mazkur qaror ta’lim jarayonini raqamlashtirish, intellektual platformalarni joriy etish hamda o‘quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini qo‘llab-quvvatlash uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari nafaqat texnik vosita, balki ta’limning mazmuni, metodlari va pedagogik yondashuvlarini o‘zgartiruvchi muhim omil sifatida qaralmoqda. Adaptiv o‘qitish tizimlari, intellektual o‘quv platformalari, avtomatlashtirilgan tahlil va teskari aloqa mexanizmlari o‘quvchilarning individual qobiliyati, o‘zlashtirish sur’ati hamda kognitiv ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi. Natijada ta’lim jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan xarakter kasb etib, o‘quvchining mustaqil bilim olish faoliyati faollashadi. Shu jihatdan bilish mustaqilligi va sun’iy intellekt o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda.

Tarixiy-pedagogik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bilish mustaqilligi kategoriyasi turli ilmiy maktab va nazariyalarda keng tadqiq etilgan. Xususan, madaniy-tarixiy

rivojlanish nazariyasi asoschisi L.S. Vigotskiy o‘quvchining rivojlanishini ijtimoiy muhit va faoliyat bilan bog‘liq holda izohlab, “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasini ilgari surgan. Mazkur yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi kattalar yoki intellektual yordam vositalari ko‘magida murakkab bilimlarni o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Zamonaviy sun’iy intellekt tizimlari aynan shunday yordamchi vosita sifatida faoliyat yuritishi mumkin.

O‘quv faoliyati konsepsiyasi vakillari V.V. Davidov, D.B. Elkonin va N.F. Talizina esa bilish jarayonida nazariy tafakkur va refleksiv faoliyatning ahamiyatini asoslab berdilar. Ularning qarashlarida o‘quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilish faoliyatining faol subyekti sifatida talqin etiladi. Muammoli ta’lim nazariyasi namoyandalari M.I. Mahmutov va I.Ya. Lerner esa o‘quvchini muammoli vaziyatga olib kirish orqali uning mustaqil fikrlashi va ijodiy izlanishini rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydilar.

Shuningdek, B. Zimmerman va P. Pintrich tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini boshqaruvchi o‘quv (*self-regulated learning*) nazariyasi o‘quvchining o‘z maqsadini belgilashi, o‘quv faoliyatini nazorat qilishi va natijalarni mustaqil baholashini bilish mustaqilligining asosiy mezoni sifatida ko‘rsatadi. Rivojlantiruvchi ta’lim tizimi asoschisi L.V. Zankov esa ta’lim mazmunining murakkabligi va yuqori darajadagi intellektual faollik o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishini ilmiy asoslab berdi.

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida bilish mustaqilligi insonning oliy ruhiy funksiyalari ijtimoiy muhit va o‘zaro hamkorlik asosida shakllanishi bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Olimning fikricha, bola dastlab bilim va ko‘nikmalarni tashqi ijtimoiy faoliyat jarayonida egallaydi, keyinchalik esa ushbu faoliyat ichki psixik jarayonga aylanadi. Ya’ni bilish jarayoni interpsixik holatdan intrapsixik holatga o‘tish asosida rivojlanadi. Vigotskiyning pedagogika va psixologiya fanidagi eng muhim nazariy yutuqlaridan biri “yaqin rivojlanish zonasi” (*zone of proximal development*) tushunchasi hisoblanadi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, bolaning mustaqil ravishda bajara oladigan faoliyati bilan kattalar yoki tajribaliroq shaxslar ko‘magida amalga oshira oladigan faoliyati o‘rtasidagi masofa uning rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydi. Aynan shu hududda pedagogik ta’sir eng yuqori samaradorlikka ega bo‘ladi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari nuqtayi nazaridan qaralganda, sun’iy intellekt tizimlari aynan mana shu “yaqin rivojlanish zonasi”da faoliyat yurituvchi “raqamli pedagog” yoki “raqamli yordamchi” sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Intellektual platformalar o‘quvchining bilim darajasini tahlil qilib, unga mos topshiriqlarni tavsiya etadi, xatolarini ko‘rsatadi, individual teskari aloqa beradi va shu orqali o‘quvchining potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Natijada sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchining bilish mustaqilligini rivojlantirishda muhim pedagogik vositaga aylanadi.

V.V. Davidov va D.B. Elkoninning o‘quv faoliyati nazariyasida esa bilish mustaqilligining shakllanish bosqichlari batafsil yoritilgan. V.V. Davidov nazariyasiga ko‘ra, bilish mustaqilligining eng yuqori bosqichi o‘quvchining nazariy tafakkurga ega bo‘lishi, ya’ni obyekt va hodisalarning tashqi belgilarini emas, balki

ularning ichki mohiyati va umumiy qonuniyatlarini mustaqil ravishda aniqlay olish qobiliyatidir. Bu esa o‘quvchini tayyor bilimni yodlovchi emas, balki bilimni mustaqil hosil qiluvchi subyekt sifatida shakllantirishni nazarda tutadi.

D.B. Elkonin kichik maktab yoshidagi bolalarda o‘quv faoliyatining to‘rtta asosiy strukturaviy komponentini ajratib ko‘rsatgan: o‘quv vazifasi, o‘quv harakatlari, nazorat va baholash harakatlari. Mazkur komponentlar o‘quvchining o‘z faoliyatini ongli ravishda boshqarishi, natijalarni tahlil qilishi va mustaqil xulosa chiqarishiga zamin yaratadi. Sun’iy intellekt asosidagi zamonaviy ta’lim platformalari aynan shu jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash imkoniga ega bo‘lib, avtomatlashtirilgan monitoring, tezkor tahlil va individual tavsiyalar orqali o‘quv faoliyatining samaradorligini oshiradi.

N.F. Talizina tomonidan ishlab chiqilgan aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi (poetapnoye formirovaniye umstvennix deystviy) ham bilish mustaqilligini rivojlantirishning muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu nazariyada bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish oltita ketma-ket bosqich orqali amalga oshirilishi ko‘rsatiladi: motivatsion tayyorgarlik, harakatning tayanch asosini shakllantirish, moddiy yoki moddiylashtirilgan shaklda bajarish, tashqi nutq yordamida bajarish, ichki nutq shaklida bajarish hamda aqliy faoliyatning avtomatlashgan bosqichi. Mazkur model bugungi kunda adaptiv o‘qitish tizimlari va sun’iy intellekt platformalarining metodologik negizlaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchining qaysi bosqichda ekanligini aniqlab, unga mos yordam va tavsiyalarni taqdim eta oladi.

Muammoli ta’lim konsepsiyasi vakili M.I. Mahmutov bilish mustaqilligini muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida shakllanadigan integrativ sifat sifatida izohlaydi. Olimning fikricha, o‘quvchi muammoli vaziyatga duch kelgandagina izlanishga, tahlil qilishga va ijodiy yechim topishga intiladi. Shu bois muammoli ta’lim o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. I.Ya. Lerner esa bilish mustaqilligining rivojlanishi o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan metodlarning murakkablik darajasiga bog‘liqligini asoslab, izohli-illyustrativ metoddan tadqiqotchilik metodigacha bo‘lgan bosqichlarni ishlab chiqqan.

P.I. Pidkasistiy bilish mustaqilligini motivatsion, mazmuniy-operatsion va irodaviy komponentlarga ajratib, uning ichki tuzilishini tizimli ravishda tahlil qilgan. Ushbu yondashuv bilish mustaqilligi nafaqat bilim va ko‘nikmalar, balki ichki ehtiyoj, qiziqish va irodaviy sifatlar bilan ham uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

L.V. Zankovning rivojlantiruvchi ta’lim tizimi esa yuqori qiyinchilik darajasida o‘qitish, nazariy bilimlarning yetakchi rolini kuchaytirish, tez sur’atda rivojlantirish va barcha o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslanadi. Ushbu didaktik platforma ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichida bilish mustaqilligini shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

T.I. Shamova o‘z tadqiqotlarida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish masalasini o‘rganib, uning uchta darajasini ajratib ko‘rsatgan: reproduktiv (takror-amaliy), interpretatsion va ijodiy faollik. Mazkur darajalar o‘quvchining oddiy bilimlarni qayta tiklashdan boshlab, mustaqil ijodiy faoliyatgacha bo‘lgan

rivojlanish trayektoriyasini ifodalaydi. Zamonaviy sun'iy intellekt vositalari esa ushbu darajalarning har birini qo'llab-quvvatlash, individual rivojlanish sur'atini kuzatish va ta'lim jarayonini moslashtirish imkonini beradi.

Mazkur nazariy yondashuvlarning barchasi umumiy metodologik platforma sifatida o'quvchini passiv bilim oluvchi obyektdan faol bilish subyektiga aylantirish g'oyasini ilgari suradi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limga kirib kelishi esa ushbu nazariyalarni yangi bosqichga olib chiqib, o'quvchilarning individual imkoniyatlarini yanada samarali rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlar yaratmoqda.

Sun'iy intellekt va bilish mustaqilligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. XXI asr ta'lim tizimining asosiy xususiyatlaridan biri raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalarining pedagogik jarayonlarga chuqur integratsiyalashuvidir. Sun'iy intellekt texnologiyalari an'anaviy ta'lim modelini transformatsiya qilib, o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol, mustaqil va refleksiv subyektga aylantirish imkoniyatini yaratmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida sun'iy intellekt asosidagi ta'lim muhiti o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash, ularning bilish ehtiyojlarini hisobga olish va mustaqil bilim olish faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Pedagogik nuqtayi nazardan sun'iy intellekt o'quvchi faoliyatini monitoring qilish, natijalarni tahlil qilish, individual topshiriqlarni tavsiya etish va tezkor teskari aloqa berish imkoniyati bilan ajralib turadi. Shu jihatdan u o'quvchining bilish mustaqilligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi adaptiv mexanizm vazifasini bajaradi. Adaptiv o'qitish tizimlari o'quv materialining murakkablik darajasini o'quvchining tayyorgarligi, qiziqishi va o'zlashtirish sur'atiga moslashtiradi. Natijada har bir o'quvchi o'zining individual rivojlanish trayektoriyasi asosida bilim oladi.

Bilish mustaqilligi shakllanishida refleksiya va o'z-o'zini nazorat qilish jarayonlari alohida ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt asosidagi platformalar o'quvchining xatolarini avtomatik aniqlash, o'quv faoliyatini tahlil qilish va rivojlanish dinamikasini ko'rsatish orqali refleksiv faoliyatni kuchaytiradi. Bu esa o'quvchida o'z faoliyatini baholash, kamchiliklarni aniqlash va mustaqil ravishda tuzatish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Boshlang'ich ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari

Boshlang'ich ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bir qator pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Avvalo, bu texnologiyalar ta'limning individuallashtirilishini ta'minlaydi. Har bir o'quvchining qobiliyati, bilish sur'ati va psixologik xususiyatlari turlicha bo'lganligi sababli, bir xil metodika asosida tashkil etilgan dars barcha o'quvchilar uchun bir xil natija bermaydi. Sun'iy intellekt esa individual yondashuvni avtomatlashtirish orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalari o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Gamifikatsiya elementlari, interaktiv topshiriqlar, vizual modellar va virtual yordamchilar o'quvchilarning ta'lim jarayoniga qiziqishini

kuchaytiradi. Motivatsiyaning ortishi esa bilish faoliyatining faollashuviga va mustaqil izlanish ko‘nikmalarining shakllanishiga olib keladi.

Uchinchidan, sun’iy intellekt vositalari o‘qituvchining pedagogik faoliyatini optimallashtiradi. O‘quvchilarning natijalarini avtomatik monitoring qilish, baholash va tahlil qilish imkoniyati o‘qituvchiga ko‘proq metodik va tarbiyaviy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun sharoit yaratadi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt platformalari o‘qituvchiga har bir o‘quvchi bo‘yicha individual tavsiyalar ishlab chiqishda yordam beradi.

Sun’iy intellekt asosidagi ta’limning psixologik omillari. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Bilish mustaqilligini shakllantirish jarayonida ichki motivatsiya, kognitiv qiziqish, refleksiya va o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlari muhim rol o‘ynaydi.

Ichki motivatsiya o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan tabiiy ehtiyoji va qiziqishini ifodalaydi. Sun’iy intellekt asosidagi interaktiv ta’lim muhiti o‘quvchilarni faol ishtirokga undab, ularning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalar uchun multimediya vositalari, animatsiyalar va virtual modellar bilish faoliyatining emotsional jihatini kuchaytiradi.

Refleksiya esa o‘quvchining o‘z faoliyatini anglash, tahlil qilish va baholash qobiliyatini ifodalaydi. Sun’iy intellekt platformalari o‘quvchilarning muvaffaqiyat va kamchiliklarini ko‘rsatib berish orqali refleksiv tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi. O‘z navbatida, bu jarayon mustaqil ta’lim ko‘nikmalarining shakllanishiga olib keladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishdagi muammolar. Sun’iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari keng bo‘lishiga qaramay, ularni ta’lim tizimiga joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Avvalo, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy pedagog nafaqat fanini mukammal bilishi, balki sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi kerak.

Ikkinchi muhim muammo — texnologik infratuzilma bilan bog‘liq. Ayrim hududlarda internet tezligi, texnik vositalar va raqamli platformalarning yetarli emasligi sun’iy intellekt texnologiyalarini to‘liq joriy etishga to‘sqinlik qilmoqda.

Shuningdek, sun’iy intellektdan foydalanishda pedagogik etikaga oid masalalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, raqamli xavfsizlikni ta’minlash va sun’iy intellekt vositalaridan me’yorida foydalanish pedagogik jarayonning muhim talablari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalarining boshlang‘ich ta’lim tizimiga joriy etilishi o‘quvchilarning bilish mustaqilligini rivojlantirishda yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda. Adaptiv o‘qitish tizimlari, intellektual ta’lim platformalari, virtual yordamchilar va avtomatlashtirilgan teskari aloqa mexanizmlari o‘quvchilarning individual qobiliyati, qiziqishi hamda o‘zlashtirish sur’atini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv esa o‘quvchining mustaqil izlanishi, muammoli

vaziyatlarni tahlil qilishi, axborotni saralashi va amaliy qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida sun’iy intellekt asosidagi ta’lim muhiti o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytirib, ularda o‘z-o‘zini nazorat qilish, refleksiya va mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, sun’iy intellekt vositalari o‘qituvchining pedagogik faoliyatini ham yangi bosqichga olib chiqadi. O‘quvchilarning bilim darajasi va rivojlanish dinamikasini real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyati pedagogga individual yondashuvni samarali tashkil etish, differensial topshiriqlar ishlab chiqish hamda o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos metodlarni tanlash imkonini beradi. Natijada ta’lim jarayoni yanada moslashuvchan, interaktiv va samaradorligi yuqori bo‘lgan tizimga aylanadi. Shu jihatdan sun’iy intellekt texnologiyalari an’anaviy ta’lim modelidan kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeliga o‘tishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun qator pedagogik va tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish zarur. Avvalo, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy sun’iy intellekt platformalari bilan ishlashga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki pedagog nafaqat texnologiyani qo‘llay olishi, balki undan metodik jihatdan to‘g‘ri foydalanish kompetensiyasiga ham ega bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilmani takomillashtirish, internet tarmoqlari va texnik vositalar bilan ta’minlash, sifatli elektron ta’lim resurslarini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda pedagogik etika, axborot xavfsizligi va o‘quvchilarning psixologik salomatligini ta’minlash masalalariga ham alohida e’tibor qaratilishi zarur. Sun’iy intellekt vositalari ta’lim jarayonini yengillashtiruvchi yordamchi mexanizm bo‘lishi kerak, biroq u pedagogning tarbiyaviy va ijtimoiy funksiyalarini to‘liq almashtira olmaydi. Shu sababli an’anaviy pedagogik yondashuvlar bilan raqamli texnologiyalar uyg‘unligini ta’minlash muhim metodologik talab sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, ijodiy yondashuv va muammolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirish orqali zamonaviy jamiyat talablariga mos barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalarini boshlang‘ich ta’lim tizimiga ilmiy asosda integratsiyalash, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish hamda innovatsion pedagogik modellarni ishlab chiqish ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta’limda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asoslari. – Toshkent, 2022.
2. Pedagogik psixologiya: darslik. – Toshkent: Fan, 2020.

3. Sun'iy intellekt va ta'lim integratsiyasi masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. – 2023.

4. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etish. – Toshkent, 2021.

5. Karimov I.A. Ta'lim va taraqqiyot masalalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.

6. Xoliqov A.A. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent, 2021.

7. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities. – Paris, 2020.

8. G'ofurov O., Rahimova D. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2022.

UDK: 378.091.39:004.8

Qarshiyev Javohir Murataliyevich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

INTELLEKTUAL TIZIMLAR YORDAMIDA TINGLOVCHILARDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada intellektual tizim tushunchasi, uning mohiyati va asosiy g'oyalari va shaxsga yo'naltrilgan ta'lim metodikasi keng yoritib beriladi. Intellektual tizimlar sun'iy intellekt, mashinaviy o'rganish va bilimlarga asoslangan texnologiyalar yordamida malaka oshirish tinglovchilari murakkab masalalarni mustaqil ravishda hal qilish, qaror qabul qilish hamda muhitga moslashish qobiliyatiga ega bo'lgan tizimlar sifatida tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari intellektual tizimlarning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: intellektual tizimlar, sun'iy intellekt, mashinaviy o'rganish, qarorlar qabul qilish, aqlli tizimlar, avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish, axborot texnologiyalari.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ.

Аннотация. В данной статье представлен всесторонний обзор концепции интеллектуальной системы, её сущности и основных идей, а также методологии личностно-ориентированного образования. Интеллектуальные системы определяются как системы, которые, используя искусственный интеллект, машинное обучение и технологии, основанные на знаниях, позволяют обучающимся самостоятельно решать сложные задачи, принимать решения и адаптироваться к окружающей среде. Результаты исследования позволяют определить важную роль интеллектуальных систем в развитии современного общества и перспективные направления их развития.

Ключевые слова: интеллектуальные системы, искусственный интеллект, машинное обучение, принятие решений, интеллектуальные системы, автоматизированное принятие решений, информационные технологии.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF PERSONALIZED LEARNING FOR STUDENTS USING INTELLIGENT SYSTEMS

Abstract. This article provides a comprehensive overview of the concept of an intelligent system, its essence and main ideas, and the methodology of person-

centered education. Intelligent systems are defined as systems that, using artificial intelligence, machine learning, and knowledge-based technologies, enable trainees to independently solve complex problems, make decisions, and adapt to the environment. The results of the research serve to identify the important role of intelligent systems in the development of modern society and promising development directions.

Keywords: intelligent systems, artificial intelligence, machine learning, decision-making, smart systems, automated decision-making, information technologies.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal rivojlantirish bo‘yicha bir nechta hukumat qarorlari va ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, xususan, 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari va 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son, 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son qarorlari va yana “Sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan loyihalarni qo‘llab quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘irisida” 30-oktabr 2025-yil PQ-320 sonli qarori ham qabul qilindi hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me’yoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar maqolamizni ilmiyligini oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.


Bugungi kunda inson faoliyati bilan bog‘liq ko‘plab jarayonlarni avtomatlashtirish va optimallashtirish intellektual tizimlarsiz deyarli tasavvur etib bo‘lmaydi. Intellektual tizimlar — bu inson tafakkuriga xos bo‘lgan mantiqiy fikrlash, o‘rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish va insonlarga moslashish kabi jarayonlarni texnik va dasturiy vositalar yordamida amalga oshiruvchi murakkab axborot tizimlaridir. An’anaviy axborot tizimlaridan farqli o‘laroq, intellektual tizimlar qat’iy algoritmlar asosida emas, balki bilimlar, tajriba va ma’lumotlar asosida faoliyat yuritadi hamda vaqt o‘tishi bilan o‘z faoliyatini takomillashtirib borish qobiliyatiga ega. Sun’iy intellekt sohasining rivojlanishi intellektual tizimlarning paydo bo‘lishi va takomillashuviga kuchli turtki berdi. Ekspert tizimlar, neyron tarmoqlar, mashinaviy o‘rganish modellari, aqlli agentlar va tavsiya tizimlari bugungi kunda ta’lim, tibbiyot, iqtisodiyot, moliya, transport, sanoat va davlat boshqaruvi kabi ko‘plab sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Bu tizimlar inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytirish, qaror qabul qilish tezligi va aniqligini oshirish, resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash imkonini bermoqda. Shu bilan birga, intellektual tizimlarni yaratish va joriy etish jarayoni murakkab ilmiy va texnik muammolarni hal qilishni talab etadi. Bilimlarni formalashtirish, mantiqiy xulosa chiqarish mexanizmlarini ishlab chiqish, sifatli ma’lumotlar bilan ta’minlash hamda axloqiy va huquqiy masalalarni hisobga olish ushbu sohaning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Aynan shu jihatlar intellektual tizimlarni chuqur ilmiy asosda o‘rganishni taqozo etadi.

Mazkur ishning asosiy maqsadi — intellektual tizimlar tushunchasi, ularning asosiy g‘oyalari va tuzilmasini ilmiy jihatdan tahlil qilish, shuningdek, ularning amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini yoritib berishdan iborat. Tadqiqot davomida intellektual tizimlarning asosiy komponentlari, ishlash tamoyillari hamda zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ochib beriladi. Ushbu ish natijalari intellektual tizimlar bo‘yicha nazariy bilimlarni kengaytirish va ularni amaliyotda samarali qo‘llashga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi ham ta’lim jarayonlarini tashkil etishda qo‘llaniladigan intellektual o‘qitish tizimlarining modellarini va algoritmlarini tahlil qilishdir. Shuningdek, o‘quv jarayonida samarali intellektual tizimlarni joriy etish uchun zarur bo‘lgan texnologiyalarni yoritish maqsad qilingan.

Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, o‘qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish nazariyasi va amaliyoti masalalari ko‘plab olimlar I. Goodfellow, Y. Bengio, T. Buzan, A. Garad, N. German, A. Courville, S.G. Vorovshikov,N.N. Azizxo‘jayeva, U.Sh.Begimqulov, N.I.Taylaqov, F.M. Zakirovalarning ilmiy ishlarida atroflicha yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida pedagoglarning axborot texnologiyalaridan foydalanish, raqamli ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘qituvchilarning axborot texnologiyalar bo‘yicha nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqishgan.

Personalizatsiyalangan o‘qitish modellari personalizatsiyalangan o‘qitish zamonaviy ta’limda o‘qituvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlariga moslashtirilgan yondashuvni qo‘llashni anglatadi. Ushbu yondashuv sun’iy intellekt va analitik texnologiyalar yordamida rivojlantirilgan ta’lim modellariga asoslanadi.

Unda quyidagi asosiy tushunchalar tahlil qilindi:



Personalizatsiyalangan o‘qitish modellarining asosiy turlari quyidagilardan iborat: Qoidaga asoslangan tizimlar (Rule-based systems): Malaka oshirish tinglovchilarining xatti-harakatlariga qarab mos javoblar yoki tavsiyalar beradi. Misol uchun olsak: Tinglovchilarga uyga topshiriq bo‘yicha biron qiyinchilikka duch kelsa, qo‘shimcha resurslar taqdim etiladi. Intellektual tizimlar orqali o‘qitish modellariga asoslangan tizimlar: Sun’iy intellekt yordamida tinglovchilar haqida ma’lumotlarni tahlil qiladi. Uning algoritmlariga chiziqli regressiya, tasniflash va

klasterlashlarni keltirish mumkin. Misol uchun: Tinglovchilarning qiziqishlariga asoslangan mavzularni tavsiyalar beradi.

Rekomendatsion tizimlar (Recommendation Systems): Tinglovchilarning oldingi o‘quv natijalari asosida materiallarni tavsiya qiladi va o‘quvch tinglovchilarning bilimini mustahkamlashga yordam beradi. Gibrid tizimlar (Hybrid systems): Turli yondashuvlarni birlashtiradi. Misol: O‘qituvchining maslahatlari va tizimning tavsiyalarini birga qo‘llash orqali o‘tilayotgan mavzuni chuqurroq o‘rganishga yordam beradi.

Modellarni baholash mezonlari:

Aniqlik (Accuracy): Modelning talabaning qobiliyatlarini to‘g‘ri baholash darajasi.

Intellektual tizimlar orqali o‘qitish algoritmlarini ta’lim jarayonlariga tatbiq etish bugungi kunda ta’limni individuallashtirish, samaradorligini oshirish va resurslarni yanada optimal boshqarish uchun muhim vositaga aylanmoqda. Intellektual tizimlar orqali o‘qitishning asosiy modellari va algoritmlari quydagilardan iborat: Nazoratli o‘qitish (Supervised Learning) Nazoratli o‘qitish algoritmi (Supervised Learning Algorithm) – sun’iy intellektning asosiy texnikalaridan biri bo‘lib, oldindan belgilangan ma’lumotlar yordamida modellarni o‘rgatishga xizmat qiladi. Ushbu algoritmlar kiruvchi ma’lumot va ular bilan bog‘liq javob qiymatlari asosida bashorat qilish yoki tasniflashni amalga oshiradi. Undan test natijalarini bashorat qilishda, kurs materiallarini shaxsiylashtirishda va ta’lim dasturidagi qiyinchilik darajasini belgilashda foydalanish mumkin hamda Linear Regression, Logistic Regression, Random Forest va Support Vector Machines (SVM) kabi algoritmlarni ishlatish mumkin va bu tizimlar orqali o‘quvchilarning bilim olish darajasini yanada yaxshiroq qilish.

Nazoratsiz o‘qitish (Unsupervised Learning) Nazoratsiz o‘qitish (Unsupervised Learning) – bu sun’iy intellekt sohasidagi muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, ma’lumotlar ichidagi yashirin naqshlarni, tuzilmalarni yoki guruhlarni aniqlash uchun ishlatiladi. Bu usulda belgilangan natijalar yoki maqsadli o‘zgaruvchilar mavjud emas, shuning uchun tizim faqat kirish ma’lumotlarini tahlil qiladi. Undan tinglovchilarning o‘quv qobiliyatlariga asoslangan segmentlarni aniqlashda va o‘quv dasturlaridagi ma’lumotlarni toifalashda foydalanish mumkin hamda K-means, Hierarchical Clustering va Principal Component Analysis (PCA) kabi algoritmlarni ishlatish mumkin. Mustahkamlashga asoslangan o‘qitish (Reinforcement Learning) Mustahkamlashga asoslangan o‘qitish (Reinforcement Learning, RL) — bu sun’iy intellektning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, o‘quvchiga (model yoki tizim) o‘z muhitida to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rgatish orqali ma’lum bir vazifani bajarishga imkon beradi. Bu o‘quv faoliyatida o‘quvchi o‘zining harakatlariga asoslangan mukofot yoki jazo oladi va shunga mos ravishda o‘z xatti-harakatlarini optimallashtiradi. Undan interaktiv ta’lim vositalarini yaratishda va o‘qituvchilar o‘yinlari va virtual laboratoriyalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin hamda QLearning va Deep Q-Networks (DQN) kabi algoritmlarni ishlatish mumkin bo‘ladi.

Tadqiqotning amaliy qismi sifatida intellektual o‘qitish tizimi modellari va algoritmlarini sinovdan o‘tkazish maqsadida, asosida kichik dastur yaratilib, bir necha sinflarda amaliy mashg‘ulotlarning o‘quv jarayonlarida intellektual o‘qitish tizimining dasturiy ta’minotidan foydalanib, uning samaradorligi tahlil qilinmoqda. Tinglovchilar o‘qitishning an’anaviy va intellektual o‘qitish tizimiga joylashtirilgan algoritmlarining yondashuvlariga asoslangan uslublari (tizim orqali) yordamida o‘quvchilarning bilimi tekshirilmoqda (o‘qituvchining boshqaruvida). Natijalar (Results) Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotda yaratilayotgan “Intellektual o‘qitish tizimi” sinovdan o‘tkazilib, borilmoqda va tizim o‘qituvchilarning yangi mavzu bo‘yicha to‘plagan bilimlarini, o‘zlashtirishlarini obyektiv baholab, kelgusida qaysi mavzuladan bilimlarini oshirish bo‘yicha tizimdan tavsiyalar olishmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, intellektual o‘qitish tizimlarining qo‘llanilishi maktablarda o‘quv jarayonini sezilarli darajada optimallashtirib, o‘z sohasida jahon darajasidagi bilimli yetuk mutaxassislarni yetkazishga xizmat qilishga muxim omillardan bo‘lishiga shubha qilmasak ham bo‘ladi. Shuningdek, personalizatsiyalangan o‘qitish modellari yordamida o‘qituvchilar qobiliyatiga mos keladigan o‘quv materiallari taqdim etilishi ularning o‘zlashtirish darajasini 20-25% ga oshirganini ko‘rsatadi. Intellektual tizimlar orqali o‘qitish algoritmlaridan foydalanib, o‘qituvchilarning kelajakdagi natijalarini bashorat qilish tizimi yuqori aniqlikdagi natijani berishini inobatga olib, bashoratlar o‘quvchilarning muvaffaqiyatli bo‘lish ehtimolini 85% aniqlikda ko‘rsatib beradi.

Intellektual tizimlar orqali o‘qitish o‘quvchilarning bilim darajasi va individual o‘rganish sur’atini hisobga olib, o‘qitish jarayonini ancha samarali tashkil etishga yordam berdi. Bunday tizimlar, ayniqsa, o‘quvchilarning qiyin tushunadigan mavzularni chuqurroq o‘rganishlariga va o‘zlashtirilmagan mavzu yuzasidan, shu mavzuni o‘zlashtirishi bo‘yicha tavsiyalar olishga imkon beradi. Bu tizimlarning barchasi o‘qituvchi va o‘quvchiga katta yordam beradi.

Taklif sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- O‘zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intellekt va aqlli chatbotlarni mahalliy sharoitga moslashtirilgan, o‘zbek tilida ishlovchi milliy platformalar asosida joriy etish lozim.
- Sun’iy intellekt orqali o‘qituvchilar uchun uzluksiz masofaviy metodik maslahat tizimini yaratish tavsiya etiladi.
- O‘qituvchilarni sun’iy intellekt vositalari bilan ishlashga o‘rgatuvchi maxsus malaka oshirish modullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Sun’iy intellektni o‘quvchilarning kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlovchi ilg‘or ilmiy-amaliy vosita sifatida qarashimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, tinglovchilarning bilim olish jarayonini zamonaviy pedagogik talablar hamda individual psixologik xususiyatlarga moslashtirishda sun’iy intellekt asosidagi intellektual o‘qitish tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tizimlarni adaptiv modellar, algoritmlar va personalizatsiyalangan ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, tinglovchilarning bilim darajasi, qiziqishi, o‘zlashtirish sur’ati va ehtiyojlarini tahlil qilish imkoniyati sun’iy intellekt texnologiyalarining asosiy afzalliklaridan biri hisoblanadi. Shu orqali har bir tinglovchi uchun individual ta’lim trayektoriyasini yaratish, murakkab mavzularni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish hamda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha va maktab ta’limi muassasalarida intellektual o‘qitish tizimlarini joriy etish tinglovchilarning bilim olish sifatini oshirish, o‘quv jarayonini optimallashtirish va individual ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishda muhim pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar o‘quvchilarning bilim darajasini real vaqt rejimida tahlil qilish, o‘zlashtirishdagi bo‘shliqlarni aniqlash hamda ularga mos tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa ta’lim jarayonida differensial va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim jarayonida o‘qituvchining o‘rni va ahamiyatini kamaytirmaydi. Aksincha, pedagogning metodik, tarbiyaviy va motivatsion funksiyalarini yanada muhimlashtiradi. Chunki sun’iy intellekt texnologiyalari yordamchi vosita sifatida o‘quv jarayonini avtomatlashtirishi mumkin, biroq o‘quvchi shaxsini shakllantirish, unda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish va ijtimoiy-emotsional qo‘llab-quvvatlash vazifalarini to‘liq bajara olmaydi. Shu sababli ta’lim jarayonida inson omili asosiy pedagogik kuch sifatida saqlanib qoladi.

Mashg‘ulotlarda personalizatsiyalangan o‘qitish modellarining samaradorligi o‘quv materiallari, topshiriqlar va testlarning tinglovchilarning tayyorgarlik darajasi hamda individual ehtiyojlariga moslashishi bilan yanada ortadi. Bunday yondashuv tinglovchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va ijodiy yondashuv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, sun’iy intellekt asosidagi adaptiv tizimlar orqali tinglovchilarning o‘zlashtirish sur’atiga mos ravishda bilim berilishi o‘quv motivatsiyasining oshishiga va bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishiga olib keladi.

Kelgusida sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish tizimlarini yanada takomillashtirish, ularni barcha ta’lim bosqichlariga integratsiyalash hamda milliy ta’lim tizimiga mos innovatsion platformalarni yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, elektron ta’lim resurslari sifatini oshirish va sun’iy intellektdan foydalanishning metodik asoslarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan ta’lim muhiti raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi, kreativ va zamonaviy kompetensiyalarga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vanlehn, K. "The Behavior of Tutoring Systems". "International Journal of Artificial Intelligence in Education", 227-265. 2006.

2. C.Conati and others. "AI in Education needs interpretable machine learning: Lessons from Open Learner Modelling". arXiv:1807.00154v1 [cs.AI]. 30 Jun 2018

3. Russell, S., Norvig, P. (2021). *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (4th ed.). Pearson.

4. Jurafsky, D., Martin, J. H. (2023). *Speech and Language Processing* (3rd ed.). Stanford University.

UDK 744:004.92

Raxmonjonov Xusan Akbarovich,
Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi “Amaliy fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi

MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI ZAMONAVIY GRAFIK DASTURLAR BILAN QIYOSLASH METODIKASINING ILMIY ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada muhandislik grafikasi fanlarini zamonaviy grafik dasturlar bilan qiyoslashning ilmiy va metodik asoslari yoritilgan. Unda muhandislik grafikasi fanlari va grafik dasturlarning bajaradigan vazifalari mazmunan bir xil ekanligi, ularning farqi asosan bajarilish usuli va vositalarida namoyon bo‘lishi asoslab berilgan. Shuningdek, grafik dasturlarni yaratish jarayonida muhandislik grafikasi fanining nazariy tushunchalari, xususan proyeksiyalash, geometrik konstruksiyalar va standartlar muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilgani ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada ushbu ikki yo‘nalishni integratsiyalashgan holda o‘qitishning ahamiyati ochib berilib, bu yondashuv talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilishi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: muhandislik grafikasi, grafik dasturlar, proyeksiyalash, geometrik konstruksiya, uch o‘lchamli modellashtirish, chizmachilik, texnik tasvirlash, fazoviy tasavvur, standartlar, raqamli texnologiyalar, metodika, integratsiya.

СРАВНИТЕЛЬНАЯ МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ИНЖЕНЕРНОЙ ГРАФИКИ С СОВРЕМЕННЫМИ ГРАФИЧЕСКИМИ ПРОГРАММАМИ: НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Аннотация. В данной статье раскрываются научные и методические основы сопоставления дисциплин инженерной графики с современными графическими программами. Обосновано, что выполняемые функции инженерной графики и графических программ по своему содержанию являются идентичными, а различия проявляются главным образом в способах и средствах выполнения. Также показано, что при разработке графических программ ключевую роль сыграли теоретические положения инженерной графики, в частности проецирование, геометрические построения и стандарты. В статье подчеркивается значимость интегрированного подхода к обучению данным направлениям, который способствует эффективному сочетанию теоретических знаний студентов с практическими навыками.

Ключевые слова: инженерная графика, графические программы, проецирование, геометрические построения, трехмерное моделирование,

черчение, техническое изображение, пространственное мышление, стандарты, цифровые технологии, методика, интеграция.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS OF COMPARATIVE TEACHING OF ENGINEERING GRAPHICS WITH MODERN GRAPHIC SOFTWARE

Abstract. This article presents the scientific and methodological foundations for comparing engineering graphics disciplines with modern graphic software. It substantiates that the functions performed by engineering graphics and graphic programs are essentially identical in content, while the differences lie mainly in the methods and tools of execution. It is also shown that the development of graphic software is based on the theoretical principles of engineering graphics, particularly projection, geometric constructions, and standards. The article emphasizes the importance of an integrated approach to teaching these areas, which ensures the effective combination of students' theoretical knowledge with practical skills

Keywords: engineering graphics, graphic software, projection, geometric construction, three-dimensional modeling, technical drawing, visualization, spatial thinking, standards, digital technologies, methodology, integration.

Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, barcha fan sohalariga, jumladan muhandislik yo'nalishlariga ham keng tatbiq etilmoqda. Raqamlashtirish jarayoni ta'limning mazmuni, shakli va metodlarini tubdan o'zgartirib, an'anaviy o'qitish usullarini zamonaviy interaktiv va vizual yondashuvlar bilan boyitmoqda. Ayniqsa, muhandislik grafikasi fanini o'qitishda zamonaviy grafik dasturlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, talabalarning fazoviy tasavvuri, analitik fikrlashi hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu jihatdan muhandislik grafikasi fanlari va grafik dasturlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy va metodik jihatdan o'rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Muhandislik grafikasi texnika va muhandislik yo'nalishlarida fundamental fanlardan biri sifatida qaraladi. Ushbu fan orqali talabalarda fazoviy tasavvur, chizmachilik madaniyati, aniqlik, mantiqiy ketma-ketlik hamda tizimli fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. An'anaviy muhandislik grafikasi asosan qog'oz va chizmachilik asboblari yordamida bajariladigan amaliy faoliyatga asoslangan bo'lsa, zamonaviy ta'lim jarayonida ushbu jarayonning raqamli muqobili sifatida AutoCAD, SolidWorks, Компас-3D, Autodesk Inventor kabi grafik dasturlar keng qo'llanilmoqda. Bu esa chizmachilik jarayonini avtomatlashtirish, aniqlikni oshirish va vaqtni tejash imkonini beradi.

Zamonaviy grafik dasturlar muhandislik grafikasi fanining nazariy asoslarini inkor etmaydi, aksincha ularni yanada samarali va amaliy ko'rinishda qo'llash imkonini yaratadi. Masalan, proyeksiyalash, geometrik konstruksiyalar, ortogonal va aksonometrik tasvirlash kabi asosiy tushunchalar grafik dasturlarda raqamli

model sifatida bevosita amalga oshiriladi. Shu sababli muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda nazariy bilimlar va raqamli vositalar integratsiyasi muhim metodik yondashuv sifatida qaralmoqda.

Mazkur maqolada muhandislik grafikasi fanlari va zamonaviy grafik dasturlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar, ularning ilmiy-nazariy asoslari hamda metodik jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu ikki yo‘nalishni integratsiyalashgan holda o‘qitish talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy loyihalash va modellashtirish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Natijada muhandislik ta’limida raqamli transformatsiya jarayonlarini samarali amalga oshirish imkoniyati kengayadi.

F.X. Boymuratov o‘z ishlarida muhandislik va kompyuter grafikasi fanlarini o‘zlashtirishda mustaqil va grafik topshiriqlarning ahamiyatini alohida qayd etadi. Bu esa talabalar bilimini mustahkamlashda an’anaviy va raqamli vositalarning uyg‘un qo‘llanishi samaradorligini ko‘rsatadi. E.T. Rustamov esa muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda axborot texnologiyalarining o‘rni va ahamiyatini tahlil qilib, zamonaviy grafik dasturlar o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotganini ta’kidlaydi.

S. Abdiraxmanov tadqiqotlarida muhandislik va kompyuter grafikasi fanlarini o‘qitishda chizmachilik fanlarining asosiy tayanch rol o‘ynashi ko‘rsatib o‘tilgan. Bu esa grafik dasturlarni samarali o‘zlashtirish uchun avvalo nazariy bilimlarning zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. D.N. Bo‘riboyeva esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishning amaliy ahamiyatini ochib beradi va bu yondashuv o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini asoslaydi.

F.M. Tadjiyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oliy ta’lim muassasalarida muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi ko‘rsatib berilgan. Ushbu tadqiqotlar grafik dasturlar orqali murakkab geometrik tushunchalarni osonroq anglash mumkinligini tasdiqlaydi. S.K. Sheraliyev va Z.Sh. Bahriyeva esa talabalar mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda grafik fanlarning o‘rni va ahamiyatini yoritib, zamonaviy dasturlar bu jarayonni sezilarli darajada yengillashtirishini qayd etadi.

Xorijiy olimlardan F.E. Giesecke, A. Mitchell va H.C. Spencerlarning ilmiy ishlari muhandislik grafikasi va texnik chizmachilikning nazariy asoslarini chuqur yoritib beradi. Ularning tadqiqotlarida geometrik qurilishlar, proyeksiyalash usullari va texnik tasvirlashning asosiy qonuniyatlari bayon etilgan bo‘lib, bu bilimlar zamonaviy grafik dasturlar algoritmlarining asosini tashkil etadi. G.R. Bertoline va hamkorlari esa texnik grafik kommunikatsiya jarayonini o‘rganib, unda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

I. Zeidning tadqiqotlari esa CAD va CAM tizimlarining rivojlanishi, ularning muhandislik faoliyatidagi o‘rni va imkoniyatlarini yoritishga qaratilgan. Ushbu ilmiy ishlar grafik dasturlar muhandislik grafikasi fanining mantiqiy davomi ekanligini va ular aynan shu fan asosida shakllanganini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, muhandislik grafikasi fanlari va zamonaviy grafik dasturlar o‘rtasida uzviy ilmiy bog‘liqlik mavjud. Grafik dasturlar muhandislik grafikasi fanining nazariy tushunchalariga asoslangan holda yaratilgan bo‘lib, ular ushbu fan mazmunini yangi texnologik bosqichda davom ettiradi. Shu sababli, ta’lim jarayonida ushbu ikki yo‘nalishni uyg‘unlashtirish metodik jihatdan asosli va zarur hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda muhandislik grafikasi fanlarini zamonaviy grafik dasturlar bilan qiyoslashning ilmiy asoslarini aniqlash hamda ularni o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalalari kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, qiyosiy va integrativ yondashuvlarga tayanadi hamda nazariy va amaliy usullar uyg‘unligida olib borildi.

Tadqiqotning nazariy asosini muhandislik grafikasi, chizmachilik, kompyuter grafikasi va pedagogika sohasidagi ilmiy ishlanmalar tashkil etdi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali muhandislik grafikasi fanining asosiy tushunchalari va ularning zamonaviy grafik dasturlarda qo‘llanilishi o‘rganildi. Shu bilan birga, grafik dasturlarni yaratishda qo‘llanilgan geometrik va proyeksiyaviy qonuniyatlar aniqlanib, ularning muhandislik grafikasi fanidagi nazariy asoslari bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Tadqiqotda shuningdek umumlashtirish va xulosa chiqarish metodlaridan foydalanilib, olingan natijalar tizimlashtirildi. Bu orqali muhandislik grafikasi fanlarini zamonaviy grafik dasturlar bilan uyg‘un holda o‘qitishning metodik modeli ishlab chiqildi va uning samaradorligi asoslab berildi.

Natijada, tadqiqot metodologiyasi muhandislik grafikasi va grafik dasturlar o‘rtasidagi ilmiy bog‘liqlikni aniqlash, ularni qiyosiy tahlil qilish hamda ta’lim jarayoniga integratsiyalash bo‘yicha asoslangan ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qildi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida muhandislik grafikasi fanlari va grafik dasturlar o‘zaro bog‘liq yagona tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Bu yondashuv orqali mazkur yo‘nalishlarning o‘quv jarayonidagi o‘rni, ularning o‘zaro ta’siri va integratsiya imkoniyatlari aniqlashtirildi. Integrativ metod esa nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini berib, talabalar uchun samarali o‘qitish modelini ishlab chiqishga xizmat qildi.

Muhandislik grafikasi fanining asosiy vazifasi texnik ob’ektlarni tasvirlash, ularning shakli, o‘lchamlari va o‘zaro joylashuvini aniq va tushunarli ifodalashdan iboratdir. Bu jarayonda proyeksiyalash usullari, kesimlar, sirtlar, geometrik shakllar va standartlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy grafik dasturlar ham aynan shu vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan bo‘lib, ular orqali murakkab obyektlarni tezkor va yuqori aniqlikda tasvirlash imkoniyati yaratiladi.

Grafik dasturlarni yaratish jarayonida muhandislik grafikasi fanining nazariy asoslari muhim rol o‘ynaydi. Masalan, proyeksiyalash qonunlari, koordinata tizimlari, geometrik konstruksiyalar kabi tushunchalar dastur algoritmlarining asosi hisoblanadi. Demak, dasturlar mustaqil paydo bo‘lmagan, balki mavjud ilmiy bilimlar va nazariyalar asosida shakllangan. Bu holat muhandislik grafikasi va grafik dasturlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot jarayonida muhandislik grafikasi fanlarini zamonaviy grafik dasturlar bilan qiyoslash asosida bir qator muhim ilmiy va amaliy natijalarga

erishildi. Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, muhandislik grafikasi fanlari va grafik dasturlar o‘rtasida mazmuniy jihatdan uzviy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ularning bajaradigan vazifalari mohiyatan bir-biriga mos keladi.

- Muhandislik grafikasi fanlari va zamonaviy grafik dasturlar mazmunan bir xil vazifani bajarishi aniqlandi, ya’ni har ikkalasi ham texnik obyektlarni tasvirlash, modellashtirish va geometrik ifodalashga xizmat qiladi.
- Grafik dasturlar muhandislik grafikasi fanining nazariy asoslari, xususan proyeksiyalash, geometrik konstruksiyalar va chizmachilik standartlariga tayangan holda yaratilganligi ilmiy jihatdan asoslandi.
- An’anaviy chizmachilik usullari bilan solishtirganda grafik dasturlar yordamida ishlash tezkorlik, aniqlik va vizual imkoniyatlar jihatidan yuqori samaradorlikka ega ekani aniqlandi.
- Talabalarni o‘qitishda nazariya va amaliyotni integratsiyalash (qo‘lda chizish va grafik dasturlarni birgalikda qo‘llash) ularning fazoviy tafakkuri va amaliy ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishi tasdiqlandi.
- Grafik dasturlarni samarali o‘zlashtirish uchun muhandislik grafikasi fanining nazariy bilimlarini chuqur egallash zarurligi, ya’ni nazariya va amaliyot uyg‘unligi ta’lim samaradorligining asosiy omili ekani aniqlandi.

Tadqiqot natijalari muhandislik grafikasi fanida qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar, jumladan proyeksiyalash, geometrik konstruksiyalar, kesim va qirqimlar, o‘lcham qo‘yish qoidalari grafik dasturlar faoliyatining nazariy asosini tashkil etishini tasdiqladi. Grafik dasturlarda bajariladigan barcha amallar aynan shu ilmiy qonuniyatlarga asoslanib avtomatlashtirilgan shaklda amalga oshirilishi aniqlandi. Bu esa grafik dasturlar muhandislik grafikasi fanining mantiqiy davomi ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Tahlillar shuni ham ko‘rsatdiki, faqat grafik dasturlarga tayanib o‘qitish yetarli samarani bermaydi. Agar talabalarda muhandislik grafikasi fanining nazariy asoslari yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, ular dastur imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmaydi. Shu sababli, o‘qitish jarayonida nazariya va amaliyotning uyg‘unligi muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi muhandislik grafikasi fanlarini zamonaviy grafik dasturlar bilan o‘zaro bog‘liq holda yangi metodik yondashuv asosida tahlil qilinganligi bilan belgilanadi. Tadqiqotda muhandislik grafikasi va grafik dasturlar alohida-alohida emas, balki yagona ilmiy va amaliy tizim sifatida qaralib, ularning o‘zaro uyg‘unligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot jarayonida muhandislik grafikasi fanlari va grafik dasturlarning bajaradigan vazifalari mazmunan bir xil ekanligi, farq faqat ularning bajarilish texnologiyasida ekanligi ilmiy asosda isbotlandi. Bu yondashuv orqali grafik dasturlar muhandislik grafikasi fanining muqobili emas, balki uning mantiqiy davomi va amaliy ifodasi ekanligi konseptual jihatdan ochib berildi.

Tadqiqotning yana bir muhim yangiligi muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda integratsiyalashgan metodik modelning ishlab chiqilganligidadir. Ushbu modelda an’anaviy chizmachilik usullari va zamonaviy grafik dasturlar o‘zaro

uyg‘unlashtirilib, talabalarning nazariy bilimlari bilan amaliy ko‘nikmalarini bir vaqtda rivojlantirish imkoniyati yaratildi.

Metodik jihatdan qaraganda, muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda integratsiyalashgan yondashuv samarali hisoblanadi. Ya’ni, an’anaviy chizmachilik usullari va zamonaviy grafik dasturlar birgalikda qo‘llanilishi kerak. Bu yondashuv orqali talabalarda ham nazariy, ham amaliy ko‘nikmalar shakllanadi. Shuningdek, bu usul ularning mustaqil ishlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Zamonaviy grafik dasturlar muhandislik grafikasi fanining mantiqiy davomidir. Ular orqali murakkab konstruktsiyalarni yaratish, tahlil qilish va modellashtirish imkoniyati kengayadi. Biroq bu dasturlarni samarali qo‘llash uchun fan asoslarini puxta o‘zlashtirish zarur. Shu jihatdan qaraganda, grafik dasturlar muhandislik grafikasi fanini inkor etmaydi, balki uni yangi bosqichga olib chiqadi.

Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati muhandislik grafikasi fanlarini zamonaviy grafik dasturlar bilan uyg‘un holda o‘qitish jarayonini takomillashtirishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar ta’lim jarayonida bevosita qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, ular o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalari, kasb-hunar ta’limi tizimi va malaka oshirish kurslarida muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitish jarayonini modernizatsiya qilishda foydalanilishi mumkin. Xususan, o‘quv dasturlarini takomillashtirish, yangi o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish va dars jarayonlarini raqamlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida muhandislik grafikasi fanlarini zamonaviy grafik dasturlar bilan qiyoslashning ilmiy va metodik jihatlari atroflicha o‘rganildi hamda ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi asoslab berildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, muhandislik grafikasi fanlari va grafik dasturlar bajaradigan vazifalar mohiyatan bir xil bo‘lib, farq asosan ularning amalga oshirish usuli va texnologiyalarida namoyon bo‘ladi.

1. Muhandislik grafikasi fanlari va zamonaviy grafik dasturlar bajaradigan vazifalar mohiyatan bir xil bo‘lib, farq asosan ularning bajarilish usuli va texnologiyalarida ekanligi aniqlandi.

2. Grafik dasturlar muhandislik grafikasi fanining nazariy asoslari — proyeksiyalash qonuniyatlari, geometrik konstruksiyalar va chizmachilik standartlariga tayanib yaratilganligi ilmiy jihatdan asoslandi.

3. Grafik dasturlar muhandislik grafikasi fanining o‘rnini bosuvchi emas, balki uning amaliy davomi va rivojlangan shakli ekanligi belgilandi.

4. Ta’lim jarayonida an’anaviy va zamonaviy yondashuvlarni integratsiyalash talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi tasdiqlandi.

5. Nazariya va amaliyot uyg‘unligi grafik dasturlarni samarali o‘zlashtirishning asosiy omili bo‘lib, bu zamonaviy ta’limda yuqori malakali mutaxassis tayyorlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari grafik dasturlarni samarali o‘zlashtirish uchun muhandislik grafikasi fanining nazariy asoslarini chuqur bilish zarurligini ko‘rsatdi. Nazariya va amaliyotning uyg‘unligi ta’lim samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Muhandislik grafikasi fanlari va zamonaviy grafik dasturlarni birgalikda o‘qitish zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur yondashuv nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki ishlab chiqarish va loyihalash sohalarida samarali faoliyat yurituvchi kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF 134-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-600866.

2. Boymuratov F.X. Muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o‘zlashtirishda mustaqil va grafik topshiriqlarning ahamiyati// Uzbek Scholar Journal. – 2022. 10. – B. 320-325. https://uzbekscholar.com/index.php/uzs/article/view/384

3. Abdiraxmanov S. Muhandislik va kompyuter grafikasi fanlarini o‘qitishda chizmachilik fanlarining o‘rni// Science Shine International Journal. – 2024. 18(1). https://science-shine.uz/index.php/ilmnuri/article/view/478

4. Bo‘riboyeva D.N. Muhandislik grafikasi fanlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o‘qitishning amaliy ahamiyati// IQRO INDEXING. – 2025. 16(01). – B. 453-457.
https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/12928

5. Shoxboz D., Abdulxatov A. Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda zamonaviy grafik dasturlardan foydalanish metodikasi. – Scientific Progress, 2022.

6. Tadjiyeva F.M. Use of information technologies in engineering graphics classes in higher education institutions// International Journal of Pedagogics. – 2024. 4(11). – B. 158-166. https://theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/4003

7. Xalimov R. Maktab chizmachilik kursida sinf doskasi bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari. – SamDU, 2021.

8. Giesecke F.E., Mitchell A., Spencer H.C. Technical Drawing with Engineering Graphics. – Pearson Education, 2014.

10. Bertoline G.R., Wiebe E.N., Miller C.L. Technical Graphics Communication. – McGraw-Hill Education, 2015.

UDK 159.922.8:159.923.2

Ibragimova Shahnoza Gapparovna,
Qo‘qon davlat universitet “Psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Ahmadjonova Gulsanam Faxriddin qizi,
Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

O‘SMIRLIK DAVRIDA XARAKTER AKSENTUATSIYASI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi shakllanishining psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning xarakter xususiyatlarini aniqlash maqsadida K. Leongard nazariyasiga asoslangan H.Shmishekning “Xarakter aksentuatsiyasini aniqlash” metodikasi qo‘llanildi. Tadqiqot natijalari o‘smirlarning xarakter aksentuatsiyasi ularning sinf jamoasidagi mavqei, muloqot uslubi hamda ijtimoiy moslashuv jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Olingan natijalar o‘smirlarning shaxsiy rivojlanishini tushunish hamda psixologik korreksion ishlarni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, xarakter, aksentuatsiya, shaxs rivojlanishi, psixologik diagnostika, shaxs tipologiyasi, psixik rivojlanish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ АКЦЕНТУАЦИЙ ХАРАКТЕРА В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. В данной статье проанализированы психологические особенности формирования акцентуаций характера в подростковом возрасте. В ходе исследования для определения характерологических особенностей учащихся была использована методика «Определение акцентуаций характера» Х. Шмишека, основанная на теории К. Леонгарда. Результаты исследования показали, что акцентуации характера подростков оказывают значительное влияние на их положение в классном коллективе, особенности общения и процесс социальной адаптации. Полученные результаты имеют важное значение для понимания личностного развития подростков и организации психокоррекционной работы.

Ключевые слова: подростковый возраст, характер, акцентуация, личностное развитие, психологическая диагностика, типология личности, психическое развитие

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF CHARACTER ACCENTUATIONS IN ADOLESCENCE

Abstract. This article analyzes the psychological characteristics of the formation of character accentuations during adolescence. In the course of the study,

the "Character Accentuation Assessment" method developed by H. Schmieschek, based on K. Leongard's theory, was used to identify students' character traits. The results showed that adolescents' character accentuations significantly influence their position in the classroom, communication style, and social adaptation process. The findings are important for understanding adolescents' personal development and for organizing psychological corrective work.

Keywords: adolescence, character, accentuation, personality development, psychological diagnostics, personality typology, mental development.

Bugungi globallashuv va ijtimoiy munosabatlar murakkablashib borayotgan sharoitda yosh avlodning psixologik rivojlanishini chuqur o'rganish jahon psixologiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'smirlik davri shaxs rivojlanishining o'tish bosqichi sifatida emotsional beqarorlik, o'zini anglash jarayonining jadallashuvi, tengdoshlar bilan munosabatlarning murakkablashuvi va individual-tipologik xususiyatlarning keskinlashuvi bilan ajralib turadi. Shu sababli mazkur yosh bosqichida xarakter xususiyatlarining shakllanish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy psixologik tadqiqotlarning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xalqaro psixologik tadqiqotlarda o'smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasining shakllanishi shaxsning keyingi ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ strategiyasi va emotsional barqarorligi bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Ayniqsa, bu davrda ayrim xarakter sifatlarining normaning chegaraviy doirasida keskin ifodalanishi o'quvchilarning ta'lim jarayoni, sinf jamoasidagi mavqei hamda xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda ham yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va ta'lim muassasalarida psixologik xizmat samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, sog'lom psixologik muhitni shakllantirishga qaratilgan tashabbuslar maktab amaliyotida o'smirlarning individual psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganishni taqozo etadi[1.67-78].

Ayniqsa, umumta'lim maktablarida psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish, o'quvchilarning emotsional holatini erta diagnostika qilish va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarning oldini olish bugungi ta'lim islohotlarining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Shu jihatdan o'smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi shakllanishining psixologik xususiyatlarini aniqlash nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, unda o'smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi shakllanishining psixologik qonuniyatlari, uning o'quvchilarning muloqot uslubi, sinf jamoasidagi mavqei va ijtimoiy moslashuviga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi o'smirlik davrida xarakter

aksentuatsiyasi shakllanishining psixologik xususiyatlarini aniqlash hamda uning shaxs rivojlanishidagi o‘rnini ochib berishdan iborat.

O‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi muammosi shaxs psixologiyasining eng murakkab va dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida ilmiy tadqiqotlarda alohida o‘rin egallaydi. Mazkur masalaning nazariy asoslari avvalo Karl Leongard ilmiy qarashlarida o‘z ifodasini topgan. Olim xarakter aksentuatsiyasini shaxsning ayrim sifatlari normaning chegaraviy doirasida keskinroq namoyon bo‘lishi sifatida talqin etib, uni patologik holat emas, balki muayyan vaziyatlarda psixologik sezgirlikni kuchaytiruvchi individual-tipologik xususiyat deb baholaydi. Uning yondashuvida aksentuatsiyalar shaxsning kommunikativ, emotsional va irodaviy sohalari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi[4.265-267].

Mazkur nazariy qarashlar keyinchalik Andrey Lichko tomonidan aynan o‘smirlik yoshiga mos ravishda chuqurlashtirilgan. Olimning ilmiy izlanishlarida o‘smirlik davrida biologik yetilish, emotsional labillik, o‘zini anglash jarayonining kuchayishi hamda tengdoshlar bilan munosabatlarning murakkablashuvi xarakter xususiyatlarining keskinlashuviga olib kelishi asoslab berilgan. Ayniqsa, o‘smirlik davrida aksentuatsiya turlarining yanada yaqqolroq namoyon bo‘lishi ushbu yosh bosqichining psixologik qonuniyati sifatida ko‘rsatib o‘tiladi[5.159-163].

Psixodiagnostik tadqiqotlar yo‘nalishida Gans Shmishek tomonidan ishlab chiqilgan metodika xarakter aksentuatsiyalarini amaliy jihatdan aniqlashning ishonchli vositalaridan biri sifatida keng qo‘llaniladi. Ushbu metodika Leongard nazariyasiga asoslangan bo‘lib, shaxs xarakteridagi gipertim, emotiv, pedant, xavotirli, demonstrativ va boshqa tiplarni differensial ravishda baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv ayniqsa o‘smirlik davrida individual psixologik portretni shakllantirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi[6.124-128].

Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda o‘smirlik davrida emotiv va xavotirli tiplarning nisbatan ustunligi ko‘proq uchrashi qayd etiladi. Bu holat o‘smirlarning hissiy ta’sirchanligi, ijtimoiy qabul qilinishga bo‘lgan kuchli ehtiyoji hamda o‘ziga baho berish tizimining yetarli darajada barqarorlashmaganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, oilaviy tarbiya uslubi, maktab muhiti va tengdoshlar guruhi ta’siri xarakter aksentuatsiyasining shakllanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy ijtimoiy omillar sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi nafaqat shaxsning ichki emotsional va individual-tipologik xususiyatlarini, balki uning ijtimoiy moslashuvi, muloqot strategiyasi va sinf jamoasidagi mavqeini ham belgilovchi muhim psixologik omil hisoblanadi. Shu jihatdan mazkur muammo maktab psixologiyasi va ta’lim amaliyoti uchun alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot empirik yo‘nalishda tashkil etilib, o‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi shakllanishining psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayoniga umumta’lim maktabida tahsil olayotgan o‘smir yoshidagi o‘quvchilar jalb etildi. Tanlanma hajmi maqolada keltirilgan amaliy natijalarga tayangan holda 53 nafar respondentni tashkil etdi . Ishtirokchilar o‘smirlik yosh davrining psixologik xususiyatlarini aks ettira oladigan guruh sifatida tanlab olindi.

Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy psixologiyaning tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan hamda differensial yondashuv tamoyillari tashkil etdi. Ushbu yondashuvlar asosida o‘smirlarning individual-tipologik xususiyatlari, emotsional holati va ijtimoiy moslashuv bilan bog‘liq jihatlari yaxlit psixologik tizim sifatida tahlil qilindi.

Psixodiagnostik vosita sifatida Gans Shmishek xarakter aksentuatsiyasi metodikasi qo‘llanildi. Mazkur metodika Karl Leongard nazariy qarashlariga tayangan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, shaxs xarakteridagi aksentuatsiya turlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu metodikaning tanlanishi o‘smirlik davrida xarakter xususiyatlarining nisbatan keskin va yaqqol namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot jarayonida respondentlarga metodika savollari standart tartibda taqdim etildi, olingan javoblar umumlashtirilib, aksentuatsiya turlari bo‘yicha guruhlashtirildi. Natijalarni qayta ishlashda tavsiflovchi statistik tahlil, foizli taqsimot va qiyosiy solishtirish usullaridan foydalanildi. Bu esa o‘smirlar orasida qaysi xarakter aksentuatsiya turlari nisbatan ustun ekanligini aniqlash, ularning namoyon bo‘lish darajasini qiyoslash hamda psixologik jihatdan sharhlash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ilmiy xolislik va etik me’yorlarga rioya qilinib, ishtirokchilarning javoblari umumlashtirilgan holda tahlil qilindi. Metodologik jihatdan bunday yondashuv o‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasining shakllanish mexanizmlarini ilmiy asosda ochib berishga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida Gans Shmishek xarakter aksentuatsiyasi metodikasi yordamida 53 nafar o‘smir o‘quvchining xarakter aksentuatsiya turlari aniqlanib, ularning foizli taqsimoti tahlil qilindi . Olingan empirik natijalar xarakter aksentuatsiyasi turlarining o‘smirlar orasida turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

Natijalarga ko‘ra, eng yuqori ko‘rsatkichlar emotiv, pedant va xavotirlanuvchi tiplarda kuzatildi. Mazkur tiplarning har biri bo‘yicha 6 nafardan o‘quvchi aniqlanib, umumiy tanlanmaning 11,32 foizini tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichlar o‘smirlar orasida hissiy sezgirlik, ichki nazorat hamda xavotirga moyillik nisbatan ustun ekanligini empirik jihatdan aks ettirdi.

Nisbatan o‘rtacha darajadagi natijalar distim, asteno-nevrotik hamda turg‘un bo‘lmagan tiplarda qayd etildi. Ushbu tiplarning har biri 5 nafardan respondentda uchrab, 9,43 foizlik ulushni tashkil etdi. Bu natijalar ayrim o‘smirlarda kayfiyat pasayuvchanligi, tez charchash va xulq-atvor barqarorligining yetarli shakllanmaganligi mavjudligini ko‘rsatdi.

Gipertim, qo‘zg‘aluvchan, siklotim va demonstrativ tiplar bo‘yicha 4 nafardan o‘quvchi aniqlanib, ularning har biri 7,53 foizni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichlar mazkur xarakter xususiyatlarining tanlanmada o‘rtachadan pastroq darajada uchrashini ko‘rsatdi.

Eng past natijalar paranoyal va shizotim tiplarda kuzatildi. Har ikki tip bo‘yicha 2 nafardan o‘quvchi qayd etilib, bu umumiy tanlanmaning 3,77 foiziga teng bo‘ldi. Mazkur tiplarning kam uchrashi tanlanmadagi o‘smirlar orasida ijtimoiy ajralganlik yoki ortiqcha shubhalanuvchanlik kabi xususiyatlar keng tarqalmaganligini ko‘rsatdi.

Umuman olganda, natijalar o‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyalarining notekis taqsimlanganligini, ayniqsa hissiy va xavotir bilan bog‘liq tiplarning ustunligini empirik jihatdan tasdiqladi. Bu ko‘rsatkichlar o‘smirlarning individual-psixologik xususiyatlari turli darajada shakllanishini hamda ayrim tiplarning sinf jamoasi va muloqot jarayonida faolroq namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

1-jadval

Xarakter aksentuatsiyasi tiplari aniqlangan o‘quvchilar jadvali

Tiplar:	O‘quvchilar soni:	Foiz(%) Ko‘rsatkichlari
I.Gipertim tip	4 ta	7,53 %
II.Xayajonlanuvchi tip	4 ta	7,53%
III. Emotiv tip	6 ta	11,32 %
IV. Pedant tip	6 ta	11,32 %
V.Xavotirlanuvchi tip	6 ta	11,32 %
VI. TSiklotim tip	4 ta	7,53 %
VII. Demonstrativ tip	4 ta	7,53 %
VIII. Paranoyal tip	2 ta	3,77 %
IX. Distim tip	5 ta	9,43 %
X. Asteno - nevrotik tip	5 ta	9,43 %
XI. Shizotim tip	2 ta	3,77 %
XII. Turg‘un bo‘lmagan tip	5 ta	9,43 %

Olingan natijalar o‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyalarining namoyon bo‘lishi ushbu yosh bosqichining psixologik rivojlanish qonuniyatlari bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Tadqiqotda emotiv, pedant va xavotirlanuvchi tiplarning nisbatan ustunligi aniqlangani o‘smirlik davriga xos bo‘lgan emotsional sezgirlik, o‘zini anglash jarayonining kuchayishi hamda ichki nazorat mexanizmlarining faol shakllanishi bilan izohlanadi.

Psixologik nuqtai nazardan, emotiv tipning yuqori ulushi o‘smirlarning tashqi ijtimoiy ta’sirlarga, ayniqsa tengdoshlar va pedagoglar bahosiga nisbatan yuqori sezgirligini aks ettiradi. Bu holat o‘smirlik davrida empatik reaksiyalar, ichki kechinmalar chuqurligi hamda shaxsiy tajribalarni kuchli subyektiv qabul qilish bilan chambarchas bog‘liq. Mazkur tip vakillarida hissiy ta’sirchanlik kuchli bo‘lgani sababli ular ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ko‘proq ehtiyoj sezadi.

Pedant tipning yuqori ko‘rsatkichlari esa o‘smirlarning ta’lim muhiti, oilaviy nazorat va ichki tartibga ehtiyoj bilan bog‘liq psixologik moslashuv mexanizmlarini aks ettiradi. Ayniqsa, maktab sharoitida o‘quv faoliyati, baholash tizimi va tashkiliy intizomning kuchayishi ayrim o‘smirlarda aniqlik, ehtiyotkorlik va o‘z xatti-harakatlarini ortiqcha nazorat qilishga moyillikni shakllantiradi.

Xavotirlanuvchi tipning ustunligi o‘smirlik davrining eng muhim psixologik ko‘rsatkichlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Chunki ushbu yosh bosqichida o‘ziga baho berishning beqarorligi, tengdoshlar tomonidan qabul qilinishga ehtiyoj va kelajak haqidagi noaniqlik hissi ichki xavotirni kuchaytiradi. Bu esa ijtimoiy vaziyatlarda tortinchoqlik, o‘ziga ishonchsizlik va qaror qabul qilishdagi ikkilanish ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi.

Nisbatan past ko‘rsatkichlarning gipertim, demonstrativ va siklotim tiplarda kuzatilishi tanlanmadagi o‘smirlar orasida yuqori tashabbuskorlik, yetakchilik yoki diqqat markazida bo‘lishga intilish barcha respondentlarda bir xil darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, demonstrativ tipning o‘rtachadan past ulushi o‘smirlar orasida tashqi ekspressivlikdan ko‘ra ichki kechinmalar va xavotirli reaksiyalar kuchliroq ekanligini ko‘rsatishi mumkin.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, xarakter aksentuatsiyasi o‘smirlarning sinf jamoasidagi ijtimoiy mavqei, muloqot strategiyasi, stressga chidamliligi va ta’lim faoliyatidagi xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, xavotirli va distim ko‘rsatkichlar yuqoriroq bo‘lgan o‘quvchilar bilan individual psixologik profilaktika va korreksion ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy jihatdan ushbu natijalar maktab psixologlari uchun o‘smirlarni xavf guruhlari bo‘yicha erta saralash, individual yondashuvni kuchaytirish hamda sinf jamoasida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari o‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi shakllanishi murakkab, ko‘p omilli va yosh davrining psixologik rivojlanish qonuniyatlari bilan uzviy bog‘liq jarayon ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Empirik tahlillar asosida o‘smirlar orasida emotiv, pedant va xavotirlanuvchi tiplarning nisbatan ustunligi aniqlandi . Ushbu holat o‘smirlik davriga xos bo‘lgan hissiy sezgirlikning ortishi, ichki nazorat mexanizmlarining faol shakllanishi hamda o‘ziga baho berish jarayonidagi beqarorlik bilan izohlanadi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar xarakter aksentuatsiyasi o‘smirlarning muloqot uslubi, sinf jamoasidagi mavqei, ijtimoiy moslashuv darajasi va ta’lim faoliyatidagi xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, xavotirli va distim ko‘rsatkichlarga ega o‘quvchilarda ijtimoiy vaziyatlarda tortinchoqlik, o‘ziga ishonchsizlik hamda stressli holatlarga sezgirlik yuqoriroq namoyon bo‘lishi mumkinligi aniqlandi.

Ilmiy-amaliy jihatdan tadqiqot natijalari maktab psixologik xizmatini takomillashtirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, o‘smirlarning xarakter aksentuatsiya turlarini erta aniqlash, ularni xavf guruhlari bo‘yicha saralash va individual psixokorreksion ishlarni yo‘lga qo‘yish ta’lim muassasalarida psixoprofilaktik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari o‘smirlik davrida individual-tipologik xususiyatlarni hisobga olgan holda sinf jamoasida sog‘lom psixologik muhit yaratish, o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish hamda emotsional barqarorligini mustahkamlash bo‘yicha amaliy dasturlar ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatdi.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda xarakter aksentuatsiyasining oilaviy tarbiya uslublari, tengdoshlar guruhi ta’siri hamda raqamli ijtimoiy muhit omillari bilan o‘zaro bog‘liqligini chuqurroq tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2016. – 12 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimida psixologik xizmatni takomillashtirishga oid qaror va farmonlari to‘plami. – Toshkent, 2023. – 148 b.
4. Karl Leongard. Акцентуированные личности. – Киев: Вища школа, 1981. – 392 с.
5. Andrey Lichko. Психопатии и акцентуации характера у подростков. – Ленинград: Медицина, 1983. – 256 с.
6. Gans Shmishek. Методика определения акцентуаций характера личности // Практическая психодиагностика. – Москва: Педагогика, 1985. – С. 114–128.
7. Karimova V.M. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 256 b.
8. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. – 544 b.
9. Nishonova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2021. – 312 b.
10. Haydarov F.I., Xalilova N.I. Maktab psixologiyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2018. – 280 b.

UDK: 37.016:34

Teshaboyeva Shahodat Erkinovna,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA "DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI" FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida "Davlat va huquq asoslari" fanini o'qitishning samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning metodik asoslari tadqiq etiladi. Maqolaning maqsadi o'quvchilarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda interaktiv metodlar, keys-stadi texnologiyasi hamda raqamli ta'lim resurslarining o'rni va samaradorligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida huquqiy ta'limning pedagogik mexanizmlari tahlil qilinib, dars jarayonini hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash metodikasi ishlab chiqilgan. Tajriba-sinov ishlari natijasida innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini, huquqiy normalarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishi isbotlangan. Maqolada ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar huquq ta'limi sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: huquqiy ta'lim, innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar, keys-stadi, huquqiy madaniyat, pedagogik mahorat, davlat va huquq asoslari, fuqarolik tarbiyasi, raqamli ta'lim.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА «ОСНОВЫ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА» В СРЕДНИХ ШКОЛАХ

Аннотация. В этой статье рассматриваются методологические основы применения инновационных педагогических технологий для повышения эффективности преподавания предмета «Основы государства и права» в средних школах. Цель статьи — выявить роль и эффективность интерактивных методов, технологий кейс-стади и цифровых образовательных ресурсов в формировании правовой осведомлённости и культуры у студентов. В ходе исследования анализировались педагогические механизмы юридического образования, разработана методология связи образовательного процесса с жизненными ситуациями. В результате пилотной работы были доказаны инновационные подходы, которые способствуют развитию способности самостоятельного мышления, применения юридических норм на практике и гражданской ответственности. В статье разрабатываются методологические рекомендации, способствующие повышению качества юридического образования.

Ключевые слова: юридическое образование, инновационные технологии, интерактивные методы, кейс-стади, юридическая культура, педагогические навыки, основы государства и права, гражданское образование, цифровое обучение.

METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING THE SUBJECT "FUNDAMENTALS OF STATE AND LAW" IN SECONDARY SCHOOLS

Annotation. This article examines the methodological foundations of applying innovative pedagogical technologies to improve the effectiveness of teaching the subject "Fundamentals of State and Law" in secondary schools. The article is aimed to identify the role and effectiveness of interactive methods, case study technology and digital educational resources in the formation of legal awareness and culture in students. During the study, pedagogical mechanisms of legal education were analyzed, a methodology was developed to connect the educational process with life situations. As a result of pilot work, innovative approaches have been proven that students develop their ability to think independently, apply legal norms in practice and civic responsibility. The article develops methodological recommendations contribute to improving the quality of legal education.

Keywords: legal education, innovative technologies, interactive methods, case study, legal culture, pedagogical skills, fundamentals of state and law, civic education, digital learning.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli huquqiy islohotlar, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning hayotga tatbiq etilishi va jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan demokratik o‘zgarishlar yosh avlodning huquqiy savodxonligini tubdan yaxshilashni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida “qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish – demokratik islohotlarning eng muhim omilidir” [II-1, 145], – deb ta’kidlagan. Ushbu vazifani amalga oshirishda umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Davlat va huquq asoslari” fani alohida o‘rin tutadi. Bu fan o‘quvchilarni fuqarolik jamiyatining faol a’zosi, o‘z huquq va majburiyatlarini biladigan, qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan shaxs sifatida tarbiyalashda muhim poydevor hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni [I-2] va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” [I-3] ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilagan. 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekistonning huquqiy ta’lim va tarbiya konsepsiyasi”da [I-4] ham yosh avlodda huquqiy madaniyatni shakllantirish, huquqiy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish vazifalari belgilangan.

Biologiya, psixologiya va pedagogika sohalarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, idrok etish mexanizmlari va kognitiv rivojlanish darajasi ta’lim metodlarini tanlashda muhim omil hisoblanadi. L.S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilarning bilim olish samaradorligi ularning mustaqil va kattalar yordamida erisha oladigan natijalari o‘rtasidagi farq bilan belgilanadi [V-1, 189]. Shu nuqtai nazardan, “Davlat va huquq asoslari” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi, huquqiy normalarni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash imkonini beruvchi metodlarni qo‘llash zarurati dolzarb bo‘lib qolmoqda.

An’anaviy ma’ruza uslubidagi darslar, asosan, o‘quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazishga qaratilgan bo‘lib, ularning huquqiy normalarni chuqur tushunish, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishda yetarli samaradorlikni bermayapti. N. Sayidahmedov “Yangi pedagogik texnologiyalar” asarida “an’anaviy ta’lim tizimida o‘quvchi bilimlarni passiv qabul qiluvchi ob’ekt sifatida qaraladi. Zamonaviy ta’lim esa o‘quvchini faol sub’ekt, ta’lim jarayonining teng huquqli ishtirokchisi sifatida qarashni taqozo etadi” [III-2, 34], – deb ta’kidlaydi. Shu sababli, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni olib kirish, ularni fanning o‘ziga xos xususiyatlariga mos ravishda qo‘llash metodikasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-metodik muammo bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – umumta’lim maktablarida “Davlat va huquq asoslari” fanini o‘qitishda interaktiv metodlar, keys-stadi texnologiyasi va raqamli ta’lim resurslarini qo‘llashning metodik asoslarini ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini eksperimental tekshirishdan iborat.

Huquqiy ta’lim muammolari pedagogika, huquqshunoslik va sotsiologiya sohalari olimlari tomonidan turli jihatlardan tadqiq etilgan. N. Azizxo‘jayeva “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” asarida “ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchining metodik mahoratini, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning muhim omilidir” [III-1, 78], – deb yozadi. N. Sayidahmedov esa “Yangi pedagogik texnologiyalar” asarida interaktiv metodlarning ta’lim jarayonidagi o‘rnini tahlil qilib, “interaktiv metodlar o‘quvchilarni faol ishtirokchiga aylantiradi, ularning o‘zaro fikr almashishi, bahs-munozaralarda qatnashishi, mustaqil xulosa chiqarishi uchun imkoniyat yaratadi” [III-2, 56], – deb ta’kidlaydi.

Xorijiy adabiyotlarda huquqiy ta’limda keys-stadi metodining qo‘llanilishi keng yoritilgan. J. Bruner “The Process of Education” asarida “muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi” [V-2, 45], – deb yozadi. D. Kolb “Experiential Learning” asarida tajribaviy o‘qitish nazariyasini rivojlantirib, “o‘quvchilar hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni hal qilish jarayonida bilimlarni faol o‘zlashtiradilar” [V-3, 112], – deya ta’kidlaydi.

Rossiyalik olim V.I. Lutovinov “Voennye aspekty pravovogo vospitaniya” asarida huquqiy tarbiyaning pedagogik asoslarini tahlil qilib, “huquqiy ta’limda interaktiv metodlar, rolli o‘yinlar, simulyatsiyalar o‘quvchilarning huquqiy

normalarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi” [V-4, 89], – deb yozadi.

O‘zbekistonlik olimlardan M. Quronov “Milliy tarbiya: nazariya va amaliyot” asarida “huquqiy tarbiya fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy omilidir. O‘quvchilarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda oila, maktab va mahalla hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi” [III-3, 145], – deb ta’kidlaydi. Y. G‘afforov “Ta’lim, oila va mahalla hamkorligining pedagogik va sotsiologik asoslari” asarida esa “huquqiy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, o‘quvchilarning hayotiy tajribasi bilan bog‘lash, amaliy mashg‘ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi” [III-4, 102], – deb yozadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, huquqiy ta’lim samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ularni fanning o‘ziga xos xususiyatlariga mos ravishda ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, “Davlat va huquq asoslari” fanini o‘qitishda keys-stadi texnologiyasi, rolli o‘yinlar va raqamli ta’lim resurslarini kompleks qo‘llashning metodik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola ushbu muammoni hal etishga qaratilgan.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

1. Tahliliy-qiyosiy metod. Mavjud darsliklar va o‘quv dasturlari xalqaro ta’lim standartlari bilan qiyoslandi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Davlat va huquq asoslari” fanining 5-9-sinflar uchun mo‘ljallangan o‘quv dasturi [I-5] tahlil qilindi. Dasturning mazmuni, maqsad va vazifalari, o‘quvchilarga beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar tavsifi o‘rganildi. Shuningdek, huquqiy ta’lim bo‘yicha AQSH, Germaniya, Rossiya, Turkiya kabi mamlakatlarning tajribalari qiyosiy tahlil qilindi [V-2; V-3; V-4; IV-3].

2. Pedagogik eksperiment. 2024-2025 o‘quv yilida Toshkent shahridagi 45-, 98-umumta’lim maktablari va Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi 12-umumta’lim maktablarida eksperimental ishlar o‘tkazildi. Tadqiqotga 7-9-sinflarda tahsil olayotgan jami 210 nafar o‘quvchi jalb qilindi. Ulardan 105 nafari eksperimental guruh, 105 nafari nazorat guruhiga ajratildi. Eksperimental guruhda “Keys-stadi” (muammoli vaziyatlarni yechish), “Rollar o‘yini” (sud jarayoni simulyatsiyasi), “Aqliy hujum”, “Bahs-munozara” kabi interaktiv metodlar dars jarayoniga tatbiq etildi. Nazorat guruhida esa an’anaviy ma’ruza usulidagi darslar olib borildi. Tajriba-sinov ishlari 2024-yil sentyabridan 2025-yil martigacha bo‘lgan davrda amalga oshirildi.

3. So‘rovnoma va test. O‘quvchilarning huquqiy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi sifat va miqdor jihatdan baholandi. Eksperiment boshida va yakunida nazorat va eksperimental guruhlarda test sinovlari o‘tkazildi. Test savollari “Huquqiy bilimlar”, “Huquqiy normalarni tahlil qilish”, “Huquqiy muammolarni hal qilish” kabi uch blokdan iborat bo‘lib, har bir blok 10 savoldan tashkil topdi. Shuningdek, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqish darajasini aniqlash uchun so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada “Fanga qiziqasizmi?”, “Darslarda qanday metodlarni afzal ko‘rasiz?”, “Huquqiy bilimlarni hayotda qo‘llashga misol keltira olasizmi?” kabi ochiq va yopiq savollar mavjud edi.

4. Statistik usul. Olingan natijalar matematik-statistik usullar (o‘rtacha qiymat, dispersiya, Student mezoni) yordamida qayta ishlanib, natijalarning ishonchliligi aniqlandi.

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. O‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqish darajasi. Eksperiment boshida o‘tkazilgan so‘rovnomada eksperimental guruh o‘quvchilarining 42 foizi “Davlat va huquq asoslari” faniga qiziqish bildirgan bo‘lsa, tajriba yakunida bu ko‘rsatkich 77 foizga (35 foizga) oshdi. Nazorat guruhida esa qiziqish 41 foizdan 48 foizga (7 foizga) oshdi. Eksperimental guruhda interaktiv metodlar va keys-stadi texnologiyasi qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning faolligi va qiziqishi sezilarli darajada yuqori bo‘ldi.

2. Huquqiy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi. Eksperiment yakunida o‘tkazilgan test sinovlari quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi	Eksperimental guruh
Huquqiy bilimlar (maks. 10 ball)	7,2	8,8
Huquqiy normalarni tahlil qilish (maks. 10 ball)	5,8	8,4
Huquqiy muammolarni hal qilish (maks. 10 ball)	4,9	8,2
O‘rtacha ball	5,97	8,47

Nazorat guruhida o‘quvchilar asosan huquqiy terminlarni yodlash bilan cheklanishgan bo‘lsa, eksperimental guruh o‘quvchilarining 82 foizi huquqiy muammolarni mustaqil tahlil qilish va qonun doirasida yechim topish qobiliyatini namoyon etdi. Eksperimental guruh o‘quvchilari berilgan keyslarni (muammoli vaziyatlarni) tahlil qilishda huquqiy normalarni aniq va to‘g‘ri qo‘llashga erishdilar.

3. Rolli o‘yinlarning samaradorligi. “Sud jarayoni simulyatsiyasi” rolli o‘yini o‘tkazilgan darslarda o‘quvchilar sudya, prokuror, advokat, himoyachi, da’vogar, javobgar kabi rollarni o‘ynab, sud jarayonini real hayotiy vaziyat sifatida modellashtirdilar. Ushbu mashg‘ulotlar o‘quvchilarning huquqiy normalarni amaliyotda qo‘llash, o‘z fikrlarini himoya qilish, dalillarni tahlil qilish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samara berdi.

4. Raqamli ta’lim resurslarining samaradorligi. Dars jarayonida axborot texnologiyalaridan (infografikalar, huquqiy video-kontentlar, interaktiv testlar, onlayn simulyatsiyalar) foydalanish darsning interaktivligini ta’minladi. O‘quvchilarning 78 foizi interaktiv doska orqali namoyish etilgan huquqiy video-materiallar va infografikalarni darsning eng qiziqarli qismi deb baholadilar. Onlayn

test tizimlari orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustaqil baholash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, “Davlat va huquq asoslari” fanini o‘qitishda faqat huquqiy normalarni o‘rgatish kifoya emas. Pedagogik nuqtai nazardan, huquqiy ta’lim “shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv” tamoyili asosida qurilishi kerak. N. Azizxo‘jayeva “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” asarida “shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchining individual xususiyatlarini, qiziqishlarini, ehtiyojlarini hisobga oladi, uni ta’lim jarayonining faol sub’ektiga aylantiradi” [III-1, 92], – deb ta’kidlaydi.

Keys-stadi metodining ahamiyati. Keys-stadi metodi o‘quvchilarga real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash, huquqiy normalarni qo‘llash va optimal yechimni topish imkonini beradi. J. Bruner “The Process of Education” asarida “keys-stadi metodi o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi” [V-2, 52], – deb yozadi. O‘tkazilgan tajriba shuni ko‘rsatdiki, keyslarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar nafaqat huquqiy normalarni, balki ularni amaliyotda qo‘llash mexanizmlarini ham o‘zlashtiradilar.

Rolli o‘yinlarning psixologik-pedagogik asoslari. Rolli o‘yinlar o‘quvchilarning empatiya qobiliyatini, o‘zini boshqalarning o‘rniga qo‘yib fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. D. Kolb “Experiential Learning” asarida “tajribaviy o‘qitish nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilar haqiqiy hayotiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish, turli rollarni ijro etish orqali bilimlarni faol o‘zlashtiradilar” [V-3, 128], – deya ta’kidlaydi. Sud jarayoni simulyatsiyasi o‘quvchilarga sud tizimining ishlash mexanizmini, har bir ishtirokchining huquq va majburiyatlarini chuqur anglash imkonini berdi.

Raqamli ta’lim resurslarining roli. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim jarayonida raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. V.I. Lutovinov “Voennye aspekty pravovogo vospitaniya” asarida “raqamli texnologiyalar huquqiy ta’limning interaktivligini, vizualligini va qulayligini oshiradi” [V-4, 102], – deb yozadi. Infografikalar orqali huquqiy normalar tizimli va vizual tarzda ifodalanadi, video-kontentlar esa real hayotiy vaziyatlarni o‘quvchilarga yetkazishda samarali vosita hisoblanadi.

Muhokama va bahs-munozaralarning ahamiyati. Dars jarayonida tashkil etilgan bahs-munozaralar o‘quvchilarning o‘z fikrlarini himoya qilish, dalillarni asoslash, qarama-qarshi fikrlarni tinglash va ularga munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. N. Sayidahmedov “Yangi pedagogik texnologiyalar” asarida “bahs-munozara metodi o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini, o‘z pozitsiyasini asoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi” [III-2, 78], – deb ta’kidlaydi.

O‘qituvchining metodik tayyorgarligi. Tadqiqot davomida o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash samaradorligiga bevosita ta’sir qilishi aniqlandi. Interaktiv metodlar, keys-stadi texnologiyasi, rolli o‘yinlarni tashkil etish o‘qituvchidan maxsus metodik tayyorgarlikni, darsni rejalashtirish, keyslarni tanlash, rollarni taqsimlash, muhokamani boshqarish kabi ko‘nikmalarni talab qiladi.

Huquqiy ta'limning milliy xususiyatlari. O'zbekiston milliy mentaliteti, qadriyatlari, an'analari huquqiy ta'limning mazmuni va metodlarini belgilovchi muhim omillardir. M. Quronov "Milliy tarbiya: nazariya va amaliyot" asarida "huquqiy ta'lim milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilishi kerak" [III-3, 156], – deb ta'kidlaydi. Keyslar tanlashda milliy qonunchilik, mahalliy huquqiy amaliyot, xalqimizning huquqiy madaniyatiga oid misollardan foydalanish o'quvchilar uchun tushunarli va yaqin bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarida "Davlat va huquq asoslari" fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash quyidagi muhim natijalarni ta'minlaydi:

1. Keys-stadi texnologiyasi o'quvchilarning huquqiy normalarni amaliyotda qo'llash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va optimal yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Eksperimental guruh o'quvchilarining 82 foizi huquqiy muammolarni mustaqil tahlil qilish va qonun doirasida yechim topish qobiliyatini namoyon etdi.
2. Rolli o'yinlar (sud jarayoni simulyatsiyasi) o'quvchilarning empatiya qobiliyatini, o'zini boshqalarning o'rniga qo'yib fikrlash ko'nikmalarini, huquqiy normalarni amaliyotda qo'llash malakalarini rivojlantiradi.
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (infografikalar, huquqiy video-kontentlar, interaktiv testlar, onlayn simulyatsiyalar) foydalanish darsning interaktivligini, vizualligini va qulayligini oshiradi, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini 35 foizga oshiradi.
4. Interaktiv metodlar (bahs-munozara, "aqliy hujum", "sinkveyn", "insert") o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini, o'z pozitsiyasini himoya qilish, dalillarni asoslash, qarama-qarshi fikrlarni tinglash va ularga munosabat bildirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
5. Huquqiy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, milliy qadriyatlar va an'analar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada ilgari surilgan metodik tavsiyalar "Davlat va huquq asoslari" fani darsliklari mazmunini boyitishda, o'qituvchilarning metodik mahoratini oshirishda, dars jarayonini loyihalashtirishda amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot natijalari huquqiy ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik izlanishlarni yanada kengaytirishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2023. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // O'RQ-637-son. 2020-yil 23-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-3151-son Farmoni. 1999-yil 6-may.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning huquqiy ta’lim va tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori. 2020-yil 6-oktabr.

5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining “Davlat va huquq asoslari” fanidan 5-9-sinflar uchun o‘quv dasturi. – T., 2020. – 32 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.

7. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2006. – 200 b.

8. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: “Moliya”, 2003. – 172 b.

9. Quronov M. Milliy tarbiya: nazariya va amaliyot. – T.: “Ma’naviyat”, 2015. – 240 b.

10. G‘afforov Y. Ta’lim, oila va mahalla hamkorligining pedagogik va sotsiologik asoslari. – T.: “O‘qituvchi”, 2019. – 156 b.

11. Alimov X. Zamonaviy axborot xurujlari va yoshlar mafkuraviy immuniteti // “Falsafa va huquq” jurnali. – Toshkent, 2022. – № 3. – B. 45-51.

12. Rahmatullayev B. Raqamli makonda (internet tarmog‘ida) vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari // “Xalq ta’limi” jurnali. – Toshkent, 2023. – № 1. – B. 22-28.

13. Samadov A. Xorijiy mamlakatlarda yoshlar vatanparvarlik tarbiyasi amaliyoti: qiyosiy tahlil // “Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari” jurnali. – Toshkent, 2021. – № 4. – B. 112-118.

14. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Смысл; Эксмо, 2005. – 1136 с.

15. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. – 97 p.

UDK: 159.9:376-056.26

Salimova Marjona Salomovna,
Termiz davlat universiteti magistranti

IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARDAGI MOTIVATSION SOHA DIAGNOSTIKASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan shaxslarning psixologik xususiyatlari, ularning ruhiy holati, ijtimoiy muhitga moslashuvi va motivatsion holatlari atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida Elersning "Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini tashxis qilish" metodikasidan foydalanilgan bo'lib, tadqiqot natijalari imkoniyati cheklangan shaxslarning motivatsion sohasi sog'lig'ida muammosi bo'lmagan shaxslarga nisbatan teng yoki yo'qligini aniqlashga qaratilgan. Ushbu natijalar, ayniqsa, ijtimoiylashgan guruh vakillari (talabalar, paraatletlar) orasida yaqqol namoyon bo'lgan. Tadqiqot asosida inklyuziv jamiyat barpo etish, ta'limda moslashtirilgan yondashuvlar, ota-onalar va mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlash kabi muhim tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Imkoniyati cheklangan shaxslar, inklyuziya, integratsion yondashuv, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiylashuv, motivatsion soha, muvaffaqiyqtga erishish motivatsiyasi, ijtimoiy-ruhiy holat.

ДИАГНОСТИКА МОТИВАЦИОННОЙ СФЕРЫ У ЛИЦ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Аннотация. В данной статье представлен всесторонний анализ психологических характеристик людей с инвалидностью, их психического состояния, адаптации к социальной среде и мотивационных состояний. В качестве методологии исследования использована методика Элерса «Диагностика мотивации к достижению успеха», а результаты исследования направлены на определение того, соответствует ли мотивационная сфера людей с инвалидностью мотивационной сфере людей без проблем со здоровьем. Эти результаты особенно ярко проявились среди представителей социализированных групп (студенты, параатлеты). На основе исследования разработаны важные рекомендации, такие как построение инклюзивного общества, адаптированные подходы к образованию и работа с родителями и специалистами.

Ключевые слова: люди с инвалидностью, инклюзия, интегративный подход, социальная адаптация, социализация, мотивационная сфера, мотивация к достижению успеха, социально-психологическое состояние.

DIAGNOSTICS OF THE MOTIVATIONAL SPHERE OF PERSONS WITH DISABILITIES

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the psychological characteristics of people with disabilities, their mental state, adaptation to the social environment and motivational states. As a research methodology, Ehlers's "Diagnosis of Motivation to Achieve Success" methodology was used, and the results of the study were aimed at determining whether the motivational sphere of people with disabilities is equal to that of people without health problems. These results were especially evident among representatives of socialized groups (students, paraathletes). Based on the research, important recommendations were developed, such as building an inclusive society, adapted approaches to education, and working with parents and specialists.

Keywords: People with disabilities, inclusion, integrative approach, social adaptation, socialization, motivational sphere, motivation to achieve success, socio-psychological state.

Imkoniyati cheklangan shaxslarning psixologik holatini o‘rganish nafaqat ularning ruhiyatini tushunishga, balki jamiyatda ularning o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi. Psixologik yordam va reabilitatsiya jarayonlarini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy integratsiyani qo‘llab-quvvatlash, imkoniyati cheklangan shaxslarning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Jamiyatda salbiy stereotiplarni kamaytirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun faol ish olib borish zarur. Bugungi kun psixologlarining zimmasida turgan vazifalardan biri ham aynan shu – imkoniyati cheklangan bolalarni kamsitilganlik ruhida ulg‘ayishini oldini olish va ularni salbiy ruhiy emotsional holatlar bilan ulg‘ayishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Teng huquqli jamiyatda yashar ekanmiz, avvalo atrofimizdagi nomukammallik bilan ulg‘ayayotgan yoki shu tuyg‘u bilan yashayotgan insonlarga bu "Nomukammallik"ni his qildirmasligimiz shart. [1.14.]

Dj.Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, har bir inson o‘zining rivojlanish bosqichlaridan o‘tadi. Imkoniyati cheklangan shaxslar bu bosqichlarni turlicha o‘tishi mumkin, chunki ularning kognitiv yoki ijtimoiy rivojlanishida to‘siqlar mavjud. Bu borada L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-kognitiv rivojlanish nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, cheklangan imkoniyatlarga ega bo‘lgan shaxslar, ijtimoiy o‘zaro aloqalar va qo‘llab-quvvatlash tizimlari orqali rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘lishi mumkin. Jamiyat va atrof-muhit bilan o‘zaro aloqalar ularning kognitiv va hissiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Yosh bolalar uchun, jismoniy yoki aqliy cheklovlar rivojlanishning tabiiy bosqichlarini kechiktirishi yoki o‘zgartirishi mumkin. Masalan, eshitish qobiliyati bo‘lmagan bolalar o‘z nutqlarini rivojlantirishda kechikishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy muammolarni va psixologik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ular o‘zlarini kam baholashlari va jamiyatda o‘z o‘rnini topishda muammolarga duch kelishlari mumkin. Stress va depressiya esa ularning hayot sifatini yanada pasaytiradi. Imkoniyati cheklangan shaxslar ko‘pincha depressiya, bezovtalik va boshqa ruhiy kasalliklar bilan kurashishadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy va aqliy cheklovlar, ijtimoiy izolyatsiya va yordam tizimlarining yetishmasligi psixologik muammolarni yanada

kuchaytirishi mumkin. Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun psixologik yordamni tashkillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu yordam nafaqat ruhiy salomatlikni tiklashga, balki ularning jamiyatga integratsiyalashishiga ham yordam beradi.

Dunyoga kelib, yashab qolish uchun intilayotgan har bir individ hayotining ilk kunlaridan boshlab oldinga intila boshlaydi. U bajarayotgan har bir harakat, ehtiyojlaridan kelib kelib chiqayotgan ichki va tashqi turtki, motiv natijasida yuzaga keladi. Inson faoliyati turli motivlar yig'indisi mahsuli bo'lib hisoblanadi. Jamiyat a'zosi bo'lgan har bir individ o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib faoliyatga kirishida va bu normal holat. Keling avvalo fikrlarni umumlashtirish maqsadida "Motiv", "Motivatsiya" va eng birinchi navbatda ehtiyojga to'xtalib o'tsak. Individ o'sib ulg'ayishi davomida turli narsalarga ehtiyoj seza boshlaydi. Ilk bolalik chog'larida nisbatan oddiy, fiziologik ehtiyojlarini qondirishga intilgan individ ulg'ayib borishi bilan ehtiyojlari safi ham kengayib boradi. Endi u ijtimoiy, moddiy, ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga zarurat seza boshlaydi. Ushbu ehtiyojlarni qondirish maqsadida yuzaga kelayotgan turtki – bu motivdir. Bir ehtiyojni qondirish maqsadida yuzaga kelayotgan bir qancha motivlar yig'indisi – bu Motivatsiya hisoblanadi.

Gumanistik psixologiyaning asosiy vakillaridan biri bo'lgan Abraham Maslouning Ehtiyojlar ierarxiyasi bu boradagi eng yaxshi nazariyalardan biri hisoblanadi. Maslou o'z nazariyasini piramida shaklida tasvirlab berdi va uni quyidagicha jaoylashtirdi:



1-rasm Abraham Maslou ierarxiyasi

Piramidaning o'ziga xos bir jihati shundan iboratki, qo'llanilishiga ko'ra fiziologik ehtiyojlar birinchi pog'onada tursa, daraja bo'yicha esa, o'z-o'zini anglash, namoyon qilish istagi oliy o'rinda turadi *(1-rasm)*. Abraham Maslou fikriga ko'ra inson eng avvalo birlamchi ehtiyojlarini qondiradi va keyingi qadamga o'tadi. Quyi ehtiyojlari qondirilmagan inson uchun keyingi qadamdagi ehtiyojning ahamiyati yo'q deb tushuntiradi u.

Ilk bolalik davrida bolaning ehtiyojlari sodda ko'rinishda bo'ladi. Uning uchun birlamchi ehtiyojlarni qondirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bolada motivlar turli-tuman bo'ladi va bu tez-tez almashinib turadi. Bu borada rus psixologi


S.L.Rubinshteyn shunday deydi: "Bevosita bolaga ta'sir etuvchi har bir qo'zg'atuvchi (qo'zg'ovchi) ilk bolalik davrida uning o'sishida hukmronlik qiladi. Chunki undagi ichki motivlar hali mustahkam emas, shuning uchun har xil vaziyatda bola boshqa qo'zg'atuvchi hukmronligiga tobe bo'lib qolishi mumkin. Shu boisdan beqaror, kuchsiz, betartib motivlar xuddi shunday xatti-harakatga bog'liq [2.18.].

Bola o'sib borishi bilan uning ehtiyojlari va ehtiyojni yuzaga keltiruvchi turtki – motivlari ham o'zgarib, kengayib boradi. Xo'sh birlamchi ehtiyojlari qondirilgan, shaxs bo'lib shakllanayotgan yoki allaqachon shaxs bo'lib shakllangan insonlarda aniq bir motiv ustunlik qiladimi? Ularda o'z-o'zini namoyon qilish xohishi qay darajada? Hukmron motiv ostida maqsad sari intilish ehtiyoji bormi? Shular va shu kabi savollarga javob olish maqsadida yoshlarning muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini o'rganishga qaror qildik. Bunda biz "Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini tashxis qilish metodikasi"dan foydalandik. Tadqiqot ob'yekti sifatida Olimpia zaxiralari kolleji va Oliy ta'lim muassasalarining imkoniyati cheklangan va sog'lig'ida muammosi bo'lmagan talabalaridan foydalandik.

Tadqiqot maqsadi: yoshlarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi qanchalik rivojlangan? Imkoniyati cheklangan insonlar va sog'lig'ida muammosi bo'lmagan insonlar muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi o'rtasida farq mavjudmi? Mavjud bo'lsa, qaysi guruhda ustun?... Ushbu masalalarni aniqlash. [3.15]


Bevosita ushbu tadqiqot ishimizni yoritish davomida Elersning "Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini tashxis qilish" metodikasidan foydalandik. Tadqiqot obyekti sifatida Termiz Davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari, Termiz Davlat universitetining imkoniyati cheklangan talabalari va Termiz Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi o'quvchilaridan foydalandik. Tadqiqotimiz 100 nafar respondentda o'tkazilib, 18 yoshdan 28 yoshgacha bo'lgan o'g'il qizlarni qamrab oldi.

Respondentlarning jins va yosh chegarasini quyidagi 2 va 3 -rasmlar orqali ko'rish mumkin.



2-rasm. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning jins tafovutlari to'g'risida ma'lumot

Ushbu tadqiqot ishimizda qatnashgan respondentlarimizni ikki guruhga – sog‘ligida muammo bo‘lmagan va imkoniyati cheklangan respondentlarga bo‘lib jins tafovutini tahlil qiladigan bo‘lsak, *(2-rasm.)* sog‘lom respondentlarning 28 nafari ayol 22 nafari erkak jinsiga mansub ekanligini ko‘rish mumkin. Imkoniyati cheklangan respondentlarda bu ko‘rsatkich 31 nafar ayol va 19 nafar erkak jinsini ko‘rsatmoqda. Umumiy respondentlarning 59 nafari (59%)ni ayol va 41 nafari (41%)ni erkak jinsiga mansub respondentlar tashkil etdi.



3-rasm. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning yosh tafovutlari to‘g‘risida ma’lumot


Yuqorida keltirib o‘tilganidek ushbu tadqiqot ishimizda 18 yoshdan 28 yoshgacha bo‘lgan 100 nafar respondent ishtirok etdi. Yosh chegarasini ikki guruhga 18 yoshdan 23 yoshgacha (o‘spirinlik davri) va 24 yoshdan 28 yoshgacha (yoshlik davri) bo‘lib tahlil qildik. Avval sog‘lig‘ida muammosi bo‘lmagan respondentlarning yoshi haqidagi ma’lumotni ko‘rib chiqsak – 18-23 yosh oralig‘idagi respondentlar soni 42 nafarni va 24-28 yoshgacha bo‘lgan respondentlar soni 8 nafarni tashkil etdi. Imkoniyati cheklangan respondentlarimizda bu ko‘rsatkich – 18-23 oralig‘i 27 nafar va 24–28 yosh oralig‘i 23 nafarni tashkil etdi. Umumiy respondentlarni yosh bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak 18-23 yosh oralig‘idagi respondentlar soni 69 nafar (69%)ni va 24-28 yosh oralig‘idagi respondentlar soni 31 nafar (31%)ni tashkil etdi. Ko‘rinib turganidek 18-23 yosh 69%>31% 24-28 yosh.

1-jadval

“Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini tashxis qilish metodikasi” bo‘yicha respondentlarning o‘rtacha qiymati (Sog‘lom respondentlar) n=50

t/r	Yosh	Muvaffaqiyatga nisbatan juda past motivatsiya **1-10 ball**	O‘rta darajadagi motivatsiya **11-16 ball**	Anchagina yuqori motivatsiya **17-20 ball**	Muvaffaqiyatga nisbatan o‘ta yuqori motivatsiya **21 balldan yuqori**
1	21,52	0	15,2	19,3	24,2

Ushbu metodika bo‘yicha *(1.jadval)* sog‘ligida muammo bo‘lmagan respondentlarning natijalarini tahlili shuni ko‘rsatdiki Muvaffaqiyatga nisbatan juda past natija (1-10 ball) oralig‘ida ko‘rsatkichlar qayt etilmadi. O‘rta darajadagi motivatsiya (11-16 ball bo‘yicha sinaluvchialr to‘plagan ballari o‘rtacha qiymati 15,2 ballni tashkil etdi. Anchagina yuqori motivatsiya (17-20 ball) qayt etilgan respondentlar ballarining o‘rtacha qiymati 19,3 ballni va Muvaffaqiyatga nisbatan o‘ta yuqori motivatsiya (21 balldan yuqri) ko‘rsatkichiga ega sog‘ligida muammo bo‘lmagan respondentlarning balllari o‘rtacha qiymati 24,2 ballni tashkil etdi.



4-rasm. “Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini tashxis qilish metodikasi” sog‘ligida muammo bo‘lmagan respondentlarning ko‘rsatkichlari haqida ma’lumot. n=50

Sog‘ligida muammo bo‘lmagan respondentlarimizdan olingan natijalarning o‘rtacha qiymatini statistik tahlil qilib o‘tadigan bo‘lsak, respondentlarimiz orasida past natija qayd etganlar kuzatilmadi. 5 nafar yohud sinaluvchilarimizning 10% da o‘rta darajadagi motivatsiya, 6 nafar, yohud sinaluvchilarimizning 12% da anchagina yuqori motivatsiya va eng ko‘p 39 nafar yohud sinaluvchilarimizning 78% da muvaffaqiyatga nisbatan o‘ta yuqori motivatsiya kuzatildi.


2-jadval

“Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini tashxis qilish metodikasi” bo‘yicha respondentlarning o‘rtacha qiymati (Imkoniyati cheklangan respondentlar) n=50

T/R	Yoshi	Muvaffaqiyatga nisbatan juda past motivatsiya **1-10 ball**	O‘rta darajadagi motivatsiya **11-16 ball**	Anchagina yuqori motivatsiya **17-20 ball**	Muvaffaqiyatga nisbatan o‘ta yuqori motivatsiya **21 balldan yuqori**
1	22,96	0	15,75	18,69	23,33


Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini tashxis qilish metodikasi bo‘yicha Imkoniyati cheklangan respondentlarning natijalarini ballar bo‘yicha tahlil qilib chiqamiz *(2.jadval).* Muvaffaqiyatga nisbatan juda past motivatsiya (1-10 ball) 0 ko‘rsatkichni ko‘rsatdi. O‘rta darajadagi motivatsiya (11-16 ball) bo‘yicha o‘rtacha qiymat 15,75 ball ko‘rsatdi. Anchagina yuqori motivatsiya (17-20 ball) bo‘yicha o‘rtacha qiymat 18,69 ball bo‘lsa, Muvaffaqiyatga nisbatan o‘ta yuqori motivatsiya (21 balldan yuqori) qayt etgan Imkoniyati cheklangan respondentlarning o‘rtacha ballarining qiymati 23,33 ballga teng bo‘ldi.

Bunga sabab sifatida biz ob’yekt sifatida foydalangan imkoniyati cheklangan respondentlarimiz ijtimoiylashgan (oliy ta’lim talabalari va professional sport bilan shug‘ullanuvchi paraatlet) guruhga mansub, shunga ko‘ra ularda muvaffaqiyatga intilishga nisbatan motivatsiya o‘ta yuqori ekanligi bilan izohlanadi.



5-rasm. “Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini tashxis qilish metodikasi” Imkoniyati cheklangan respondentlarning ko‘rsatkichlari haqida ma’lumot

Imkoniyati cheklangan respondentlarimizdan olingan natijalarning o‘rtacha qiymatini statistik tahliliga qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Bunga ko‘ra past natija qayd etgan respondent kuzatilmadi. 4 nafar yohud sinaluvchilarimizning 8 % da o‘rta darajadagi motivatsiya, 13 nafar yohud 26% sinaluvchida anchagina yuqori motivatsiya va eng ko‘p 33 nafar yohud imkoniyati cheklangan respondentlarning 66% da muvaffaqiyatga nisbatan o‘ta yuqori motivatsiya kuzatildi.



6-rasm. "Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini tashxis qilish metodikasi" sog'ligida muammo bo'lmagan va imkoniyati cheklangan respondentlarning muvaffaqiyat bo'lgan motivatsiyasi tafovuti tahlili

Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini tashxis qilish metodikasi bo'yicha har ikkala guruh, ya'ni sog'ligida muammo bo'lmagan va imkoniyati cheklangan respondentlardan olingan natijalarning o'rtacha qiymatini o'zaro taqqoslash orqali shunday xulosa qilish mumkin Imkoniyati cheklangan respondentlar 21,52 <22,74 sog'ligida muammo bo'lmagan respondentlar.

Xulosa sifatida shuni aytish lozim-ki tadqiqot ishimizning amaliy qismi biz kutgan natijani berdi. Tadqiqot ishimizning obyekti sifatida sog'ligida muammo bo'lmagan respondentlarni va ijtimoiylashgan (sport bilan shug'ullanuvchi Paraatletlar va Oliy ta'lim muassasalari talabalari) imkoniyati cheklangan respondentlarni tanlab olgan edik. Tadqiqot farazimiz ijtimoiylashgan Imkoniyati cheklangan insonlarning shaxs xususiyatlari sog'lig'ida muammosi bo'lmagan insonlarnikidan deyarli farq qilmasligi edi. Tadqiqot natijalarining tahliliga ko'ra ijtimoiy hayotda o'z o'rniga ega, ijtimoiylashgan Imkoniyati cheklangan insonlarning ijtimoiylashuvi, ularning ta'lim olishi, jamiyatga qo'shilishi, ulardagi muloqotmandlikni oshirishi, uyatchanlik, tortinchoqlik kabi xususiyatlarni kamaytirishi, ularning ijtimoiy tipini meyorlashtirishi mumkinligini ko'rsatdi. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini tashxis qilish metodikasi bo'yicha har ikkala guruh, ya'ni sog'ligida muammo bo'lmagan va imkoniyati cheklangan respondentlardan olingan natijalarning o'rtacha qiymatini o'zaro taqqoslash orqali shunday xulosa qilish mumkin bo'ldik-ki har ikkala guruhda ham muvaffaqiyatga intilishga bo'lgan motivatsiya o'ta yuqori darajada, faqat ko'rsatkichlarda biroz farq kuzatilishi mumkin. Imkoniyati cheklangan respondentlar 21,52<22,74 sog'ligida muammo bo'lmagan respondentlar.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqgan holda quyidagicha tavsiyalar berish mumkin:

Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitishni tashkillashtirish, o'qituvchi-defektolog, psixolog, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlashni yo'lga qo'yish, imkoniyati cheklangan bolaning shaxsiy xususiyatlariga ko'ra korrektsion metod va moslashtirilgan o'quv

reja, dasturlar va boshqa omillardan foydalanib, atrofdagi jamoatchilik bilan birgalikda o‘qitishning turli shakllarini tashkil qilish, ota-onalar uchun imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish tizimini, psixologik malakalarini oshirish uchun o‘quv qo‘llanmalar yaratish, imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalarning huquqiy bilimini oshirib borish va boshqalar. Ushbu takliflar asosida ishlab chiqilgan aniq dasturlarga tayangan holda imkoniyati cheklangan shaxslarning ham huquq va manfaatlarini himoya qilib, inklyuziv jamiyatni tashkil qilishimiz mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xaitov A.X. “Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya” o‘quv qo‘llanma. Toshkent. “O‘zkitobsavdonashriyoti” 2020. 71-72 betlar.
2. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. T. 2007 yil.
3. Mo‘minova L.R., Amirsaidova Sh.M., Mamarajabova Z.N., Xamidova M.U., Yakubjanova D.B., Djalolova Z.M., Abidova N.Z. “Maxsus psixologiya” o‘quv qo‘llanma. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti” Toshkent–2013 yil. 3-bet.
4. Nurmuxamedova Sh. “Nogiron bolalarni tarbiyalashda oila va maxsus muassasa hamkorligini ta’minlashning ilmiy-metodik asoslari” (Monografiya) Toshkent –2014-yil
5. Maxsudova L. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. (uslubiy qo‘llanma) Namangan. 2003.
6. Salimova M.S. (2021-yil) “Imkoniyati cheklangan insonlarning ijtimoiylashuvi”. O‘zbekiston Milliy universiteti yangi O‘zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot ilmiy-amaliy konferensiya. 2(1) 131-134-betlar.
7. Nishanova Z.T. “Ontogenez psixologiyasi. Peadgogik psixologiya” Toshkent, 2019-yil.
8. Tursunqulov N.A. “Nogironligi bor shaxslar bilan ijtimoiy ish amaliyoti” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Guliston–2020 yil. 21-22 betlar.
9. Рубинштейн С.Л. Отношение мышления к бытию и логическая структура познания // Человек и мир. – М., 1983.
10. Salimova M.S. “Oilaviy munosabatlar destruksiyasida nogironligi bor farzandning roli va ularni ruhiy reablitatsiya qilish chora-tadbirlari tahlili”. International Scientific Journal Science and Innovation. B seria 2022-yil 4-Son. 30-35-betlar.
11. G‘oziev. E.G‘. “Umumiy psixologiya” psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. 1-kitob. Toshkent –2002. 95-121-122 betlar

UDK 159.9.072:004.738.5-053.81(575.172)

Shamuratov Xoyrulla Shavkat o'g'li,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

18–30 YOSHDAGI SHAXSLARDA IJTIMOIY TARMOQLARDAN FOYDALANISHNING DIQQAT JARAYONIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Maqolada 18–30 yoshdagi shaxslarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish intensivligi va diqqat ko'rsatkichlari (konsentratsiya, barqarorlik, ko'chuvchanlik) o'rtasidagi bog'liqlik 120 nafar respondent misolida o'rganilgan. Tadqiqot natijalari internetga qaramlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslarda diqqat konsentratsiyasining sezilarli pasayishini ko'rsatdi ($r = –0,627$; $p < 0,001$). Ayniqsa, 18–22 yoshli guruhda neyrobiologik xususiyatlar sababli salbiy ta'sir kuchliroq namoyon bo'lgan. Olingan ma'lumotlar asosida diqqatni tiklashga qaratilgan maxsus psixokorreksion trening dasturi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: diqqat, ijtimoiy tarmoqlar, psixologik bog'liqlik, kognitiv jarayonlar, yoshlar psixologiyasi, Burdon testi, Internet Addiction Test, raqamli gigiyena, kiberpsixologiya, psixokorreksiya.

ВЛИЯНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ПРОЦЕСС ВНИМАНИЯ У ЛИЦ 18–30 ЛЕТ

Аннотация. В статье эмпирически изучена взаимосвязь между интенсивностью использования соцсетей и показателями внимания (концентрация, устойчивость, переключаемость) у лиц в возрасте 18–30 лет (n=120). Выявлена сильная отрицательная корреляция между интернет-зависимостью и концентрацией внимания ($r = –0.627$; $p < 0.001$). Установлено, что группа 18–22 лет более подвержена дефициту внимания в силу нейробиологических особенностей префронтальной коры. По результатам исследования разработана программа психокоррекционного тренинга «Чистое внимание – Чистое сознание».

Ключевые слова: внимание, социальные сети, психологическая зависимость, когнитивные процессы, психология молодёжи, тест Бурдона, Internet Addiction Test, цифровая гигиена, киберпсихология, психокоррекция.

THE IMPACT OF SOCIAL NETWORK USAGE ON THE ATTENTION PROCESS AMONG INDIVIDUALS AGED 18–30

Abstract. This study examines the correlation between social media usage intensity and attention processes (concentration, stability, and switching) among individuals aged 18–30 (n=120). The results revealed a strong inverse correlation between internet addiction scores and attention concentration ($r = –0.627$; $p < 0.001$). The negative impact was more pronounced in the 18–22 age group due to

neurobiological characteristics of the prefrontal cortex. Based on the findings, a psychocorrectional training program titled "Pure Attention – Pure Consciousness" was developed to mitigate these effects.

Keywords: attention, social networks, psychological dependence, cognitive processes, youth psychology, Bourdon test, Internet Addiction Test, digital hygiene, cyberpsychology, psychocorrection.

Zamonaviy raqamli sivilizatsiya sharoitida ijtimoiy tarmoqlarning shaxs kognitiv jarayonlariga, xususan diqqatga ta'siri psixologiya fanining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Global Web Index 2024 ma'lumotlariga ko‘ra, 18–29 yoshdagi internet foydalanuvchilari kuniga o‘rtacha 4,2–4,7 soat ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazadilar; G.Mark (2023) longitudinal tadqiqotiga ko‘ra 2004-yilda bir ekran obyektida ushlab turilgan diqqat 2,5 daqiqadan 2023-yilda 47 soniyaga tushgan. JSST 2018-yilda "Gaming Disorder" tashxisini ICD ga kiritgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" yoshlarning kognitiv salomatligini davlat siyosati darajasida dolzarb qilib qo‘ydi.

Tadqiqot maqsadi – 18–30 yoshdagi shaxslarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning diqqat jarayoniga ta'sirini empirik o‘rganish va aniqlangan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan psixokorreksion dasturni ishlab chiqishdan iborat. Asosiy gipoteza: 18–30 yoshdagi shaxslarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish intensivligi va diqqat ko‘rsatkichlari o‘rtasida teskari korrelyatsion bog‘liqlik mavjud; bu bog‘liqlik 18–22 yoshdagi guruhda 22–30 yoshdagilarga nisbatan kuchliroq namoyon bo‘ladi.

Diqqat jarayonining nazariy asoslari U.Jeyms (1890), V.Vundt, T.Ribot (1889) klassik asarlarida yoritilgan bo‘lib, L.S.Vygotskiy diqqatning madaniy-tarixiy nazariyasini, P.Ya.Galperin esa fikriy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini ishlab chiqdilar. A.R.Luriyaning uch funksional blok nazariyasiga ko‘ra, ixtiyoriy diqqat miyaning frontal qismlari faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy kognitiv psixologiyada M.Posner (2019) diqqatning uch tarmoqli modelini (alerting, orienting, executive control), D.Kahneman (2019) esa cheklangan kognitiv resurs nazariyasini ("1-tizim" va "2-tizim" fikrlash) asoslagan.

N.Karr (2020) o‘zining "The Shallows" asarida internet va ijtimoiy tarmoqlarning fikrlashga ta'sirini "cognitive offloading" tushunchasi orqali izohlagan. C.Newport (2019, 2021) "deep work" kontseptsiyasini, J.Hari (2022) diqqat pasayishining 12 ta tizimli sababini, A.Lembke (2021) esa qisqa video formatlarning dofamin tizimiga ta'sirini asoslagan. A.Gazzaley va L.Rosen (2016) "ancient brain vs modern world" ziddiyatini tahlil qilganlar. Ijtimoiy tarmoqlarga psixologik bog‘liqlik muammosi K.Yang (2017, 2019) tomonidan IAT metodikasi asosida, M.Griffits (2020) olti komponentli model (salience, mood modification, tolerance, withdrawal, conflict, relapse) orqali, D.Kardefelt-Winther (2014) esa "kompensatsion internet foydalanish" nazariyasi orqali o‘rganilgan.

J.Haidt (2024) 2012-yildan keyin g‘arb mamlakatlari yoshlarida ruhiy salomatlikning keskin yomonlashuvini smartfonlar bilan bog‘lagan. A.Orben (2022) ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining yoshga bog‘liq "sezgir davrlari" (10–15 va 19–21 yosh) mavjudligini empirik isbotlagan. S.-J.Blakemore (2018) va B.J.Casey (2020) neyrobiologik tadqiqotlari prefrontal po‘stloqning 25–26 yoshga qadar rivojlanishini ko‘rsatdi. O‘zbekiston psixologiyasida diqqat muammosi E.G‘.G‘oziyev (2021), V.M.Karimov (2020), N.S.Safayev (2022), Z.T.Nishonova (2019) ishlarida, so‘nggi yillarda esa U.M.Mahmudov (2023), S.Sh.Yuldashev (2022), N.X.Karimova (2023) tomonidan raqamli kontekstda tadqiq etilmoqda.

Empirik tadqiqot 2025-yil sentyabr – 2026-yil aprel davrida Qoraqalpog‘iston Respublikasining to‘rtta hududida (Taxiatosh tumani "Yangi Makon", Chimboy tumani "Qizil O‘zek", Ellikqal'a tumani "Paxtachi" mahallalari va Nukus shahri "Tung‘ish qonis" hududida) istiqomat qiluvchi 18–30 yoshdagi 120 nafar respondent ishtirokida olib borildi. Tanlama hajmi G*Power dasturida quvvat tahlili asosida aniqlandi (Cohen's d = 0,5; α = 0,05; quvvat 1–β = 0,80). Tanlama gender (60 erkak, 60 ayol), yosh guruhi (60 nafar 18–22 yoshda; 60 nafar 22–30 yoshda) va hudud (har bir hududdan 30 nafar) bo‘yicha muvozanatli shakllantirildi. Ta'lim holati bo‘yicha respondentlarning 42,5% i talabalar, 32,5% i ishchilar, 9,2% i o‘rta maxsus ta'lim olganlar, 9,2% i oliy ta'lim bitiruvchilari va 6,7% i mustaqil faoliyat yurituvchi shaxslar tashkil etdi.

Psixodiagnostik vositalar sifatida uchta asosiy metodika qo‘llanildi: (1) Burdon testining modifikatsiyalashgan varianti (B.Bourdon, 1895) – diqqatning konsentratsiyasi, barqarorligi va ko‘chuvchanligini 40×40 (1600 ta) harfli blank yordamida ikki bosqichli tartibda o‘lchashga mo‘ljallangan; (2) muallif tomonidan ishlab chiqilgan uch blokli (demografik, foydalanish xususiyatlari, subyektiv baholash) "Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi so‘rovnomasi" (25 ta savol, Cronbach's α = 0,847); (3) Kimberli Yangning Internet Addiction Test (IAT) mahalliy moslashtirilgan varianti (20 ta savol, 5 ballik Likert shkalasi, Cronbach's α = 0,891). Metodikalarni raqamlashtirish maqsadida Flutter framework'ida "DiqqatTest" mobil ilovasi ishlab chiqildi; u an'anaviy qog‘oz-qalam metodikalari bilan yuqori konvergent validlikka ega bo‘lib chiqdi (Burdon – r = 0,89; IAT – r = 0,92; anketa – r = 0,87; barcha p < 0,001).

Statistik tahlil IBM SPSS Statistics 26.0 dasturida amalga oshirildi: deskriptiv statistika, Pirson korrelyatsion koeffitsiyenti, mustaqil tanlamalar uchun Styudent t-testi, Cohen's d effekt kattaligi, bir omilli ANOVA va Shapiro-Wilk normallik testi qo‘llanildi. Tadqiqot APA (2017) Ethical Principles, Helsinki deklaratsiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi "Psixologik yordam to‘g‘risida"gi qonuni mezonlariga muvofiq amalga oshirildi. Har bir respondent yozma rozilik berdi, shaxsiy ma'lumotlar shifr tizimi (R001–R120) orqali anonimlashtirildi.

Deskriptiv statistika natijalariga ko‘ra, tanlamaning o‘rtacha yoshi 23,28 (SD = 3,52), kunlik ijtimoiy tarmoqdan foydalanish 4,38 soat (SD = 1,72), IAT balli esa 50,89 (SD = 13,99) ni tashkil etdi. Burdon testi ko‘rsatkichlari: konsentratsiya – M = 72,70 (SD = 10,11); barqarorlik – M = 70,02 (SD = 10,52); ko‘chuvchanlik – M = 75,97 (SD = 8,35). Ko‘chuvchanlik ko‘rsatkichining konsentratsiya va

barqarorlikdan yuqori bo‘lishi N.Karr va C.Newport nazariyalarida ko‘rsatilgan "klipovoye diqqat" fenomenini tasdiqlaydi. Kunlik foydalanish darajasi bo‘yicha tanlamaning 60% i kuniga 4 soatdan ko‘p vaqt ijtimoiy tarmoqda o‘tkazmoqda. K.Yang IAT klassifikatsiyasi bo‘yicha respondentlarning 8,3% i "Normal", 41,7% i "Yengil bog‘liqlik", 41,7% i "O‘rta bog‘liqlik" va 8,3% i "Og‘ir bog‘liqlik" darajasida joylashdilar – ya'ni tanlamaning 50% i klinik-psixologik diqqatga loyiq guruhni tashkil etadi.

1-jadval

Asosiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi korrelyatsion matritsa (Pirson r, N = 120)

Ko‘rsatkich	Kunlik soat	IAT ball	Konsent.	Barqarorlik	Ko‘chuvchanlik
Kunlik foydalanish	1,000	0,196*	–0,400***	–0,256**	0,193*
IAT ball	0,196*	1,000	–0,627***	–0,594***	0,273**
Konsentratsiya	–0,400***	–0,627***	1,000	0,748***	–0,198*
Barqarorlik	–0,256**	–0,594***	0,748***	1,000	–0,165
Ko‘chuvchanlik	0,193*	0,273**	–0,198*	–0,165	1,000

*Izoh: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$; *** $p < 0,001$*

1-jadvalda keltirilgan korrelyatsion matritsa tadqiqot gipotezasining birinchi qismini ishonchli tasdiqlovchi dalillar tizimini taqdim etadi. IAT balli va diqqat konsentratsiyasi o‘rtasida $r = –0,627$ ($p < 0,001$) darajasida kuchli teskari korrelyatsion bog‘liqlik aniqlandi. Kogan (1988) klassifikatsiyasiga ko‘ra $|r| \geq 0,50$ kuchli bog‘liqlik toifasiga kiradi, bu esa olingan natijaning nafaqat statistik ahamiyatli, balki amaliy-psixologik jihatdan ham muhim ekanligini ko‘rsatadi. IAT va barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik ham shunga yaqin kuchda ($r = –0,594$; $p < 0,001$) namoyon bo‘ldi.

Qiziqarli va kutilmagan natija sifatida IAT bilan ko‘chuvchanlik o‘rtasida zaif, biroq statistik ahamiyatli pozitiv korrelyatsiya ($r = +0,273$; $p < 0,01$) aniqlandi. Bu hodisa A.Gazzaley (2016) "interference" (xalaqitlanish) mexanizmining xronik faollashuvi bilan izohlanadi va "majburiy tarqoqlik" tabiatiga ega bo‘lib, haqiqiy kognitiv moslashuvchanlikni ifodalamaydi.

2-jadval

Yosh guruhlari bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarning qiyosiy tahlili (t-test)

Ko‘rsatkich	18–22 yosh (M±SD)	22–30 yosh (M±SD)	t	p	Cohen's d
Kunlik foydalanish (soat)	5,16 ± 1,62	3,59 ± 1,37	5,74	< 0,001	1,05
IAT ball	57,15 ± 12,39	44,63 ± 13,04	5,39	< 0,001	0,98
Konsentratsiya	66,70 ± 8,43	78,70 ± 7,82	–8,08	< 0,001	–1,48
Barqarorlik	65,65 ± 8,53	74,38 ± 10,62	–4,97	< 0,001	–0,91
Ko‘chuvchanlik	80,05 ± 6,99	71,88 ± 7,27	6,27	< 0,001	1,15
Xatolar soni	15,98 ± 5,12	8,53 ± 4,46	8,50	< 0,001	1,55

2-jadvalda keltirilgan natijalar gipotezaning ikkinchi – kalit qismini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Barcha olti ko‘rsatkich bo‘yicha 18–22 va 22–30 yosh guruhlari o‘rtasidagi farqlar yuqori statistik ahamiyatlilik darajasida ($p < 0,001$) va katta effekt kattaligi bilan (Cohen's $d > 0,80$) namoyon bo‘ldi. Konsentratsiya ko‘rsatkichi bo‘yicha $d = –1,48$ va xatolar soni bo‘yicha $d = 1,55$ "juda katta effekt" (very large effect) toifasiga kiradi. 18–22 yoshdagi guruh vakillari 22–30 yoshdagilarga nisbatan kuniga o‘rtacha 1,57 soat (+43,7%) ko‘proq ijtimoiy tarmoqda vaqt o‘tkazadilar, IAT bo‘yicha 12,52 ball (+28,1%) yuqori natija ko‘rsatadilar va konsentratsiya bo‘yicha 12 ball (–15,3%) past ko‘rsatkichga egadirlar.

Yosh guruhlari bo‘yicha alohida olingan korrelyatsion tahlillar gipotezaning eng nozik qismini tasdiqladi: IAT va barqarorlik o‘rtasidagi teskari korrelyatsiya 18–22 yoshda $r = –0,588$, 22–30 yoshda esa $r = –0,440$ ni tashkil etdi (farq $\Delta r = 0,148$). IAT va xatolar soni orasidagi korrelyatsiya 18–22 yoshda $r = +0,658$, 22–30 yoshda $r = +0,356$ (farq $\Delta r = 0,302$, ya'ni 84,8% katta). Bu farqlar S.-J.Blakemore (2018) va B.J.Casey (2020) neyrobiologik tadqiqotlari bilan to‘liq mos keladi: 18–22 yoshda prefrontal po‘stloqning to‘liq pishib yetilmaganligi shaxsning bog‘liqlik stimullariga qarshi kognitiv nazoratini zaiflashtiradi.

Qisqa video kontent iste'moli ta'sirini alohida tahlil qilgan ANOVA natijalariga ko‘ra, kuniga 2 soatdan ko‘p TikTok, Instagram Reels yoki YouTube Shorts iste'mol qiluvchi guruhda konsentratsiya 68,97, 30 daqiqadan kam iste'mol qiluvchilarda esa 76,92 balni tashkil etdi ($F = 5,82$; $p < 0,001$). Tungi foydalanish chastotasi ham diqqat ko‘rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko‘rsatdi: har kuni uyqudan oldin ijtimoiy tarmoqqa kiruvchilarda konsentratsiya 70,98, kamdan-kam kiruvchilarda 79,88 (farq –11,1%). Hududiy va gender farqlari esa asosiy ko‘rsatkichlarga statistik

ahamiyatli ta'sir ko‘rsatmadi (barcha $p > 0,05$), bu esa olingan natijalarning global va universal xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Amalga oshirilgan empirik tadqiqot 18–30 yoshdagi shaxslarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish va diqqat jarayoni o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha ilgari surilgan gipotezani to‘liq tasdiqladi. Birinchidan, ijtimoiy tarmoqqa psixologik bog‘liqlik darajasi (IAT) va diqqat konsentratsiyasi o‘rtasida kuchli teskari korrelyatsion bog‘liqlik aniqlandi ($r = –0,627$; $p < 0,001$); kunlik foydalanish vaqti ham konsentratsiya bilan o‘rta kuchdagi teskari bog‘liqlikka ega ($r = –0,400$; $p < 0,001$). Ikkinchidan, 18–22 yoshdagi guruhda ijtimoiy tarmoqlarning diqqatga salbiy ta'siri 22–30 yoshdagilarga nisbatan sezilarli kuchliroq namoyon bo‘ladi — bu prefrontal po‘stloqning 25–26 yoshga qadar shakllanish xususiyati bilan izohlanadi va 18–22 yosh oraligining psixokorreksion intervensiya uchun "kritik davr" ekanligini ko‘rsatadi. Uchinchidan, zamonaviy yoshlarning diqqat profilida "klipovoye diqqat" fenomeni kuzatiladi: ko‘chuvchanlik (75,97) konsentratsiya (72,70) va barqarorlikdan (70,02) yuqori.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan "DiqqatTest" mobil ilovasi an'anaviy psixodiagnostik metodikalar bilan yuqori konvergent validlikka ($r \geq 0,87$) ega bo‘lib, mahalliy psixologik xizmat amaliyotiga joriy etilishi mumkin. Empirik natijalar asosida tuzilgan "Sof Diqqat – Sof Ong" sakkiz sessiyali psixokorreksion trening dasturi kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (A.Beck), mindfulness-based stress reduction (J.Kabat-Zinn), dialektik-xulq-atvor terapiyasi (M.Linehan) va "digital minimalism" (C.Newport) yondashuvlari sintezini namoyon etadi.

Amaliy tavsiyalar: (1) oliy ta'lim muassasalarida "Raqamli farovonlik markazlari" tashkil etish va talabalarni har semestr boshida IAT skrining tekshiruvidan o‘tkazish; (2) "Yoshlar ishlari agentligi" va "Yoshlar daftari" loyihasi doirasida mahallabay psixologlarni raqamli bog‘liqlik muammosi bo‘yicha maxsus tayyorlash; (3) o‘quv rejalariga "Kiberpsixologiya" va "Raqamli savodxonlik" kurslarini majburiy fan sifatida kiritish; (4) 18–22 yoshdagi shaxslar uchun diqqatni rivojlantirish va raqamli gigiyena shakllantirishga qaratilgan intervensiyalarni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilash. Tadqiqotning kelajak istiqbollari sifatida "Sof Diqqat – Sof Ong" dasturining samaradorligini randomizatsiya qilingan nazorat guruhi bilan longitudinal dizaynda tekshirish va dasturning boshqa yosh toifalariga moslashtirilgan variantlarini ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni.

3. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2021. – 456 b.

4. Karimov V.M. Shaxs psixologiyasi: Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 280 b.

5. Mahmudov U.M. Yoshlarda internet bog‘liqligining psixologik xususiyatlari // Psixologiya jurnali. – Toshkent, 2023. – № 2. – B. 45–52.

6. Aytmuratov K. Qoraqalpog‘iston yoshlarining shaxsiy rivojlanish xususiyatlari // Qoraqalpog‘iston xabarnomasi. – Nukus, 2021. – № 2. – B. 34–41.

7. Vygotskiy L.S. Oliy psixik funksiyalarning rivojlanishi. – Moskva: Smysl, 2019. – 512 b.

8. Galperin P.Ya. Diqqatga tegishli ishlar. – Moskva: Akademiya, 2020. – 288 b.

9. Luriya A.R. Umumiy neyropsixologiya asoslari. – Sankt-Peterburg: Piter, 2021. – 384 b.

10. Mark G. Attention Span: A Groundbreaking Way to Restore Balance, Happiness and Productivity. – New York: Hanover Square Press, 2023. – 320 p.

11. Carr N. The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. – New York: W. W. Norton & Company, 2020. – 304 p.

12. Newport C. Digital Minimalism: Choosing a Focused Life in a Noisy World. – New York: Portfolio, 2019. – 304 p.

13. Hari J. Stolen Focus: Why You Can't Pay Attention. – New York: Crown Publishing, 2022. – 368 p.

14. Lembke A. Dopamine Nation: Finding Balance in the Age of Indulgence. – New York: Dutton, 2021. – 304 p.

15. Haidt J. The Anxious Generation. – New York: Penguin Press, 2024. – 400 p.

16. Orben A., Przybylski A.K. Windows of developmental sensitivity to social media // Nature Communications. – 2022. – Vol. 13. – Article 1649.

17. Young K.S., Abreu C.N. Internet Addiction in Children and Adolescents. – New York: Springer Publishing, 2019. – 344 p.

18. Griffiths M.D. A "components" model of addiction within a biopsychosocial framework // Journal of Substance Use. – 2020. – Vol. 25(4). – P. 351–363.

19. Kardefelt-Winther D. A conceptual and methodological critique of internet addiction research // Computers in Human Behavior. – 2014. – Vol. 31. – P. 351–354.

20. Gazzaley A., Rosen L.D. The Distracted Mind: Ancient Brains in a High-Tech World. – Cambridge: MIT Press, 2016. – 304 p.

21. Blakemore S.-J. Inventing Ourselves: The Secret Life of the Teenage Brain. – New York: Public Affairs, 2018. – 256 p.

22. Casey B.J. The adolescent brain and self-control // Annual Review of Psychology. – 2020. – Vol. 71. – P. 295–319.

23. Global Web Index. Digital 2024: Global Overview Report. – URL: https://www.gwi.com/reports/global-digital-overview (murojaat sanasi: 15.03.2026).

UDK: 159.922.7:159.937

Sayfullayeva Mashxura,
Abdusalomova Charos,
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali psixologiya mutaxassisligi 1-kurs magistrantlari

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA DIQQAT YETISHMASLIGI VA GIPERAKTIVLIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi (DYGS)ning psixologik xususiyatlari, uning bola shaxsiyati va o‘quv faoliyatiga ta’siri yoritilgan. Boshlang‘ich sinf davridagi yetakchi faoliyat – o‘qish jarayonida DYGS belgilari bo‘lgan bolalarda kuzatiladigan emotsional-irodaviy muammolar, impulsivlik va ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada bunday bolalar bilan ishlashda maktab psixologi va pedagoglarining o‘rni hamda korreksion-rivojlantiruvchi yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi (DYGS), psixologik xususiyatlar, impulsivlik, o‘quv faoliyati, ijtimoiy moslashuv, emotsional-irodaviy sfera.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕФИЦИТА ВНИМАНИЯ И ГИПЕРАКТИВНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические особенности синдрома дефицита внимания и гиперактивности (СДВГ) у учащихся младших классов, а также его влияние на личность ребенка и его учебную деятельность. Анализируются эмоционально-волевые проблемы, импульсивность и трудности социальной адаптации, наблюдаемые у детей с симптомами СДВГ в процессе обучения, которое является ведущей деятельностью в младшем школьном возрасте. Также обосновывается роль школьного психолога и педагогов в работе с такими детьми, подчеркивается важность коррекционно-развивающего подхода.

Ключевые слова: младшие школьники, синдром дефицита внимания и гиперактивности (СДВГ), психологические особенности, импульсивность, учебная деятельность, социальная адаптация, эмоционально-волевая сфера.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ATTENTION DEFICIT AND HYPERACTIVITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article examines the psychological characteristics of Attention Deficit Hyperactivity Disorder (ADHD) in primary school students and its impact on the child’s personality and academic performance. It analyzes the emotional-volitional problems, impulsivity, and social adaptation difficulties observed in

children with ADHD symptoms during the learning process, which is the core activity in primary school age. Furthermore, the article highlights the role of school psychologists and educators in working with these children, emphasizing the importance of correctional and developmental approaches.

Keywords: primary school students, Attention Deficit Hyperactivity Disorder (ADHD), psychological characteristics, impulsivity, academic activity, social adaptation, emotional-volitional sphere.

Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida DYGS shunchaki xulq-atvordagi injiqlik yoki tarbiyasizlik mahsuli emas, balki bosh miya po‘stlog‘ining ixtiyoriy regulyatsiya (boshqaruv) funksiyalarining kechikib rivojlanishi bilan bog‘liq neyropsixologik kasallikdir [1]. Kichik maktab yoshidagi bolalarda yetakchi faoliyat turi o‘yindan o‘qishga almashgan davrda ushbu sindromning psixologik xususiyatlari quyidagi uchta asosiy blokda yaqqol namoyon bo‘ladi:

1.Kognitiv (Bilish) sferasidagi xususiyatlar. DYGS belgilari bo‘lgan o‘quvchilarda diqqatning barqarorligi va konsentratsiyasi keskin past bo‘ladi. Ular uzoq vaqt davomida bir xil vazifaga diqqatni qaratib tura olmaydilar va har qanday tashqi ingibitor (chalg‘ituvchi omil) ta’sirida asosiy faoliyatni to‘xtatadilar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu bolalarda mantiqiy xotira unumdorligi ham pasayadi, chunki ma’lumotni eslab qolish uchun zarur bo‘lgan ixtiyoriy diqqat va irodaviy zo‘riqish mexanizmi sust ishlaydi.

2.Emotsional-irodaviy sferasidagi o‘ziga xosliklar.Ushbu sindromga ega bolalar yuqori darajadagi impulsivlik bilan ajralib turadi. Ular o‘z hissiyotlarini va bir lahzalik istaklarini tormozlay (boshqara) olmaydilar. Dars jarayonida o‘qituvchining savolini oxirigacha eshitmay javob berish, navbat kutolmaslik, affektiv (keskin) emotsional reaksiyalar ko‘rsatish ushbu yosh davridagi bolalarning psixologik portretiga xosdir [2].

3.Ijtimoiy-psixologik moslashuv (Adaptatsiya) muammolari. Tahliliy ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki, maktab muhitidagi qat’iy tartib-qoidalar (45 daqiqa tinch o‘tirish, intizomga bo‘ysunish) giperaktiv bolalarda kuchli psixologik zo‘riqishni (stressni) keltirib chiqaradi. Buning oqibatida ularda maktab desadaptatsiyasi (moslasha olmaslik) yuzaga keladi. Tengdoshlari bilan muloqotda ham impulsivlik sababli tez-tez konfliktlar kelib chiqadi va bola sinf jamoasida ko‘pincha “chetlatilgan” maqomiga tushib qoladi.

Nazariy manbalar tahlili asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va maktab psixologlari uchun quyidagi psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi:

DYGSga ega o‘quvchilarga katta hajmdagi topshiriqlarni birdaniga emas, kichik-kichik qismlarga bo‘lib berish lozim.

Bolaning harakatga bo‘lgan ehtiyojini darsni buzmagan holda qondirish (masalan, doskani artishni so‘rash, daftarlarni tarqatishga jalb qilish).

Salbiy jazo choralaridan (baqirish, kamsitish) voz kechib, bolaning eng kichik muvaffaqiyati yoki to‘g‘ri xulq-atvorini ham darhol maqtash va rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi (DYGS)ning psixologik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ushbu tadqiqot nazariy-tahliliy hamda qiyosiy-metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida mavzuning ko‘p qirraliligi, shuningdek, uning tibbiyot, psixologiya va pedagogika fanlari kesishmasida joylashgan murakkab ilmiy muammo ekanligi alohida e’tiborga olindi. Shu sababli muammoni yoritishda tizimli yondashuv, konseptual modellashtirish hamda integrativ tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini bir nechta o‘zaro bog‘liq ilmiy-nazariy yondashuvlar majmuasi tashkil etadi. Jumladan, DYGS simptomokompleksining kichik maktab yoshidagi bolalarning bilish jarayonlari — diqqat, xotira va idrok kabi kognitiv funksiyalariga hamda emotsional-irodaviy sohasiga ta’sirini yaxlit psixologik tizim sifatida o‘rganishga alohida urg‘u berildi. Ushbu yondashuv orqali DYGSning bola psixik rivojlanishidagi o‘rni va uning ta’lim jarayoniga ko‘rsatadigan bevosita hamda bilvosita ta’sir mexanizmlari tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda mahalliy va xorijiy psixologiya maktablarida mavjud ilmiy qarashlar qiyosiy jihatdan o‘rganildi. Xususan, neyropsixologik, bixevioral va faoliyat yondashuvlari doirasida DYGSning kelib chiqish sabablari, rivojlanish dinamikasi hamda uning boshlang‘ich sinf davridagi yetakchi faoliyat — o‘quv faoliyati bilan o‘zaro bog‘liqligi chuqur tahlil qilindi. Bu esa sindromning nafaqat klinik, balki pedagogik-psixologik jihatlarini ham kompleks tarzda anglash imkonini berdi.

Bundan tashqari, tadqiqotda DYGSning bola ijtimoiylashuvi, sinf jamoasiga moslashuvi hamda ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi omillar ham tizimli ravishda ko‘rib chiqildi. Natijada muammo faqat individual psixologik holat sifatida emas, balki ta’lim muhiti va ijtimoiy sharoit bilan uzviy bog‘liq kompleks hodisa sifatida talqin qilindi.

Tadqiqot natijalari AQSH va Yevropa Ittifoqi davlatlarida aqliy nogironligi bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos modellarini va ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlab berdi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, AQSHda ijtimoiy himoya tizimi asosan individual huquqlarni himoya qilish va federal qonunchilik (IDEA) asosida shakllangan bo‘lib, bu yerda nogiron bolalarning 95 foizdan ortig‘i umumta’lim maktablariga integratsiya qilingan [1]. Yevropa modellarida esa, xususan, Skandinaviya davlatlarida asosiy urg‘u “universallik” tamoyiliga qaratilgan bo‘lib, ijtimoiy xizmatlar to‘liq davlat tomonidan kafolatlanadi va mahalliy kommunalar darajasida amalga oshiriladi [2]. Tadqiqot tahlili shuni ko‘rsatadiki, Germaniya va Fransiyada ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi ko‘proq ixtisoslashgan markazlar va tibbiy-pedagogik yordamga yo‘naltirilgan bo‘lsa, Buyuk Britaniyada asosiy e’tibor oilalarni moddiy qo‘llab-quvvatlash va “mustaqil hayot” ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan [3]. Statistik tahlillar natijasida aniqlanishicha, aqliy nogironligi bo‘lgan bolalarni erta aniqlash va 3 yoshgacha bo‘lgan davrda “erta aralashuv” (early intervention) dasturlariga jalb etish bolaning kelgusidagi ijtimoiy adaptatsiyasini 40 foizga yaxshilaydi [4]. Shuningdek, AQSH tajribasida “Transition Services” (o‘tish

xizmatlari) tizimi orqali nogiron yoshlarni maktabdan keyingi kasbiy hayotga tayyorlashning samarali mexanizmi yo‘lga qo‘yilganligi, ularning bandlik darajasini oshirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot davomida olingan nazariy natijalar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi (DYGS) faqatgina tibbiy patologiya doirasida emas, balki bola shaxsiyatining ijtimoiy-psixologik shakllanish inqirozi sifatida baholanishi lozim. R. Barkley o‘zining fundamental ishlarida ta’kidlaganidek, DYGS mohiyatini ixtiyoriy xulq-atvorni tormozlash tizimidagi neyrobiologik nuqsonlar tashkil etadi va bu holat bolaning o‘z-o‘zini boshqarish (ijro etish) funksiyalarini cheklab qo‘yadi [1]. Ushbu yondashuvni rivojlantirgan holda aytish mumkinki, kichik maktab yoshida bunday tormozlanish mexanizmlarining sustligi dars jarayonida bolaning intellektual salohiyatini to‘liq namoyon etishiga imkon bermaydi. Ya’ni, bolaning aqliy rivojlanishi me’yorda bo‘lsa-da, ixtiyoriy diqqatining funksional yetishmasligi uning akademik ko‘rsatkichlarini sun’iy ravishda pasaytiradi.

N. N. Zavadenko ushbu muammoning yosh inqirozlari bilan bog‘liqligini tahlil qilib, maktab ta’limining dastlabki yillarida bolaning asab tizimiga tushadigan psixoemotsional yuklama va sensor interpretatsiyalar DYGS belgilarini yanada chuqurlashtirishini ko‘rsatib o‘tadi [2]. Bu holat tizimli psixologik tahlillarda o‘z isbotini topmoqda: boshlang‘ich sinf muhitidagi qat’iy talablar ko‘pincha giperaktiv bolada himoya reaksiyasini uyg‘otadi va bu tashqi muhitda agressivlik yoki mutlaqo chalg‘ish shaklida namoyon bo‘ladi. Mahalliy tadqiqotlarda ham ta’lim jarayonini tashkil etishda bolaning bu kabi individual dinamikasini inobatga olish zarurligi, aks holda an’anaviy dars o‘tish metodikasi boladagi diqqat tarqoqligini yanada stimullashi qayd etiladi [3].

Muammoning psixologik yechimini aniqlashda L. S. Vygotskiyning oliy ruhiy funksiyalarning shakllanishi va bolaning yetakchi faoliyati haqidagi konsepsiyasiga tayanish maqsadga muvofiqdir [4]. Kichik maktab yoshidagi bolalarda barcha bilish jarayonlari ixtiyoriy xarakterga ega bo‘la boshlaydi. Biroq DYGSli o‘quvchilarda ichki ixtiyoriy diqqat hali to‘liq shakllanmaganligi sababli, ularning faoliyatini tashqi muhit orqali (o‘qituvchining maxsus nutqiy komandalari, ko‘rgazmali qurollar va dars strukturasini o‘zgartirish yordamida) modellashtirish talab etiladi. Shunday qilib, muhokama etilayotgan muammo maktab psixologi, pedagog va ota-onalar o‘rtasida uzoq muddatli hamkorlikni, jazoviy metodlardan butunlay voz kechib, bolaning asab tizimini bosqichma-bosqich reabilitatsiya qiluvchi ekologik va rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratishni taqozo etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi (DYGS)ning psixologik xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi. Mazkur tadqiqot natijalari DYGSni nafaqat klinik yoki pedagogik muammo sifatida, balki bola shaxsining butun psixik rivojlanish tizimiga ta’sir etuvchi murakkab neyropsixologik hodisa sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Birinchidan, DYGS shunchaki xulq-atvordagi vaqtinchalik nuqson yoki noto‘g‘ri tarbiya oqibati emas, balki bolaning kognitiv sferasi va emotsional-

irodaviy tizimini qamrab oluvchi murakkab neyropsixologik holatdir. Boshlang‘ich sinf davrida o‘yin faoliyatidan tizimli o‘quv faoliyatiga o‘tish jarayoni ushbu sindromga ega bolalar asab tizimi uchun jiddiy psixologik yuklama hisoblanadi. Aynan shu davrda ularda diqqatni ixtiyoriy boshqarishning sustligi, impulsiv xulq-atvorning kuchayishi hamda yuqori motor faollik belgilarining yanada yaqqol namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Shu sababli ta’lim jarayonida yosh davriga xos psixologik xususiyatlarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, DYGSga ega o‘quvchilarda intellektual salohiyatning yetarli darajada bo‘lishi ularning o‘quv materiallarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishini avtomatik tarzda kafolatlamaydi. Chunki ixtiyoriy diqqatni boshqarish, mantiqiy xotira jarayonlari va hissiy regulyatsiya mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi natijasida bu bolalarda ta’lim jarayonida tizimli qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu holat o‘z navbatida maktabga moslashuv jarayonining buzilishi (desadaptatsiya) va tengdoshlari jamoasida ijtimoiylashuv muammolarini keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, DYGSning psixologik xususiyatlarini o‘rganish shuni ham ko‘rsatadiki, ushbu sindromga ega bolalar bilan ishlashda faqat individual yondashuv yetarli emas, balki kompleks psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimi zarur. Bunda maktab psixologi, o‘qituvchi va ota-onalarning hamkorligi, shuningdek, korreksion-rivojlantiruvchi dasturlarni tizimli qo‘llash muhim o‘rin tutadi.

To‘rtinchidan, DYGSli bolalarda ijtimoiy-emotsional qo‘llab-quvvatlashning yetarli emasligi ularning o‘z-o‘zini baholash darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois ta’lim muhitida rag‘batlantirish, ijobiy mustahkamlash va individual muvaffaqiyatlarni e’tirof etish mexanizmlarini keng qo‘llash zarur hisoblanadi.

Umuman olganda, DYGS muammosi faqat individual psixologik nuqson sifatida emas, balki ta’lim tizimi va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq kompleks hodisa sifatida qaralishi lozim. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar esa kelgusida samarali korreksion metodikalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Barkley, R. A. Attention-Deficit Hyperactivity Disorder: A Handbook for Diagnosis and Treatment / R. A. Barkley. – 4th ed. – New York : Guilford Press, 2015. – 719 p.

2.Заваденко, Н. Н. Гиперактивность и дефицит внимания в детском возрасте : учеб. Пособие для вузов / Н. Н. Заваденко. – Москва : Академия, 2005. – 256 с.

3.Муродова, М. Ш. Бошланғич синф ўқувчиларида диққат тарқоқлигини коррекциялашнинг психологик жиҳатлари / М. Ш. Муродова // Психология. – 2021. – № 2. – Б. 45–51.

4.Vygotskiy, L. S. Pedagogik psixologiya / L. S. Vygotskiy ; rus tilidan tarjima. – Toshkent : O‘qituvchi, 2010. – 380 b.

UDK 37.015.3:316.77



Sirojiddinov Inomjon Ravshanbek o'g'li,
Namangan davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

PEDAGOGIK MEHNAT VA PEDAGOGIK MULOQOTNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Annotatsiya. Pedagogik mehnat jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadigan faoliyat turlaridan biridir. Pedagogik muloqot esa ta'lim -tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Mazkur maqolada pedagogik mehnatning mohiyati, uning jamiyat rivojidagi o'rni hamda pedagogik muloqotning ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqotning shaxs rivoji, ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishi hamda yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdagi roli yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: pedagogik mehnat, pedagogik muloqot, ta'lim jarayoni, ijtimoiy ahamiyat, tarbiya, o'qituvchi faoliyati, kommunikativ kompetensiya, shaxs rivoji, jamiyat taraqqiyoti, pedagogik madaniyat, ta'lim samaradorligi, hamkorlik.

СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ТРУДА И ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБЩЕНИЯ

Аннотация. Педагогический труд является одним из важных видов деятельности, оказывающих значительное влияние на развитие общества. Педагогическое общение выступает важным фактором эффективности образовательного процесса. В данной статье рассматриваются сущность педагогического труда, его роль в общественном развитии, а также социальная значимость педагогического общения. Особое внимание уделяется значению эффективного взаимодействия между преподавателем и обучающимися в формировании личности, социальных ценностей и воспитании гармонично развитого поколения.

Ключевые слова: педагогический труд, педагогическое общение, образовательный процесс, социальная значимость, воспитание, деятельность учителя, коммуникативная компетентность, развитие личности, общественное развитие, педагогическая культура, эффективность обучения, сотрудничество.

THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF PEDAGOGICAL WORK AND PEDAGOGICAL COMMUNICATION

Abstract. Pedagogical work is one of the important types of professional activity that significantly influences the development of society. Pedagogical communication plays a key role in ensuring the effectiveness of the educational process. This article analyzes the essence of pedagogical work, its role in social development, and the social significance of pedagogical communication. Special attention is paid to the importance of effective interaction between teachers and students in the formation of personality, the development of social values, and the education of a well-developed younger generation.

Keywords: pedagogical work, pedagogical communication, educational process, social significance, upbringing, teacher activity, communicative competence, personality development, social development, pedagogical culture, learning effectiveness, cooperation.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida ta’lim tizimi hal qiluvchi o‘rinlardan birini egallaydi. Chunki har qanday davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishi avvalo inson kapitalining sifatiga, yosh avlodning bilim va tarbiya darajasiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlashda pedagogik mehnat va pedagogik muloqot muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik mehnat jamiyat uchun intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan murakkab hamda mas’uliyatli faoliyat turi hisoblanadi. O‘qituvchi pedagogik faoliyat davomida nafaqat o‘quvchilarga bilim beradi, balki ularning dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy faolligi va insoniy fazilatlarini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Pedagogik muloqot esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida yuzaga keladigan o‘zaro hamkorlik, axborot almashish, hissiy-ta’siriy munosabat va tarbiyaviy ta’sir jarayonidir. Ta’lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan aynan pedagogik muloqotning samarali tashkil etilishiga bog‘liq bo‘ladi. Chunki o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samimiy, ochiq va ishonchli munosabat shakllangandagina o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan qiziqish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy faollik rivojlanadi. Pedagogik muloqotning yuqori darajada tashkil etilishi o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon etishiga hamda jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim vositalarining joriy etilishi pedagogik mehnat mazmunini yanada boyitmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim jarayoni o‘qituvchilardan yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiya, pedagogik mahorat va psixologik yondashuvni talab qilmoqda. Ayniqsa, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarining ustuvorligi pedagogik muloqotning yangi shakl va usullarini qo‘llash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Endilikda o‘qituvchi faqat

bilim beruvchi emas, balki o‘quvchini qo‘llab-quvvatlovchi, yo‘naltiruvchi va motivatsiya beruvchi shaxs sifatida ham faoliyat yuritishi lozim.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan va ijtimoiy faol avlodni tarbiyalash masalasiga davlat siyosati darajasida katta e’tibor qaratilmoqda. Ma’naviy barkamol insonning muhim sifatlaridan biri esa muloqot madaniyatidir. Insonning jamiyatdagi o‘rni, uning ijtimoiy munosabatlari, ma’naviy taraqqiyoti va shaxs sifatida shakllanishini muloqotsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki muloqot insonning tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlaridan biri bo‘lib, u orqali shaxs atrofdagilar bilan munosabat o‘rnatadi, tajriba almashadi va o‘zini namoyon etadi.

Muloqot bilan bog‘liq muammolar psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va kommunikatsiya nazariyasi kabi fanlar doirasida keng o‘rganilgan. Olimlar tomonidan pedagogik muloqotning ta’lim samaradorligiga, o‘quvchilarning psixologik holatiga, motivatsiyasiga va shaxsiy rivojlanishiga ta’siri yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar pedagogik muloqotning o‘qituvchi kasbiy faoliyatidagi o‘rni naqadar muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Shu sababli pedagogik mehnat va pedagogik muloqotning ijtimoiy ahamiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etish, ularning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni va samaradorligini tahlil qilish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot pedagogik muloqotning mazmun-mohiyati, uning pedagogik mehnat jarayonidagi roli hamda ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Pedagogik muloqot va uning shaxs rivojidagi ahamiyati ko‘plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, faoliyat nazariyasi vakillari bo‘lgan A.V. Zaporojets, A.N. Leontyev, A.R. Luriya, D.B. Elkonin hamda L.S. Vigotskiy tadqiqotlarida inson rivojida muloqotning muhim o‘rni alohida ta’kidlab o‘tiladi. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, insonning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri bu muloqotga bo‘lgan ehtiyoj hisoblanadi. Muloqot jarayonida inson ijtimoiy tajribani o‘zlashtiradi, atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatga kirishadi va shaxs sifatida shakllanadi.[1]

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, shaxsning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sir jarayonida amalga oshadi. Olim ta’lim va muloqotni inson psixik taraqqiyotining muhim omili sifatida baholaydi. Uning fikricha, o‘quv jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali muloqot bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini faollashtiradi hamda shaxsning intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. A.N. Leontyev esa faoliyat nazariyasi doirasida inson faoliyatining asosiy omillaridan biri sifatida muloqotning ahamiyatini asoslab bergan. Uning fikricha, inson faoliyati jarayonida muloqot ijtimoiy tajribani uzatish va o‘zlashtirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon ayniqsa ta’lim tizimida muhim bo‘lib, pedagogik muloqot o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. A.R. Luriya tadqiqotlarida esa muloqot insonning bilish jarayonlari, nutq rivoji va tafakkur shakllanishi bilan uzviy bog‘liqligi ta’kidlanadi. Olimning fikricha, nutq va muloqot orqali insonning kognitiv faoliyati rivojlanadi va ijtimoiy tajriba avloddan-avlodga uzatiladi.

D.B. Elkonin va A.V. Zaporojets tadqiqotlarida bolalar rivojlanishida muloqotning o‘rni alohida ko‘rsatib berilgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, bolaning psixik rivojlanishi, ayniqsa, ilk yosh davrida kattalar bilan muloqot jarayonida shakllanadi. Muloqot orqali bola ijtimoiy normalar, qadriyatlar hamda xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtiradi. Shu sababli pedagogik mehnat jarayonida pedagogik muloqotning samarali tashkil etilishi ta’lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Pedagogik muloqot nafaqat bilim berish jarayonini samarali tashkil etadi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivoji, ijtimoiy moslashuvi hamda kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga ham xizmat qiladi [3]

Mazkur tadqiqotda pedagogik mehnat va pedagogik muloqotning ijtimoiy ahamiyatini o‘rganishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, umumlashtirish hamda ilmiy kuzatish metodlari qo‘llanildi. Ushbu metodlar orqali pedagogik mehnatning mazmuni, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda pedagogik muloqotning ijtimoiy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik mehnatning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri, pedagogik muloqotning ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli hamda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali hamkorlik mexanizmlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, pedagogik muloqot jarayonida kommunikativ kompetensiyaning o‘rni, o‘qituvchining kasbiy mahorati hamda ta’lim jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik omillar ham o‘rganildi. Tadqiqotimiz davomida pedagogik muloqotning turli shakllari, jumladan, dialogik muloqot, hamkorlikka asoslangan o‘zaro ta’sir hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning ta’lim jarayonidagi samaradorligi ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Bundan tashqari, pedagogik faoliyatning ijtimoiy ahamiyati va uning yosh avlodning shaxsiy rivoji, ma’naviy qadriyatlari hamda ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi roli ham nazariy jihatdan asoslab berildi.[4]

Mazkur tadqiqot metodologiyasi pedagogika va psixologiya fanlarining zamonaviy nazariy qarashlariga asoslangan bo‘lib, unda insonparvarlik, hamkorlik, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hamda innovatsion pedagogik yondashuvlar asosiy metodologik tamoyillar sifatida qaraldi.

Tadqiqot natijalari pedagogik mehnat va pedagogik muloqot ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri ekanligini ko‘rsatdi. Pedagogik muloqot jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro ishonch, hurmat hamda hamkorlik muhitining shakllanishi o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Natijada ta’lim jarayonida faol ishtirok etish, mustaqil fikrlash hamda ijodiy yondashuv kabi muhim sifatlar rivojlanadi.

Shuningdek, pedagogik muloqotning samarali tashkil etilishi o‘quvchilarning shaxsiy rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Muloqot jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon etish, boshqalar fikrini hurmat qilish hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi va kelajakda jamiyatda faol shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot davomida pedagogik muloqotning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining kommunikativ kompetensiyasi, pedagogik madaniyati va kasbiy mahoratiga bog‘liq ekanligi aniqlandi. O‘qituvchining nutq madaniyati, tinglash qobiliyati, o‘quvchilarga nisbatan ijobiy munosabati hamda individual yondashuvi pedagogik muloqotning muvaffaqiyatli amalga oshishida muhim rol o‘ynaydi. Muhokama jarayonida shuni ta’kidlash mumkinki, zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik muloqotni samarali tashkil etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, dialogik muloqot, hamkorlikka asoslangan ta’lim hamda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois pedagogik mehnat jarayonida pedagogik muloqotning samarali usullaridan foydalanish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi [1].

Muloqot murakkab jarayon bo`lganligi uchun ham ayrim olingan muloqot shaklini tahlil qilganimizda, unda juda xilma-xil ko`rinishlar, jabhalar va qismlar borligini aniqlashimiz mumkin. G.M.Andreyeva muloqotning quyidagi tuzilishini taklif etadi:

1. Muloqotning kommunikativ tomoni (ya’ni muloqotga kirishuvchilar o`rtasidagi ma’lumot va axborotlar almashinuvi jarayoni).

2. Muloqotning interaktiv tomoni (ya’ni, muloqotga kirishuvchi tomonlarning bir-birlarining ijtimoiy xulq-atvoriga ta’sir ko`rsatish jarayoni).

3. Muloqotning pertseptiv tomoni (ya’ni, muloqotga kirishuvchi tomonlarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog’liq bo`lgan murakkab psixologik jarayon). [2] Bu tizimning  har bir tomonini keyingi bo`limlarda batafsil tahlil etiladi.

Bu vazifalar aslida G.M.Andreyeva ajratgan muloqot jabhalari – qismlariga ham mos keladi, ya’ni har bir muloqot jarayonida B.F.Lomov qayd etgan vazifalarni topish mumkin. Mazkur nazariya XX asrning 40-yillariga to`g‘ri keladi, chunki aynan shu davrda maxsus tadqiqotlar bajarilgan edi. Guruh birdamligi uning tarkibidagi individlarning o`zaro munosabatlari natijasi o`laroq paydo bo`ladi. U guruh a’zolarining barchasiga birday ta’sir etuvchi va guruh yaqinligini keltirib chiqaruvchi barcha kuchlar yig‘indisini aks ettiradi. Bu "kuchlar" individ uchun guruhning kerakligi yoki guruhga a’zoligi uchun qoniqishi bilan izohlanadi. Ammo keraklilik ham, qoniqish ham, guruhning sof emotsional yo`nalishdagi munosabatini aniqlash yordamida tahlil qilinadi. Shuning uchun ham birdamlilik bu holatda guruh a’zolari emotsional afzalliklari tizimining ma’lum tavsifi sifatida olib qaraladi [3].

Olib borilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik mehnat jamiyat taraqqiyotining eng muhim va mas’uliyatli ijtimoiy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Chunki pedagog faoliyati nafaqat o‘quvchilarga bilim berish bilan cheklanadi, balki ularning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi hamda insoniy fazilatlarini shakllantirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois pedagogik faoliyat jarayonida o‘qituvchining kasbiy mahorati bilan bir qatorda, uning pedagogik muloqot madaniyati, kommunikativ salohiyati va insoniy munosabatlari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari pedagogik muloqot ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas va muhim tarkibiy qismi ekanligini tasdiqladi. Samarali tashkil etilgan pedagogik muloqot o'quvchilar bilan o'zaro ishonch, hurmat va hamkorlik muhitini shakllantiradi. Bunday muhit esa o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning mustaqil fikrlash, erkin mulohaza yuritish hamda ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ustuvorligi pedagogik muloqotning mazmun va mohiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Pedagogik muloqot orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladi, balki ijtimoiy munosabatlarga kirishish, o'z fikrini asoslab bayon etish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini ham egallaydi. Shu jihatdan qaralganda, pedagogik muloqot o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishida muhim psixologik-pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samimiy, ochiq va konstruktiv muloqot esa ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalar qo'yilmoqda. Zamonaviy pedagog nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki yuqori kommunikativ kompetensiyaga, pedagogik madaniyatga, psixologik yondashuv ko'nikmalariga ham ega bo'lishi zarur. Chunki o'qituvchining nutq madaniyati, muomala etikasi va o'quvchilar bilan ishlash uslubi ta'lim sifati hamda tarbiyaviy jarayon samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu asosda quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

ta'lim jarayonida pedagogik muloqotning zamonaviy va samarali shakl hamda metodlaridan keng foydalanish;

o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan trening, seminar va amaliy mashg'ulotlarni muntazam tashkil etish;

pedagogik faoliyatda hamkorlikka asoslangan, interfaol va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish;

o'quvchilarning erkin fikr bildirishi, mustaqil mulohaza yuritishi va ijodiy yondashuvini qo'llab-quvvatlovchi demokratik muloqot muhitini yaratish;

pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish orqali o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch va hurmatni mustahkamlash;

ta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhitni shakllantirish hamda pedagoglarning kasbiy-emotsional barqarorligini qo'llab-quvvatlash;

pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;

pedagogik faoliyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan muloqot tamoyillarini keng targ'ib etish.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik muloqotning samarali tashkil etilishi o'quvchilarning kommunikativ faolligi, ijtimoiy moslashuvi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, pedagogik muloqot orqali o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonch, mas'uliyat hissi va jamoa bilan ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa ularning kelgusida jamiyatda faol va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, pedagogik mehnat va pedagogik muloqotning o‘zaro uyg‘unligi ta’lim tizimining samaradorligini oshirish, o‘quvchi shaxsining intellektual va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash hamda zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli pedagogik muloqotni takomillashtirish va o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kurbanniyazova Z.K. Tarbiyaviy ishlar jarayonida o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik asoslari (qoraqalpoq maktablarining VII-IX sinflari misolida): Ped.fan.nomz. ... diss. – T.: 2002. –B.186.

2. Kurbaniyazova Z. Tarixiy dostonlar o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish vositasi // Til va adabiyot j. – T.: 2001. № 1. –B.21.

3. Turg’unboyeva A. Namangan oilalarida shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy- psixologik tavsifi.Maktabgacha va maktab ta’limi.- Toshkent.2025 № 9. -35. B

4. Mavlonova R., To‘raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 2001. –B.512.

5. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. Darslik T.2006 yil. -Namangan. -B 28.

UDK 004:37.02

Allambergenova Gozzal Xasanbaevna,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Qoraqalpoq akademik litseyi o‘qituvchisi

INFORMATIKA TA’LIMIDA O‘QUVCHILARDA AXBOROT-ANALITIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada informatika ta’limi jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Qoraqalpoq akademik litseyi o‘quvchilarida axborot-analitik kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shartlari, didaktik imkoniyatlari hamda metodik asoslari yoritilgan. O‘quvchilarning axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muammoli ta’lim, kasbiy yo‘naltirilgan topshiriqlar, interfaol metodlar va raqamli ta’lim muhitining samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: informatika ta’limi, axborot kompetensiyasi, analitik fikrlash, raqamli savodxonlik, kasbiy yo‘naltirish, akademik litsey.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ В ИНФОРМАТИЧЕСКОМ ОБУЧЕНИИ

Аннотация. В данной статье освещены педагогические условия, дидактические возможности и методические основы формирования информационно-аналитической компетентности у учащихся Каракалпакского академического лицея Министерства внутренних дел Республики Узбекистан в процессе обучения информатике. Эффективность проблемного обучения, профессионально-ориентированных заданий, интерактивных методов и цифровой образовательной среды в развитии у учащихся навыков поиска, сортировки, анализа и принятия решений обоснована посредством экспериментальной работы.

Ключевые слова: информатика образование, информационная компетентность, аналитическое мышление, цифровая грамотность, профессиональное направление, академический лицей.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF STUDENTS' INFORMATION AND ANALYTICAL COMPETENCE IN INFORMATION LEARNING

Abstract. This article examines the pedagogical conditions, didactic possibilities, and methodological foundations for the formation of information-analytical competence in students of the Karakalpak Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan in the process of teaching

computer science. The effectiveness of problem-based learning, professionally-oriented tasks, interactive methods, and a digital educational environment in



developing students' skills in searching, sorting, analyzing, and making decisions is substantiated through experimental work.

Keywords: informatics education, information competence, analytical thinking, digital literacy, professional orientation, academic lyceum.

Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarda ta'lim jarayoni davlat va idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etiladi. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun[1], ichki ishlar organlari uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan Prezident qarorlari hamda akademik litseylar faoliyatini tartibga soluvchi idoraviy Nizom mazkur ta'lim muassasasining huquqiy asosini belgilaydi[2].

Shuningdek, akademik litseyning ustavi, rivojlanish strategiyasi, informatika fanining ishchi o'quv dasturi va raqamli ta'lim muhitini joriy etish dasturi o'quvchilarda axborot-analitik kompetensiyani shakllantirishning tashkiliy-metodik asosini tashkil etadi. Mazkur hujjatlar o'quvchilarda analitik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va axborot xavfsizligi madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini ta'minlaydi.

Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida informatika fanini o'qitish nafaqat umumta'lim vazifalarini, balki o'quvchilarning kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini ham ta'minlaydi. Shu sababli axborot-analitik kompetensiyani shakllantirish ushbu ta'lim muassasalari uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Pedagogika va informatika o'qitish metodikasida kompetensiyaviy yondashuv, muammoli ta'lim va raqamli texnologiyalarni integratsiyalash masalalari keng tadqiq etilgan. Xalqaro tadqiqotlarda digital competence va computational thinking tushunchalari muhim o'rin egallaydi.

Biroq IIV akademik litseylari sharoitida informatika ta'limi orqali kasbiy yo'naltirilgan axborot-analitik kompetensiyani shakllantirish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqotda kompetensiyaviy, tizimli va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar qo'llanildi. Pedagogik kuzatuv, test, so'rovnoma, tajriba-sinov va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi Qoraqalpoq akademik litseyi o'quvchilari ishtirokida o'tkazildi.

Axborot-analitik kompetensiya axborotni izlash, saralash, qayta ishlash, tahlil qilish hamda asosli qaror qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya motivatsion, kognitiv, operatsion va refleksiv komponentlardan iborat.

Quyida Informatika ta'limida axborot-analitik kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shartlariga to'qtab o'tamiz.

Raqamli ta'lim muhitini yaratish. Elektron resurslar va simulyatsiyalar o'quvchilarning mustaqil faoliyatini kuchaytiradi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli vaziyatlar analitik fikrlashni rivojlantiradi va qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Kasbiy yo'naltirilgan topshiriqlar. Huquqiy vaziyatlarni modellashtirish o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

Interfaol metodlar. Keys-stadi, loyiha metodi va debat o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Axborot xavfsizligi madaniyati. Soxta axborotni aniqlash va ma’lumotlarni himoyalash ko‘nikmalari shakllantiriladi[3].

Informatika fani o‘quvchilarda axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish, analitik tafakkurni rivojlantirish hamda muammolarni algoritmik yondashuv asosida hal qilishga o‘rgatishda muhim didaktik imkoniyatlarga ega. Ayniqsa, akademik litsey sharoitida ushbu fan o‘quvchilarning kasbiy yo‘naltirilgan fikrlashi va axborot-analitik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Algoritmik fikrlashni rivojlantirish. Algoritmik fikrlash o‘quvchilarda muammoni ketma-ket va mantiqiy bosqichlarda hal qilish qobiliyatini shakllantiradi. Informatika darslarida algoritmlar tuzish, blok-sxemalar bilan ishlash va dasturlash asoslarini o‘rganish o‘quvchilarning sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunishiga yordam beradi.

Bu jarayon o‘quvchilarda tizimli fikrlash, muammoni qismlarga ajratish va optimal yechimni tanlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. IIV akademik litsey o‘quvchilari uchun algoritmik fikrlash tezkor qaror qabul qilish va vaziyatni mantiqiy baholashda muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumotlar bazasi bilan ishlash. Ma’lumotlar bazasi bilan ishlash o‘quvchilarga katta hajmdagi axborotni saqlash, tartiblash va izlash imkonini beradi. Jadval tuzish, filtrlar, so‘rovlar va hisobotlar bilan ishlash o‘quvchilarning axborotni tizimlashtirish hamda tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bu jarayon o‘quvchilarning axborotni saralash, kerakli ma’lumotni tez topish va qaror qabul qilishda dalillardan foydalanish kompetensiyasini shakllantiradi.

Modellashtirish. Modellashtirish real jarayonlarni soddalashtirilgan shaklda tasvirlash orqali ularni o‘rganish imkonini beradi. Informatika darslarida matematik, grafik va kompyuter modellaridan foydalanish o‘quvchilarning muammoni chuqur tahlil qilish va ehtimoliy natijalarni oldindan ko‘ra olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Kasbiy yo‘naltirilgan modellashtirish, xususan, vaziyatli tahlil va simulyatsiyalar o‘quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Ma’lumotlarni vizuallashtirish. Diagramma, grafik va infografikalardan foydalanish o‘quvchilarga murakkab ma’lumotlarni tushunarli shaklda ifodalash imkonini beradi. Vizuallashtirish o‘quvchilarning ma’lumotlarni taqqoslash, tendensiyalarni aniqlash va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi[6].

Bu esa axborot-analitik kompetensiyaning muhim elementi bo‘lib, qaror qabul qilish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Sun’iy intellekt elementlari. Sun’iy intellekt elementlarini informatika ta’limiga kiritish o‘quvchilarning zamonaviy texnologiyalar haqidagi tasavvurini kengaytiradi. Oddiy tavsiya tizimlari, ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish va chatbot texnologiyalarini o‘rganish o‘quvchilarda innovatsion fikrlashni rivojlantiradi.

Sun’iy intellekt asoslari o‘quvchilarning katta ma’lumotlar bilan ishlash, prognozlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Informatika fanining algoritmik fikrlash, ma'lumotlar bazasi, modellashtirish, vizuallashtirish va sun'iy intellekt bilan bog'liq didaktik imkoniyatlari o'quvchilarda axborot-analitik kompetensiyani kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishlarning integratsiyalashuvi akademik litsey o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini va analitik tafakkurini sezilarli darajada oshiradi[8].

O'zbekiston Respublikasi IIV Qoraqalpoq akademik litseyida o'quvchilarda axborot-analitik kompetensiyani shakllantirish samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajribada nazorat va tajriba guruhlari shakllantirilib, ishlab chiqilgan pedagogik shartlarning amaliy samaradorligi tekshirildi. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi: diagnostika, formativ va nazorat bosqichlari.

Diagnostika bosqichi. Mazkur bosqichda o'quvchilarning axborotni izlash, tahlil qilish, tanqidiy baholash hamda qaror qabul qilish ko'nikmalari test, so'rovnoma va amaliy topshiriqlar yordamida baholandi.

Natijalar o'quvchilarning aksariyatida: ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, muammoni qismlarga ajratish, dalillar asosida xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatdi. Ayniqsa, axborotni tanqidiy baholash va muammoni tizimli hal qilishda qiyinchiliklar kuzatildi. Bu esa maxsus pedagogik yondashuvni joriy etish zarurligini ko'rsatdi.

Formativ bosqich. Formativ bosqichda o'quvchilarda axborot-analitik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan metodik tizim joriy etildi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshirildi: kasbiy vaziyatlarga asoslangan muammoli topshiriqlarni qo'llash, loyiha ishlari va tadqiqot faoliyatini tashkil etish,

ma'lumotlar bazasi va statistik tahlil bilan bog'liq amaliy mashg'ulotlar, keys-stadi va interfaol metodlardan foydalanish, axborot xavfsizligi va tanqidiy fikrlash bo'yicha treninglar.

Informatika darslarida real vaziyatlarni modellashtirish, ma'lumotlarni vizuallashtirish hamda algoritmik yechimlarni ishlab chiqish o'quvchilarning analitik tafakkurini faollashtirdi. Shuningdek, raqamli platformalar orqali mustaqil izlanish faoliyati tashkil etildi.

Nazorat bosqichi. Nazorat bosqichida tajriba va nazorat guruhlari o'quvchilarining kompetensiya darajalari qayta baholandi. Natijalar tajriba guruhida quyidagi ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatdi: axborotni tahlil qilish tezligi va aniqligining oshishi, dalillar asosida qaror qabul qilish ko'nikmasining shakllanishi, mustaqil izlanish va muammoni hal qilish faolligining ortishi, axborotni tanqidiy baholash darajasining yaxshilanishi.

Nazorat guruhi bilan taqqoslaganda tajriba guruhida o'quvchilarning analitik fikrlashi va axborot bilan ishlash madaniyatida sezilarli ijobiy dinamika kuzatildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida o'quvchilarning axborot-analitik kompetensiyasi darajasi diagnostika va nazorat bosqichlarida foiz ko'rsatkichlari asosida baholandi. Baholash yuqori, o'rta va past darajalar kesimida amalga oshirildi.

1-jadval

Axborot-analitik ko‘nikmalar rivojlanishining dinamikasi

Ko‘nikmalar	Boshlang‘ich (%)	Yakuniy (%)	O‘sish (%)
Axborotni tahlil qilish	41	72	+31
Tanqidiy fikrlash	45	74	+29
Qaror qabul qilish	39	69	+30
Axborotni tizimlashtirish	43	71	+28
Axborot xavfsizligi madaniyati	37	70	+33

Natijalar o‘quvchilarda, ayniqsa axborot xavfsizligi, ma’lumotlarni tahlil qilish, tanqidiy baholash hamda raqamli muhitda ishlash ko‘nikmalarida sezilarli ijobiy o‘sish kuzatilganini ko‘rsatadi. Bu esa muammoli topshiriqlar, loyiha asosida o‘qitish hamda raqamli ta’lim vositalaridan tizimli foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. O‘quvchilar nafaqat tayyor bilimni qabul qilish, balki uni mustaqil izlash, tahlil qilish va amaliy vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirilgan faol subyektga aylanganligi qayd etildi.

Foiz ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi kompetensiyaga ega o‘quvchilar ulushi sezilarli darajada oshgan, past darajadagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari esa keskin kamaygan. Shu bilan birga, o‘rta darajadagi o‘quvchilarda ham yuqoriga siljish dinamikasi kuzatilgan bo‘lib, bu ta’lim jarayonining umumiy samaradorligi oshganini anglatadi. Ayniqsa, analitik fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, ma’lumotlarni taqqoslash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarida barqaror ijobiy dinamika shakllangan.

Mazkur natijalar ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlarning amaliy samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi. Tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, muammoli ta’lim texnologiyalari, kasbiy modellashtirish yondashuvi, loyiha faoliyati hamda raqamli ta’lim muhiti integratsiyasi o‘quvchilarda axborot-analitik kompetensiyani samarali rivojlantiradi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini faollashtirib, ularni real hayotiy vaziyatlarda tezkor va asosli qaror qabul qilishga tayyorlaydi.

Shuningdek, raqamli ta’lim muhiti sharoitida o‘quvchilarning axborot bilan ishlash madaniyati, axborotni tanqidiy tahlil qilish va turli manbalarni solishtirish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanganligi aniqlandi. Tajriba natijalari o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning kognitiv faolligi, mustaqilligi va ijodiy yondashuvi ham oshganini ko‘rsatdi.

Informatika ta’limida muammoli ta’lim, kasbiy modellashtirish hamda raqamli muhitni integratsiyalashgan holda qo‘llash o‘quvchilarda axborot-analitik kompetensiyani shakllantirishning samarali pedagogik modeli ekanligi amalda o‘z tasdig‘ini topdi. O‘zbekiston Respublikasi IIV Qoraqalpoq akademik litseylari tajribasi ushbu pedagogik shartlarning real ta’lim jarayonida yuqori natija berishini va ularning keng joriy etilishi maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. – Toshkent, 2020. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 3/20/637/1313-son.

2. Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.01.2023-y., 07/23/10/0043-son.

3. Омельченко В.И. Использование средств и методов смешанного обучения в методической системе развития информационно-аналитической компетентности будущего специалиста / В.И. Омельченко, Л.А. Усольцева // Информатика и образование. – 2010. – № 9. – С. 113-116.

4. Трофимец Е.Н. Информационно-аналитические технологии обучения менеджеров в образовательных учреждениях России и за рубежом / Е. Н. Трофимец [Электронный ресурс]. – URL: http://www.ido.rudn.ru/ vestnik/2010/2010_1/14.pdf].

5. Яковенко Н.В., Комов И.В. Информационно-аналитическая компетентность как профессиональный компонент подготовки экологов-инженеров в условиях педагогического ВУ- 275 ЗА // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: География. Геоэкология. 2016. № 1. С. 75–79.

6. M.E.Mamarajabov, D.E.Toshtemirov, O‘.A.Yuldashev. Informatika o‘qitish metodikasi. “BOOKMANY PRINT”. Toshkent 2023.

7. IZ Kenesbayevna, ZA Urimbetova - Application of the Project Method in Computer Science Classes. International Journal on Orange Technologies, Research Parks Publishing. 2022.

8. Ilyasova Z. K., Shaniyazova G. A.Problems of using electronic educational resources in teaching informatics and IT //Shokh Articles Library. – 2026. – Т. 1. – №. 2.

9. Wing J. Computational Thinking // Communications of the ACM. – 2006.

10. European Commission. DigComp 2.2 Digital Competence Framework. – Brussels, 2022.

11. Mishra P., Koehler M. Technological pedagogical content knowledge // Teachers College Record. – 2006.

UDK: 613.86:159.9

Botirova Sevarabonu Baxodir qizi,
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
"Psixologiya" yo'nalishining 3-bosqich talabasi

SALOMATLIK HAQIDA TUSHUNCHA VA UMUMIY MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada salomatlik tushunchasi, uning jismoniy va ruhiy jihatlari hamda nosog'lom turmush tarzining inson hayotiga salbiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, salomatlikka ta'sir etuvchi omillar, xususan, zararli odatlar, stress va ruhiy muammolarning oqibatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Salomatlik, ruhiy salomatlik, sog'lom turmush tarzi, nosog'lom odatlar, stress, psixologik barqarorlik, salomatlikni saqlash.

ПОНЯТИЕ И ОБЩИЕ ПРОБЛЕМЫ О ЗДОРОВЬЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие здоровья, его физические и психические аспекты, а также негативное влияние нездорового образа жизни на жизнь человека. В статье анализируются факторы, влияющие на здоровье, в частности вредные привычки, стресс и последствия психических проблем.

Ключевые слова: Здоровье, психическое здоровье, здоровый образ жизни, вредные привычки, стресс, психологическая устойчивость, сохранение здоровья.

CONCEPT OF HEALTH AND GENERAL PROBLEMS

Abstract. This article examines the theoretical foundations of the concept of health, its physical and psychological components, as well as the negative impact of an unhealthy lifestyle on human life. It also analyzes the main factors affecting health, including harmful habits, stress conditions, and various psychological problems, from a scientific perspective.

Keywords: Health, mental health, healthy lifestyle, harmful habits, stress, psychological stability, health promotion.

Salomatlik — bu shunchaki organizmda kasallik yoki og'riqning yo'qligi emas, balki insonning jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihatdan to'liq sog'lom bo'lishidir. Inson salomatligi uning hayot sifati, ruhiy holati, jamiyatdagi faolligi hamda kundalik faoliyatini samarali olib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois salomatlik tushunchasi faqat tibbiy nuqtayi nazardan emas, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan ham keng o'rganiladi.

Inson hayoti davomida turli xil jiddiy o'zgarishlarga duch keladi. Bunday o'zgarishlar uning kelajakdagi rejalari, turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari va ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har bir inson tug'ilganida shartli ravishda

sog‘lom bo‘ladi, biroq umr davomida mutlaq sog‘lom holda yashashi deyarli mumkin emas. Chunki “mutlaq salomatlik” tushunchasi ko‘proq ideal holatni ifodalaydi. Har bir inson ma’lum bir sharoitda sog‘lom hisoblanishi mumkin. Masalan, iqlim sharoiti, mehnat faoliyati, ovqatlanish tartibi, ekologik muhit va turmush tarzi inson salomatligiga turlicha ta’sir qiladi. Biroq ayni bir sharoit barcha insonlarga bir xil ta’sir ko‘rsatmaydi. Bu esa har bir shaxsning individual xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Psixologik nuqtayi nazardan qaralganda, insonning ruhiy barqarorligi, hissiy holati va stressga chidamliligi ham salomatlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, inson salomatligining 50–55 foizi uning turmush tarziga bog‘liqdir. Bu esa inson o‘z salomatligining asosiy mas’uli ekanligini ko‘rsatadi. To‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik, ruhiy muvozanatni saqlash va zararli odatlardan voz kechish sog‘lom hayotning asosiy omillaridan sanaladi. Aksincha, noto‘g‘ri turmush tarzi ko‘plab jismoniy va psixologik muammolarni yuzaga keltiradi.

Hozirgi kunda kam harakatlilik, ya’ni gipodinamiya inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘dirayotgan omillardan biridir. Texnologiyalar rivojlanishi natijasida insonlarning jismoniy faolligi kamayib bormoqda. Uzoq vaqt kompyuter yoki telefon qarshisida o‘tirish, kam harakat qilish organizmda ortiqcha vazn yig‘ilishiga sabab bo‘ladi. Natijada qandli diabet, yurak-qon tomir kasalliklari, gipertoniya va modda almashinuvi buzilishlari kabi kasalliklar yuzaga keladi. Bundan tashqari, jismoniy faollikning yetishmasligi insonning ruhiy holatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib, charchoq, tushkunlik va motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

So‘nggi yillarda stress va depressiya ham inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘dirayotgan muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, 2011-yildan keyingi davrda stress va depressiv holatlar sezilarli darajada ortgani kuzatilmoqda. Bu holat insonlarning psixologik barqarorligi zaiflashayotganini ko‘rsatadi. Stressning uzoq davom etishi asab tizimining zo‘riqishiga, uyqusizlikka, immunitet pasayishiga va turli psixosomatik kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Depressiya esa insonning hayotga bo‘lgan qiziqishini pasaytiradi, ijtimoiy faolligini cheklaydi va salbiy fikrlashni kuchaytiradi. Salbiy fikrlash esa stress va depressiyaning asosiy omillaridan biri sifatida inson ruhiyatiga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, zararli odatlar ham inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. Ayniqsa, tamaki mahsulotlarini iste’mol qilish organizm faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Hatto bir dona sigaret ham inson organizmida muayyan o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Sigaret tarkibidagi nikotin yurak-qon tomir tizimiga zarar yetkazadi, qon bosimini oshiradi va o‘pka faoliyatini izdan chiqaradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, sigaret chekkan inson organizmi ma’lum vaqt davomida tiklanishga harakat qiladi, biroq doimiy chekish natijasida organizmda surunkali kasalliklar rivojlanadi. Tamaki mahsulotlari yurak xuruji, insult, o‘pka saratoni va nafas yo‘llari kasalliklari xavfini bir necha barobar oshiradi.

Alkogol mahsulotlarini muntazam iste’mol qilish ham organizm uchun xavfli hisoblanadi. Alkogol nafaqat jismoniy salomatlikka, balki insonning asab tizimiga ham salbiy ta’sir qiladi. U neyrotrop zahar sifatida miya faoliyatini sustlashtiradi,

xotira va tafakkur jarayonlarini zaiflashtiradi. Surunkali alkogol iste'moli insonda demensiya, asabiylik, agressivlik va ruhiy beqarorlikni yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, alkogol qon bosimini oshirib, insult xavfini bir necha barobar kuchaytiradi.

Zararli odatlar nafaqat insonning jismoniy holatiga, balki uning ruhiy va ijtimoiy hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday odatlarga ega insonlarda agressivlik, stressga moyillik, nevroz, diqqatning pasayishi, xotira buzilishi hamda tafakkur jarayonlarining sustlashuvi kuzatiladi. Natijada insonning ijtimoiy munosabatlari, oilaviy hayoti va mehnat faoliyati ham izdan chiqishi mumkin.

Shu sababli sog'lom turmush tarzini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Sog'lom ovqatlanish, muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish, ruhiy muvozanatni saqlash, zararli odatlardan voz kechish hamda ijobiy fikrlash inson salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularni sportga jalb etish va psixologik madaniyatni rivojlantirish jamiyat salomatligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Insoniyat yashar ekan, butun hayoti davomida sog'lom bo'lishga intiladi. Chunki salomatlik inson uchun eng katta boylik va hayot sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Biroq bugungi kunda ayrim insonlar mutlaqo salomatlikka zid bo'lgan turmush tarzi, zararli odatlar va noto'g'ri munosabatlar qurshovida yashamoqdalar. Ular ko'pincha o'zlariga: "Mening bugungi turmush tarzim salomatligimga qanday ta'sir qilmoqda?" degan savolni berib ko'rmaydilar. Aslida esa nosog'lom turmush tarzi nafaqat insonning jismoniy holatiga, balki uning ruhiy va ijtimoiy salomatligiga ham jiddiy zarar yetkazadi. Shu sababli salomatlikni saqlash va sog'lom hayot tarzini shakllantirish har bir inson uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Inson salomatligi har qanday moddiy boylik yoki ehtiyojdan ustundir. Tasavvur qilish mumkinki, salomatligini yo'qotgan inson uchun eng asosiy maqsad sog'ligini tiklash bo'lib qoladi. Bunday holatda boshqa ehtiyojlar o'z ahamiyatini yo'qotadi. Chunki hech qanday boylik, mavqe yoki qulaylik sog'lom tana, sog'lom ruh va sog'lom ijtimoiy munosabatlarning o'rnini bosa olmaydi. Insonning jismoniy sog'lomligi uning ruhiy holati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ruhiy barqarorlik esa ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyat va baxt hissining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda salomatlik masalasi global muammo sifatida dunyo miqyosida keng o'rganilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va ko'plab ilmiy markazlar tomonidan inson salomatligiga ta'sir etuvchi omillar yuzasidan muntazam tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi, insonlarning kam harakatli turmush tarziga o'tishi, noto'g'ri ovqatlanish, stress va ruhiy zo'riqishlarning ortishi salomatlik bilan bog'liq muammolarni yanada kuchaytirmoqda.

Mazkur muammolarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlardan birida asosan kuzatuv va eksperimental yondashuvlardan foydalanilgan. Tadqiqot uchun universitet talabalari tanlab olinib, ularning turmush tarzi o'rganilgan. Jumladan,

uyqu davomiyligi, jismoniy faollik darajasi, ovqatlanish odatlari hamda ekran qarshisida o‘tkazadigan vaqt miqdori tahlil qilingan. Bundan tashqari, talabalarning psixologik holati maxsus so‘rovnomalar orqali baholangan. Ushbu testlar stress, depressiya, emotsional charchoq va ruhiy zo‘riqish darajasini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, tadqiqot natijalari yoshlar orasida psixologik muammolarning ortib borayotganini ko‘rsatgan. Ayniqsa, uyqu rejimining buzilishi va jismoniy faollikning kamayishi stress darajasining oshishiga bevosita ta’sir qilishi aniqlangan.

Ikkinchi tadqiqot esa eksperimental dizayn asosida olib borilgan. Unda ishtirokchilarning jismoniy faolligi ma’lum muddat davomida kamaytirilib, ular kompyuter va telefon ekranlari qarshisida ko‘proq vaqt o‘tkazishga yo‘naltirilgan. Tadqiqot davomida ishtirokchilarning sog‘liq ko‘rsatkichlari, tana vazni, yurak urish tezligi, qon bosimi hamda umumiy jismoniy holati muntazam kuzatib borilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, uzoq vaqt davomida kam harakat qilish inson organizmida salbiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Xususan, ortiqcha vazn yig‘ilishi, tez charchash, mushaklarning sustlashuvi, uyqu sifati buzilishi va ruhiy tushkunlik holatlari kuzatilgan. Bundan tashqari, ekran qarshisida uzoq vaqt qolish diqqatning pasayishi, asabiylik va stress darajasining oshishiga ham sabab bo‘lgan.

Shuningdek, tadqiqotlar davomida yoshlarning ko‘pchiligi sog‘lom turmush tarziga rioya qilish zarurligini bilsalar-da, amalda bunga yetarlicha amal qilmasliklari aniqlangan. Ayniqsa, noto‘g‘ri ovqatlanish, tungi vaqtda uyquning yetishmasligi va jismoniy faollikning kamligi ularning salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa yoshlar orasida semizlik, qandli diabet, yurak-qon tomir kasalliklari hamda ruhiy zo‘riqish bilan bog‘liq muammolar sonining ortishiga olib kelmoqda.

Psixologik nuqtayi nazardan qaralganda, sog‘lom turmush tarzi insonning emotsional holatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Muntazam jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish stressni kamaytiradi, kayfiyatni ko‘taradi va insonda ijobiy fikrlashni shakllantiradi. To‘g‘ri ovqatlanish va sifatli uyqu esa organizm faoliyatining me’yoriy ishlashini ta’minlab, ruhiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu bois sog‘lom turmush tarzini shakllantirish nafaqat jismoniy salomatlik, balki ruhiy va ijtimoiy farovonlik uchun ham muhimdir.

Birinchi tadqiqot natijalariga ko‘ra, kam uyqu, jismoniy passivlik hamda ekran qarshisida uzoq vaqt o‘tirish psixologik salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Tadqiqot davomida talabalarda stress darajasining oshishi, depressiv holatlar, tez charchash va umumiy holsizlik kabi belgilar yaqqol kuzatilgan. Ayniqsa, uyqu rejimining buzilishi va jismoniy faollikning yetishmasligi yoshlarning ruhiy barqarorligiga salbiy ta’sir qilgani aniqlangan.

Ikkinchi tadqiqot natijalari esa jismoniy faollikning kamayishi va ekran vaqtining ortishi natijasida organizmda turli salbiy o‘zgarishlar yuzaga kelganini ko‘rsatgan. Xususan, ishtirokchilarda ortiqcha vazn yig‘ilishi, yurak-qon tomir tizimi faoliyatiga xavfning ortishi hamda metabolik buzilishlar paydo bo‘lish ehtimoli kuchaygani kuzatilgan. Bundan tashqari, uzoq vaqt harakatsiz qolish organizmning umumiy funksional holatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatgani qayd etilgan.

Ushbu tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy turmush tarzi bilan bog‘liq salbiy odatlar inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. Ayniqsa, kam uyqu, jismoniy faollikning yetishmasligi va raqamli qurilmalardan haddan tashqari foydalanish nafaqat jismoniy, balki psixologik muammolarni ham kuchaytiradi. Muhim jihati shundaki, bu omillar alohida emas, balki birgalikda ta’sir qilganda ularning salbiy oqibatlari yanada kuchayadi. Bu esa salomatlikni saqlashda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari profilaktika choralarining ahamiyatini ham tasdiqlaydi. Jumladan, muntazam jismoniy faollik, uyqu gigiyenasiga rioya qilish va ekran vaqtini me’yorlash sog‘lom turmush tarzining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Sharq olimlaridan Abu Ali ibn Sino ham o‘zining mashhur “Al-Qonun fi-t-tibb” asarida salomatlik masalasiga alohida e’tibor qaratgan. U shunday ta’kidlaydi: “Insonning mijozi va ruhiy holati tanadagi xiltlar muvozanatiga ta’sir qiladi. Qayg‘u, qo‘rquv va asabiylik kabi holatlar organizm faoliyatining izdan chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin” [4]. Ibn Sino fikricha, insonning salbiy ruhiy holati va irratsional fikrlari organizm faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Chunki har qanday ruhiy zo‘riqish organizmga bosim qiladi va vaqt o‘tishi bilan ichki organlar faoliyatining buzilishiga olib keladi. Organizm tizimlari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgani sababli, bir tizimdagi muammo vaqt o‘tishi bilan boshqalariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

G‘arb olimlaridan Hans Sele esa o‘zining “The Stress of Life” asarida stressning inson organizmiga ta’siri haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Stress — bu organizmning har qanday bosimga nisbatan umumiy javob reaksiyasidir. Agar stress uzoq davom etsa, u yurak-qon tomir kasalliklari, immunitet pasayishi va asab tizimi buzilishlariga olib kelishi mumkin” [5]. Ushbu fikrdan kelib chiqadiki, ruhiy zo‘riqish insonning jismoniy salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Stress organizmning eng zaif nuqtalariga kuchliroq ta’sir qiladi. Masalan, yurak-qon tomir tizimi zaif bo‘lgan inson kuchli stress holatiga tushsa, unda avvalo yurak faoliyati bilan bog‘liq salbiy o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin. Hans Sele aynan stressning inson organizmidagi zaif tizimlarga ta’sir etishini ta’kidlaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, salomatlikni faqat jismoniy sog‘lomlik bilan cheklab bo‘lmaydi. Inson ham jismoniy, ham ruhiy, ham ijtimoiy jihatdan sog‘lom bo‘lgandagina to‘laqonli salomatlikka erishadi.

Jismoniy salomatlik — bu organizmning barcha a’zolari va tizimlarining tabiiy hamda me’yoriy faoliyat yuritish holatidir. Bu jarayon eng mayda qon tomirlaridan tortib, markaziy asab tizimi va miya faoliyatigacha bo‘lgan barcha tizimlarni o‘z ichiga oladi. Noto‘g‘ri ovqatlanish, uyqusizlik, zararli odatlar va jismoniy passivlik kabi omillar avvalo organizmning fiziologik faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ruhiy farovonlik esa shaxsning ichki muvozanati, hissiy barqarorligi va o‘z qobiliyatlarini jamiyatning umuminsoniy qadriyatlari bilan uyg‘un holda namoyon eta olish qobiliyati bilan belgilanadi [6]. Insonning ichki kechinmalari va bostirilgan emotsiyalari uning ruhiy salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [7]. Psixologiyada ta’kidlanganidek, ifoda etilmagan his-tuyg‘ular yo‘qolib ketmaydi, balki vaqt o‘tishi

bilan somatik, ya'ni jismoniy kasalliklar yoki surunkali charchoq ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy salomatlik — bu insonning boshqa shaxslar, guruhlar va jamoalar bilan sog'lom, samimiy hamda erkin muloqot qila olish qobiliyatidir. Insonning xulq-atvori ko'p jihatdan ijtimoiy muhit va kuzatish orqali shakllanadi [8]. Aynan shu sababli ijobiy yoki salbiy odatlar ham oila, do'stlar va inson yashayotgan yaqin ijtimoiy muhit ta'sirida rivojlanadi. Demak, inson hayotidagi har bir jarayon, hatto eng kichik detallar ham uning salomatligiga ma'lum darajada ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy salomatlik faqat insonning jamiyatga bo'lgan munosabati bilan cheklanib qolmaydi, balki jamiyatning ham insonga bo'lgan munosabatini o'z ichiga oladi. Insonning o'zini jamiyatda qadrlangan, qo'llab-quvvatlangan va tushunilgan holda his qilishi uning ruhiy hamda jismoniy salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, oila a'zolari, yaqinlar va do'stlar bilan ochiq muloqot qilish, muammolarni baham ko'rish hamda hissiy qo'llab-quvvatlash insonda ichki yengillik va ruhiy barqarorlikni yuzaga keltiradi. Shu jihatdan qaralganda, jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatlik bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni alohida holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Inson ushbu uchala yo'nalishda sog'lom bo'lgandagina to'laqonli salomatlikka erishadi.

Salomatlikning jismoniy jihatlari, unga ta'sir etuvchi omillar hamda zararli odatlar haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Endilikda ruhiy salomatlik masalasiga ham to'xtalish muhimdir. Ruhiy salomatlik — bu insonning hissiy, psixologik va ijtimoiy jihatdan o'zini erkin va barqaror his qilishi bilan bog'liq holatdir. Bunday erkinlik har bir insonda turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, ayrim insonlar yolg'izlikda ruhiy yengillikni his qilsa, boshqalar ko'proq insonlar davrasida bo'lish orqali o'zini yaxshi his qiladi. Bu holatlar insonning temperamenti, xarakteri va individual psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Ruhiy salomatlik o'z-o'zidan shakllanmaydi. U insonning kundalik hayoti, turmush tarzi va ongli harakatlari natijasida rivojlanadi. Avvalo, inson o'z his-tuyg'ularini anglashi va ularni to'g'ri ifoda eta olishi zarur. Hatto eng oddiy emotsiyalarni inkor qilish yoki ularni ichda saqlab yurish ham vaqt o'tishi bilan ichki zo'riqish va ruhiy muvozanatning buzilishiga olib keladi. Shu sababli inson o'z his-tuyg'ularini ochiq ifoda etishi, ichki kechinmalarini anglay olishi va ularni sog'lom yo'l bilan boshqarishi muhimdir.

Bundan tashqari, ruhiy salomatlikni saqlashda o'z-o'zini anglash va refleksiya muhim o'rin tutadi. Refleksiya insonning o'z fikr va hissiyotlarini tahlil qilishi, muammolar sababini anglashga harakat qilishi bilan bog'liq jarayondir. Har qanday anglangan va tahlil qilingan muammoning yechimini topish imkoniyati yuqori bo'ladi. Shu bois insonning o'z ichki dunyosini tushunishga intilishi ruhiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Afsuski, bugungi jamiyatda ruhiy salomatlikka yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Ko'plab stereotiplarda asosan jismoniy va ijtimoiy salomatlik muhim deb qaraladi, insonning ichki kechinmalari va hissiy holati esa ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Natijada insonlar o'z ruhiy muammolarini yashirishga, his-tuyg'ularini bostirishga

odatlanadilar. Bu esa vaqt o‘tishi bilan stress, depressiya, xavotir va boshqa psixologik muammolarning kuchayishiga olib keladi. Eng achinarlisi, insonlar bunday holatlarning salomatlikka qanchalik zarar yetkazayotganini ko‘pincha juda kech anglab yetadilar.

Shu sababli jamiyatda ruhiy salomatlik madaniyatini rivojlantirish, insonlarni o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etishga o‘rgatish va psixologik yordamga murojaat qilishni tabiiy hol sifatida qabul qilish muhimdir. Chunki sog‘lom ruhiyat — sog‘lom hayotning eng muhim asoslaridan biridir.

Ko‘rib turganimizdek, salomatlik tushunchasi inson uchun eng muhim boyliklardan biridir. Sog‘lom jamiyat va barqaror, salomat avlodni shakllantirish avvalo har bir insonning o‘ziga bog‘liqdir. Salomatlikni saqlash va uni asrab-avaylash faqat tibbiyot xodimlarining vazifasi emas, balki har bir shaxsning ongli tanlovi va kundalik hayotdagi odatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Zararli odatlardan voz kechish jarayoni, avvalo, insonning o‘zidagi salbiy odatlarni tan olishi va ularning jismoniy hamda ruhiy salomatligiga qay darajada zarar yetkazayotganini ongli ravishda anglashidan boshlanadi. Chunki anglanmagan muammo oxir-oqibat yana takrorlanishiga sabab bo‘ladi. Muammoni inkor qilish esa uning salbiy oqibatlarini yanada kuchaytirib, oldini olishni qiyinlashtiradi.

Keyingi bosqich — aniq maqsad qo‘yishdir. Zararli odatlarni birdaniga tark etish insondan juda katta iroda talab qiladi. Agar inson keskin qaror qabul qilib, keyinchalik yana o‘sha odatga qaytsa, bu holat uning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, irodasi va o‘z-o‘zini baholashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli zararli odatlardan bosqichma-bosqich, asta-sekin voz kechish samaraliroq hisoblanadi. Chunki zararli odatning miqdori kamayib borgani sari natijaga erishish ham osonlashadi.

Shuningdek, zararli odatlar o‘rniga foydali odatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bo‘sh vaqtning noto‘g‘ri tashkil etilishi insonning yana zararli odatlarga qaytish ehtimolini kuchaytiradi. Shu sababli inson bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishi lozim. Jumladan:

sport bilan shug‘ullanish;
kitob o‘qish;
sayr qilish;
turli hobbi va qiziqishlar bilan shug‘ullanish foydali hisoblanadi.

Zararli odatlar ko‘pincha insonning stress, depressiya yoki ruhiy bosim holatlarida shakllanadi. Shu sababli ruhiy yengillik beruvchi foydali odatlar ham muhimdir. Masalan:

nafas mashqlari bajarish;
musiqa tinglash;
sifatli dam olish;
yaqin insonlar bilan suhbatlashish.

Ayniqsa, samimiy muloqot insondagi stress darajasini kamaytirib, zararli odatlarga bo‘lgan ehtiyojni susaytiradi. Bundan tashqari, qo‘llab-quvvatlovchi muhitning mavjudligi ham muhim omillardan biridir. Agar inson atrofida uni

ruhlantiradigan va qo‘llab-quvvatlaydigan insonlar borligini his etsa, u maqsadiga erishishda o‘zini yanada ishonchli his qiladi.

Ba’zi zararli odatlar chuqur psixologik sabablar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda psixolog yoki mutaxassis yordamiga murojaat qilish zarurdir. Chunki zararli odatlardan qutulish insondan kuchli iroda, sabr va ongli yondashuvni talab qiladi. Ularni sog‘lom odatlar bilan almashtirish hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali inson o‘z salomatligini mustahkamlashi va hayot sifatini yaxshilashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO)."Health Topics".
2. G. Jabbarova - Oliy nerv faoliyati va markaziy nerv sistemasi fiziologiyasi.
3. Aaron Beck - Depression (1967 year).
4. Ibn Sino (Avitsenna), “Tib qonunlari” (Qonun fi-t-tib), Toshkent, 1991-yil. [4]
5. Bandura A.- Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi (2016).
6. Doktor Namita Singx. Ruhiy salomatlik bo‘yicha asosiy qo‘llanma 2025-yil.
7. З.Фрейд - Введение в психоанализ (1917).
8. Karimova V. M. - Sog‘lom turmush tarzi psixologiyasi. 2020-yil.
9. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, “Inson salomatligi va shar’iy tib”, Hilol-Nashr, 2012-yil.

UDK 327:316.32

Jo‘rayev Diyorbek Eldor o‘g‘li,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 2-kurs talabasi

XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA GLOBAL SIYOSIY JARAYONLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro munosabatlar tizimining shakllanish bosqichlari va zamonaviy global siyosiy jarayonlar, globalizatsiya, mintaqaviy integratsiya va ko‘p qutbli dunyo tizimiga o‘tish kabi muhim tendensiyalar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, xalqaro xavfsizlik masalalari doirasida an’anaviy harbiy xavfsizlik bilan bir qatorda kiberxavfsizlik, terrorizm va ekologik muammolar kabi noan’anaviy tahdidlarning transmilliy xarakteri ochib beriladi. Maqolaning markaziy qismida iqtisodiy integratsiya jarayonlari, davlatlararo o‘zaro bog‘liqlikning ortishi va mintaqaviy ittifoqlarning milliy iqtisodiyotlarga ta’siri yoritiladi. Xalqaro tashkilotlarning roli hamda yangi siyosiy markazlar shakllanishi sharoitida strategik hamkorlikning zarurligi ilmiy asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy dunyodagi murakkab geosiyosiy vaziyatni tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: xalqaro munosabatlar, globalizatsiya, geosiyosat, tashqi siyosat, diplomatiya, xalqaro tashkilotlar, global boshqaruv, davlat suvereniteti, milliy manfaatlar, xavfsizlik, xalqaro xavfsizlik, kiberxavfsizlik, terrorizm, ekstremizm, ekologik xavfsizlik.

СОВРЕМЕННЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ И ГЛОБАЛЬНЫЕ ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ

Аннотация. В этой статье рассматриваются такие важные тенденции, как этапы формирования системы международных отношений и современные глобальные политические процессы, глобализация, региональная интеграция и переход на многополярную мировую систему. В рамках вопросов международной безопасности наряду с традиционной военной безопасностью раскрывается транснациональный характер нетрадиционных угроз, таких как кибербезопасность, терроризм и экологические проблемы. Центральная часть статьи посвящена процессам экономической интеграции, усилению межгосударственной взаимосвязи и влиянию региональных союзов на национальные экономики. Научно обосновывается роль международных организаций и необходимость стратегического сотрудничества в условиях формирования новых политических центров. Результаты исследования служат пониманию сложной геополитической ситуации в современном мире.

Ключевые слова: Международные отношения, глобализация, геополитика, внешняя политика, дипломатия, международные организации,

глобальное управление, государственный суверенитет, национальные интересы, безопасность, международная безопасность, кибербезопасность, терроризм, экстремизм, экологическая безопасность.

MODERN STAGES OF DEVELOPMENT OF THE INTERNATIONAL RELATIONS SYSTEM AND GLOBAL POLITICAL PROCESSES

Abstract. This article examines important trends such as the stages of the formation of the system of international relations and modern global political processes, globalization, regional integration and the transition to a multipolar world system. In the framework of international security issues, along with traditional military security, the transnational nature of non-traditional threats, such as cybersecurity, terrorism and environmental problems, is revealed. The central part of the article is devoted to the processes of economic integration, strengthening interstate interconnection and the influence of regional unions on national economies. The role of international organizations and the need for strategic cooperation in the context of the formation of new political centers are being scientifically substantiated. The results of the study serve to understand the complex geopolitical situation in the modern world.

Keywords: International relations, globalization, geopolitics, foreign policy, diplomacy, international organizations, global governance, state sovereignty, national interests, security, international security, cybersecurity, terrorism, extremism, environmental security, climate change, economic integration.

Xalqaro munosabatlar bugungi kunda insoniyat taraqqiyotining eng muhim va murakkab yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aloqalar tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, xalqaro munosabatlarni o‘rganishning ahamiyati yanada ortmoqda. Ayniqsa, XXI asrda globalizatsiya jarayonining jadallashuvi davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirib, yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xalqaro munosabatlar nazariyasi tarixan uzoq rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Bu yo‘nalish qadimgi davrlardagi davlatlararo aloqalardan tortib, bugungi kundagi murakkab global tizimgacha bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Xalqaro munosabatlarning shakllanishida siyosiy omillar bilan bir qatorda iqtisodiy manfaatlar, madaniy aloqalar va xavfsizlik masalalari ham muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimi ko‘p qirrali va murakkab bo‘lib, unda davlatlar, xalqaro tashkilotlar, nodavlat tashkilotlar hamda transmilliy kompaniyalar faol ishtirok etadi. Ushbu tizimda har bir aktor o‘z manfaatlarini himoya qilishga intiladi, bu esa ba’zan hamkorlikni, ba’zan esa qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida xavfsizlik masalalari alohida o‘rin tutadi. Harbiy xavfsizlik bilan bir qatorda ekologik, iqtisodiy va axborot xavfsizligi ham dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, terrorizm, kiberxavfsizlik va global iqlim o‘zgarishi kabi muammolar xalqaro hamkorlikni talab etadi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, Jahon savdo

tashkiloti va boshqa tuzilmalar xalqaro munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Ular davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, mojarolarni hal etish va global muammolarni bartaraf etishda vositachi vazifasini bajaradi.

Xalqaro munosabatlar tizimi zamonaviy davrda nihoyatda murakkab, ko‘p darajali va dinamik xarakterga ega bo‘lib, unda turli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillar o‘zaro uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Ushbu tizimning asosiy xususiyati shundaki, u doimiy ravishda o‘zgarishda bo‘ladi va global miqyosdagi voqea-hodisalar bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois xalqaro munosabatlarni chuqur tahlil qilish uchun uning nazariy asoslari, asosiy aktorlari, global jarayonlar va xavfsizlik masalalarini kompleks tarzda o‘rganish muhim hisoblanadi.

Xalqaro munosabatlar nazariyasi ushbu sohaning ilmiy poydevorini tashkil etadi. U orqali davlatlar va boshqa xalqaro aktorlarning xatti-harakatlarini tushuntirish, prognoz qilish va tahlil qilish mumkin. Asosiy nazariy yondashuvlar qatoriga realizm, liberalizm va konstruktivizm kiradi. Realizm nazariyasiga ko‘ra, xalqaro tizim anarxik xarakterga ega bo‘lib, unda davlatlar o‘z xavfsizligini ta’minlash va milliy manfaatlarini himoya qilish uchun kurash olib boradi. Kuch va harbiy salohiyat bu nazariyada asosiy omil sifatida qaraladi. Realistlar nazarida xalqaro hamkorlik cheklangan bo‘lib, u faqat davlat manfaatlariga mos kelgandagina amalga oshadi. Liberalizm esa xalqaro munosabatlarda hamkorlikning muhimligini ta’kidlaydi. Bu nazariya tarafdorlari xalqaro tashkilotlar, iqtisodiy aloqalar va demokratik qadriyatlar orqali davlatlar o‘rtasida barqaror tinchlikni ta’minlash mumkin deb hisoblaydi. Liberalizm global integratsiya jarayonlarini ijobiy baholaydi. Konstruktivizm esa xalqaro munosabatlarda ijtimoiy omillar, identitet va qadriyatlarning rolini o‘rganadi. Bu yondashuvga ko‘ra, davlatlarning xatti-harakati nafaqat moddiy manfaatlarga, balki ijtimoiy tasavvurlar va tarixiy tajribaga ham bog‘liqdir.

Xalqaro tizimning asosiy faktorlari. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida bir nechta asosiy aktorlar mavjud bo‘lib, ular o‘zaro ta’sir orqali global siyosatni shakllantiradi. Birinchi navbatda, davlatlar xalqaro tizimning eng muhim subyekti hisoblanadi. Har bir davlat o‘z milliy manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash va xavfsizlikni mustahkamlashga intiladi. Shu bilan birga, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar hamkorlik va raqobat asosida rivojlanadi. Ikkinchi muhim aktorlar — xalqaro tashkilotlardir. Ular davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish, nizolarni hal qilish va global muammolarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi. Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquq normalarini shakllantirish va ularning bajarilishini nazorat qilishda ham faol ishtirok etadi.

Bundan tashqari, nodavlat tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar ham xalqaro munosabatlarda tobora muhim o‘rin egallab bormoqda. Ular iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalarda global jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Globalizatsiya va uning xalqaro munosabatlarga ta’siri. Globalizatsiya zamonaviy xalqaro munosabatlarning eng muhim tendensiyalaridan biri hisoblanadi. U davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning kengayishiga olib keladi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi globalizatsiya

jarayonini yanada jadallashtirdi. Globalizatsiyaning ijobiy tomonlari qatoriga savdo hajmining oshishi, investitsiyalar oqimining ko‘payishi va innovatsion texnologiyalarning tarqalishi kiradi. Bu jarayon rivojlanayotgan davlatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Biroq globalizatsiya ayrim salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqaradi. Iqtisodiy tengsizlikning ortishi, madaniy homogenizatsiya va ekologik muammolar shular jumlasidandir. Shu bois globalizatsiya jarayonini boshqarish va uning salbiy ta’sirini kamaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xalqaro xavfsizlik va zamonaviy tahdidlar. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda xavfsizlik tushunchasi kengayib bormoqda. Ilgari xavfsizlik asosan harbiy tahdidlar bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda u ko‘p qirrali tus olgan. Harbiy xavfsizlik hanuz muhim bo‘lib qolayotgan bo‘lsa-da, terrorizm, ekstremizm, kiberxavfsizlik va ekologik xavflar ham jiddiy tahdid sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, kiberhujumlar davlatlarning infratuzilmasiga zarar yetkazish imkoniyatiga ega bo‘lib, yangi xavfsizlik muammolarini yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, global iqlim o‘zgarishi ham xalqaro xavfsizlikka ta’sir etuvchi muhim omil hisoblanadi. Tabiiy resurslar tanqisligi va ekologik inqirozlar davlatlar o‘rtasida nizolarni kuchaytirishi mumkin.

Geosiyosiy jarayonlar va kuchlar muvozanati. Geosiyosat xalqaro munosabatlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, davlatlarning geografik joylashuvi, resurslari va strategik manfaatlariga asoslanadi. Zamonaviy dunyoda geosiyosiy jarayonlar yirik davlatlar o‘rtasidagi raqobat bilan belgilanadi. Kuchlar muvozanati tushunchasi xalqaro tizim barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘p qutbli dunyo shakllanishi jarayonida yangi siyosiy markazlar paydo bo‘lib, global siyosatning yangi konfiguratsiyasini yuzaga keltirmoqda.

Iqtisodiy integratsiya va mintaqaviy hamkorlik. Iqtisodiy integratsiya xalqaro munosabatlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mintaqaviy iqtisodiy ittifoqlar savdo to‘siqlarini kamaytirish va umumiy bozorni shakllantirish orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Bu jarayon davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytiradi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, integratsiya jarayonlari ayrim davlatlar uchun iqtisodiy mustaqillikni cheklashi mumkin.

Diplomatiya va xalqaro huquqning roli. Diplomatiya xalqaro munosabatlarning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, u davlatlar o‘rtasidagi muloqot va muzokaralarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy diplomatiya an’anaviy shakllar bilan bir qatorda raqamli diplomatiya elementlarini ham o‘z ichiga oladi. Xalqaro huquq esa davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi me’yorlar tizimini tashkil etadi. U xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, inson huquqlarini himoya qilish va global tartibni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy texnologiyalar va xalqaro munosabatlar. Texnologik taraqqiyot xalqaro munosabatlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt va raqamli kommunikatsiyalar davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni yanada tez va samarali qilmoqda. Biroq texnologik rivojlanish yangi xavf-xatarlarni

ham yuzaga keltirmoqda. Kiberjinoyatchilik, axborot urushlari va ma'lumotlar xavfsizligi muammolari zamonaviy xalqaro munosabatlarning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, xalqaro munosabatlar tizimi ko'p qirrali va murakkab bo'lib, unda turli omillar o'zaro ta'sirda bo'ladi. Zamonaviy davrda ushbu tizimni chuqur o'rganish global barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro munosabatlar tizimi insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, u doimiy ravishda o'zgarib boruvchi va murakkablashib boruvchi global jarayonlarni o'zida mujassam etadi. Mazkur tizimning bugungi holati va rivojlanish tendensiyalari shuni ko'rsatadiki, dunyo siyosiy makonida sodir bo'layotgan o'zgarishlar nafaqat alohida davlatlar, balki butun insoniyat taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois xalqaro munosabatlarni chuqur o'rganish, tahlil qilish va ularning rivojlanish istiqbollarini oldindan ko'ra bilish bugungi kunda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi murakkab, dinamik va ko'p qirrali jarayonlar bilan tavsiflanadi. XXI asrda dunyo siyosiy tizimi avvalgi bir qutbli yoki ikki qutbli modeldan asta-sekin ko'p qutbli tizimga o'tib bormoqda. AQSH, Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi, Hindiston kabi yirik siyosiy va iqtisodiy markazlarning xalqaro maydondagi ta'siri kuchayib, global kuchlar muvozanatining yangicha shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Bunday sharoitda davlatlar o'rtasidagi raqobat bilan bir qatorda strategik hamkorlik, diplomatik muvozanat va manfaatlar uyg'unligini ta'minlash muhim vazifaga aylanmoqda.

Globalizatsiya jarayonlari xalqaro munosabatlarning barcha yo'nalishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot almashinuvining jadallashuvi davlatlararo o'zaro bog'liqlikni kuchaytirdi. Natijada bir hududda yuzaga kelgan iqtisodiy yoki siyosiy inqiroz qisqa vaqt ichida boshqa mintaqalarga ham ta'sir ko'rsatadigan global xarakter kasb etmoqda. Shu sababli bugungi xalqaro tizimda biror davlatning yakka holda faoliyat yuritishi tobora murakkablashib, ko'p tomonlama hamkorlik va xalqaro tashkilotlar bilan uzviy aloqalarni rivojlantirish zarurati ortib bormoqda.

Zamonaviy xalqaro xavfsizlik tushunchasi ham tubdan o'zgarib bormoqda. Avvallari xavfsizlik asosan harbiy qudrat va hududiy daxlsizlik bilan bog'liq holda talqin etilgan bo'lsa, bugungi kunda kiberxavfsizlik, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, ekologik xavfsizlik, noqonuniy migratsiya, transmilliy jinoyatchilik va iqlim o'zgarishi kabi noan'anaviy tahdidlar ham global xavfsizlikning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi kiberhujumlar va axborot urushlari xavfini kuchaytirib, davlatlarning raqamli himoya tizimlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT, SHHT, NATO, Yevropa Ittifoqi va boshqa mintaqaviy tuzilmalarning tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi roli tobora ortib bormoqda.

Bundan tashqari, iqtisodiy integratsiya jarayonlari ham xalqaro munosabatlarning muhim omiliga aylangan. Mintaqaviy iqtisodiy ittifoqlar va erkin savdo hududlari davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, transmilliy korporatsiyalar va xalqaro moliyaviy institutlarning global iqtisodiyotdagi ta’siri ortib borayotgani milliy iqtisodiyotlarning o‘zaro bog‘liqligini yanada kuchaytirmoqda. Bu jarayon davlatlardan iqtisodiy siyosatni xalqaro talab va standartlarga mos ravishda olib borishni talab etadi.

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning rivojlanishi xalqaro siyosiy munosabatlarga yangi mazmun bag‘ishlamoqda. Raqamli diplomatiya, elektron boshqaruv, sun’iy intellekt asosidagi tahliliy tizimlar hamda global axborot makonining kengayishi davlatlarning tashqi siyosat yuritish usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda axborot resurslari va texnologik ustunlik ham geosiyosiy ta’sirning muhim vositasiga aylanmoqda. Shu bois davlatlar innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, raqamli infratuzilmani mustahkamlash va axborot xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratmoqda.

Kelajak istiqbollari nuqtai nazaridan qaralganda, xalqaro munosabatlar tizimining barqarorligi ko‘p jihatdan davlatlarning o‘zaro ishonchi, ochiq muloqot, diplomatik hamkorlik va global muammolarni birgalikda hal etish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, ekologik muammolar, pandemiyalar, oziq-ovqat xavfsizligi va energetik resurslar bilan bog‘liq masalalar biror davlat doirasida hal etib bo‘lmaydigan global muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli xalqaro hamjamiyatning birlashuvi, xalqaro huquq normalariga rioya etilishi hamda barqaror rivojlanish tamoyillarining izchil amalga oshirilishi zamonaviy dunyo taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi chuqur transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Mazkur tizimda global va mintaqaviy manfaatlar uyg‘unligini ta’minlash, xavfsizlikni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish hamda raqamli va texnologik xatarlarni samarali boshqarish eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar esa xalqaro munosabatlar nazariyasini boyitish bilan birga, davlatlarning tashqi siyosiy strategiyalarini ishlab chiqishda, murakkab geosiyosiy jarayonlarni tahlil qilishda va amaliy qarorlar qabul qilishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baylis, J., Smith, S., Owens, P. — The Globalization of World Politics: An Introduction to International Relations. Oxford University Press, 2020.
2. Waltz, K. N. — Theory of International Politics. Addison-Wesley, 1979.
3. Keohane, R. O., Nye, J. S. — Power and Interdependence. Pearson, 2012.
4. Morgenthau, H. J. — Politics Among Nations: The Struggle for Power and Peace. McGraw-Hill, 2006.

5. Wendt, A. — Social Theory of International Politics. Cambridge University Press, 1999.
6. Huntington, S. P. — The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. Simon & Schuster, 1996.
7. Fukuyama, F. — The End of History and the Last Man. Free Press, 1992.
8. Kissinger, H. — Diplomacy. Simon & Schuster, 1994.
9. Buzan, B., Waever, O. — Regions and Powers: The Structure of International Security. Cambridge University Press, 2003.
10. Gilpin, R. — Global Political Economy: Understanding the International Economic Order. Princeton University Press, 2001.
11. United Nations — UN Charter and Official Documents. New York, 1945–2023.
12. World Bank — World Development Report. Washington DC, so‘nggi nashrlar.
13. International Monetary Fund — World Economic Outlook. So‘nggi yillik hisobotlar.
14. World Trade Organization — Annual Report. Geneva, so‘nggi nashrlar.
15. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosat konsepsiyasi va rasmiy hujjatlar.
16. Karimov, I. A. — Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
17. Mirziyoyev, Sh. M. — Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021.
18. Zamonaviy xalqaro munosabatlarga oid ilmiy maqolalar va jurnallar (Foreign Affairs, International Organization va boshqalar).
19. Global xavfsizlik, geosiyosat va iqtisodiy integratsiya bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar.
20. Internet manbalari: rasmiy xalqaro tashkilotlar saytlaridan olingan ma’lumotlar (UN, WTO, IMF, World Bank).

UDK: 821.512.133-32.09:159.9

Muqimov Alisher,
Turon universiteti adabiyotshunoslik mutaxassisligi 2-kurs magistri

O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA PSIXOLOGIK TASVIR VA INSON RUHIYATI TALQINI
(Shukur Xolmirzayev hikoyalari misolida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek hikoyachiligida psixologik tasvir masalasi Shukur Xolmirzayev hikoyalari misolida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Adib asarlarida inson ruhiyati, ichki kechinmalar, ong va ong osti jarayonlari, ruhiy iztiroblar hamda ma’naviy-axloqiy tanlovlarning badiiy talqini yoritilgan. Xususan, “Odam” va “Tabassum” hikoyalarida qahramonlar ruhiyati, insoniy sadoqat, vijdon, milliy xarakter va tarixiy xotira masalalarining badiiy ifodasi tadqiq etiladi. Shuningdek, maqolada psixologizmning badiiy adabiyotdagi o‘rni, ichki monolog, detal, ramz va portret vositasida inson qalbini tasvirlash mahorati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: psixologizm, ruhiyat, ong osti, ichki monolog, badiiy tafakkur, hikoya, Shukur Xolmirzayev, milliy xarakter, badiiy detal, inson ruhiyati.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗОБРАЖЕНИЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ДУШИ В УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ
(на примере рассказов Шукура Холмирзаева)

Аннотация. В данной статье проблема психологического изображения в узбекской прозе анализируется на примере рассказов Шукура Холмирзаева. Особое внимание уделяется художественному изображению внутреннего мира человека, духовных переживаний, процессов сознания и подсознания, нравственного выбора и психологических конфликтов. На материале рассказов «Одам» и «Табассум» исследуются вопросы человеческой верности, совести, национального характера и исторической памяти. Также рассматривается роль психологизма в художественной литературе, мастерство писателя в раскрытии человеческой души посредством внутреннего монолога, художественной детали, символики и портретных описаний.

Ключевые слова: психологизм, душевный мир, подсознание, внутренний монолог, художественное мышление, рассказ, Шукур Холмирзаев, национальный характер, художественная деталь, психология человека.

PSYCHOLOGICAL DEPICTION AND INTERPRETATION OF THE HUMAN SOUL IN UZBEK SHORT STORIES
(On the Example of Shukur Kholmirzayev’s Stories)

Abstract. This article scientifically and theoretically analyzes the issue of psychological depiction in Uzbek short stories through the works of Shukur Kholmirzayev. The artistic interpretation of human psychology, inner experiences, conscious and subconscious processes, emotional suffering, and moral choices in the writer's stories is examined. In particular, the stories "Odam" and "Tabassum" are analyzed in terms of psychological characterization, human loyalty, conscience, national identity, and historical memory. The article also discusses the role of psychologism in fiction and the writer's artistic mastery in portraying the human soul through inner monologue, symbolic details, and portrait descriptions.

Keywords: psychologism, spirituality, subconsciousness, inner monologue, artistic thinking, short story, Shukur Kholmirzayev, national character, artistic detail, human psychology.

Bugungi adabiyotshunoslik ilmida inson ruhiyatini badiiy talqin qilish masalasi eng muhim va dolzarb ilmiy-estetik muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki badiiy adabiyotning bosh obyekti inson bo‘lib, uning ichki olami, ruhiy kechinmalari, qalb iztiroblari va ma’naviy olamini chuqur ochib bermasdan turib mukammal badiiy obraz yaratish mumkin emas. Inson ruhiyatidagi murakkab holatlar, ichki ziddiyatlar, ong va qalb o‘rtasidagi kurash badiiy asarning estetik ta’sirchanligini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Shu bois psixologizm zamonaviy badiiy tafakkurning yetakchi tamoyillaridan biriga aylangan.

Adabiyot inson qalbini o‘rganadigan, ruhiyatning eng nozik qatlamlarini tadqiq etadigan san’at turi sifatida qadimdan inson tabiatini anglashga xizmat qilib kelgan. Ayniqsa, XX asr va XXI asr boshlarida jahon hamda o‘zbek adabiyotida insonning ichki dunyosiga murojaat kuchaydi. Endilikda badiiy asarlarda voqealar tasviridan ko‘ra insonning ruhiy holatini ifodalash, qalb kechinmalarini ochib berish, ong va ongsizlik o‘rtasidagi murakkab jarayonlarni badiiy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Natijada psixologik tasvir badiiy adabiyotning markaziy poetik unsurlaridan biriga aylandi.

“Ruh” tushunchasi qadimdan falsafa, din, psixologiya va adabiyotning markaziy kategoriyalaridan biri bo‘lib kelgan. Bu tushuncha insonning ma’naviy mohiyati, ichki dunyosi va ilohiy tabiatini anglatadi. Qur’oni karimda ruh haqida: “Ruh yolg‘iz Parvardigorim biladigan ishlardandir” (Isro surasi, 85-oyat), deb ta’kidlanishi inson ruhiyatining nihoyatda murakkab, sirli va to‘la anglab bo‘lmaydigan hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur ilohiy haqiqat inson ruhiyatining cheksiz va murakkab tabiati haqidagi ilmiy-falsafiy qarashlarning shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Sharq va G‘arb mutafakkirlari inson ruhiyati masalasiga turlicha yondashganlar. Antik falsafada ruh insonning hayotiy quvvati sifatida talqin qilingan bo‘lsa, keyingi davrlarda psixologiya fanining rivojlanishi bilan ruhiyatni ilmiy asosda o‘rganishga e’tibor kuchaydi. G‘arb psixologiyasida Z. Freyd, K. Yung, A. Adler kabi olimlar insonning ong osti qatlamlari, yashirin istaklari va ichki kechinmalarini tadqiq etib, psixoanaliz nazariyasiga asos soldilar. Ayniqsa, Freyd

inson ruhiyatidagi ongsiz qatlamlarni ochib berish orqali badiiy tafakkur rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Rus psixologi va adabiyotshunosi L.S. Vigotskiy "San'at psixologiyasi" asarida estetik tafakkur bilan psixologik jarayonlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy asosda izohlab beradi. Olimning fikricha, san'at inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan murakkab psixologik hodisadir. U badiiy asarni inson qalbining ichki harakatlarini ifodalovchi estetik hodisa sifatida baholaydi. Vigotskiyning mazkur qarashlari keyingi psixologik adabiyotshunoslik rivojida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

O'zbek adabiyotshunosligida ham inson ruhiyatini badiiy tadqiq etish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiyotshunos olimlar J. Eshonqulov, U. Jo'raqulov, T. Jo'rayev, Ulug'bek Hamdamov va boshqa tadqiqotchilar inson ruhiyatining ongli va ongsiz qatlamlari, qalb kechinmalari, ichki monolog, ong oqimi va psixologik tasvirning poetik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilganlar. Ularning ilmiy qarashlarida inson ruhiyati nihoyatda murakkab va ko'p qatlamli hodisa sifatida talqin qilinadi.

J. Eshonqulov inson ruhiyatidagi hissiyot va tuyg'ularni ongli va ong osti hislari tarzida tasniflaydi. Olimning ta'kidlashicha, inson qalbidagi ko'plab hissiyotlar ong tomonidan boshqarilsa-da, ayrim ruhiy holatlar insonning ichki dunyosida yashirin holda mavjud bo'lib, uning xatti-harakatlari va ruhiy kechinmalariga ta'sir ko'rsatadi. U. Jo'raqulov esa psixoanaliz nazariyasiga tayangan holda inson ong osti jarayonlarini badiiy talqin qilish masalalarini o'rganadi. T. Jo'rayev inson tafakkuri va ruhiy oqimining badiiy ifodasi haqida so'z yuritib, ong oqimi poetikasining o'ziga xos jihatlarini tahlil qiladi. Ulug'bek Hamdamov esa XX asr o'zbek adabiyotidagi badiiy tafakkur tadrijini ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog'liq holda tadqiq etadi.

Hozirgi o'zbek hikoyachiligida inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini badiiy tadqiq etishda Shukur Xolmirzayev alohida o'rin tutadi. Yozuvchi hikoyalarida insonning tashqi faoliyatidan ko'ra uning qalb kechinmalari, ichki iztiroblari, ruhiy ziddiyatlari va ma'naviy izlanishlari markaziy o'ringa chiqadi. Adib qahramonlari oddiy voqealar fonida emas, balki ruhiy kechinmalar, xotiralar, vijdon azobi, armon va iztiroblar orqali ochib beriladi. Shu jihatdan Shukur Xolmirzayev hikoyalari o'zbek psixologik nasrining yetuk namunalaridan biri hisoblanadi.

Yozuvchi asarlarida insonning ichki olami nihoyatda nozik va tabiiy tasvirlanadi. Adib qahramon ruhiyatini ochishda ichki monolog, psixologik detal, ramziy obrazlar, xotira va ong oqimi kabi badiiy vositalardan mahorat bilan foydalanadi. Ayniqsa, "Odam", "Tabassum", "Bulut to'sgan oy", "O'zbek xarakteri" kabi hikoyalarda inson qalbining murakkab jihatlari, vijdon va e'tiqod masalalari, ruhiy iztiroblar chuqur badiiy talqin etiladi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarining muhim jihatlaridan biri shundaki, yozuvchi inson ruhiyatini ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq holda tasvirlaydi. Qahramonlarning ruhiy tushkunligi, iztiroblari, armonlari yoki ichki qarama-qarshiliklari ko'pincha zamon, muhit va tarixiy voqelik ta'sirida shakllanadi. Shu

sababli adib hikoyalarida psixologik tasvir nafaqat individual ruhiyatni, balki davrning ijtimoiy-ma'naviy muammolarini ham yoritishga xizmat qiladi.

Bugungi adabiy jarayonda inson ruhiyatini badiiy tadqiq etish masalasi yanada dolzarb tus olmoqda. Chunki zamonaviy insonning ichki dunyosi murakkablashib, ruhiy ziddiyatlar va ma'naviy izlanishlar tobora kuchaymoqda. Bunday sharoitda Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi psixologik tasvir masalalarini o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki inson ma'naviyati va ruhiy olamini anglash nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy-estetik ahamiyat kasb etadi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida inson ruhiyati tasviri hayotiylik, samimiylik va falsafiy teranlik bilan ajralib turadi. Yozuvchi inson qalbini tashqi harakatlardan ko'ra ichki iztiroblar orqali ochishga intiladi. Bu jihat ayniqsa "Odam" hikoyasida yorqin namoyon bo'ladi.

"Odam" hikoyasidagi Rahima obrazi o'zbek ayolining sabr-bardoshi, sadoqati va matonatini ifodalovchi yuksak badiiy obrazdir. Rahimaning butun umri yo'qotishlar, ayriliqlar va iztiroblar bilan kechadi. U turmush o'rtog'idan erta ayriladi, farzandlarining ayrimlarini yo'qotadi, biroq hayot sinovlari oldida bukilmaydi. Yozuvchi qahramon ruhiyatini tasvirlashda ortiqcha pafos yoki sun'iy dramatizmdan qochadi. Aksincha, oddiy va tabiiy detallar orqali inson qalbidagi cheksiz iztiroblarni ko'rsatishga erishadi.

Rahimaning: "Polvon meni qulflab ketgan, kaliti o'zida", degan jumlasi uning ruhiy sadoqati va umrboqiy muhabbatining ramziy ifodasidir. Bu birgina detal orqali yozuvchi ayol qalbidagi vafodorlik va ichki poklikni chuqur ochib beradi. Hikoya oxirida qahramonning hayotidan rozi holda ko'z yumishi esa insoniy qanoat va ruhiy poklanish falsafasini anglatadi.

Adibning "Tabassum" hikoyasi esa inson ruhiyatidagi murakkab ziddiyatlarni tarixiy voqealar fonida yoritishi bilan ahamiyatlidir. Hikoyada millat, vatan, sadoqat va xiyonat kabi tushunchalar psixologik jihatdan talqin qilinadi. Quyun qo'rboshi obrazi orqali yozuvchi avvalgi mafkuraviy stereotiplardan voz kechib, tarixiy shaxsga xolis baho berishga intiladi.

Quyun qo'rboshining: "Men dunyoda qasamdan qo'rqaman", degan so'zlari uning ruhiy olami va ma'naviy e'tiqodini ochib beruvchi muhim psixologik detal hisoblanadi. Yozuvchi qahramonning ichki iztiroblarini tashqi dramatik harakatlardan ko'ra ruhiy kechinmalar orqali ifodalaydi. Bu esa hikoyaning psixologik ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ichki monolog usuli ham muhim badiiy vosita sifatida qo'llanadi. Qahramonlarning o'z-o'zi bilan suhbatlari, xotiralari va ichki iztiroblari orqali ularning ruhiy holati tabiiy ochiladi. Yozuvchi inson qalbidagi eng nozik hissiyotlarni tasvirlashda badiiy detal, portret, ramz va tabiat tasviridan mahorat bilan foydalanadi.

Masalan, "Tabassum" hikoyasida bemor Jalil otaning derazadan qarab eski yong'oq daraxtiga nigoh tashlashi oddiy tasvir emas. Bu detal inson umrining o'tkinchiligi, vaqtning shafqatsiz oqimi va hayotning foniyligini ifodalovchi psixologik ramzdir. Shu jihatdan yozuvchi tabiat tasvirlarini ham qahramon ruhiyati bilan uyg'unlashtira oladi.

Adib hikoyalarining yana bir muhim jihati shundaki, ularda inson faqat ijtimoiy mavjudot sifatida emas, balki murakkab ruhiy dunyo egasi sifatida tasvirlanadi. Qahramonlarning ongli va ongsiz kechinmalari, ichki ziddiyatlari va ma'naviy izlanishlari psixologik tahlil markaziga chiqadi. Bu esa Shukur Xolmirzayev hikoyalarini zamonaviy o'zbek psixologik nasrining yuksak namunalaridan biriga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev hikoyalari o'zbek adabiyotida inson ruhiyatini chuqur va teran badiiy tadqiq etgan asarlar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Adib o'z ijodida insonning tashqi faoliyatidan ko'ra uning ichki olamiga, qalb kechinmalariga, ruhiy iztiroblariga va ma'naviy olamiga ko'proq e'tibor qaratadi. Shu jihatdan yozuvchi hikoyalari o'zbek psixologik nasrining yuksak namunalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Yozuvchi qahramonlar ruhiyatini sun'iy dramatizm yoki ortiqcha tasvirlarsiz, tabiiy va hayotiy shaklda yoritishga erishadi. Natijada kitobxon qahramonlarning ichki dunyosini chuqur his qiladi, ularning ruhiy holati bilan yashaydi va mushohada yuritishga undaladi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarining asosiy badiiy xususiyatlaridan biri inson qalbining eng nozik qatlamlarini ochib bera olishidadir. Adib qahramonlarning ruhiy kechinmalarini oddiy voqealar tasviri orqali emas, balki ichki monolog, psixologik detal, xotira, ong oqimi, ramziy obraz va falsafiy mushohada vositasida ifodalaydi. Bu esa hikoyalarning estetik ta'sirchanligini oshirib, ularga chuqur psixologik mazmun bag'ishlaydi. Yozuvchi inson ruhiyatidagi murakkab ziddiyatlarni, vijdon azobi, armon, yolg'izlik, sog'inch, iztirob va ichki kurashlarni tabiiy badiiy vositalar orqali yoritadi.

"Odam" hikoyasida Rahima obrazi orqali o'zbek ayolining sabr-toqati, sadoqati, matonati va ruhiy bardoshi yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Rahimaning umr davomida boshidan kechirgan sinovlari, yo'qotishlari va ruhiy iztiroblari inson taqdirining murakkabligi hamda hayot falsafasini chuqur anglashga xizmat qiladi. Yozuvchi birgina inson hayoti misolida butun bir davr ruhiyatini, o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasini va insoniy sabr timsolini gavdalantira olgan. Hikoyadagi ruhiy holatlarning tabiiyligi va samimiyligi asarning psixologik ta'sir kuchini yanada oshiradi.

"Tabassum" hikoyasi esa yozuvchining inson ruhiyati va tarixiy haqiqatga bo'lgan munosabatini yoritishda muhim o'rin tutadi. Hikoyada insonning e'tiqodi, vijdoni, sadoqati va ma'naviy tanlovi masalalari markaziy o'ringa chiqadi. Quyun qo'rboshi, Jalil ota, Mo'min kabi obrazlar orqali inson xarakterining turli qirralari ochib beriladi. Yozuvchi qahramonlarning ichki dunyosini ularning hayotga, Vatanga, haqiqatga va insoniy qadriyatlarga munosabati orqali ochadi. Ayniqsa, qasam detali hikoyada muhim psixologik vosita sifatida xizmat qilib, qahramonlarning ma'naviy qiyofasini ochishda muhim badiiy funksiyani bajaradi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida inson ruhiyati ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi. Adib qahramonlarining ichki kechinmalari ko'pincha zamon ziddiyatlari, tarixiy voqealar va ijtimoiy muammolar ta'sirida shakllanadi. Shu sababli yozuvchi hikoyalarida psixologik tasvir faqat individual ruhiyatni emas,

balki davrning ma'naviy-ijtimoiy muammolarini ham ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa adib asarlarining ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Yozuvchi uslubining muhim jihatlaridan biri uning sodda, tabiiy va samimiy badiiy tilidan iboratdir. Shukur Xolmirzayev ortiqcha bezakdorlik yoki sun'iy murakkablikka berilmaydi. U qisqa, lo'nda va ta'sirchan ifodalar orqali qahramon ruhiyatini ochib bera oladi. Aynan shu xususiyat adib hikoyalarining hayotiyligini va kitobxon qalbiga yaqinligini ta'minlaydi. Yozuvchining badiiy mahorati inson ruhiyatidagi eng nozik holatlarni oddiy detal yoki birgina psixologik ishora orqali ifodalay olishida ham namoyon bo'ladi.

Shuningdek, Shukur Xolmirzayev hikoyalarida milliy xarakter va milliy ruh masalalari ham muhim o'rin egallaydi. Adib qahramonlari orqali o'zbek xalqiga xos sadoqat, or-nomus, vijdon, bag'rikenglik, matonat va insoniylik kabi fazilatlar yoritiladi. Yozuvchi milliy xarakter masalasini shunchaki tashqi belgilar orqali emas, balki insonning ruhiy dunyosi, ma'naviy qarashlari va hayotiy tanlovi orqali ochib beradi. Bu esa adib ijodining milliy va umuminsoniy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Umuman olganda, Shukur Xolmirzayev ijodi o'zbek psixologik nasrining rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Yozuvchi hikoyalari inson ruhiyatini badiiy tadqiq etish, qalb kechinmalarini estetik talqin qilish va psixologik tasvir poetikasini o'rganishda muhim ilmiy-estetik manba vazifasini bajaradi. Adib asarlarida inson qalbi murakkab va sirli olam sifatida talqin qilinib, ruhiyatning nozik tovlanishlari yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etilgan.

Shu bois Shukur Xolmirzayev hikoyalarini psixologizm, badiiy tafakkur, milliy xarakter va zamonaviy o'zbek hikoyachiligi taraqqiyoti nuqtai nazaridan tadqiq etish bugungi adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Uning hikoyalari nafaqat badiiy-estetik qiymati, balki inson ma'naviyati va ruhiy olamini anglashdagi ahamiyati bilan ham o'zbek adabiyotining bebaho namunalaridan biri sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshonqulov J. Badiiy tafakkur va ruhiyat talqini. – Toshkent: Fan, 2005. – 214 b.

2. Jo'raqulov U. Ong oqimi va badiiy tafakkur. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 176 b.

3. Jo'rayev T. Psixologik tasvir poetikasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 198 b.

4. Hamdamov U. XX asr o'zbek adabiyoti tafakkur tadriji. – Toshkent: Sharq, 2007. – 256 b.

5. Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 5 jildlik. – Toshkent: Sharq, 2005.

6. Solijonov Y. Hozirgi o'zbek hikoyachiligi va psixologizm. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 224 b.

7. Qo'shjonov M. Adabiyot va ruhiyat. – Toshkent: O'qituvchi, 1998. – 187 b.

8. Karimov N. *XX asr o'zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 512 b.